RS-485 interfeys kanallari soni	1
Interfeys optik kanallari soni	2
Maksimal ma'lumotlarni uzatish tezligi, bps	2304000
Optik kabel turi	multimod
To'lqin uzunligi, nm	1310
Optik ulagichning turi	ST

“EMIKON” YOAJ tomonidan ishlab chiqarilgan modullar asosida qurilgan kontrollerlar yordamida import qilinadigan mahsulotlardan foydalanmasdan ko'p bosqichli avtomatlashtirish tizimlarini yaratish mumkin.



3-rasm. Ikki avtobus tashkiloti bilan ortiqcha markaziy boshqaruvchi

EMICON kontrollerlari turli sohalardagi korxonalarda - neft va gaz, neft-kimyo, yadro, metallurgiya, raketa-kosmik va boshqalarda murakkab va muhim avtomatlashtirish tizimlarida keng qo'llaniladi.

Xulosa. Zamonaviy sanoat PLClar ushbu qurilmalarni eng muhim obyektlarda ishlatishga imkon beruvchi afzalliklarga ega:

-haqiqiy sanoat muhitida mikroelektronik komponentlarning kontaktlarning zanglashiga olib keladigan yuqori nosozliklarga chidamliligi kuchli elektrostatik razryadlar, vaqtinchalik jarayonlar natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan kuchlanishning ko'tarilishi va elektromagnit buzilishlar bilan tavsiflanadi.

-asosiy boshqaruvchi ishlaymay qolganda zaxira boshqaruvchiga kechikishsiz o'tish bilan ortiqcha avtomatlashtirish tizimlarini, shuningdek, texnologik favqulotda vaziyatlarda halokatli oqibatlarni istisno qiladigan xavfsiz boshqaruv tizimlarining yaratilish imkoniyatini beradi.

ADABIYOTLAR:

1. Автоматизированная система поддержания заданных условий транспортирования космических аппаратов к месту старта. /Е. Песляк, Г. Воронович. // СТА. – 2013. – № 3. – С. 50–55.

2. Латышев В.А. Моделирование элементов процессорных систем управления технологическим оборудованием // Технологические системы и техника. Первая электронная международная научно-техническая конференция. Сб. тр. – Тула, 2002. – 372 с.

3. Наземная инфраструктура / Система эксплуатации. Состояние и перспективы развития. – [Электронный ресурс] – Режим доступа. – URL: <http://www.sovkos.ru/cosmos/information/561.html>

4. Технологические объекты наземной инфраструктуры ракетно-космической техники / Инженерное пособие, книга 3; под ред. И.В. Бармина. – М., 2012. – 251 с.

5. Чернышева Т.Ю., Удаляя Т.В. Оценка риска проекта информатизации на основе производственных правил// Научное обозрение. – 2013. – № 5. – С. 169–172.

6. PLC History. – [Электронный ресурс] – Режим доступа. – URL: <http://www.plcs.net/chapters/history2.htm>

7. SIMATIC Industrial Automation Systems. – [Электронный ресурс] – Режим доступа. – URL: <http://www.automation.siemens.com/mcms/automation/en/Pages/Default.aspx>

**MANBASIZ TURLI MATERIALLI BIR O'LCHOVLI SOHALARDA ISSIQLIK
TARQALISHINI SONLI O'RGANISH**

Jumayev Jo'ra,
Buxoro davlat universiteti dotsenti
j.jumayev @buxdu.uz
Fatilloeva Mavluda Nurulloyevna,
Buxoro davlat universiteti magistranti

Annotatsiya. Maqolada ichki manbaga ega bo'lmagan bir o'lchovli turli materialli sohalarda issiqlik tarqalish masalasi sonli o'rganilgan. Buning uchun bir o'lchovli holdagi issiqlik tarqalish tenglamasi boshlang'ich va chegaraviy shartlarni hisobga olgan holda oshkormas holda chekli ayirmalarda yozilib, haydash usulidan foydalanilgan. Tuzilgan algoritim DELPHI muhitida dasturlashtirilib, grafiklarni chizish uchun MathCAD tizimidan foydalanilgan. Turli xossalarga ega bo'lgan materiallarda turli temperatura va vaqt mobaynida issiqlik tarqalish masalasi o'rganilib, tegishli xulosalar chiqarilgan.

Kalit so'zlar: Modellashtirish, issiqlik oqimi, issiqlik tarqalish tenglamasi, issiqlik o'tkazish koeffisienti, zichlik, solishtirma issiqlik sig'imi, chekli ayirmalar, haydash usuli, nostasionar masala, kompyuter modeli, matematik model, xususiy hosilali differensial tenglama.

**ЧИСЛЕННОЕ ИЗУЧЕНИЕ ТЕПЛОТДАЧИ НА ОДНОМЕРНЫХ ОБЛАСТИ С
РАЗЛИЧНЫМИ МАТЕРИАЛАМИ БЕЗ ИСТОЧНИКА**

Аннотация. В статье численно изучена задача теплопроводности без внутренних источников для разных материалов. Для этого одномерное уравнение теплопроводности записано неявно в конечных разностях, и применён метод прогонки. Составленный алгоритм реализован в среде DELPHI, для рисования графиков использована система MathCAD. Изучен процесс теплопроводности для разных материалов с разными свойствами, и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: моделирование, тепловой поток, уравнение теплопроводности, коэффициент теплопроводности, плотность, теплоемкость, конечные разности, метод прогонки, нестационарная задача, компьютерный модель, математический модель, уравнение в частных производных.

**NUMERICAL STUDY OF HEAT DISSIPATION IN ONE-DIMENSIONAL AREAS WITH
DIFFERENT MATERIALS WITHOUT A SOURCE**

Abstract. The article numerically studies the problem of heat conduction without internal sources for different materials. To do this, the one-dimensional heat equation is written implicitly infinite differences and the sweep method is used. The compiled algorithm was implemented in the DELPHI environment the MathCAD system was used to draw graphs. The process of heat transfer for different materials with different properties has been studied and appropriate conclusions have been drawn.

Keywords: modeling, heat flow, heat equation, thermal conductivity coefficient, density, heat capacity, infinite differences, sweep method, unsteady problem, computer model, mathematical model, partial differential equation.

Kirish. Modellashtirish bilan obyektlari (fizik hodisa va jarayonlar)ni ularning modellari yordamida tadqiq qilish, mavjud narsa va hodisalarning modellarni yasash va o'rganishdan iboratdir.

Qishloq xo'jaligi va sanoatning turli sohalarda issiqlik tarqalish jarayonlari uchraydi. Issiqlik tarqalish jarayonlarini o'rganish issiqlikni hosil qiluvchi energiya manbalarini tejash masalalari bilan chambarchas bog'liq [1]. Bunda qurilmalarda tajribalar sanoqli hollarda o'tkaziladi, tajribalar katta xarajatlar talab qiladi. Ayrim tajribalarni o'tkazish esa juda murakkab hisoblanadi. Ana shunday paytlarda bu jarayonlarni matematik modellashtirish yaxshi samara beradi [1-2]. Matematik model asosida olingan natijalar loyihachilarga obyekt va jarayonlar haqida to'liq tasavvur olishga yordam beradi.


Modellashtirish uslubidan hozirgi zamon fanidan keng foydalanilmoqda. U ilmiy-tadqiqot jarayonini osonlashtiradi, ba'zi hollarda esa murakkab obyektlarini o'rganishning yagona vositasiga aylanadi. Modellashtirish, ayniqsa, mavhum obyektlarni, olis-olislarda joylashgan obyektlarni, juda kichik hajmli obyektlarni o'rganishda ahamiyati kattadir. Modellashtirish uslubidan fizik, astronomik, biologik, iqtisod uchun ham foydalaniladi [3].

Tadqiqotlarda issiqlik tarqalish masalalari [4-8] ishlarda ko'rilgan. Bunda deyarli barcha hollarda issiqlik tarqalish masalasi umumiy holda ko'rilgan, jarayon kechadigan muhit tabiati hisobga olinmagan. Tanlangan matematik model va uni yechish usullari qanchalik ahamiyatga ega bo'lsa, ana shu boshlang'ich ma'lumotlar ham shunchalik ahamiyatga egadir.

Amaliyotda teplotexnik hisoblar jarayonida silindrik yoki sferik simmetriyaga ega bir o'lchovli masalalarni yechish zarurati tug'iladi. Masalan, uzun silindrning sovushi haqidagi masala yoki quvursimon kanallarning issiqlik holatini tahlil qilish masalalarini olish mumkin. Bu kabi jarayonlar hisoblash qurilmalari, turar joylardagi devorlar kabilarda uchraydi. Shuning uchun ham issiqlik tarqalish obyektining aniq xususiyatlarini hisobga olib bunday jarayonlarni modellashtirish dolzarb masaladir.

Metodika. Tekis cheksiz plastinka yoki tashqi muhit bilan issiqlik almashmaydigan (izolyatsiyalangan) sterjen orqali issiqlik uzatilishini tahlil qilamiz.

Ingichka silindrik formadagi uzunligi L bo'lgan bir jinsli sterjenda issiqlik tarqalish masalasini qaraylik. Ushbu sterjenning ikki chekkasi issiqlik o'tkazmaydigan bo'lishi, yoki biror qoidaga asosan biror issiqlik oqimi berilishi mumkin (1-chizma). Buni chegaraviy shartlarda beriladi.



1-chizma. Masalaning geometrik berilishi

Bir o'lchovli holda issiqlik o'tkazish tenglamasi quyidagi ko'rinishga ega:

$$c\rho \frac{\partial T}{\partial t} = \frac{\partial}{\partial x} \left(\lambda \frac{\partial T}{\partial x} \right) + Q(x), \quad 0 < x < l; t > 0, \quad (1)$$

bu yerda, c va ρ mos ravishda moddaning issiqlik sig'imi va zichligi, λ - issiqlik o'tkazuvchanlik koefitsiyenti, $Q(x)$ – sterjenga qo'yilishi mumkin bo'lgan issiqlik manbasi.

Boshlang'ich shart:

$$t := 0: T = T_0, \quad 0 \leq x \leq L;$$

Chegaraviy shartlar:

$$\begin{cases} x = 0: T = T_l, t > 0; \\ x = L: T = T_r, t > 0; \end{cases} \quad (2)$$

Agar issiqlik o'tkazuvchanlik koefitsiyenti λ ni soddalik uchun o'zgarmas deb olsak (1) tenglama quyidagi ko'rinishga keladi:

$$\rho c \frac{\partial T}{\partial t} = \lambda \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + Q(x), \quad 0 < x < L,$$

Ushbu tenglamani ikki tomonini ρc ga bo'lib quyidagi ko'rinishda yozib olamiz:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = \frac{\lambda}{\rho c} \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} + \frac{Q(x)}{\rho c} \quad (3)$$

Endi bu tenglamada o'lchov birliklari to'g'ri ekanini tekshirib ko'ramiz:

Buning uchun tenglamadagi har bir hadni o'lchov birliklarini yozib olamiz:

Temperatura uchun $^{\circ}\text{C}$, vaqt uchun s , λ uchun $\text{Bt}/(\text{m}\cdot^{\circ}\text{C})$, ρ uchun kg/m^3 , c solishtirma

issiqlik sig'imi uchun $J/(\text{kg}\cdot^{\circ}\text{C})$, x koordinata uchun m , $Q(x)$ issiqlik manbasi uchun $\frac{\text{kg}}{m\cdot s^3}$.

Adabiyotlardan ma'lumki, Bt birligi $\frac{\text{kg}\cdot\text{m}^2}{s^3}$. U holda λ ning birligi quyidagiga teng:

$$\lambda \rightarrow \text{Bt}/(\text{m}\cdot^{\circ}\text{C}) \rightarrow \frac{\text{kg}\cdot\text{m}^2}{s^3}/(\text{m}\cdot^{\circ}\text{C}) \rightarrow \frac{\text{kg}\cdot\text{m}}{s^3\cdot^{\circ}\text{C}}$$

Issiqlik sig'imidagi J ning birligi quyidagicha:

$$J \rightarrow H\cdot m \rightarrow \frac{\text{kg}\cdot\text{m}}{s^2}\cdot m \rightarrow \frac{\text{kg}\cdot\text{m}^2}{s^2}$$

U holda issiqlik sig'imi c ning birligi quyidagicha bo'ladi:

$$c \rightarrow \frac{\frac{\text{kg}\cdot\text{m}^2}{s^2}}{(\text{kg}\cdot^{\circ}\text{C})} \rightarrow \frac{\text{m}^2}{s^2\cdot^{\circ}\text{C}}$$

Endi (3)-tenglamadagi $\frac{\lambda}{\rho c}$ hadning birligini yuqorida keltirilganlardan foydalanib chiqaramiz:

$$\frac{\lambda}{\rho c} \rightarrow \frac{Vt/(\text{m}\cdot^{\circ}\text{C})}{(\text{kg}/\text{m}^3)\cdot(Vt\cdot s)/(\text{kg}\cdot^{\circ}\text{C})} = \frac{\text{m}^2}{s}$$

Bundan kelib chiqadiki, haqiqatan ham $\frac{\lambda}{\rho c}$ ning o'lchov birligi $\frac{\text{m}^2}{s}$ ekan va adabiyotlarda $\frac{\lambda}{\rho c} = \alpha$

kabi belgilanib, temperatura o'tkazish koeffisienti deb ataladi.

Endi $\frac{Q(x)}{\rho c}$ uchun birlikni chiqaramiz:

$$\frac{Q(x)}{\rho c} \rightarrow \frac{\frac{\text{kg}}{m\cdot s^3}}{\frac{\text{kg}}{m^3}\cdot\frac{\text{m}^2}{s^2\cdot^{\circ}\text{C}}} \rightarrow \frac{^{\circ}\text{C}}{s}$$

Endi $\frac{\partial T}{\partial t}$ uchun birlikni chiqaramiz: $\frac{\partial T}{\partial t} \rightarrow \frac{^{\circ}\text{C}}{s}$

Endi $\frac{\lambda}{\rho c} \frac{\partial^2 T}{\partial x^2}$ had uchun birlikni chiqaramiz:

$$\frac{\lambda}{\rho c} \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} \rightarrow \frac{\text{m}^2}{s} \cdot \frac{^{\circ}\text{C}}{\text{m}^2} \rightarrow \frac{^{\circ}\text{C}}{s}$$

Yuqoridagilardan ko'rinadiki, (3) tenglamadagi barcha hadlarning birligi bir xil, ya'ni $\frac{^{\circ}\text{C}}{s}$ kabi chiqdi.

Endi (3) ning to'la matematik tavsifini berish uchun bu tenglamaga geometrik, fizik, boshlang'ich va chegaraviy shartlarni o'z ichiga olgan bir qiymatlilik shartlarini qo'shimcha kiritish zarur.

O'rganilayotgan jarayon uchun geometrik shartlar jismning shakli va o'lchamlarini aniqlab beradi. Fizik shartlar esa jismning - teplofizik xarakteristikalarini aniqlab beradi. Vaqt bo'yicha boshlang'ich shartlar boshlang'ich vaqt momentida jismda temperaturaning taqsimlanishini ifodalab beradi.

Qaralayotgan masalaning to'la matematik qo'yilishini berish uchun bir qiymatlilikning fizik shartlarini ham berish zarur.

Endi biz ko'rayotgan sterjen uchun ishlatiladigan biror bir material, masalan, temir uchun temperatura o'tkazish koeffisientini hisoblaymiz. Temir uchun $\frac{\lambda}{\rho c}$ dagi hadlarning qiymatlari quyidagiga teng :

$$\lambda = 46 \text{ Bt} / (m \cdot ^\circ\text{C}), \rho = 7800 \text{ kg} / m^3, c = 460 \text{ J} / (kg \cdot ^\circ\text{C})$$

Bu yerda Vt –Batt, issiqlik oqimi quvvati; m –metr, sterjen uzunligi;

$\lambda = 46 \text{ Bt} / (m \cdot ^\circ\text{C}), \rho = 7800 \text{ kg} / m^3, c = 460 \text{ J} / (kg \cdot ^\circ\text{C})$ -temperatura, issiqlik o'lchovi; ρ – zichlik; c – materialning solishtirma issiqlik sig'imi; J – issiqlik bajaradigan ish o'lchovi, $J = Vt \cdot s$, bu yerda s –sekund, vaqt birligi.

Ushbu qiymatlarni $\frac{\lambda}{\rho c}$ ga qo'yib topamiz:

$$\frac{46}{7800 \cdot 460} = 1,282 \cdot 10^{-5}$$

Demak, temir uchun temperatura o'tkazish koeffisienti $1,282 \cdot 10^{-5} m^2 / s$ ga teng ekan.

Oddiy g'isht uchun $\frac{\lambda}{\rho c}$ dagi hadlarning qiymatlari quyidagiga teng :

$$\lambda = 0,7 \text{ Bt} / (m \cdot ^\circ\text{C}), \rho = 1500 \text{ kg} / m^3, c = 750 \text{ J} / (kg \cdot ^\circ\text{C})$$

Ushbu qiymatlarni $\frac{\lambda}{\rho c}$ ga qo'yib topamiz:

$$\frac{0,7}{1500 \cdot 750} = 6,2 \cdot 10^{-7}$$

Demak, oddiy g'isht uchun temperatura o'tkazish koeffisienti $6,2 \cdot 10^{-7} m^2 / s$ ga teng ekan.

Xuddi shuningdek, mis uchun $\frac{\lambda}{\rho c}$ dagi hadlarning qiymatlari quyidagiga teng :

$$\lambda = 384 \text{ Bt} / (m \cdot ^\circ\text{C}), \rho = 8800 \text{ kg} / m^3, c = 381 \text{ J} / (kg \cdot ^\circ\text{C})$$

Ushbu qiymatlarni $\frac{\lambda}{\rho c}$ ga qo'yib topamiz:

$$\frac{381}{8800 \cdot 3810} = 0,00015$$

Endi masalani yechish uchun jarayon obyekti bo'lgan sterjenni uzunligi bo'yicha N-1 ta teng kesmalarga bo'lamiz va tugun nuqtalarni aniqlaymiz.

i – chi tugundagi temperaturaning $t = t_n = n \cdot \tau$ vaqt momentidagi qiymatini $T(x_i, t_i) = T_i^n$ kabi aniqlaymiz. Bu yerda τ – vaqt koordinatasi bo'yicha integrallash qadami; n – vaqt bo'yicha qadam nomeri.

Ushbu tadqiqot ishida jarayonda qoshimcha issiqlik manbasi yo'q bo'lgan holni, ya'ni $Q(x) = 0$ holni qaraymiz. (1) tenglamadagi differensial operatorlarni ularning chekli ayirmali analoglari bilan almashtiramiz. Bunda oshkormas sxemadan foydalanamiz [9-10]:

$$\frac{\partial T}{\partial t} = \frac{T_i^{n+1} - T_i^n}{\tau}, \quad \frac{\partial^2 T}{\partial x^2} = \frac{T_{i+1}^{n+1} - 2T_i^{n+1} + T_{i-1}^{n+1}}{h^2}$$


Xususiy hosilalarni mos chekli ayirmalar bilan almashtirish natijasida quyidagi chiziqli algebraik tenglamalar sistemasini hosil qilamiz:

$$\rho c \frac{T_i^{n+1} - T_i^n}{\tau} = \lambda \left(\frac{T_{i+1}^{n+1} - 2T_i^{n+1} + T_{i-1}^{n+1}}{h^2} \right), \quad i = 2, 3, \dots, N-1, n \geq 0 \quad (4)$$

Bu yerda $N - x$ o'qi bo'ylab olingan tugun nuqtalar soni.

Xususiy hosilalarni aproksimatsiyalashning tanlangan sxemasini grafik ko'rinishda 2-chizmadagidek tasvirlash mumkin.

2-chizma foydalanilayotgan to'rt nuqtali oshkormas ayirmali sxemada yangi vaqt qatlamida uchta nuqta va eski vaqt qatlamida esa bitta nuqta olinayotganini yaqqol ko'rsatadi.



2-chizma. To'rt nuqtali, ikki qatlamli oshkormas sxema shabloni

Hosilalarni bunday aproksimatsiyalash uslubi oshkormas deb atalishiga sabab vaqtning yangi qatlamidagi temperaturalar maydoni oshkormas ifodalangan, ya'ni ularni aniqlash uchun progonka(haydash) usulidan foydalaniladi.

(4)-tenglikda shakl almashtirish ishlarini bajarib, quyidagicha umumiy ko'rinishga keltirish mumkin:

$$A_i \cdot T_{i+1}^{n+1} - B_i \cdot T_i^{n+1} + C_i \cdot T_{i-1}^{n+1} = F_i \quad i = 1, \dots, N-1 \quad (5)$$

bu yerda

$$A_i = C_i = \frac{\lambda}{h^2}, \quad B_i = \frac{2\lambda}{h^2} + \frac{\rho c}{\tau}, \quad F_i = -\frac{\rho c}{\tau} T_i^n$$

(5) sistema uch diagonalli tuzilmaga ega. Shuning uchun nostatsionar masala qaralayotganligi sababli (5) sistemani har bir vaqt qadamida yechish zarur.

Faraz qilaylik, shunday α_i va β_i ($i = 1, 2, \dots, N-1$) sonlar ketma-ketligi mavjudki, ular uchun

$$T_{i-1}^{n+1} = \alpha_{i-1} \cdot T_i^{n+1} + \beta_{i-1} \quad (6)$$

tenglik o'rinli, ya'ni ikki qatlamli to'rt nuqtali (4) tenglama birinchi tartibli ikki nuqtali (6) tenglamaga aylanadi. (6) tenglikda indeksni bittaga kamaytiramiz va hosil bo'lgan ushbu $T_{i-1}^{n+1} = \alpha_{i-1} \cdot T_i^{n+1} + \beta_{i-1}$ ifodani (5) tenglamaga qo'yamiz:

$$A_i \cdot T_{i+1}^{n+1} - B_i \cdot T_i^{n+1} + C_i \cdot \alpha_{i-1} \cdot T_i^{n+1} + C_i \cdot \beta_{i-1} = F_i,$$

bu yerdan esa

$$T_i^{n+1} = \frac{A_i}{B_i - C_i \cdot \alpha_{i-1}} T_{i+1}^{n+1} + \frac{C_i \cdot \beta_{i-1} - F_i}{B_i - C_i \cdot \alpha_{i-1}} \quad (7)$$

ko'rinishni olamiz.

Oxirgi (7) tenglikni (6) bilan solishtirganda barcha $i = 2, 3, \dots, N-1$ lar uchun α_i va β_i lar quyidagiga teng bo'ladi:

$$\alpha_i = \frac{A_i}{B_i - C_i \cdot \alpha_{i-1}}, \quad \beta_i = \frac{C_i \cdot \beta_{i-1} - F_i}{B_i - C_i \cdot \alpha_{i-1}}. \quad (8)$$

(8) ni hisobga olganda (7) quyidagi ko'rinishni oladi:

$$T_i^{n+1} = \alpha_i T_{i+1}^{n+1} + \beta_i \quad (9)$$

Progonka(haydash) usulining to'g'ri yo'lida $i = 1, 2, 3, \dots, n-1$ lar uchun α_i va β_i lar topib olinadi.

Bunda $i = 1$ da α_1 va β_1 chap chegaraviy shartdan topiladi.

Endi haydash usulini quyidagicha qo'llaymiz.

(2) dan chap chegarada $x = 0$: $T = T_l$, $t > 0$. U holda (9) ga $i = 1$ ni qoyib olamiz:

$$T_1^{n+1} = \alpha_1 T_2^{n+1} + \beta_1 \quad (10)$$

Bundan

$\alpha_1 = 0$, $\beta_1 = T_l$ bo'lishi kelib chiqadi.

(10)ni hisobga olgan holda $i = 2, 3, \dots, N-1$ lar uchun (9) yordamida α_i va β_i lar topib olinadi.

(2) dan o'ng chegarada $x = L$: $T_N = T_r$ ma'lum. Agar (9) da $i = N-1$ desak


$$T_{N-1}^{n+1} = \alpha_N T_N^{n+1} + \beta_N \quad (11)$$

(11) dagi T_N^{n+1} - chegaraviy shartdan topilgan, $i = 2, 3, \dots, N-1$ lar uchun (9) yordamida α_i va β_i lar topib olingan, demak endi haydash usulining teskari yo'nalishida $i = N-1, \dots, 1$ qiymatlarida (9) yordamida T_i^{n+1} lar topib olinadi.

Shunday qilib, (5) ko'rinishdagi tenglamalar sistemasining yechimini yuqoridagidek izlash uslubi haydash (progonka) usuli deb atalib, uchta formula bo'yicha hisoblashlarga olib kelinadi: (10) formula yordamida chap chegaradagi shart yordamida progonka koeffitsiyentlari deb ataluvchi α_1 va β_1 lar va (8) yordamida ($i = 2, 3, \dots, N-1$) larda α_i va β_i lar (to'g'ri progonka) va keyin esa (9) formula bo'yicha T_i^{n+1} ($i = N-1, N-2, \dots, 2$) noma'lumlar topiladi.


Ushbu algoritm bo'yicha dasturiy mahsulot Delphi tilida yaratildi [11] va natijalar massivlarga yozilib, Mathcad matematik paketida grafiklar olindi [12-15].

3-chizmada materiali temir bo'lgan va uzunligi bir metr bo'lgan sterjenda temperatura tarqalish jarayoni vaqtning turli momentlarida keltirilgan. Chizmadan ko'rinadiki, agar sterjen uchida 40°C , orasida 20°C temperatura qo'yilgan bo'lsa, taxminan 15 minutlardan keyin chap chegaradan qo'yilgan issiqlik sterjen o'rtasida seziladi.



3-chizma. Materiali temir bo'lgan bir metrli sterjenda 1 minut, 5 minut, 15 minut o'tgandan so'ng issiqlik tarqalish jarayoni

Turli materiallarda issiqlik tarqalish jarayoni ko'rinishini 4-chizmada ko'rish mumkin. 4-chizmadagi birinchi grafikda temir moddali sterjenda, ikkinchi grafikda esa mis moddali sterjenda issiqlik tarqalish jarayoni keltirilgan. Chizmadagi grafiklardan ko'rinadiki, mis materialli sterjenda issiqlik tarqalish tezligi ancha katta.



4-chizma. Temir va mis materialli sterjenlarda issiqlik tarqalish jarayonini 5 minutdan va 15 minutdan so'ng taqqoslash

Xulosa. Ushbu maqolada ichki manbalarga ega bo'lmagan bir o'lchovli sohada issiqlik tarqalish masalasi soha materiali termodinamik xossalarini hisobga olgan holda nazariy o'rganilgan. Bunda matematik model sifatida nostasionar issiqlik tarqalish tenglamasi oshkormas shablonli chekli ayirmalarda yozilib, hosil qilingan tenglamalar sistemasi boshlang'ich va chegaraviy shartlarni hisobga olgan holda haydash usulida yechilgan. Boshlang'ich ma'lumotlar sifatida temir va mis moddalari kattaliklaridan foydalanilgan va ana shu materialli bir o'lchovli sohalarda bo'layotgan jarayonlar bir-biri bilan solishtirilgan. Tuzilgan algoritm va dasturiy ta'minotdan issiqlik tarqalish bor bo'lgan amaliy masalalarda foydalanish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Zohidov R.A., Alimova M.M., Mavjudova Sh.S. *Issiqlik texnikasi. Darslik. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati". 2010. -200 b.*
2. *Разностные методы решения задач теплопроводности: учебное пособие. / Г.В. Кузнецов, М.А. Шеремет. – Томск: Изд-во ТПУ, 2007. – 172 с.*
3. Дьяконов В.Г., Лонцаков О.А. *Основы теплопередачи. Учебное пособие//КНИТУ, Казань, 2011. -230 с.*
4. Рындин Е.А., Куликова И.В., Лысенко И.Е. *Основы численных методов: теория и практика// Электронное учебное пособие. Таганрог. 2015. 216 с.*
5. Андерсон Д., Таннехилл Дж., Плетчер Р. *Вычислительная гидромеханика и теплообмен. В 2-х томах. М: «Мир», 1990. 344 с.*
6. Jumayev J., Mustapakulov Ya., Kuldoshev H. *Numerical algorithm for modeling turbulence in a jet with diffusion combustion// 14th international Conference on Application of information and Communication technologies(AICT). Conference Proceedings.(Tashkent, 7-9 okt. 2020). pp. 1-4 DOI 10.1109/AICT50176.2020.9368857*
7. Jumayev J., Shirinov Z., Kuldoshev H. *Computer simulation of the convection process near a vertically located source//International conference on information Science and Communications Technologies (ICISCT) 4-6 november. 2019. Tashkent. Conference Proceedings. pp.635-638. DOI: 10.1109/ICISCT47635.2019.9012046*
8. Жумаев Ж., Тошева М.М. *Моделирование стационарной теплопроводности при свободной конвекции в ограниченном объеме// Universum. Технические науки. Выпуск 4(97). Апрель, 2022. Часть 3. С. 34-38. <http://7universum.com/ru/tech/archive/category/497>*
9. Бейбалиев В.Д., Шабанова М.Р. *Численный метод решения краевой задачи для двумерного уравнения теплопроводности с производными дробного порядка//Вест. Сам.гос.техн.ун-та. Сер.физ.мат.науки. -2010. -№ 5(21). –с. 244-251.*
10. Крайнов А.Ю., Рыжих Ю.Н., Тимохин А.М. *Численные методы в задачах теплопереноса: учебно-методическое пособие. Томск. Том. ун-т, 2009. 114 с.*
11. Nazirov Sh.A., Musayev M.M. va b. *Delphi tilida dasturlash asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent. "G'afur-G'ulom", 2008. 277 bet.*
12. Охорзин В.А. *Прикладная математика в системе MATHCAD: Учебное пособие.-СПб.: "Лань".2008.-352 с.*

13. Жумаев Ж. Решение математических задач в пакетах математических программ. Учебное пособие. Бухара. «Дурдона», 2020. 240
https://uniwork.buxdu.uz/resurs/13227_2_D84564EDB490F3D0421C50F064AAACE32C739DAB1.pdf.
14. Жумаев Ж. Математические системы. Учебное пособие. Бухара. «Дурдона», 2021. 230 с.
15. Jumayev J. Transport masalasini MathCAD tizimida yechish// BuxDU ilmiy axboroti, 2022, № 6, 27-31 betlar. https://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8701

BIR JINSLI SOHALARDA KARLEMAN FORMULASI

Rahmonov Erkin Sodiq o'g'li,

Toshkent kimyo-texnologiya instituti Shahrisabz filali
erkinrahmonov14@mail.ru

Annotatsiya. Ko'p o'zgaruvchili kompleks analizda Karleman formulasi bir qancha sohalarda, jumladan, birlik shar va polikrug sohalari uchun o'rganilgan. Ushbu maqolaning maqsadi matritsaviy sohalarda Karleman formulasini o'rganishdan iboratdir. Matritsa argumentli golomorf funksiyalarning xossalari yordamida golomorf davom ettirishga va yadrolarni o'rganishda tadbiiq etish mumkin. Agar bu masala ko'p o'lchovli kompleks fazoda qaralsa, u yanada murakkablashadi. Ular ∂D chegaraga yaqinlashishda o'zini yaxshi tutuvchi golomorf funksiyalarning D soha nuqtalarida ∂D dagi yoki S dagi qiymatlari bo'yicha tiklash klassik masalasini yechadi.

Kalit so'zlar: Lebeg o'lchovi, golomorf, Karleman formulasi, Goluzin-Krilov teoremasi.

ФОРМУЛА КАРЛЕМАНА В ОДНОРОДНЫХ ПОЛЯХ

Аннотация. В многомерном комплексном анализе формула Карлемана изучалась для нескольких областей, включая области единичной сферы и многокругов. Целью данной статьи является исследование формулы Карлемана в матричных полях. Свойства голоморфных функций с матричными аргументами можно применять к голоморфным продолжениям и обучающим ядрам. Если этот вопрос рассматривать в многомерном сложном пространстве, он усложняется. Они ∂D решают классическую задачу восстановления корректных голоморфных функций D в точках ∂D сферы при или S при значениях.

Ключевые слова: мера Лебега, голоморф, формула Карлемана, теорема Голузина-Крылова.

CARLEMAN FORMULA IN HOMOGENEOUS FIELDS

Abstract. In multivariate complex analysis, the Carleman formula has been studied for several domains, including the unit sphere and polycircle domains. The purpose of this article is to study the Carleman formula in matrix fields. Properties of holomorphic functions with matrix arguments can be applied to holomorphic continuations and learning kernels. If this issue is considered in a multidimensional complex space, it becomes more complicated. They ∂D solve the classical problem of recovery of well-behaved holomorphic functions D at the points ∂D of the sphere at or S at the values of.

Key words: Lebesgue measure, holomorph, Carleman formula, Goluzin-Krylov theorem.

Kirish. Ma'lumki, soha chegarasidagi qiymatlarini bilgan holda uning soha ichkarisidagi qiymatlarini tiklash masalasi kompleks analizning dolzarb masalalaridan bo'lib, bu mavzuni o'rganishga ko'plab ilmiy adabiyotlar va maqolalar bag'ishlangan. Tekislikda bu masalani funksiyaning qiymatlari sohaning butun chegarasida berilgan holda Koshining integral formulasi yechadi. Funksiyaning qiymatlari sohaning butun chegarasida emas, faqatgina chegaraning biror qismidagina berilgan bo'lsa masala qiyinlashadi. Agar bu masala ko'p o'lchovli kompleks fazoda qaralsa, u yanada murakkablashadi.

Ta'rif. ∂D chegarasi silliq bo'lgan, chegaralangan $D \subset \mathbb{C}^n$ soha berilgan bo'lsin. D da golomorf bo'lgan f funksiya quyidagi shartni bajarsa,

$$\overline{\lim}_{\varepsilon \rightarrow 0} \int_{\partial D} |f(\xi - \varepsilon v_\xi)|^p d\sigma_\xi < \infty$$

u holda Hardi sinfi aniqlangan deyiladi.

Bu yerda v_ξ -tashqi normal vektori $\xi \in \partial D$ nuqtadagi, $d\sigma$ element esa Lebeg o'lchovi, $0 < p < \infty$

Bizga kompleks sonlar tekisligida D bir bog'lamli chegaralangan soha berilgan bo'lsin, ∂D chegarasi silliq bo'lsin. Hardi sinfidan olingan $f \in H^1(D)$ funksiya uchun Koshining integral formulasi o'rinli:

$$f(z) = \frac{1}{2\pi i} \int_{\partial D} \frac{f(\xi)}{\xi - z} d\xi, \quad z \in D. \quad (1)$$

Endi ∂D chegarada Lebeg o'lchovi musbat bo'lgan M to'plamni ko'rib chiqamiz. Biz chegaraning bir qismi $M \subset \partial D$ da berilgan funksiyani soha ichida tiklash masalasini ko'ramiz. Bu masalani birinchi bo'lib Karleman yechgan, shuning uchun bu formula Karleman formulasi deb yuritiladi.

Karlemanning g'oyasidan foydalanib, (1) formuladagi $\partial D \setminus M$ bo'yicha integrallashtan ozod qiladigan yordamchi funksiyani quramiz. Buning uchun quyidagi 2 ta shartni qanoatlantiruvchi yordamchi $\varphi(z) \in H^\infty(D)$ funksiyani kiritamiz;

- 1) $|\varphi(\xi)| = 1, \partial D \setminus M$ deyarli barcha joyida
- 2) $|\varphi(\xi)| > 1, D$ sohada

Quyidagicha funksiyani qaraylik

$$u(x, y) = \frac{1}{2\pi i} \int_M \frac{\partial G}{\partial n} ds, \quad (2)$$

Bu funksiya mos Dirixle masalasining yechimi hisoblanadi. Bunda $S - \partial D$ dagi aylananing yoyi, $G - D$ soha uchun Grin fuksiyasidir. (2) formula D da garmonik va chegaralangan shunday $u(x, y)$ funksiyani ifodalaydiki, bunda

$$u(x, y) = \begin{cases} 1, & M \text{ ning deyarli barcha joyida} \\ 0, & \partial D \setminus M \text{ ning deyarli barcha joyida} \end{cases}$$

ya'ni D sohaga nisbatan M garmonik o'lchovli. u funksiya garmonik bo'lganligi uchun birlik doirada doim bu funksiyaga qo'shma v funksiya topiladi. U holda φ yordamchi funksiyani

$$\varphi = \exp(u + iv)$$

ko'rinishida olamiz va bu funksiya yuqoridagi ikkita shartni to'liq qanoatlantiradi:

1-shartdan $|\varphi(\xi)| = e^u = 1, \partial D \setminus M$ da,

2-shartdan $|\varphi(\xi)| = e^u = e > 1, M$ da.

1-Teorema (Goluzin-Krilov). Agar $f \in H^1(D)$ va $M \subset \partial D$ to'plam Lebeg ma'nosida musbat o'lchamga ega bo'lsa, u holda $\forall z \in D$ nuqta uchun quyidagi Karleman formulasi o'rinni:

$$f(z) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_M f(\xi) \left[\frac{\varphi(\xi)}{\varphi(z)} \right]^m \frac{d\xi}{\xi - z}. \quad (3)$$

Isbot. Hardi sinfidan olingan $f \in H^1(D)$ funksiya uchun Koshining integral formulasi

$$f(z) = \frac{1}{2\pi i} \int_{\partial D} \frac{f(\xi)}{\xi - z} d\xi,$$

Bu formulani $f\varphi^m \in H^1(D)$ funksiya uchun qo'llasak

$$f(z)[\varphi(z)]^m = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_{\partial D} f(\xi)[\varphi(\xi)]^m \frac{d\xi}{\xi - z},$$

bo'ladi. Bunda m -butun musbat son.

$[\varphi(z)]^m$ funksiya integralga bog'liq emas, shuning uchun bu integral formulani quyidagicha o'zgartiramiz:

$$f(z) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_M f(\xi) \left[\frac{\varphi(\xi)}{\varphi(z)} \right]^m \frac{d\xi}{\xi - z} + \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_{\partial D \setminus M} f(\xi) \left[\frac{\varphi(\xi)}{\varphi(z)} \right]^m \frac{d\xi}{\xi - z}.$$

φ funksiya xossalarini hisobga olsak ikkinchi integral nolga teng shuning uchun faqat birinchi integral qoladi:

$$f(z) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_M f(\xi) \left[\frac{\varphi(\xi)}{\varphi(z)} \right]^m \frac{d\xi}{\xi - z}$$

teorema isbot bo'ldi. Endi quyidagicha ketma-ketlik qaraymiz:

$$f_m(z) = \frac{1}{2\pi i} \int_M f(\xi) \left[\frac{\varphi(\xi)}{\varphi(z)} \right]^m \frac{d\xi}{\xi - z},$$

$m \rightarrow \infty$ intilganda $f_m(z)$ ketma-ketlik D sohadagi $K \subset D$ kompaktda $f(z)$ funksiyaga yaqinlashadi, agar $f(z)$ funksiya Hardi sinfiga tegishli bo'lsa, u holda tekis yaqinlashadi.

Natija: Teorema shartidan quyidagi

$$f(z) = \frac{1}{2\pi i} \int_M \frac{f(\xi) d\xi}{\xi - z} + \frac{1}{2\pi i} \int_0^\infty d\sigma \int_M \frac{f(\xi)}{\xi - z} \left[\frac{\varphi(\xi)}{\varphi(z)} \right]^\sigma \ln \frac{\varphi(\xi)}{\varphi(z)} d\xi,$$

o'rinli bo'ladi.

Misol. D sohaning ∂D chegarasini ikki qismga ajratamiz:

$C_1 = \{z: z \in \partial D, \operatorname{Re} z \geq a\}$ va $C_2 = \{z: z \in \partial D, \operatorname{Re} z \leq a\}$, bu yerda $a \in \mathbb{R}^1$. U holda $z \in D_1 = \{z: z \in D, \operatorname{Re} z > a\}$ nuqta uchun quyidagi formula o'rinli:

$$f(z) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_{C_1} f(\zeta) e^{m(\zeta - z)} \frac{d\zeta}{\zeta - z},$$

$z \in D_2 = D \setminus \bar{D}_1$ nuqta uchun esa

$$f(z) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_{C_2} f(\zeta) e^{m(z - \zeta)} \frac{d\zeta}{\zeta - z},$$

formula o'rinli bo'ladi.

Kitmanov usuli

Bu usul \square^n da bir jinsli sohalarga qo'llanilishi ma'nosida paydo bo'lgan. Uning sodda bir jinsli soha $U(0,1) \subset \square^1$ doira holida ko'rsatamiz. Aytaylik, $M - \partial U$ da Lebegning musbat o'lchovli to'plami bo'lsin. $a \in U$ fiksirlangan nuqta va M to'plamning

$$\omega = (a - \zeta) / (1 - \bar{a}\zeta), \quad \omega(a) = 0, \quad \omega(0) = a.$$

Doira avtomorfizmlarida $\omega(M) = M_a$ aksini qaraymiz. Aytaylik, har bir $\omega(M)$ uchun $\varphi_m^a = \varphi_m^{M_a} \in L^\infty(M_a)$ funksiyalarning shunday ketma-ketligi mavjudki, har qanday $f \in H^1(U)$ uchun quyidagi o'rinli

$$f(0) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_{M_a} f(\zeta) \varphi_m^a(\zeta) \frac{d\zeta}{\zeta}, \quad (4)$$

2–Teorema (Kitmanov). Agar $f \in H^1(U)$ va $M \subset \partial U$ Lebeg musbat o'lchoviga ega bo'lsa, u holda ixtiyoriy $a \in U$ nuqta uchun quyidagi formula o'rinli:

$$f(a) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_M f(\zeta) \varphi_m^a(\omega(\zeta)) \frac{d\zeta}{\zeta - a}, \quad (5)$$

bo'ladi.

Isbot. $\omega = \omega(\zeta)$ avtomorfizmda

$$\frac{d\omega}{\omega} = \frac{1 - |a|^2}{1 - \bar{a}\zeta} \frac{d\zeta}{\zeta - a},$$

tenglik o'rinli. Bu yerda $\frac{1 - |a|^2}{2\pi|\zeta - a|^2} = P$, $U(0,1)$ doira uchun Puasson yadrosi. $f_a(\zeta) = f(\omega(\zeta))$

bo'lsin, u holda $f \in H^1(U)$ va (4) formulaga asosan

$$f(a) = f_a(0) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_{M_a} f_a(\omega) \varphi_m^a(\omega) \frac{d\omega}{\omega},$$

ko'rinishida bo'ladi.

Bundan,

$$f(a) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_M f(\zeta) \varphi_m^a(\omega(\zeta)) \frac{1-|a|^2}{1-\bar{a}\zeta} \frac{d\zeta}{\zeta-a}, \quad (6)$$

bo'ladi.

Bu formulani $f(\zeta)(1-\bar{a}\zeta)$ funksiyaga qo'llab (5) formulaga ega bo'lamiz.

Misol.

$$\varphi_m^M(z) = \exp[m(h_M(z) - h_M(0))] \quad (7)$$

o'rinli bo'lsin, buyerda

$$h_M(z) = \frac{1}{2\pi i} \int_M \frac{\zeta+z}{\zeta-z} \frac{d\zeta}{\zeta},$$

u holda (4) formula o'rinli, chunki bu yerda $\varphi_m^M(z)$ – "yordamchi" funksiya, lekin 0 nuqta uchun qaralyapti:

$$h_M(z) - h_M(0) = \frac{1}{2\pi i} \int_M \frac{2z}{\zeta-z} \frac{d\zeta}{\zeta}.$$

Endi agar $z \rightarrow \omega(z)$, $\zeta \rightarrow \omega(\zeta)$ o'zgaruvchilarni almashtirsak, u holda

$$\frac{2z}{\zeta-z} \frac{d\zeta}{\zeta} \rightarrow \left(\frac{\zeta+z}{\zeta-z} - \frac{\zeta+a}{\zeta-a} \right) \frac{d\zeta}{\zeta},$$

bo'ladi.

Shuning uchun $\varphi_m^a(\omega(z)) = \exp[m(h_M(z) - h_M(a))]$, bundan kelib chiqadiki

$$f(a) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_M f(\zeta) \exp[m(h_M(\zeta) - h_M(a))] = \frac{d\zeta}{\zeta-a},$$

$U(0,1)$ doira uchun Karleman formulasi hosil bo'ldi. Biroq, φ_m ketma-ketlikni (7) formula bo'yicha tuzish shart emas.

Misol. Aytaylik, $M - \partial U$ dan ajratilgan yoy, lekin butun ∂U aylana emas. $P_a(0) = 1$ va $|P_a(\zeta)| < 1$ $\zeta \in \omega(M)$ bo'lganda, $P_a(\zeta)$ ko'phadni shunday tuzish mumkinki, u holda

$$f(0) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_{M_a} f(\zeta) [P_a(\zeta)]^m \frac{d\zeta}{\zeta},$$

formula o'rinli bo'ladi.

Shuning uchun (2)-teoremaga asosan

$$f(a) = \lim_{m \rightarrow \infty} \frac{1}{2\pi i} \int_M f(\zeta) [P_a(\omega(\zeta))]^m \frac{d\zeta}{\zeta-a},$$

formula o'rinli.

Xulosa. Maqolada quyidagi mavzular o'rganildi va natijalar isbotlandi. Bir jinsli sohalarida Karleman formulasi uchun Goluzin-Krilov va Kitmanov uchun usullari keltirildi va o'rganildi. Shar va polikrug uchun Karleman formulasi to'liq isboti bilan keltirildi va unda matritsaviy sohalar uchun Karleman formulasi o'rganildi.

ADABIYOTLAR:

1. Л.А.Айзенбер "Формулы Карлемана в комплексном анализе". Новосибирск, Н., 1990 г, 248с.
2. Хуа Локен „Гармонический анализ функций многих комплексных переменных», М: Наука-1959 г. 163с.
3. Г.Худойбергенов, А.М. Кытманов, Б.А.Шаимкулов. „Комплексный анализ в матричных областях” Кроснаярск, 2011 г. 290 с.
4. Худайбергенов Г. Формула Карлемана для функций от матриц // Сибирский матем. журн. 1988. Т.28. №1. с.207-208.
5. Sodiq o'g'li, Rahmonov Erkin. «Kompleks o'zgaruvchili funksiyalar» International Scientific Research Conference. Vol. 2. No. 13. 2023.

6. Rahmonov, E., & Khadjiev, D. *Theorem-2. Let (M, F) is foliated manifold where M is a smooth connected finite-dimensional complete Riemannian manifold. Then the group $\text{Iso}F(M)$ is a topological group with F -compact open topology. Let's denote as $\text{Diff}^0 F(M)$ set of all C^r diffeomorphisms $g \in \text{Diff}^r F(M)$ of foliated. Ministry of higher and secondary special education of the Republic of Uzbekistan, 67.*

7. Axmatova G. *Формула Карлемана для классических областей. "Математика, физика ва ахборот технологияларининг долзарб муаммолари" мавзусидаги республика миқёсидаги онлайн илмий-амалий анжумани тезислар тўплами. Бухоро, 2020 йил 15 апрель, б. 500.*

**O'ZBEKISTON SHAROITIDA QUYOSH FOTOELEKTRIK STANSIYALARINI
ISHLATISHNING ILMIIY-TEXNIK IMKONIYATLARI**

Raxmatov Ilhom Ismatovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, texnika fanlari nomzodi,
Jo'rayev Husniddin Oltinboyevich,
Buxoro davlat universiteti professori, pedagogika fanlari doktori,
Mirzayev Mirfayz Salimovich,
Buxoro davlat universiteti dotsenti, texnika fanlari
Halimov Nuriddin Najmiddin o'g'li,
Buxoro davlat universiteti magistranti
raxmatov.1961@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada quyosh batareyalari ularni ish jarayoning fizik asoslari, quyosh foto-elektrik stansiyalarining tuzilishi ishlatish tartiblari, FES larning foydali ish koeffitsienti, ularni oshirish yo'llari, imkoniyatlari va ishlatish samaradorligini oshirishning nazariy va amaliy asoslari haqida ilmiy fikrlar va tavsiyalar keltirilgan. Quyosh fotoelektrik stansiyalarida amalga oshadigan yarim o'tkazgichlar fizikasi haqidagi ma'lumotlar jamlangan. O'zbekistonda noana'naviy energiya turlaridan foydalanish samaradorligini oshirish to'g'risidagi qaror va qonunlar to'g'risida ham ma'lumotlar keltirilgan. Buxoro Davlat Universitetida bu sohada amalga oshirilgan ilmiy-amaliy ishlarning natijalari umumlashtirilgan. Ilmiy tajribalar va nazariy tahlillar umumlashtirib zaruriy xulosalar keltirilgan. Xulosalarda quyosh foto-elektrik stansiyalarini Buxoro viloyati sharoitida samaradorligini oshirish yo'llari ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: yarim o'tkazgich, kremniy, p-n o'tish akkumlyator, invertor, kontroler, quyosh paneli, F.I.K monitoring, radiatsiya, quvvat kuchlanish.

**НАУЧНО-ТЕХНИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ЭКСПЛУАТАЦИИ СОЛНЕЧНЫХ
ФОТОЭЛЕКТРИЧЕСКИХ СТАНЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ**

Аннотация. В статье представлены научные результаты и рекомендации о физических основах работы солнечных элементов, устройств и порядок работы солнечных фотоэлектрических установок, коэффициенты полезного действия ФЭС (КПД), путях их повышения, возможностях и теоретико-практических основах повышения КПД и эффективность использования. Собрана информация по физике полупроводников, реализованных в солнечных фотоэлектрических установках. Также дана информация о решении и законах о повышении эффективности использования нетрадиционных видов энергии в Узбекистане. Подведены итоги научных и практических работ, проведённых в этой области в Бухарском государственном университете. Необходимые выводы представлены путём обобщения научных экспериментов и теоретического анализа. В выводах показаны пути повышения эффективности солнечных фотоэлектрических установок в условиях Бухарской области.

Ключевые слова: полупроводник, кремний, батарея с p-n переходом, инвертор, контроллер, солнечный элемент, КПД, контроль, радиация, напряжение питания.

**SCIENTIFIC TECHNICAL POSSIBILITIES OF OPERATION OF SOLAR
PHOTOELECTRIC STATIONS IN UZBEKISTAN**

Abstract. The article presents scientific opinions and recommendations about the physical basis of solar cells' operation, the structure and operation procedures of solar photoelectric plants, the useful work coefficient S.P.E, ways of increasing them, possibilities and theoretical and practical bases of increasing the efficiency of use. Information on the physics of semiconductors implemented in solar photoelectric plants is collected. Information is also given about the decision and laws on increasing the efficiency of the use of non-traditional energy types in Uzbekistan. The results of the scientific and practical works carried out in this field at Bukhara State University are summarized. Necessary conclusions are presented by summarizing scientific experiments and theoretical analysis. The conclusions show ways to increase the efficiency of solar photo- electric plants in the conditions of Bukhara region.


Key words: *semiconductor, silicon, p-n junction battery, inverter, controller, solar panel, U.W.C monitoring, radiation, power voltage.*

Kirish. Bugungi kunda energiya tejamkorligini oshirish, ekologik toza, noan'anaviy va qayta tiklanuvchan energiya manbalaridan foydalanish ko'lamini yanada kengaytirish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois butun dunyoda iqtisodiyotning turli sohalarida muqobil energiya manbalaridan foydalanishga katta e'tibor qaratilayapti. Chunki, energiyani muqobil turlaridan oqilona va samarali foydalanish yurt taraqqiyotiga, xalq farovonligiga xizmat qiladi. Qayta tiklanadigan energiya manbasi, tabiiy energiya xususiyatiga ega bo'lgan, keng mezonidagi tabiiy energiya manbasidir. Shunga qaramay, qayta tiklanadigan energiya manbai bu to'liq yechim emas, energiya olishning barcha masalasini hal etmaydi, qancha ko'p bu manbadan foydalanar ekanmiz, shuncha neft, tabiiy gaz, toshko'mirdan foydalanish qisqaradi, atrof-muhitning ifloslanishi va issiqxona gazlarining atmosferaga tarqalishi kamayadi va shu bilan birga ish joylari ko'payadi.

Asosiy qism. O'zbekistonda ham bu borada ulkan ko'plab ishlar olib borilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining '2023-yilda Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejavchi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida' qarorida umumiy quvvati 4 300 Mvt bo'lgan qayta tiklanuvchi energiya manbalarini, shu jumladan 2 100 Mvt — yirik quyosh va shamol elektr stansiyalari, 1 200 Mvt — ijtimoiy soha obyektlari, xo'jalik subyektlarining bino va inshootlari hamda xonadonlarda o'rnatiladigan quyosh panellari, 550 Mvt — tadbirkorlar tomonidan barpo etiladigan kichik fotoelektr stansiyalarini ishga tushirish, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini qurilmalarini o'rnatish, iste'molchilarni muqobil energiyaga o'tkazish va energiya tejamkor texnologiyalarni joriy qilish orqali 2023-yilda qo'shimcha 5 milliard kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarish va 4,8 milliard metr kub tabiiy gazni iqtisod qilish; ushbu maqsadlarga jami 15,4 milliard AQSh dollari miqdoridagi mablag'larni yo'naltirish, shu jumladan 13,4 milliard AQSh dollari — davlat-xususiy sheriklik loyihalari doirasida investorlar mablag'lari, 1,1 milliard AQSh dollari — tijorat banklari kreditlari, 610 million AQSh dollari — korxonalarining o'z mablag'lari, 150 million AQSh dollari — xorijiy moliyaviy tashkilotlar mablag'lari va 100 million AQSh dollari ekvivalentidagi Davlat budjeti mablag'lari ajratish ko'zda tutilgan. Buning uchun ishlab chiqarish jarayonlarining energiya samaradorligini oshirish chora-tadbirlarini moliyalashtirish uchun 2023-yil 1-martdan boshlab "Yashil energiya" bank moliya produktini amalga kiritish to'g'risidagi taklifi qo'llab-quvvatlash kerakli aytilgan. 2025 yilgacha O'zbekistonda kamida 50 foiz elektr energiyasini xususiy elektr stansiyalarida ishlab chiqarish uchun barcha imkoniyatlar yaratib beriladi. Bu haqda prezident Shavkat Mirziyoev Navoiy viloyati Karmana tumanida zamonaviy quyosh fotoelektr stansiyasi (O'zbekistondagi ilk xususiy elektr stansiyasi) ishga tushirilishi munosabati bilan o'tkazilgan marosimda ma'lum qildi. Jumladan, Navoiy viloyatining o'zida 2023 yilda Masdar kompaniyasi bilan hamkorlikda 500 Mvt li shamol stansiyasi va Phanes group ishtirokida 200 Mvt li quyosh stansiyasi barpo etiladi. Karmanadagi quyosh elektr stansiyasi 100Mvatt quvvatga ega bo'lib unga 292 mingta quyosh paneli 268 gektar yer maydoni, 600 dan ortiq inverter, 1000 km dan ortiq turli kabellar ishlatildi. Samarqand viloyati Nurobod tumanida ham xuddi shunday foto-elektr stansiya ishga tushirildi. Oxirgi 4 yilda umumiy quvvati 6000 Mvt bo'lgan quyosh vashamol stansiyalarini qurish bo'yicha 16ta bitim imzolandi. Bu "Yashil loyiha" ning umumiy qiymati 6mlrd AQSH dollariga teng. Jami Navoiy viloyatida 6 Mvt bo'lgan 2ta quyosh va shamol elektr stansiyasi, Samarqandda 1320 Mvt bo'lgan 3ta quyosh elektr stansiyasi, Toshkentda 400 Mvt bo'lgan quyosh elektr stansiyasi, Jizzaxda 220 Mvt quyosh elektr stansiyasi, Qoraqalpog'istonda 1600 Mvt bo'lgan shamol elektr stansiyasi, Xorazmda 100 Mvt bo'lgan quyosh elektr stansiyasi, Buxoroda 1250 Mvatt bo'lgan shamol va quyosh elektr stansiyasi, Surxondaryoda 457 Mvt bo'lgan quyosh elektr stansiyasi "Yashil loyiha" tarkibiga kiritildi. Shuningdek "ASWA POWER" kompaniyasi O'zbekiston energetika tarmog'iga kiritgan investitsiya hajmi 7,5 mlrd AQSH dollariga teng bo'lib bu mablag' 4ta yo'nalish: issiqlik, shamol quyosh, vodorod energiyasiga yo'naltirilgan. So'nggi yillarda aynan shu dastur quyosh panellari bozorining qariyb 90 foizini ta'minlaydi.


Fotoenergetikaning shakllanish bosqichida bunday mexanizmlar Evropa, AQSh, Yaponiya, Xitoy, Hindiston va boshqa mamlakatlarda yo'lga qo'yilgan.

Yer yuzasi yaqinida 635 Vt/m^2 quyosh nurlanishining o'rtacha intensivligini qabul qilish mumkin, juda aniq quyoshli kunda bu qiymat 950 Vt/m^2 dan 1220 Vt/m^2 gacha o'zgarib turadi va o'rtacha qiymat 1000 Vt/m^2 ga yetadi. Demak yer sirtida doimiy ravishda juda kata muqobil energiya manbai mavjud. Bu energiyani biz quyosh batareyalari yordamida olishimiz mumkin. Bu bizga sof yashil energiyani olish imkonini beradi. Quyosh batareyalari quyosh panellari, controller, inverter va akkmulyatordan tashkil topadi (1-rasm).



1-rasm. Quyosh elektrostansiyasining tuzilishi. 1.quyosh paneli 2.inventor 3. kontroller 4.inventor 5. Akkmulyator

Fotoelektr effekti quyosh energiyasini to'g'ridan-to'g'ri elektr energiyasiga aylantiradigan fotoelektrik tizimda paydo bo'ladi. Fotovoltaik tizim kun yorug'ligini talab qiladi. Fotovoltaik tizimlar to'g'ridan-to'g'ri quyosh nuri ostida bo'lishi shart emas, shuning uchun bulutli kunlarda ham fotoelektr panellari bir oz elektr energiyasini ishlab chiqarishi mumkin. Fotovoltaik yoki quyosh batareyasining (QE) eng oddiy dizayni - quyosh nurlanishining energiyasini aylantirish uchun qurilma - bir kristalli kremniyga asoslangan 1-rasmda ko'rsatilgan.



2-rasm. Quyosh batareyasida kechadigan yarim o'tkazgichlarning fizik sxemasi

Yarim o'tkazgichli fotoelementlarning volt-amper xarakteristikasi ni quyidagicha yozaylik:

$$-j = j_s \left(e^{\frac{eV}{kT}} \right) - j_{q,u} \quad (1)$$

Bunda j_s - to'yinish toki

Tashqi zanjirdagi R qarshilikda ajraladigan quvvat

$$W = j \frac{kt}{e} \ln \left(\frac{j_{q,u} - j}{j_s} + 1 \right). \quad (2)$$

Tashqi zanjirda maksimal quvvat olish uchun R qarshilikni shunday tanlab olish kerakki,

$$R = \frac{\mathcal{E}_{max}}{j_{max}} \quad (3)$$

Tenglik bajarilishi kerak. Bunda \mathcal{E}_{max} va j_{max} qarshilikdagi maksimal e.y.u.k va maksimal tok. \mathcal{E}_{max} va j_{max} larni topish uchun (2) dan j bo'yicha hosila olib, nolga tenglashtiramiz, yani

$$\ln \left(\frac{j_{q,u} + j_{max}}{j_s} + 1 \right) - \frac{j_{max}}{j_s + j_{q,u} - j_{max}} = 0 \quad (4)$$

$$(1) \text{ dan } \frac{e\mathcal{E}_{max}}{kT} = \ln \left(\frac{j_{q,u} - j_{max}}{j_s} + 1 \right). \quad (5)$$

(4) va (5) larni birga yechsak:

$$j_{max} = \frac{(j_s + j_{q,u}) \frac{e\mathcal{E}_{max}}{kT}}{1 + \frac{e\mathcal{E}_{max}}{kT}}; \quad (6)$$

$$e^{\frac{e\mathcal{E}_{max}}{kT}} \left(1 + \frac{e\mathcal{E}_{max}}{kT}\right) = 1 + \frac{j_{q,u}}{j_s} \quad (7)$$

R qarshilikda olinadigan maksimal quvvat

$$W_{max} = j_{max} \mathcal{E}_{max} \quad (8)$$

Formula orqali aniqlanadi. Fotoelementning foydali ish koeffitsenti esa

$$\eta = \frac{W_{max}}{W_i} * 100\% \quad (9)$$


bo'ladi, bunda W_i -fotoelementga 1 sek da tushadigan nurlanish energiyasi. Biz bu yerda nurning fotoelement sirtidan qaytishini, fotoelementda yutilmasdan o'tib ketadigan qismini va kvant chiqarishni hisobga olmadik. Agar bularni ham hisobga olsak, fotoelementning foydali ish koeffitsenti quydagicha yoziladi:

$$\eta = (1-r) (1-e^{-ad_2}) \beta * \frac{W_{max}}{W_{max}} * 100\% \quad (10)$$

bunda r -nurning sirtidan qaytish koeffitsenti, β kvant chiqarish (har bir yutilayotgan foton yoki radio aktiv nurga to'g'ri kelgan elektron-teshik jufti).

Fotoelementga tushayotgan nurning r qismi fotoelement sirtidan qaytib foydali ish koeffitsentining kamayishiga olib keladi. R ortishi bilan F.I.K. ham kamayib boradi. Shuning uchun maxsus shaffof qatlam bilan fotoelement yuzi qoplanib r ni kamaytiradi. Yorug'lik nurining $\exp(-ad_1 - ad_2)$ qismi m fotoelementda yutilmay o'tib ketadi. Bu ham F.I.K ning kamayishiga olib keladi. Yarim o'tkazgichda yutilayotgan fotonlarning hammasi fotoaktiv bo'lmasligi mumkin, yani β hamma vaqt birga teng (radiaktiv nurlar uchun $\beta > 1$ bo'la oladi) bo'lmay birdan kichik bolishi ham mumkin. β birdan qancha kichik bo'lsa, f.i.k ham shuncha kichrayib boradi. Bulardan tashqari f.i.k kamayishiga sirtiy va hajmiy rekombinatsiya ta'sir qiladi. Nazariya shunu ko'rsatadiki, agar kontakt va sirt oldida berkituvchin qatlam hosil bo'lsa sirtiy rekombinatsiyakatta bo'lib, f.i.k kamayadi. Berkitmovchi qatlam hosil bo'sa, sirtiy rekombinatsiya kichik bo'lib, rekombinatsiyadagiyo'qolish minimal qiymatga ega bo'ladi.

Fotovoltaik qurilmalarda eng ko'p ishlatiladigan bir kristalli (samaradorlik 21,5% gacha), polikristalli (samaradorlik 14-17%) va amorf kremniyga (samaradorlik 5-8%) asoslangan uchta turdagi kremniy elementlari (3-rasm). Ushbu turlar orasidagi farq kremniy atomlarining kristallda qanday tashkil etilganligidir.






3-rasm. Monokristalli, polikristalli va amorf quyosh elementlari


Fotovoltaik elementlar orqa kontaktga va turli o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan 2 qatlamli kremniyga, tepada metall kontaktlar panjarasiga va quyosh batareyasiga xarakterli ko'k rang beradigan porlashga qarshi aks ettiruvchi qoplama ega. Quyosh batareyalarining tipik o'lchamlari va ularning elektr parametrlari 1-jadvalda keltirilgan.

Galliy arsenid (GaAs) quyosh energiyasida yuqori samarali fotovoltaik elementlarni yaratish uchun istiqbolli materiallardan biridir. Bunday elementlar yuqori samaradorlikka ega (bir tutashgan elementlar uchun taxminan 28%). Alohida-alohida, siz organik materiallardan foydalanadigan elementlarni tanlashingiz mumkin. Organik bo'yoq bilan qoplangan titan dioksidi (TiO_2) asosidagi fotovoltaik hujayralar samaradorligi taxminan 11% ni tashkil qiladi. Elementning ishlash printsipli bo'yoqning fotoqozg'alishi va TiO_2 o'tkazuvchanlik zonasiga tez elektron in'ektsiyasiga asoslangan.

boriga shukrona); Qudag'ayim qurovuz, Jegan noni birovuz (*ko'p gapiradigan, og'ziga elak tutib bo'lmaydigan xotin ma'nosida*); Oshiq o'ynag'an ozar, To'biq o'ynag'an to'zar (*vohada oshiq va to'biq kabi o'yinlar mashhur. To'biq o'yini ba'zan janjalli holatni keltirib chiqarganligi sababli aholi orasida salbiy qarashga ega. Ko'chimi: hayot sinovlarining rang-barangligiga ishora*); Ulsiz xotin sumakka to'yimas, Qizsiz xotin tubakka... (*ochko'z, ziqna kishilarga ishora*); Cholinning topqanini o'yna-o'ynab jiyman, ulimning topqanini o'ylab-o'ylab jiyman (*oilaviy munosabatlarga ishora*); Yel o'lar qada (*urf-odat*)si qolar (*dunyo utkinchi, insondan faqat yaxshiliklar qoladi ma'nosida*); Boxshig'a oysang bog'adi, Qushnochqa oysang qog'adi (*ijtimoiy notenglik*); Uling joqqan chira(q)xti qizing(h)am jog'adi (*ug'il va qiz farzand tengligiga ishora*)

3. Chorvachilik bilan bog'liq maqol, matal va boshqa birliklar: Surxon vohasi aholisining aksariyat qismi azaldan chorvachilik bilan shug'ullanib keladi. Ayniqsa, tog' va tog'oldi hududida yashovchi aholi hayoti chorvachilik bilan chambarchas bog'liq. Shu sababli mazkur hududda chorvachilikka oid maqol, matal va shunga o'xshash etnografik birikmalar talaygina. Mavjud voqelik, biror narsani taqqoslashda, biror hayotiy misolni ta'sirchan ifodalashda aynan hayvonlardan majoz sifatida foydalanadi. Moling xo'ra bo'sa berdi Xuda, Xotining xo'ra bo'sa urdi xuda (*omad, taqdir- peshona*); Oshnangdan tuya so'ra, Uyalib biya berar (*ad.var. Tog'cha so'rasang qircha beradi*); Jolada ot tannama, Hayit(bayram)ta qiz tannama (*Bemavrid qaror qabul qilmaslikka ishora*); Cho'panning choqqani (chaqqoni), Takadan sut soqqani (sog'moq) (*abjir, uddaburon, kishilarga nisbat*); Bo'ri jordi, Quzg'in to'ydi (*ad.var. Birovning tahoratiga birov nomoz o'qimoq*); Itgayam bermadi, Yelgayam qimadi (*xasis, ziqna*); Toyliq'a ishanib toshshag'im jorildi (*aldov, yolg'on, fribgarlik ma'nolarida*); Silag'andi siyir bilmas, siypag'andi – yeshshak... (*hurmat-izzatni bilmaydigan kishilarga ishora*); Qo'y so'yib mardlik qilding, kallapa(y)cha qo'yib nomardlik... (*xasis, baxil kishilarga nisbatan*); Dehqan jovsa tinar, cho'pan o'lsa... (*cho'ponlikning og'ir kasb ekanligiga ishora*); Ovuldoshimding oti o'zgincha, Hamsaya(qo'shni)mding toyi o'zsin (*qo'shnichilikning ulug'lanishi*); Ovul oymag'i (qarindosh-urug') bilan, Bo'ta toylag'i bilan (*hayot o'zaro munosabat va muvozanatdan iborat*); Ot box(q)sang - ulaqqa, qo'y boxsang – qo'naq(mehmon)qa (*har narsaning o'rni joyi bor*); Oyran ichkan qutular, satil jalagan (yalamoq) tutilar (*ad. Var. Suv olib kelgan emas, ko'za sindirgan aziz. Asosiy jinoyatni amalga oshirganlar panada qolib ikkinchi darajali insonlarni jazolash holatiga nisbatan*); Norman (nari) borma bo'ri jemasin, Berman (beri) kema ko'zim ko'rmasin (*na unga na bunga ko'nadigan kishilarga nisbatan*); Chola tentak otini mo(a)x(q)tar, Toza tentak xotinini... (*farosatsiz, befahm, kattaog'iz kishilarga nisbatan*); Yo(Ya)xshig'a hazil qisang jipaktay bo'lar, jomanga hazil qisang yeshaktay bo'lar (*Har bir narsada me'yor bo'lishiga ishora*); Yegachi (opa) li qizg'a to'y qayda?, Yechkili qo'yg'a suv qayda? (*hisob-kitobli, muammoli dunyo*)[5.427].

4. Inson yoshi, vaqt va makon, zamon bilan bog'liq etnografik birliklar: Navro'zdan so'ng qish bo'mas, Mezondan so'ng yoz bo'mas (*har bir narsaning o'z vaqti soati bor*); Ol(t)mishqacha oshir, Jetmishdan so'ng dashir (*Inson hayot-faoliyatini to'g'ri taqsimlashga ishora*); Ol(t)mishdan so'ng urgangan kuyingdi go'ringda cholasan (*disf. aytim*), (*har bir narsaning o'z vaqti soati bor, ilm va hunarni yoshlikdan egallash zarurligiga ishora*); Yoxshi kesa hut – kadi-kadi sut, Joman kesa hut-soylar to'la put (*Eski taqvim bo'yicha oy nomi. 21 fevral va 21 mart oralig'i. Shu muddatda yog'ingarchilikning yaxshi bo'lishi chorvadorlar uchun hal qiluvchi ahamiyat kasb etgan*); Safar oyi – Xatar oyi (*irim-sirim*); Qiz chog'im sulton, Kelin chog'im ulton (*qul*), (*umrning har bir davri, lahzasi qadrli ekanligiga ishora*); Asadda oralab jiysan, Sumbulada saralab (*Eski taqvim bo'yicha oy nomi. Avgust Sentabr oylari. Bu davrdagi pishiqchilik va to'kin-sochinlikka ishora*); Javzodan o'tmagan nahal o'tin bo'ladi (*aytim. Eski taqvim bo'yicha oy nomi. 20 may va 20 iyun oralig'i. Bu paytda odatda kattiq issiq va qurg'oqchilik kuzatilgan. Ko'chimi:insonlarning sabr-toqati qanoatiga, hayot mashaqqatlari va sinovlari oldidagi bardoshiga ishora*); Oy qutannasa oyda jovadi, Kun qo'tannasa kunda jovadi (*chorvadorlar bashorati. Ko'chimi: ehtiyotkorlik, shaylik, har xil holatlarga tayyor turishga ishora*).

Xulosa. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Surxon vohasi aholisining qadriyat va an'analari, rasm-rusumlari o'ziga xosligi va xilma-xilligi, jozibadorligini o'zida aks ettirgan minglab xalq og'zaki ijodi namunalarini yig'ish va ularni ilmiy asosda o'rganish kechiktirib bo'lmaz masalalardan biridir. Sababi asosan keksa avlod nutqida saqlanib qolayotgan nodir maqol, matal va boshqa og'zaki ijod manbalari vaqt o'tishi bilan yo'qolib ketish xavfi mavjud.

ADABIYOTLAR:

1. Рахмонов Б.А. Сурхондарё диалектал-этнографизмларининг турлари ва таснифи. *Academic research in modern science International scientificonline conference*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7066347>
2. Омонтурдиев А. Рахмонов Б. Сурхондарё диалектал-этнографик мақолларининг қисқача изоҳли лугати. Тошкент, 2019 й.
3. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва ўзбек шевалари. – Тошкент, 1962, 325-б.
4. Рахманов Б. Этнографизмлар талқини ва унинг ёндаш соҳалар билан муносабати масаласи. *Илм сарчашмалари. (ОАК журнал) Урганч*. 12. 2020 й.
5. Рахманов Б. Этнографизмлар тилишунослик объекти сифатида. *Наманган давлат университети илмий ахборотномаси*. 2023 йил, 7-сон 426-429-бетлар.

TURKIY TILLARDA SHAXS TAVSIFINING SINTAKTIK IFODASI XUSUSIDA

Nazarova Saida Axmedjanovna,

*Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi va
jurnalistika kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
saidanazarova77@gmail.com*

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilidagi shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalarining semantik guruhlari, lisoniy qurilish qolipi, oraliq shakllari ajratilgan, til sathida shaxs tavsifini anglatuvchi so'z birikmalari tizimini hosil qilishi asoslangan. Turkiy tillarda shaxs tavsifining sintaktik ifodalanishi masalasi o'zbek, ozarbayjon va qumiq tillaridagi shaxsni tavsiflashga xizmat qiluvchi so'z birikmalari misolida qiyosiy o'rganilgan.

Kalit so'zlar: shaxs, shaxs tavsifi, so'z birikmasi, ismli birikmalar, lisoniy sintaktik qolip, antroponim.

О СИНТАКСИЧЕСКОМ ВЫРАЖЕНИИ ОПИСАНИЯ ЛИЧНОСТИ В ТЮРКСКИХ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В статье обосновано образования системы словосочетаний, описывающих личность на уровне языка, выделены семантические группы, рассмотрены языковая синтаксическая модель и промежуточные формы их в узбекском языке. Изучен в сравнительном аспекте вопрос синтаксического выражения описания личности в тюркских языках на примере словосочетания служащие для описания личности в узбекском, азербайджанском и кумыкском языках.

Ключевые слова: личность, описание личности, словосочетание, именные словосочетания, языковая синтаксическая модель, антропоним.

THE SYNTACTIC EXPRESSION OF PERSONALITY DESCRIPTION IN THE TURKIC LANGUAGES

Abstract. The article substantiates the formation of a system of phrases describing a person at the language level, identifies semantic groups, a linguistic syntactic model and their intermediate forms in the Uzbek language. The question of the syntactic expression of the description of personality in the Turkic languages has been studied comparatively by the example of the phrase serving to describe personality in the Uzbek, Azerbaijani and Kumyk languages.

Key words: personality, personality description, word combination, nominal phrases, language syntactic model, anthroponym.

Kirish. Tilda shaxsni atash yoki tavsiflash leksik-semantik sath birliklarining vazifasi bilan cheklanmaydi. Til tizimi shunday qurilganki, ayni bir vazifani bajarishda lisoniy sathlar bir-birini to'ldiradi, qo'llab-quvvatlaydi, muhtasham imorat ustunlaridek uning butunligini ta'minlab turadi. Agar har bir tilda shaxsni atashga xizmat qiluvchi leksik birliklar mavjud hisoblansa, demak, shaxs tushunchasini ma'lum jihatdan muayyanlashtiruvchi sintaktik birliklar borligiga shubha qilib bo'lmaydi. Tilda shunday imkoniyat mavjudligini S.E.Ragimxanova, N.V.Yashchenko, G.I.Babayeva, M.T.Ramazanov, G.X.Zinnatulina, M.B.Guseynovaning tadqiqotlari [1; 2; 3; 4; 5; 6] dalillaydi. Ularda ozarbayjon, slavyan, roman-german, tatar, qumiq tillarida shaxsning u yoki bu xususiyatini aniqlashtiruvchi so'z birikmalari atributiv, ismli, substantiv, genitiv birikmalar paradigmasida ko'zdan kechiriladi. Bu sintaktik birliklar ba'zan tavsifiy, ba'zi hollarda semantik, struktur, qiyosiy-tipologik jihatlardan tahlil qilingan. Ta'kidlash lozimki, ismli, substantiv, atributiv birikmalarda aks etishi qayd etilsa ham, "shaxsni tavsiflovchi so'z birikmalari" deb ajratilmagan va maxsus tadqiq etilmagan.

Asosiy qism. O'zbek tilida shaxs tavsifi leksik, morfologik, sintaktik birliklar orqali ifodalanadi. Shaxs tavsifi "shaxs" semali leksik birliklarda ifodalanishi, ot turkumi tizimida shaxs otlari/nomlari sifatida ajratilishi va "shaxs tavsifi" mavzuviy to'dasini tashkil etishi, shuningdek, mazkur to'da tarkibida o'ndan ortiq lug'aviy-ma'noviy guruhga birlashishi ma'lum. Tilshunoslikda "shaxs" va "shaxs tavsifi" ma'nolarining til birliklarida aks etishi yirik muammo bo'lgani bois bu muammoni alohida tadqiq qilish lozim. Shunisi muhimki, tilda shaxs tavsifi leksik-semantik ifodalanish imkoniyati bilan cheklanmaydi.

Sababi, til shaxsni tavsiflash vazifasini soʻz birikmalari yordamida ham amalga oshiradi. Chunonchi, oʻzbek tilida soʻzlashuvchilar nutqida shaxsni maʼlum xususiyatlariga koʻra tavsiflaydigan soʻz birikmalari mavjud:

oʻqituvchi ayol, sotuvchi erkak, ayol haydovchi, erkak oshpaz, qoʻshni qiz, sinfdosh yigit, qozoq chol, rus shifokor, suvchi yigit, mahalladosh novvoy, sirdosh doʻst, ovuldosh choʻpon, tilshunos olim, aravasozi usta, chiptachi erkak, (v.h.).

Shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarini semantik jihatdan quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1) shaxsni kasbi va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *oʻqituvchi ayol, oshpaz erkak, shifokor ayol, sotuvchi erkak, farrosh xotin, naqqosh erkak, haydovchi ayol, novvoy erkak, fermer ayol, soatsoz erkak...*

2) shaxsni jinsi va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *erkak shifokor, ayol payvandchi, erkak oshpaz, ayol fermer, erkak tikuvchi, ayol uchuvchi...*

3) shaxsni millati va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *qozoq choʻpon, oʻzbek muallim, tojik savdogar, hind sangtarosh, uygʻur oshpaz, turk muhandis...*

4) shaxsni yoshi va kasb/hunariga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *chol baqqol, oʻspirin usta, kampir tabib, oʻsmir etikdoʻz...*

5) shaxsni kasb-hunariga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *duradgor usta, oʻrmonchi agronom, aravasozi usta, parhezshunos hamshira, mashinasoz muhandis, maslahatchi shifokor, akusher ginekolog, tarjimon shoir, urolog jarroh...*

6) shaxsni millati va yoshiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *qozoq chol, oʻzbek yigit, tojik qiz, loʻli bola, rus kampir, turkman qiz...*

7) shaxsni millati va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *oʻzbek ayol, turkman erkak, tatar ayol, rus xotin, uygʻur erkak, qirgʻiz xotin...*

8) shaxsni millati va yaqinligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *tatar qoʻshni, qoraqalpoq kursdosh, tojik mahalladosh, qozoq birodar, rus hamkasb...*

9) shaxsni millati va qarindoshligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *tojik kelin, turkman yanga, turk kuyov, tatar buvi, qozoq quda, uygʻur ovsin...*

10) shaxsni jinsi va qarindoshligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *qiz farzand, oʻgʻil farzand, qiz nevara, oʻgʻil nevara, ayol quda, erkak quda...*

11) shaxsni yaqinligi va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *qoʻshni ayol, mahalladosh erkak, hamshahar erkak, hamqishloq ayol...*

12) shaxsni yaqinligi va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *qoʻshni duradgor, mahalladosh tikuvchi, hamkasb usta, ovuldosh choʻpon, hammaslak oʻqituvchi, hamshahar jurnalist, hamqishloq dehqon...*

13) shaxsni yaqinligi va yoshiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *sinfdosh bola, mahalladosh chol, qoʻshni kampir, kursdosh qiz, hamqishloq juvon, yurtdosh yigit ...*

14) shaxsni yaqinligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar: *sinfdosh doʻst, sirdosh dugona, hamqishloq oshna, kursdosh oʻrtoq, maslakdosh hamkasb, hamxona kursdosh, kasbdosh doʻst...*

Oʻzbek tilida shaxs tavsifini ifodalovchi soʻz birikmalari alohida maʼnoviy tur sifatida ajratilgan. Mazkur soʻz birikmalarini hosil qiluvchi lisoniy sintaktik qolip ham aniqlangan [7;8;9;10;11].

Shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarining lisoniy qurilishi $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ sintaktik qolipida umumlashadi. Bu soʻz birikmalari nutqda $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ qolipining voqelanishi asosida yuzaga keladi, shuning uchun $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ ning hosilalari hisoblanadi. Shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarining guruhlarga ajratilgan koʻrinishlari shaxs otlarining oʻzaro birikuvlarini umumlashtirgan $[O_{sh} \sim O_{sh}] = SB$ qolipiga tegishlidir. Ammo ular bu sintaktik qolipga muayyan oraliq shakl/qolip orqali, yaʼni:

- 1) shaxsni kasbi va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_k \sim O_j] = SB$ oraliq shakli;
- 2) shaxsni jinsi va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_j \sim O_k] = SB$ oraliq shakli;
- 3) shaxsni millati va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_m \sim O_k] = SB$ oraliq shakli;
- 4) shaxsni yoshi va kasb/hunariga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_y \sim O_{k/h}] = SB$ oraliq shakli;
- 5) shaxsni kasb-hunariga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_k \sim O_k] = SB$ oraliq shakli;
- 6) shaxsni millati va yoshiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_m \sim O_y] = SB$ oraliq shakli;
- 7) shaxsni millati va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_m \sim O_j] = SB$ oraliq shakli;
- 8) shaxsni millati va yaqinligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_m \sim O_{yaq}] = SB$ oraliq shakli;
- 9) shaxsni millati va qarindoshligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_m \sim O_q] = SB$ oraliq shakli;
- 10) shaxsni jinsi va qarindoshligiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_j \sim O_q] = SB$ oraliq shakli;
- 11) shaxsni yaqinligi va jinsiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_{yaq} \sim O_j] = SB$ oraliq shakli;
- 12) shaxsni yaqinligi va kasbiga koʻra tavsiflovchi birikmalar $[O_{yaq} \sim O_k] = SB$ oraliq shakli;

13) shaxsni yaqinligi va yoshiga ko'ra tavsiflovchi birikmalar $[O_{\text{yaq}} \sim O_y] = \text{SB}$ oraliq shakli;

14) shaxsni yaqinligiga ko'ra tavsiflovchi birikmalar $[O_{\text{yaq}} \sim O_{\text{yaq}}] = \text{SB}$ oraliq shakli asosida bog'lanadi.

Shunga asoslanib aytilish joizki, o'zbek tilida shaxsni tavsiflash vazifasiga xoslangan so'z birikmalari mavjud va ular shaxs tavsifini anglatuvchi so'z birikmalari tizimini hosil qiladi. Bu tizimni quyidagi jadval yaqqol aks ettiradi:

Shaxs tavsifini anglatuvchi SBlari		
Shaxs tavsifi – umumiy ma'no		
$[O_{\text{sh}} \sim O_{\text{sh}}] = \text{SB}$ – umumiy qolipi		
Xususiy ma'nolar/ma'noviy turlar		
Oraliq shakl/qolip		
1.	<i>Kasb va jinsga k.t. SBlari</i>	$[O_k \sim O_j] = \text{SB}$
2.	<i>Jins va kasbga k.t. SBlari</i>	$[O_j \sim O_k] = \text{SB}$
3.	<i>Millat va kasbga k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_k] = \text{SB}$
4.	<i>Yosh va kasb/hunarga k.t. SBlari</i>	$[O_y \sim O_{k/h}] = \text{SB}$
5.	<i>Kasb-hunarga k.t. SBlari</i>	$[O_k \sim O_k] = \text{SB}$
6.	<i>Millat va yoshga k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_y] = \text{SB}$
7.	<i>Millat va jinsga k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_j] = \text{SB}$
8.	<i>Millat va yaqinlikka k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_{\text{yaq}}] = \text{SB}$
9.	<i>Millat va qarindoshlikka k.t. SBlari</i>	$[O_m \sim O_q] = \text{SB}$
10.	<i>Jins va qarindoshlikka k.t. SBlari</i>	$[O_j \sim O_q] = \text{SB}$
11.	<i>Yaqinlik va jinsga k.t. SBlari</i>	$[O_{\text{yaq}} \sim O_j] = \text{SB}$
12.	<i>Yaqinlik va kasbga k.t. SBlari</i>	$[O_{\text{yaq}} \sim O_k] = \text{SB}$
13.	<i>Yaqinlik va yoshga k.t. SBlari</i>	$[O_{\text{yaq}} \sim O_y] = \text{SB}$
14.	<i>Yaqinlikka k.t. SBlari</i>	$[O_{\text{yaq}} \sim O_{\text{yaq}}] = \text{SB}$

Turkiy tillarda shaxs tavsifini anglatuvchi birikmalar “isimli so'z birikmalari” yoki “isimli birikmalar” terminlari ostida o'rganilgan. Chunonchi, M.T.Ramazanov “Именное словосочетание в азербайджанском языке в сравнительно-сопоставительном освещении” nomli tadqiqotida ismli birikmalarni qismlari ot bilan ifodalangan so'z birikmalari sifatida tahlil qiladi [4, 210-212]. Uning fikricha, bunday birikmalarda ikkala qism (ya'ni tobe va hokim a'zo – *izoh bizniki*) bosh kelishikda ifodalanadi va qismlar orasida atributiv (aniqlovchili) munosabat mavjud bo'ladi. Birinchi qism ikkinchisini aniqlaydi. Ko'p hollarda qismlar vazifasida muayyan otlar voqelashadi: demir korpu=turk tilida: demir ko'pru – rus tilida: железный мост (o'zbek tilida: temir ko'pri); dash ev=turk tilida: taş ev – rus tilida: каменный дом (o'zbek tilida: tosh uy)... [4, 210].

Tadqiqotchi ismli birikmalarni tarkibiy qismlari orasidagi semantik munosabatlar asosida guruhlariga ajratganligi e'tiborimizni tortdi. Zero, ular sirasida shaxsni muayyan jihatdan tavsiflaydigan so'z birikmalari ham o'rin olgan. Chunonchi:

1. Birinchi komponenti ikkinchi komponentida ifodalangan shaxsning mashg'ulot turini anglatuvchi so'z birikmalari. Masalan: muellim Suleyman = turkcha: öğretmen Suleyman – rus tilida: учитель Сулейман; hekim Logman = turkcha: hekim Loğman – rus tilida: врач Локман; demirchi Musa = turkcha: demirçi Musa – rus tilida: кузнец Муса [4, 211].

2. Birinchi a'zosi ikkinchi a'zo nomlaydigan shaxsning lavozimi, unvon, darajasi, ilmiy darajasi va shu kabilarni anglatuvchi so'z birikmalari. Masalan: general Nazi = turkcha: general Nezi – rus tilida: генерал Нази; polkovnik Mustafa = turkcha: albay Mustafa – rus tilida: полковник Мустафа; deputat Xelil = turkcha: milletvekili Halil – rus tilida: депутат Халил [4, 211].

3. Birinchi a'zosi ikkinchi a'zo nomlaydigan shaxsning qarindoshlik belgisini aniqlashtiruvchi so'z birikmalari. Bu guruhga quyidagi birikmalar kiritilgan: jezne Hesen = turkcha: enişte Hasan – rus tilida: зять Гасан; dayı oğlu Memmed = turkcha: dayı oğlu Memet – rus tilida: сын дяди Мамед; xala oğlu Mehman = turkcha: hala oğlu Mehman – rus tilida: сын тети Мехман; kirve Mehmed = turkcha: kirve Mehemet – rus tilida: кум Мамед [4, 211].

4. Birinchi komponenti ikkinchi komponentida ifodalangan shaxsning milliy mansubligini anglatuvchi so'z birikmalari. Masalan: rus Ivan=turkcha: rus Ivan – rus tilida: русский Иван; ózbek Gulam=turkcha: ózbek Gulam – rus tilida: узбек Гулам; tatar Balaxan = turkcha: tatar Balahan – rus tilida: татарин Балахан; gurchu Shato = turkcha: gürçu Şato – rus tilida: грузин Шато [4, 211-212].

5. Birinchi komponenti ikkinchi a'zo nomlaydigan predmet laqabini aniqlashtiruvchi so'z birikmalari. Quyidagi birikmalar mazkur guruh tarkibiga kirishi qayd etilgan: gatır Memmed = turkcha: gatir Memmed–

rus tilida: мул Мамед; kirpi Hesen=turkcha: kirpi Hasan – rus tilida: ёж Гасан; xoruz Semed=turkcha: horus Semed – rus tilida: петух Самед; chuche Kerim = turkcha: çivçiv Kerim – rus tilida: цыпленок Керим [4, 212].

M.T.Ramazanov tomonidan tasniflangan ismli birikmalar tarkibidagi besh xil guruh ozarbayjon tilida shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalari mavjudligini tasdiqlaydi. Shuningdek, ozarbayjon tilidagi ismli birikmalarning mazkur besh turi turk tilidagi ayni maʼnoni ifodalaydigan birikmalar bilan qiyoslangan. Bu esa turk tilida ham shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalari mavjudligidan dalolat beradi.

Shu oʻrinda M.B.Guseynova qumiq tilida izofali soʻz birikmalarini tadqiq qilganligini qayd etish joiz. Chunki uning tadqiqotida oʻrganilayotgan masalaga bevosita aloqador maʼlumotlar oʻz ifodasini topgan. Turkiy tillardan biri – qumiq tilida shaxs tavsifini aniqlashtiruvchi soʻz birikmalari mavjudligi haqida dalillar keltirilgan. Biroq tadqiqotchi bunday soʻz birikmalarini “ismli birikmalar” deb baholamaydi. Mohiyatan shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalarini “izofali birikmalar”ning turi sifatida baholab, quyidagi guruhlariga ajratadi:

1. Prepozitiv ot ikkinchi komponent anglatuvchi atoqli (xususiy) otning sotsial mavqeyi, kasbi, unvoni, darajasini bildiradi: “туварчы Агъмат” – rus tilida: «пастух Ахмед», “шавхал Тарковский” – rus tilida: «шамхал Тарковский», “охувчу Аскер” – rus tilida: «ученик Аскер» [6, 9].

2. Prepozitiv ot, yaʼni aniqlovchi millat vakilini, postpozitiv ot, yaʼni aniqlanmish soʻz kasbni anglatadi: “даргили хасапчы” – rus tilida: «мясник даргинец», “орус учитель” – rus tilida: «русский учитель», “къазикъумукълу этикчи” – rus tilida: «лакец-сапожник» [6, 9-10].

3. Tobe komponent (aniqlovchi) vokativ epitetning murojaat formulasi sifatida qoʻllanib, hokim komponent ifodalaydigan atoqli (xususiy) otga tegishli unvon, sotsial mavqe, turli qarindoshlik aloqasini anglatadi: “къурдашым Магъаммат” – rus tilida: «друг Магомед», “къызардашыш Патимат” – rus tilida: «сестра Патимат», “эгечим Патимат” – rus tilida: «сестра отца Патимат», “бийке Патимат” – rus tilida: «госпожа Патимат» (аунап «княгиня Патимат») [6, 10-11].

Alohida boʻlmasa ham, tadqiqotchi tomonidan bu sirada aniqlovchi sifatida kishi ismlari (xususiy nomlar) va hokim komponent mavqeyida turli murojaat, qarindoshlik aloqasi nomlari (“агъав”, “иним”, “эфенди”, “абай”, “ханым”, “бийке”, “агъа”, “аба”) ifodalanadigan soʻz birikmalarini qayd etadi: “Агъмат агъа”, “Папукъ аба” (buviga murojaat) [6, 10-11].

M.B.Guseynova “mazkur struktur tip boshqa turkiy tillar uchun xarakterli, deb hisoblaydi [6, 11]. Uning fikrini qoʻllab quvvatlagan holda, aytish joizki, oʻzbek tilida ham tarkibiy qismlari kishi ismlari (familiya va ota ismlari), yaʼni antroponimlardan tuziladigan soʻz birikmalari mavjud.

Mazkur birikmalar ikki guruhga boʻlinadi:

Birinchi guruhga tobe aʼzosi shaxs otlari, hokim aʼzosi kishi ismlari (familiya yoki ota ismlari) – antroponimlardan tuzilgan soʻz birikmalari kiradi: *usta Abduqahhor, suvchi Nozim, general Rahimov, professor Neʼmatov, shoh Bobur, mulla Abdurahmon* v.h.

Ikkinchi guruhni tobe aʼzosi kishi ismlari (familiya yoki ota ismlari) –antroponimlar, hokim aʼzosi shaxs otlaridan iborat soʻz birikmalari tashkil qiladi: *Nurmat boʻzchi, Qosim sartarosh, Yusuf muallim, Haydar choʻpon, Xosiyat kashtachi, Akbar rais, Nasim polvon, Hanifa doya, Shodmon togʻa, Oysha xola* v.h.

Tobe aʼzosi shaxs otlari va hokim aʼzosi kishi nomlaridan tuzilgan (1-guruh), shuningdek, tobe aʼzosi kishi nomlari va hokim aʼzosi shaxs otlaridan tashkil topgan (2-guruh) soʻz birikmalari oʻzbek tilida shaxs tavsifining sintaktik ifodalanish vositasi, shakli, usuli, imkoniyati borligini dalillaydi.

M.Y.Xojiyeva “Antroponimlar (kishi ismi, familiasini anglatuvchi birliklar) tobe yoki hokim vaziyatda reallashuvini tasdiqlovchi bu soʻz birikmalari alohida guruhni tashkil etadi. Shunga koʻra, bu guruhni shaxsni tavsiflovchi soʻz birikmalari sirasida antroponim shakllantiruvchi guruh sifatida ajratish mumkin”, deb hisoblaydi [10,14]. Bu guruhga oid soʻz birikmalari ham tilning shaxsni atash va muayyan xususiyatiga koʻra tavsiflash vazifasini nutqda roʻyobga chiqishi bilan amalga oshiradi. Otlarga xos lisoniy imkoniyatlardan biri shaxs otlari va atoqli ot (antroponim)larning sintaktik aloqasi asosida voqelanar ekan, shaxs otlarining atoqli otlarni birlashtirish va ularga birikish qobiliyatlarini namoyon etadi. Boshqacha aytganda, oʻzbek tilida shaxsni tavsiflovchi ot leksemalarning atoqli otlar, yaʼni kishi ismi, ota ismi, familiasini anglatgan leksemalar bilan tobelanishidan hosil boʻladigan hamda kommunikativ maqsad va nutqiy ehtiyojdan paydo boʻladigan soʻz birikmalari mavjud. Bunday soʻz birikmalarining tarkibida kishi ismi, ota ismi, familiasini atovchi leksemalar goh tobe, goh hokim vaziyatda voqelana oladi [10, 14-15].

Ayni paytda, otlarning oʻzaro tobelanishidan hosil boʻladigan, aniqrogʻi, tobe va hokim aʼzolari otlardan tuziladigan soʻz birikmalari turkiyshunoslikda aksariyat “ismli birikmalar” sirasiga kiritilgan va mazkur soʻz birikmalarining bir turi sifatida oʻrganilgan, deb qatʼiy xulosalab boʻlmaydi. Chunki baʼzi

tadqiqotlarda bunday birikmalar “substantiv so‘z birikmalari” termini ostida o‘rganilgan, hatto turkiy va noqardosh tillardagi substantiv birikmalar qiyoslangan.

Jumladan, G.I.Babayeva ham “Turkiy tillarda otlarning muayyan guruhi ikkala komponenti ot bilan ifodalangan, shu bilan birga, bu komponentlardan birinchisi ikkinchisining aniqlovchisi bo‘lib xizmat qiladigan so‘z birikmalarini hosil qila oladi” [3, 8-9], deya e’tirof etadi. U substantiv so‘z birikmalarini ozarbayjon va rus tillari misolida qiyosan o‘rganar ekan, bunday so‘z birikmalarining tobe a’zosi bosh kelishikdagi ot bilan ifodalanishini nazarda tutib, “Tobe komponenti bosh kelishikdagi otli substantiv birikmalar” modelini alohida ko‘rsatib o‘tgan. Qizig‘i shundaki, model muayyan qurilma/formula/chizma/tarh shaklida berilishi lozim edi, ammo u so‘zlarda ifodalangan. Tadqiqotchi “bu model hozirgi ozarbayjon tilida keng qo‘llanilishi”ni, “nominativ shaklidagi otlar otlar bilan birikib, tobe komponent vazifasini bajarib, xilma-xil, ayniqsa, aniqlovchili munosabatlarni ifodalashi”ni qayd etadi [3, 10]. Muhim tomoni shundaki, ozarbayjon tilidagi “Tobe komponenti bosh kelishikdagi otli substantiv birikmalar” sirasiga shaxs tavsifini ifodalaydigan quyidagi birikmalarni kiritadi:

1. Nominativda tobe ot kasb yoki mutaxassislikni anglatuvchi substantiv so‘z birikmalari: *usta Məməd* – rus tilida: «мастер Мамед»; *dəyirmançı Həsən* – rus tilida: «мельник Гасан» v.h. [3, 10].

2. Substantiv so‘z birikmalari laqab yoki taxallusni ifodalaydi: *Nəhəng Səlim* – rus tilida: «Великан Салим»; *Ayi İlhan* – rus tilida: «Медведь Илхан» v.h. [3, 10].

3. Daraja, unvon yoki lavozimni anglatuvchi substantiv so‘z birikmalari: *professor Əli* – rus tilida: «профессор Али», *idmançı Seyid* – rus tilida: «спортсмен Сейид», *müdür Bəsir* – rus tilida: «директор Басир» v.h. [3, 10].

4. Substantiv so‘z birikmalari millatga ishora qiladi: *azəri oğlan* – rus tilida: «азербайджанец мальчик» v.h. [3, 11].

5. Substantiv so‘z birikmalari qarindoshlik yoxud boshqa munosabatlar termini sifatida xizmat qila oladi: *bacı Əminə* – rus tilida: «сестра ЭМИНЭ», *yoldaş Muxtar* – rus tilida: «товарищ Мухтар», *gonşu Emin* – rus tilida: «сосед ЭМИН» v.h. [3, 11]

6. Substantiv so‘z birikmalari muayyan shaxsni u ishlayotgan yoki ro‘uxatda turgan tashkilot yoki muassasa orqali nomlaydi: *ambarçı İdris* – rus tilida: «Идрис, который работает на складе» v.h. [3, 11].

G.I.Babayeva ajratib ko‘rsatgan olti xil so‘z birikmasi, muallif ularni “substantiv birikmalar” deb baholagan bo‘lsa ham, aslida, shaxsni mutaxassislik, laqab, taxallus, daraja, unvon, lavozim, millat, qarindoshlik yoki boshqa munosabatlar, ishlayotgan tashkilot yoki muassasa bilan aloqadorligiga ko‘ra aniqlashtiradi. Asosiysi, tadqiqotchi substantiv birikmalar sirasida guruhlagan olti xil so‘z birikmasi turkiy tillarga mansub ozarbayjon tilida shaxs tavsifi so‘z birikmalarida ifodalanishining yorqin dalili sanaladi.

Xulosa. Tahlil natijasidan anglashiladiki, ozarbayjon va qumiq tillariga xos dalillarning aksariyati shaxs tavsifini «shaxs oti+kishi nomi» va «kishi nomi+shaxs oti» birikish tarziga ega qurilmalarda ifoda etsa ham, mazkur so‘z birikmalarining lisoniy qurilishi va sintaktik qoliplari aniqlanmagan. Bundan farqli o‘laroq, o‘zbek tilida shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining bu turi substansial sintaksis nuqtayi nazaridan tadqiq qilingan: mazkur birikmalarining lisoniy qurilishi va sintaktik qoliplari aniqlangan [7;10;11].

Ma’lum bo‘ladiki, G.I.Babayeva substantiv birikmalar sirasiga kiritgan olti xil so‘z birikmasi ham, M.T.Ramazanov ismli birikmalar tarkibida ajratgan besh xil guruh ham ozarbayjon tilida, M.B.Guseynova izofali birikmalar sirasida ko‘rsatib o‘tgan uch guruh qumiq tilida shaxs tavsifi so‘z birikmalari orqali ifodalana olishini yana bir karra tasdiqlaydi. Demak, o‘zbek, ozarbayjon, qumiq tillarida shaxsni tavsiflovchi so‘z birikmalarining mavjudligi “turkiy tillarda shaxs tavsifi sintaktik birliklar, ya’ni so‘z birikmalari ko‘rinishlarida ifodalanish imkoniyatiga ega” deb umumlashtirishga asos bo‘ladi.

ADABIYOTLAR:

1. Рагимханова С.Э. Синтаксические модели субстантивных словосочетаний в азербайджанском языке//Вестник Адыгейского государственного университета. Сер. Филология и искусствоведение. –Майкоп, 2009. Вып.3.– С. 204-209.

2. Ященко Н.В. Свободное словосочетание как способ номинации лиц женского пола в современном немецком языке/Балтийский гуманитарный журнал.2018.–№2(23).Т.7.–С.107-111. <https://cyberleninka.ru/journal/n/ baltiyskiy-gumanitarnyy-zhurnal>

3. Бабаева Г.И. Простые и сложные субстантивные словосочетания в азербайджанском и русском языках: Автореф.диссер...кандидата филол. наук. – Махачкала, 2016.–25 с. <https://www.dissercat.com/content/prostye-i-slozhnye-substantivnye-slovosochetaniya-v-azerbaidzhanskom-i-russkom-yazykakh/read>

4. Рамазанов М.Т. Именное словосочетание в азербайджанском языке в сравнительно-сопоставительном освещении. <https://lib.herzen.spb.ru/media/magazines/contents/1/93/ramazanov93210212.pdf>
5. Зиннатуллина Г.Х. Типы и функции апеллятивных идентификаторов (на примере художественных текстов татарской литературы) // Сибирский филологический журнал. 2013. –С.227-231. <https://cyberleninka.ru/article/n/typy-i-funksii-apellyativnyh-identifikatorov-na-primere-hudozhestvennyh-tekstov-tatarskoy-literatury/pdf>
6. Гусейнова М.Б. Изафетные словосочетания в кумыкском языке: Автореф. диссер. ... кандидата филол.наук. – Махачкала, 2006. –24 с. <https://www.dissercat.com/content/izafetnye-slovosochetaniya-v-kumykskom-yazyke/read>
7. Nazarova S.A., Khojiyeva M.Yu. Personal Description in the Word Combination and Expression in a Speech// International Journal of Integrated Education. ISSN: 2620-3502 (E) 2615-3785 (P) Impact factor - 5.8. Volume 3 Issue II. Feb.2020. -P.15-18. <https://journals.researchparks.org/index.php/IJIE>
8. Назарова С. Лисоний синтактик курилиш колиплари хусусида // Бухоро давлат университети илмий ахбороти. – Бухоро, 2008. -№3. – Б.66-68.
9. Назарова С.А. Сўз бирикмаси синтаксиси субстанциал талқинда. –Т.: Фан, 2015. – 112 б.
10. Хojiyeva M.Y. O‘zbek tili so‘z birikmalarida shaxs tavsifi (substansial va sotsiopragmatik aspektlarda). Filol. fanlari... falsafa doktori (PhD) disser.avtoref. –Buxoro, 2023.– 59 b.
11. Nazarova S., Khojiyeva M. Ismli birikmalar. – Buxoro: Bukhara hamd print, 2023. – 156 б.

AN APHORISM AS AN ENTIRE PASSAGE: MECHANISMS OF STRUCTURAL-SEMANTIC ORGANIZATION

*Akramov Izzatulla Ikromovich,
Bukhara State University,
Researcher of the English linguistics department
i.i.akramov@buxdu.uz*

Abstract:

Background. *The relevance of the undertaken research is determined by an integrated approach to the study of an aphorism as an integral text. Of particular importance is the inclusion in the scientific paradigm of the study of those communicative factors, extralinguistic, that determine the production of the text and its interpretation. An aphorism is considered from the standpoint of communicative stylistics as a special type of text, linguoculturally and genre specific. The purpose of the article is to study the basic structural mechanisms of the design of an aphorism as an integral text and the conditioning of such an aphoristic structure on the semantics and pragmatics of an aphorism.*

Research methods. *Research methods form an integral complex, which includes methods of structural-semantic and intertextual analysis, methods of linguistic and philological interpretation. If an aphorism is presented in a literary text as a component of its semantic space and a fully formed syntactic unit, then it is studied as an integral text, and its semantics acquires a universal meaning, i.e. the structural and functional autonomy of an aphorism is possible only if its original meaning is transformed when extracted from a specific context in the coordinates of a literary text*

Results and discussions. *The mechanisms of the structural-semantic organization of an aphorism, identified in the process of research, are determined by certain semantic features of this integral text: first of all, the aphorism must have a laconic volume (no more than three sentences), in the coordinates of which a certain universal idea must be realized, revealing ontological aspects, guiding human reflections to reveal universal values, which can provide answers to important questions of existence.*

Conclusion/Recommendations. *The design of an aphoristic statement within an integral text of a larger volume is also determined by extralinguistic factors that contribute to the translation of linguistically and culturally significant meanings through an aphorism. The mechanisms of the structural-semantic organization of an aphorism are determined by its general significance and expressiveness (taking into account its particular characteristics of expressiveness, emotionality and imagery). Intertextuality can also play an important role in the design of the structure of an aphorism and its functioning in the text.*

Key words: *aphorism, literary text, linguistic and stylistic specificity, structural and semantic features, context, pragmatic effect, value picture of the world.*

АФОРИЗМ КАК ЦЕЛОСТНЫЙ ОТРЫВОК: МЕХАНИЗМЫ СТРУКТУРНО-СЕМАНТИЧЕСКОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

Аннотация. *В данной статье мы попытаемся проанализировать комплексный подход к изучению афоризма как целостного текста. Особое значение имеет включение в научную парадигму изучения тех коммуникативных экстралингвистических факторов, которые определяют производство текста и его интерпретацию. Афоризм рассматривается с позиций коммуникативной стилистики как особый тип текста, лингвокультурно и жанрово специфический.*

Ключевые слова: *афоризм, текст, лингвостилистическая специфика, структурно-семантические признаки, контекст, прагматический эффект, ценностная картина мира.*

BUTUN BO'LAK SIFATIDA AFORIZM: TUZILISHI VA SEMANTIK JIHATDAN YUZAGA KELISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya. *Ushbu maqolada biz aforizmni integral matn sifatida o'rganishga kompleks yondashuvni tahlil qilishga va izlanishlarimiz natijalarini asoslashga harakat qilamiz. Matnni yaratish va uni talqin qilishni belgilaydigan ekstralingvistik kommunikativ omillarni o'rganishning ilmiy paradigmasiga kiritilishi alohida ahamiyatga ega. Aforizm kommunikativ stilistika nuqtayi nazaridan lingvomadaniy va janrga xos bo'lgan maxsus matn turi sifatida qaraladi.*

Kalit so‘zlar: aforizm, matn, lingvistik-stilistik o‘ziga xoslik, strukturaviy-semantik xususiyatlar, kontekst, pragmatik effekt, dunyoning lisoniy manzarasi.

Introduction. Modern linguistics generates an integrated approach to the study of literary text, which is aimed at considering the influence of linguistic and extralinguistic communicative factors of communication on the process of generating a text and its interpretation [1:7]. Extralinguistic factors include the personality of the author and the specifics and features of the implementation of aesthetic communications, as well as the nature of the communicative situation, genre, etc. [1: 8]. for a functional approach, significant within the framework of communicative stylistics, the determining factor is not the structural-linguistic method of describing styles, but the identification of the specifics of the functioning of styles in correlations “style-forming factors and linguistic means” [2:8] and revealing the importance of the extralinguistic in communication.

Modern concepts of communicative stylistics interpret an aphorism as a special text, which is characterized by linguistic-stylistic and genre specificity. Traditionally, aphorisms are understood as judgments that are brevity, characterized by philosophical meaning and completeness in a semantic sense [3]. such judgments retain a connection with the personality of a particular author and have a figurative form [4:3]. aphorisms are also studied from the standpoint of cognitive-pragmatic and linguo-culturological approaches, cf.: “... aphorisms <...> contain a large amount of information about traditions, foundations, the uniqueness of the worldview and mentality of a particular linguistic community” [5:8]. In the scientific paradigm of modern linguistics, it is promising to consider an aphorism as an integral text of a small format, as a statement that has a special semiotic and communication status.

The aim of the article is to study the basic structural mechanisms of the design of an aphorism as an integral text and the conditioning of such an aphoristic structure on the semantics and pragmatics of an aphorism.

Aphorism as a complex phenomenon is a relevant object of linguistic research, developing in several directions, priority among which are communicative-stylistic, cognitive-pragmatic, linguo-culturological and structural-semantic. Communicative stylistics creates the necessary conditions for clarifying specific features of an aphorism, in particular, recognizing its artistic and figurative speech concretization as fundamental. This basic feature of a literary text is determined by a number of extralinguistic factors that distinguish it from figurative concretization in a literary text, and in this regard, it is important that the concept of artistic figurative speech concretization is much broader than the understanding of verbal imagery [1:]. aphorisms are used in a variety of social spheres (science, art, politics, law, religion, everyday life, etc.), in official and informal communicative situations, combining logical and figurative thinking, which is facilitated by a complex of aphorism functions, including aesthetic, communicative, expressive function. In addition, an aphorism is potentially characterized by pragmatic attitudes of reasoning, denunciation and reproach, warning, (self) justification, statement, justification, appeal to authority (including the author himself), motivation, advice, knowledge, aesthetic impact, etc.[6:9].

The study of an aphorism from the standpoint of systemic stylistic analysis and the method of linguistic interpretation of a text [7] makes it possible to identify its constitutive features - general significance, expressiveness, information density (conciseness) - and to describe the correlative connections of the logical-semantic and linguistic aspects in an aphorism as a special type of text.

The cognitive-pragmatic direction in the study of aphorisms makes it possible to identify their features that organize aphoristic discourse [8] and the linguistic picture of the world, determined by the mentality of the ethnic group and linguistic personality [9]. the structural-semantic approach focuses on describing the place of aphorisms in the paremic picture of the world, their correlations with proverbs, sayings and other phraseological units [5; 10; 11], and also determines the specifics of an aphorism as a small-format text as a whole [12; 4], including in the aspect of intertextuality [9;5].

Methods. In the process of scientific research, we selected aphorisms used in artistic and scientific works in Uzbek and English languages as research objects and used appropriate research methods. Structural-semantic and intertextual analysis methods, linguistic and philological interpretation were used as research methods.

Results and discussion. It is traditional for linguistics to consider aphorisms as texts, regardless of whether they are individual literary works (i.e., isolated aphorisms) or whether they are presented in larger texts (i.e., introductory aphorisms). in addition, the texts may also contain such aphorisms that are not interpreted adequately out of context, i.e. structurally limited by context.

As a special type of text, an aphorism is both a speech work, which is characterized by independence, and a microtext (a component of the macro-context) [3], while such characteristics can be applied to the same aphorism [5], which determines its structure and functions. Based on the structural criterion, isolated and introductory aphorisms are distinguished. Isolated aphorisms are statements that the author himself qualifies as aphorisms, which allows him to sometimes combine them into separate collections of his own sayings. The very name of the genre - aphorism - is not always represented in the titles of books (for example, "for every day", "The Way of Life" by L. N. Tolstoy); sometimes authors resort to using synonyms of the term (for example, "Maxims and Moral Reasoning" by La Rochefoucauld). Nevertheless, there are also cases of including the very name of the genre (for example, "excerpts and aphorisms" by P. Ya. Chaadaev). Introductory aphorisms are studied as sayings that are an integral component of an artistic or journalistic, scientific text, which are nevertheless isolated from larger texts on the basis of the implementation of conceptually significant ideas in them (in this case, the marker is lexemes and lexical combinations included in a certain concept sphere) and the possibility of limiting the volume of the introductory aphorism (no more than three sentences).

In our opinion, if the aphorism is not initially isolated, but is presented in the text as its semantic and structural component, as a separate syntactic unit within the text, then it can be studied from the standpoint of linguistics only as an integral text, and its semantic structure in this case acquires a more universal meaning, applicable not only to a specific context from which it is isolated, but also realizing ontological content. In other words, the structural and functional autonomy of an aphorism becomes possible only if its original meaning is transformed when extracted from a specific context in the coordinates of a literary text.

The mechanisms of the structural-semantic organization of an aphorism are determined by certain semantic features of such a complete text: first of all, the aphorism must have a laconic volume, the coordinates of which must contain a certain universal idea that clarifies aspects of human existence, guides his thoughts about universal values, capable of giving answers to ontologically important questions. It is also important to note that the design of an aphoristic statement within an integral text of a larger volume is also influenced by extralinguistic factors that make it possible to translate linguistically and culturally through an aphorism.

Significant meanings elucidation of the mechanisms of the structural organization of aphorisms is necessary, first of all, for their correct isolation from the macro context. The semantics of an aphorism must be broader than the context that surrounds it; it must be free from contextual and situational restrictions, for example: "generally speaking, it is not known how much a person needs. Probably more than what he needs, and no less than what he wants" [7]. The aphorism given as an example is indeed a statement that has a universal meaning, which is realized through the use of the lexeme person and other grammatical means (pronouns how many, comparative degree of adjectives more, less, etc.).

An aphorism can be included by the author in a wider context in different ways. An aphorism does not always undergo transformations in the text: it may not depend semantically on the context, its representation as an independent text does not entail changes in the structural-semantic and/or lexico-grammatical organization. Such aphorisms are autonomous in relation to the surrounding context, for example: "Some of us get paid well. Some win on loans. Some people even know where they get their money from. But we have little idea what wealth is" [8]. We emphasize here that the autonomy of the highlighted aphoristic statement can be recognized through the use of the pronouns we and some, which expands the applicability of the verbalized situation to the widest addressee.

One of the important semantic features that determine the structure of an aphorism as an integral text of a special type is its general validity. General validity is understood as a certain value of information recorded by an aphorism for a wide addressee. The cognitive basis of general significance is formed by the relevance of the subject of speech and the philosophical depth of the statement, provided, in turn, by ontological meanings. In the structure of an aphorism, universal validity appears as an explication of didacticism. For example, M. Zoshchenko: "science is imperfect. Truth is the daughter of time" [9]. Universal significance receives consistent implementation here, first of all, because it refers the addressee to his background knowledge and experience: indeed, a person cannot comprehend the truth in an instant, this requires work and time. In our opinion, this aphorism also has special pragmatics due to the author's effective implementation of laconic statements and their strict logical sequence: science is a "tool for comprehending truth" - truth.

In a specific literary text in which the introductory aphorism is differentiated, general significance can have different shades: these are the edifying, pragmatic or contemplative-informative orientation of general significance. However, in all cases of realization of general significance, the priority remains the generality

of the judgment, supported by the expressiveness of their speech design, for example: “war will become absurd, I think, when technology reaches an absolute hit” [9]. In the above aphorism, universal significance is achieved by appealing to the universal values of humanity and anti-war pathos, while the semantics of the aphorism is clarified by highlighting those pragmatic features that characterize modern changing world: the author proves that war will then cease to be a popular way of resolving contradictions when the technical means of waging it become impeccable in terms of the effectiveness of achieving results.

Paradoxically, an aphorism retains its general validity even in the case of zero realization of generality, which can be observed in aphorisms of a specific historical or epigrammatic nature, for example: “Actually, we don’t have any rich people. But we have wealthy people” [8]. We especially emphasize here that the opposition, which is the basis of the structural-semantic organization of the aphorism, has a specific historical origin, since M. Zoshchenko creates his literary texts in the first years of Soviet power, which means that the denial of wealth is included in the official ideology. Nevertheless, it is clear that it is precisely the discrepancy with ideological guidelines that forms the basis of satire in Zoshchenko’s texts, therefore the use of synonyms rich and prosperous acquires new clarifying stylistic and semantic shades.

General significance can also be realized in those aphorisms that, at first glance, are statements characterized by an ironic or humorous orientation. In such aphorisms, evaluativeness comes to the fore, manifesting the components of the author’s value picture of the world, for example: “The patient is worthless now. that is, everyone strives to get treatment for nothing using an insurance card” [7]. the addressee is initially convinced that here the author proves the importance of the main goal of medicine - providing assistance to the patient, ultimately aimed at healing, and not at obtaining profit. The pragmatic effect arises due to the proof of this truth “from the opposite”, which, moreover, is enhanced by means of the colloquial style (worthless, insurance card, free treatment).

It should be especially noted that the mechanisms of the structural and semantic organization of an aphorism as an integral text are also based on originality. originality is considered from the perspective of linguistics as the emphasized unusualness of an aphorism in terms of verbalization and semantics of the statement.

Thanks to originality, the contradictions between the meaning of an aphorism and the reader’s extra-linguistic experience or language norms can be actualized, for example: “the mind is a dark matter” [7]. Traditionally, in Russian linguistic culture, the mind is understood as that which leads to the light of knowledge, therefore the paradoxical nature of the semantics of an aphorism allows the author to achieve the necessary pragmatic effect: the statement is easily remembered. In addition, this aphorism also has a deep philosophical meaning - indeed, the mechanisms of human cognitive activity are difficult to comprehend, since the observer necessarily turns out to be at the same time a participant in the experiment (it is impossible to observe the activity of consciousness in isolation, without involving the cognitive mechanisms of one’s own mind).

Alogism, which forms the foundation for the realization of the originality of an aphorism, consists of an unexpected combination of phenomena and objects that are not correlated in everyday life. Thanks to illogicality, the author gets the opportunity to express in a laconic form the entire semantics of artistic images, often in this way defining his own artistic principles and demonstrating the value picture of the world in an artistic text, for example: “and stupidity is not a headache that goes away with powder” [7]. in the above aphorism, the pragmatic effect is fixed by comparing the incomparable (stupidity is a headache), revealing a significant component of the value the author’s world pictures.

1. Мечеть “Абу Ханифа” (Узунбулокский ССГ Бахмальского района Джизакской области, кишлак Урта)
2. Мечеть “Алихонтур Соғуний” (Саритепинский ССГ Дуствликского района Джизакской области, улица Дуствлик, здание №149)
3. Мечеть “Амири Хамза” (Мустакилликский ССГ Зааминского района Джизакской области, кишлак Лайлак-уя)
4. Мечеть “Абдурахмон ибн Авф” (кишлак Баланчакир Янгибадского района Джизакской области)
5. Мечеть “Бурхониддин Маргилоний (Бустонский ССГ Арнасайского района Джизакской области, улица Галаба дом №5)
- **этнонимов** (названия различных видов этнических общностей):
1. Мечеть “Барлос” (Барлосский ССГ Бахмальского района Джизакской области, кишлак Барлос)
2. Мечеть “Кангли” (махалля Таракли Кангли ССГ Шараф Рашидовского района Джизакской области)
3. Мечеть “Кирк” (Бахтский МСГ Зааминского района Джизакской области, улица Бахт №7)
- **символического характера** (имена Аллаха):
1. Мечеть “Ар-Рауф” (Янгибустонский ССГ Арнасайского района Джизакской области, улица Ойбека дом №10)
2. Мечеть “Ар-Роҳман” (Ойкорский ССГ Бахмальского района Джизакской области, кишлак Тангатоппи)
3. Мечеть “Раҳмон” (Бабурский МСГ Арнасайского района Джизакской области, улица Н.Холматова дом №4)
- **имени пророка (Мухаммад (сав)):**
1. Мечеть “Мустафо” (Арватинский ССГ Шараф Рашидовского района Джизакской области)
2. Мечеть “Расулulloх” (кишлак Увал Бешкубинского МСГ Зааминского района Джизакской области)
- **религиозных понятий:**
1. Мечеть “Исломобод” (Узбекистанский ССГ Мирзачульского района Джизакской области)
2. Мечеть “Ислом Нури” (А.Икромовский ССГ Пахтакорского района Джизакской области, улица Э.Холматов)
3. Мечеть “Иймон” (кишлак Пучугой Янгибадского района Джизакской области)
4. Мечеть “Номозгор” (кишлак Беккедди Бахмальского ССГ Бахмальского района Джизакской области)
5. Мечеть “Нури Ислом” (кишлак Сарбазар Галляаральского района Джизакской области)
6. Мечеть “Хидоят” (Галаба МСГ Пахтакорского района Джизакской области, Дўстлик шох кўчаси)
- **названия деревьев:**

1. Мечеть “Кушчинор” (Кулама ССГ Шараф Рашидовского района Джизакской области, улица Темирязов)
 2. Мечеть “Куштол” (кишлак Кангли Куштолский ССГ Зааминского района Джизакской области)
 3. Мечеть “Якка тут” (Куламанский ССГ Шараф Рашидовского района Джизакской области)
 4. Мечеть “Якка Кайрагоч” (махалля Раваллик Хамид Алимджанского АВ Шараф Рашидовского района Джизакской области)
- **названия паломничеств:**
1. Мечеть “Алам ота” (Фидокорский ССГ Бахмальского района Джизакской области, кишлак Аламли)
 2. Мечеть “Азлархон” (Чорвадорский ССГ Зааминского района Джизакской области, кишлак Жалоир)
 3. Мечеть “Аразгелди ота” (Фаришского района Джизакской области, кишлак Нарвон)
 4. Мечеть “Горбобо” (Адрободский ССГ Зааминского района Джизакской области)
 5. Мечеть “Трекуша” (кишлак Гараша Фаришского района Джизакской области)
 6. Мечеть “Губдин ота” (кишлак Губдин Галляаральского района Джизакской области)
 7. Мечеть “Новка ота” (кишлак Новка Новканского ССГ Бахмальского района Джизакской области)
 8. Мечеть “Парпи ота” (кишлак Паймарт Раватского ССГ Шараф Рашидовского района Джизакской области)
 9. Мечеть “Уснат ота” (кишлак Калтатой Кутлугабадского МСГ Бахмальского района Джизакской области)
 10. Мечеть “Хужаи Сероб” (кишлак Бош Пешагор Наваинского МСГ Зааминского района Джизакской области)

Сохранение прозрачной внутренней формы экклезионимов поддерживается многовековой традицией именованья культовых объектов.

Стабильность используемых моделей превращает экклезионимы в непреходящие духовные ценности для народа. Прозрачность внутренней формы помогает сохранить особое значение имени-посвящения.

4. Экклезионимы отличаются меморативным характером, который обусловлен особыми мотивами номинации объектов культового назначения.

5. Экклезионимы отличает широкое использование лексики религиозной семантики и стилистической оценки.

6. Имя одного объекта может функционировать в виде различных вариантов в зависимости от сферы употребления: *мечеть Кушчинор* – *мечеть Катта*.

7. Лексическое значение экклезионимов включает этнокультурную составляющую. В содержательном плане в названиях объектов культового назначения выражаются духовные ценности верующих, уважительное отношение к почитаемым ими религиозным праздникам.

Экклезионимы сохраняют прозрачную внутреннюю форму и мотивацию.

Доминирует в семантике экклезионимов идея сакральности, которая является одной из основных категорий религиозного мировоззрения. В целом, в силу специфики объекта номинации, неотъемлемости сопутствующих названиям фоновых знаний и определенных ассоциаций, экклезионимы оцениваются как историко-культурные номинативные единицы.

Семантическое наполнение экклезионимов включает этнокультурный компонент, отражающий особенности менталитета народа. Своеобразие семантики джизакских экклезионимов связано с характерными особенностями мировидения узбекского народа, системой его духовных ценностей.

Экклезионимы Джизакской области отличаются не только большими структурными, но и семантико-грамматическими возможностями. Использование в них семантико-грамматического потенциала позволяет передавать различные значения, связанные с выражением местоположения мечети.

Выводы. Изучение названия мечетей культового значения – интересная тема для исследования. История мечетей, история их названий – все это уникальные сведения об истории, культуре, языке нашего Джизака. Утрата исторических названий мечетей может привести к деградации народной культурной традиции, к обеднению исторического, культурного сознания. Все это позволяет считать экклезионимы культурно-историческими памятниками духовной культуры узбекского народа.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Подольская Н.В. “Словарь русской ономастической терминологии”. – М.: Наука, 1978. – 200 с.
2. Подольская Н.В. “Словарь ономастической терминологии”. 2-е изд. переработ. и доп. - М.: Наука, 1988.
3. Лингвокультурологическое исследование национальной (русской) языковой личности: на материале афористики. – дисс...И.П.Васильюк, 2004.
4. Средневековые мечети Средней Азии и Сирии. – дисс...Фаузи Мустафа, 1993.
5. Супрун В.И. Лингвокультурологические и лингводидактические аспекты русской ономастики // Ценности в лингвокультурном аспекте: языковое сознание, коммуникация, текст: материалы Междунар. науч. конф. Тяньцзинь: Тяньцзин. ун-т иностр. яз., 2017. С. 164-171.
6. Щербак А.С. Имя собственное как ономастический знак // Экология языка и речи: материалы 5 Междунар. науч. конф. / отв. ред. А.С. Щербак. Тамбов: Принт-Сервис, 2016. С. 286-289.
7. Попов С.А. Православные названия на карте Воронежской области // Православный учёный в современном мире: проблемы и пути их решения: материалы Междунар. науч. конф., проведённой по благословению Митрополита Воронежского и Борисоглебского Сергия: в 2 ч. / Отраденское объединение православных ученых. Воронеж: Изд. О.Ю. Алейников, 2013. Ч. 2. С. 151-153.
8. Бугаева И.В. Агиотопонимы: частный случай отражения ментальности в географических названиях // *Respectus Philologicus*. 2006. № 10 (15). С. 119-130.
9. Мадиева Г.Б., Супрун В.И. Общие проблемы ономастики // Теория и практика ономастических и дериватологических исследований / науч. ред.: В.И. Супрун, С.В. Ильясова. Майкоп: Изд-во «Магарин Олег Григорьевич», 2017. С. 1-51.

ЮКЛАМАЛАРНИНГ ЁРДАМЧИ СЎЗЛАР БИЛАН ВАЗИФАДОШЛИГИ

Қаҳҳорова Гулруҳ Шавкатовна,

*Бухоро давлат университети тадқиқотчиси,
филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD)
gulrukh@mail.ru*

Аннотация. Ушбу мақолада юкломалар вазифаси жиҳатидан ўзига яқин бўлган кўмакчи ва боғловчи сўзлар билан вазифадошлик ҳосил қилиши ёритилган. Ёрдамчи сўзлар орасида бир-бирига кўчиши, бирининг вазифасини иккинчиси бажаришидек хусусият барча ёрдамчи сўзларга хос бўлганлиги каби юклама ҳам бундан мустасно эмаслиги мақолада қузатилади. Бунга уларнинг сўзни сўзга ёки гапни гапга боғлашга, уларга қўшимча маъно юклашга хизмат қилиши асос яратади. Шунингдек, мақолада кўмакчини юклама билан бир туркумга бирлаштирган 4 жиҳати таҳлилга тортилган: биринчиси – ҳар иккаласининг сўзни сўзга боғлашга ёрдам бериши. Фақатгина кўмакчи сўзни сўзга тобе, юклама эса тенг боғлайди; иккинчиси – икковининг ҳам маъно бағишлаш хусусиятига эгаллиги; учинчиси – гапнинг мазмуний ва шаклий тузилишида ўзи синтактик боғланиб келган сўзга бирикиб, алоҳида имплицит пресуппозицияга ишора қилиши; тўртинчиси – улар ўзи иштирок этган гапда алоҳида гап бўлаги бўлолмалиги туфайли ажралиб туради ва ўзига хос манتيқий маъно билдириб, гапнинг мазмуний тузилишини мураккаблаштиради.

Калит сўзлар: дискурс, алоқа-муносабат, соф ва вазифадош, юклама, боғловчи, кўмакчи, зидлов, айирув, тенглик, тобелик.

ВОПРОСЫ ФУНКЦИОНАЛЬНОСТИ ЧАСТИЦ СО ВСПОМОГАТЕЛЬНЫМИ СЛОВАМИ

Аннотация. В данной статье изучен вопрос образования частиц с предлогами и союзами, имеющими более схожие характеристики по функции. В статье проанализировано, что особенность перемещения друг к другу среди вспомогательных слов, выполняющая задачу одного из другого, характерна для всех вспомогательных слов, и частица не является исключением. Это основано на том, что они служат для связи слова со словом или предложения с предложением, придания им дополнительного смысла. В статье также анализируются 4 аспекта, объединяющие предлог с частицей в одну категорию: первый – то, что оба помогают связывать слова со словами. Только предлог связывает слово со словом в придаточной форме, а частица – в равной форме; во-вторых, им обоим свойственно придавать значение; третье – в содержательно-формальной структуре предложения оно сочетается со словом, с которым оно синтаксически связано, указывая на отдельную имплицитную предпосылку; в-четвёртых, они отличаются тем, что не могут быть самостоятельными предложениями, частью которых являются, придают собственный логический смысл и усложняют содержательную структуру предложения.

Ключевые слова: дискурс, связь-отношение, чистое и функциональное, частица, союз, предлог, противоречие, вычитание, равенство, зависимость.

ISSUES OF THE FUNCTIONALITY OF PARTICLES WITH AUXILIARY WORDS

Abstract. In this article, the question of the formation of particles with prepositions and conjunctions, which have more similar characteristics in terms of function, was studied. It was analyzed in the article that the feature of moving to each other among the auxiliary words, performing the task of one of the other, is characteristic of all auxiliary words, and particle is not an exception. This is based on the fact that they serve to connect word to word or sentence to sentence, to impose additional meaning on them. The article also analyzes 4 aspects that combine the preposition with the particle in one category: the first is that both help to link words to words. Only the preposition connects the word to the word in the subordinate form, and the particle connects it in the equal form; the second is that both of them have the characteristic of giving meaning; the third is that in the substantive and formal structure of the sentence, it is combined with the word it is syntactically connected with, pointing to a separate implicit presupposition; fourthly, they are

distinguished by the fact that they cannot be separate clauses in the sentence they are part of and they give their own logical meaning and complicate the meaningful structure of the sentence.

Key words: *discourse, communication-relationship, pure and functional, particle, conjunction, preposition, contradiction, subtraction, equality, dependence.*

Кириш. Дунё халқларидан кўпчилигининг тил тизими таркибида мустақил сўзларга қўшимча маъно юклаб, уларни ўзаро боғлашга хизмат қилувчи ёрдамчи лексикаси шаклланган. Луғавий маъно англатмаса-да, грамматик маъно, шакл ва вазифага эга бундай лексик бирликлар сўз, гапларга эмоция, экспрессивлик, интензивлик бахш этиши, уларни синтактик боғлаши жиҳатидан эътиборни тортади. Юкламалар шундай лисоний бириликлардан бири бўлиб, ёрдамчи сўз туркумлари қаторида ўз ўрнига эга. Баъзан у вазифаси жиҳатидан ўзига яқин бўлган кўмакчи ва боғловчи сўзлар билан вазифадошлик ҳосил қилиши кузатилади. Бунга уларнинг сўзни сўзга ёки гапни гапга боғлашга, уларга қўшимча маъно юклашга хизмат қилиши асос яратади. *Вазифадош юкламалар* ҳамда айрим мустақил сўзларнинг дискурсив сўзлар сифатида ёрдамчилик хусусиятлари хусусида А.Б.Пардаевнинг диссертациясида ҳам фикр-мулоҳазалар билдириб ўтилган. [9]

Уларнинг вазифаси қуйидагича белгиланган:

Кўмакчи	Боғловчи	Юклама
От, олмош, ҳаракат номи сифатдошни бошқа мустақил сўзга фақат бошқарув йўли билан тобе боғлайди.	Мустақил сўзларни ва содда ҳамда кўшма гап қисмларини тенг ҳам, тобе ҳам боғлайди.	Сўзларга қўшимча маъно юклаш баробарида сўз ва гапларни фақат тенг боғлаб келади.

Асосий қисм. Ҳозирги ўзбек тилида кўмакчи, боғловчи ва юклама деб номланадиган учта ёрдамчи сўз туркуми мавжуд. Уларнинг ҳар учаласи грамматик вазифасининг яқинлигига қараб бир уя – ёрдамчи сўзлар таснифи билан бирлаштирилган.

Кўмакчи, боғловчи ва юклама туркумидаги сўзлар грамматик шаклга, грамматик маъно ва вазифага эга, лекин аташ маъносига, ясаиш хусусиятига эга эмаслиги, урғу олмаслигига кўра мустақил сўзлардан ажратилади ва ҳар учаласи ёрдамчи сўзлар сифатида қаралади.

Демак, кўмакчи деганда, от, олмош, ҳаракат номи сифатдошнинг бошқа мустақил сўзга бошқарув йўли билан, тобе боғлашга ёрдам берувчи сўзлар тушунилади. Улар қатнашган бирикма кўмакчили бошқарувли бирикма ҳисобланади. Шунинг учун кўмакчилар келишиқ қўшимчалари билан ўрин алмашина олади, чунки буларнинг ҳар иккаласи ҳам тобе сўзни ҳоким сўзнинг талабига қараб боғлашга, улар ўртасида алоқа-муносабат ўрнатишга кўмак беради. Мана шу жиҳатдан кўмакчи ва келишиқ қўшимчалари ўзаро грамматик синонимлик ҳосил қилади. Кўмакчилар бош, қаратқич, жўналиш ва чиқиш келишигидаги сўзлар билангина бирга қўлланиб келади. Тушум (-ни) ва ўрин-пайт (-да) келишиқларидан сўнг келолмайди. Бош келишиқдаги сўзлар *билан, учун, сайин, сари, узра, бўйлаб, орқали, каби*; қаратқич келишигидаги сўзлар *билан, учун, устида, ичида, остида, қошида, ёнида*; жўналиш келишигидаги сўзлар *кўра, қараб, яраша, томон*; чиқиш келишигидаги сўзлар *буён, бери, кейин, сўнг, олдин, тортиб* кўмакчиларидан олдин кела олади.

Кўмакчини юклама билан бир туркумга бирлаштирган жиҳат тўрттадир:

биринчиси – ҳар иккаласининг сўзни сўзга боғлашга ёрдам бериши. Фақатгина кўмакчи сўзни сўзга тобе, юклама эса тенг боғлайди;

иккинчиси – икковининг ҳам маъно бағишлаш хусусиятига эгаллиги;

учинчиси – гапнинг мазмуний ва шаклий тузилишида ўзи синтактик боғланиб келган сўзга бириқиб, алоҳида имплицит пресуппозицияга ишора қилиши;

тўртинчиси – улар ўзи иштирок этган гапда алоҳида гап бўлаги бўлмаслиги туфайли ажралиб туради ва ўзига хос мантиқий маъно билдириб, гапнинг мазмуний тузилишини мураккаблаштиради. Масалан, *каби, сингари, янглиз, чоғли* кўмакчилари ўхшашликни; *томон, сари, қараб, қарата* кўмакчилари йўналишни; *кейин, сўнг, олдин, бери, нари, буён, сайин, бурун, илгари, оша, бўйи* кўмакчилари пайтни; *билан, орқали* кўмакчилари восита маъносини; *сабабли, туфайли, учун* кўмакчилари сабаб ва мақсадни; *узра, бўйлаб* кўмакчилари сатҳни; *бошлаб, тортиб* кўмакчиси бошланғич нуқтани, *бошқа, бўлак, ўзга, ташқари, қадар* айирув-чегараловни, *кўра, қараганда, биноан, асосан, бўйича, мувофиқ* асос-манбани, *ҳақида, тўғрисида* мавзуни, *ҳолда, йўсинда* ҳолатни, *яраша, лойиқ* вазни, *қарши, қарамай, қарамасдан* қаршилиқни билдирувчи кўмакчилар саналади. Ҳатто айрим кўмакчилар кўп маъноли ҳисобланади. Масалан, биргина “билан” кўмакчиси: а) восита

маъносини (микрофон билан гапирмоқ); б) пайт маъносини (ёзи билан китоб ўқиб чиқмоқ); в) ҳолат маъносини (уйга қувонч билан отилиб кирмоқ); г) биргалик маъносини (укаси билан театрга бормоқ); д) мақсад маъносини (бўлажак келин билан танишгани чиқмоқ) билдирса, учун кўмакчи: а) аташ маъносида (устози учун шеър ёзмоқ); б) мақсад маъносида (ўқиш учун келмоқ); в) эваз маъносида (ишлагани учун ҳақ олмоқ); д) сабаб маъносида (шамоллагани учун боролмаслик) келади.

Кўринадики, билан ва учун кўмакчилари мақсад маъносини ифодалаш жиҳатидан ўзаро маънодошлик (синонимлик) ҳосил қилиши кузатилади. Бундай маънодошлик каби / сингари / янглиг (ўхшатиш); сабабли / туфайли / учун (сабаб); орқали / билан (восита) кўмакчиларнинг грамматик табиати ва вазифасида ҳам кузатилади.

Кўмакчига хос ўхшатиш маъносини англатиш белгиси эса юкламага ҳам хосдир. Мана шу маънодошлик уларни синоним сифатида қарашга асос бўла олади. Масалан:

Отаси каби бўйдор йигит.

Йигитнинг бўйдорлиги худди отаси.

Бунда фақат гапнинг мазмунида эмас, синтактик қурилишида ўзгариш юз бермоқда. Таркибида кўмакчи қўлланган биринчи синтактик бирлик – мураккаб сўз бирикмаси бўлса, юклама иштирок этган иккинчи синтактик бирлик содда гапни ташкил қилган. Биринчи синтактик бирлик – мураккаб сўз бирикмасида “йигит” ҳоким (бош) сўз сифатида аниқланмишни, “отаси каби бўйдор” тобе сўз сифатида аниқловчини ҳосил қилган.

Иккинчи синтактик бирлик – содда гап таркибида *йигитнинг* сўзи қаратқич аниқловчи, *бўйдорлиги* – эга, *отаси* – кесим бўлак вазифасида келган.

Шундан ҳам англашиладики, кўмакчилар фақат сўзларни боғлаб, сўз бирикмасини ҳосил қила олса, юкламалар гап бўлақларини боғлаб, гапни ҳосил қила олади.

Кўмакчиларнинг объектлар ўртасидаги чегара маъносини ифодалаш юкламаларнинг аниқлов-чегаралов турига хос вазифани ёдга солади:

кўмакчи иштирокида: “Уни машинада йўлга **қадар** чиқариб қўйдим”.

юклама иштирокида: “Уни машинада **атиги** йўлгача чиқариб қўйдим”.

Бу ҳар иккала гапда “йўл” чегара сифатида танланиб, иш-ҳаракатнинг атиги шу объектга бажарилгани ва ундан нарисига бажарилмагани билдирилмоқда. Демак, чегара маъносини кўмакчи билан ҳам, юклама билан ҳам ифодалаш мумкин. Фақат бунда кўмакчи -га жўналиш келишиги қўшимчаси билан турланган ва мантиқий урғу олган йўл сўзидан кейин (йўлга қадар) келаётгани, юкламанинг эса, аксинча, отларга хос -гача чегаралов қўшимчасини ҳамда ва мантиқий урғу олган йўл сўзидан олдин келаётгани алоҳида эътиборни тортади. А.А.Шахматов таъкидлаганидек, кўмакчилар келишик формалари англатган маънони мустаҳкамлайди, тўлдиради, кучайтиради [10].

Умуман айтганда, кўмакчи ва юкламалар нутқнинг шакл ҳамда мазмун жиҳатдан шаклланишида муҳим вазифа бажариб келади.

Кўмакчи, боғловчи ва юкламанинг ўзаро яқинлиги, бир туркумга киритилиши муайян асосларга эга. Айтайлик, уларнинг ҳар учаласи ҳам соф ва вазифадош кўринишда учрайди. Масалан, *билан, учун, сари, сайин, каби, янглиг, сингари, узра, туфайли* кўмакчилари, одатда, соф кўмакчи бўлиб келса, *кейин, сўнг, олдида, қошида, ичида, ёнида, кўра, томон, қараб, бўйлаб* ва ҳоказолар баъзан кўмакчи, баъзан ўз маъносида келиши боис вазифадош кўмакчилар қаторига киритилади. Негаки, улар соф кўмакчилардан фарқли равишда фақат кўмакчи туркумида қатъий турмайди. Уларнинг қўлланиши мустақил сўзлар доирасида кўпроқ кузатилади. Қачонки кўмакчи вазифасида келса, кўчма маънони англатади. Масалан, “қизнинг *қошида* ўсмаси бор экан” дейилса, “*қошида*” сўзи от туркумига алоқадор ҳисобланади. Агар “мактабимиз *қошида* катта боғ бор” дейилса, “қошида” сўзи бунда кўмакчи сифатида эътироф қилинади. Чунки “қош” – инсон тана аъзоларидан бирининг номи (соматизм) бўлиб, ковоқ тепасидаги ёйсимон тукли қатламни англатади. Лекин яна у баъзи нарсаларнинг олд қисми, туртиб чиққан жойини, узук, исирга каби буюмларга ўйиб солинган ёйсимон гул – безакни, учинчи *шахс эгалик ва макон келишиклари шаклида (қошига, қошида, қошидан)* кўмакчи вазифасида макон муносабатларини ҳам билдиради [8]. У орқали бир объектнинг олдида, ёнида, ҳузурида ёки таркибида бошқа бир объектнинг борлиги, жойлашганлиги англашилади.

Кўмакчи, боғловчи ва юкламанинг боғлаш вазифаси ва хусусияти қуйидагича намоён бўлади:

Кўмакчи	Боғловчи	Юклама
сўзни сўзга тобе боғлайди	сўзни сўзга тенг боғлайди	сўзни сўзга тенг боғлайди
	гапни гапга тенг ёки тобе боғлайди	гапни гапга тенг боғлайди
сўзни сўзга фақат тобе боғлайди (гапни боғлолмайди)	сўзни сўзга тенг боғлайди	сўзни сўзга тенг боғлайди
	гапни гапга тенг боғлайди	гапни гапга тенг боғлайди
	гапни гапга тобе боғлайди	гапни гапга тобе боғлайди

Боғловчи – сўзни сўзга, гапни гапга ҳамда уюшиқ бўлақларни бир-бирига боғлаш вазифасини бажариб келади.

Шунга кўра боғловчи сўзлар иккига бўлинади:

Тенг боғловчилар	Эргаштирувчи боғловчилар
Уюшиқ бўлақларни ҳамда қисмлари тенг бўлган боғланган қўшма гапларни ўзаро боғлайди.	Эргашган қўшма гапларнинг қисмларини тобе-ҳоким муносабати орқали ўзаро боғлайди.

Шуниси борки, гап бўлақлари ёки гапларни ўзаро тенг боғлаш вазифасини боғловчилар каторида юкламалар ҳам бажариб келади. Мана шу маънода улар тенг боғловчилардан бириктирув ҳамда зидлов боғловчилари билан вазифадошлик ҳосил қилиб, уларнинг ички тури сифатида қайд этилади:

Тенг боғловчи ички турларининг қўлланиш хусусиятлари						
Т./р.	Номланиши	Мазмун-моҳияти ва вазифаси	Соф	Вазифадош	Қўлланиши	
					Сўз кўринишида	Қўшимча кўринишида
1.	Бириктирув боғловчилари	Бир пайтда бўлган воқеа-ҳодисани англатади.	<i>ва, ҳамда</i>	<i>билан</i> кўмакчиси, <i>-у, -ю, -да, ҳам</i> юкламалари	<i>ва, ҳамда, билан</i> кўмакчиси, <i>ҳам</i> юкламаси	<i>-у, -ю, -да</i> юкламалари
2.	Зидлов боғловчилари	Зид маъноли сўзларни ва гапларни ўзаро зидлаб боғлайди. Зидлов боғловчиларидан олдин вергул қўйилади.	<i>аммо, лекин, бироқ</i>	<i>балки</i> модал сўзи, <i>-у, -ю, -да</i> юкламалари	<i>аммо, лекин, бироқ, балки</i> модал сўзи	<i>-у, -ю, -да</i> юкламалари
3.	Айирув боғловчиси	Галма-гал, навбатма-навбат юз берган воқеликни англатади.			Такрор ҳолда қўлланади: <i>гоҳ-гоҳ, дам-дам, баъзан-баъзан, хоҳ-хоҳ, бир-бир, ё-ё.</i> Буларнинг иккинчисидан олдин вергул	

					кўйилади. Якка холда қўлланади: <i>ёки, ёхуд, ёйинки</i>	
4.	Инкор боғловчиси	Сўзларни ва гапларни ўзаро инкор мазмунда боғлайди. У қатнашган гапнинг кесими тасдиқ шаклида бўлади.			<i>на-на</i>	
Эргаштирувчи боғловчилар						
Т./р.	Ички кўринишларининг номланиши		Кўринишлари			
1.	Сабаб боғловчиси		<i>чунки, зероки, негаки</i>			
2.	Шарт боғловчиси		<i>агар, агарда, агарчи, гарчи, башарти, мободо, гарчанд</i>			
3.	Аниқлов боғловчиси		<i>яъни, (ки, ким)</i>			
4.	Мақсад боғловчиси		<i>деб, токи</i>			
5.	Ўхшатиш боғловчиси		<i>гўё, гўёки</i>			

Ҳозирги инглиз тилидаги боғловчилар маъно ва вазифасига кўрауч турга бўлинади:

1. **Тенг боғловчилар – Coordinating Conjunctions.** Бир хил сўроққа жавоб бўлиб, бир туркумга кирадиган, бир хил грамматик шаклда бир хил синтактик вазифага эга уюшиб келган икки ва ундан ортиқ сўз ёки ибораларни, тенг қисмли гапларни боғлайди. Жумладан, *and, but, or, nor, for, so, yet, and/or* тенг боғловчилар ҳисобланади.

Шулар орасида **and** боғловчисининг ўзбек тилига “ва”, “билан”, “ҳамда” сўзлари қаторида -у, -ю, -да, ҳам юкламалари орқали тўппадан-тўғри таржима қилиниши кўп кузатилади. Масалан: “Carrie nodded and asked her sister about the neighbourhood”. (Th.D. Sister Carrie, 11). – “Керри хўп дегандай бош ирғаб қўйди-да, опасидан қўни-қўшнилари суриштира бошлади”. (Т.Д. Бахтиқаро Керри, 18).

Келтирилган гапнинг аслиятидаги “nodded and asked” феълли тенг боғланишнинг таржимада “бош ирғаб қўйди-да,суриштира бошлади” кўринишида берилгани, яъни бунда **and** боғловчи ўрнида -да юкламаси боғловчи вазифасини бажариб, феъл билан ифодаланган кесимларни боғлаб келгани кузатилмоқда.

And боғловчиси гапнинг эга бўлақларини уюштириб боғлаб келса, бунда феъл кесимни кўплик сонда қўллашга тўғри келади. The sons and daughters are going to park (Ўғил ва қиз болалар паркка келишяпти).

But боғловчиси зидликни ифодалаши сабабли ўзбек тилига **аммо, лекин, бироқ** каби зидлик боғловчилари ёки **балки** модал сўзи, баъзан -у, -ю, -да юкламалари орқали таржимада берилади: “She wanted to make some reference to their relations upon the train, **but** was too timid. (Th.D. Sister Carrie, 12)”. – “У поездда бирга келишганини тилга олиб ўтмоқчи бўлди-ю, **бироқ** тортинчоқлиги йўл қўймади. (Т.Д. Бахтиқаро Керри, 19)”.
Yet боғловчиси ҳам зидликни ифодалаши туфайли ўзбек тилига уни аммо, лекин, бироқ каби зидлов боғловчилари қаторида шу вазифада қўлланиб кела оладиган -у, -ю, -да юкламалари билан таржимада бериш мумкин: “Yet she had applied so often. (Th.D. Sister Carrie, 54)”. – “**Бироқ** ҳар кимдан иш сўрайвериш ўлиб бўлди-ку! (Т.Д. Бахтиқаро Керри, 74)”.
Инглиз тилида танлаш ёки ажратиш маъносини билдириш учун ишлатиладиган **or** боғловчиси ўзбек тилидаги “ёки”, “ё”, “ёхуд”, “ёйинки” сингари айирув боғловчилари билан ифода этилади.

Nor инкор боғловчиси бўлиб, ўзбек тилига **на...на** ёки **ҳам** юкламалари орқали таржима қилинади. Фақатгина ундан олдин **not** ёки **neither** сўзлари келади. Жумладан: “ There were, in the last place, a few good followers, **neither** rich **nor** poor, famous, **nor** yet remarkably successful, with whom he was friendly on the score of good-fellowship.(Th.D. Sister Carrie, 36). – “Нихоят майхонага тез-тез қадам

ранжида қилиб турувчилар орасида бой ҳам, камбағал ҳам бўлмаган, бироқ ҳамма танийдигану шон-шуҳрат бобида омади келмаганлар **ҳам** бўлиб, Герствуд улар билан чинакам ошначилик қиларди. (Т.Д. Бахтиқаро Керри, 51).

Агар **or** ёки **nor** гапнинг уюшган эга бўлаklarини боғлаб келса, кесим ўзига яқин турган эга бўлаги билан мослашади.

So натижани ифодаловчи боғловчи бўлиб, ўзбек тилида бундай боғловчи тури мавжуд эмас. Шунинг учун ўзбек тилига таржима жараёнида бу сўз “натижада”, “шундай қилиб”, “шундай экан” кўринишларида ифода қилинади.

“So this was the game, was it? Shut him out and make him pay. Well, by the Lord, that did beat all! (Th.D. Sister Carrie, 184)”. – “Уларнинг хунарлари шу экан-да! Уйдан ҳайдаб, пул тўлашга мажбур қилишмоқчи бўлишибди-да! Буниси чиндан ҳам ҳаммасидан ошиб тушди-ку! (Т.Д. Бахтиқаро Керри, 243)”.

Келтирилган гапнинг ўзбекча таржимасида натижа маъноси сақланиб қолинган эса-да, уни ифодаловчи сўз ва сўз бирикмалари қўлланилмаган. Бундай ҳолат кўп кузатилади.

For сабаб маъносини билдирувчи ўзбек тилидаги “чунки” боғловчиси ёки “учун”, “туфайли”, “сабабли” кўмакчиси билан таржимада ўзаро жой алмаша олади. Лекин уни таржимада -дан келишиқ кўшимчиси билан ҳам ифодаласа бўлади: “Temporarily she gave little thought to Drouet, thinking only of the dignity and grace of her lover and of his consuming affection **for** her. (Th.D. Sister Carrie, 102)”. – “Хаёллари махбубининг олижаноблиги, кўркамлиги ва бекиёс эҳтироси билан банд бўлганидан бироз вақт Друэ ҳам эсидан чиқаёзди. (Т.Д. Бахтиқаро Керри, 140)”.

Боғловчилар услубий жиҳатдан фарқланади. Бунга **for** ва **yet** боғловчилари ҳам мисол бўла олади. Улар оғзақи нутқда деярли ишлатилмайди ва кўпроқ расмий, китобий ёзма нутқда ишлатилади.

2. Айирув боғловчилари – Correlative Conjunctions. Ҳозирги инглиз тилида **both . . . and (ва . . . (ҳар иккаласи) / ҳам . . . ҳам); either . . . or (ё . . . ё, ё) not only . . . but also (нафақат . . . балки . . . ҳам), neither . . . nor (на . . . на)** кабилар айирув боғловчилари ҳисобланади. Улар тенг қисмлардан олдин ё кейин, ёки шундай бирликлар орасида такрорланиб келади. Масалан: “The entire metropolitan centre possessed a high and mighty air calculated to overawe **and** abash the common applicant, **and** to make the gulf between poverty **and** success seem **both** wide **and** deep. (Th.D. Sister Carrie, 13)”. – “Нега деганда унинг кўриниши жуда ваҳимали бўлиб, оддий фуқарони танг қолдириш ва камбағаллик билан омад ўртасидаги ўриннинг қанчалик кенг ва чуқурлигини кўрсатиб қўйиш кўзда тутилгани-да. (Т.Д. Бахтиқаро Керри, 22)”.

Кўриятгани, бу гапнинг ўзбекча таржимасида икки ўринда “ва” тенг боғловчиси ҳамда бир ўринда “-да” кучайтирув-таъкид юклаганидан фойдаланилган, холос. Унда аслиятдаги каби айирув боғловчилари келтирилмаган.

And/or(ва/ёки) боғловчилари ўзидан кейин келган сўзнинг аввалги фикрга қўшимча ёки илова қилинганлигини билдиради. Улар расмий адабий тилда ишлатилмаса-да, илмий услубда кўп ишлатилади.

Қуйидаги гапда **either . . . or (ё . . . ё)** қолипи кўзга ташланади: “A man in his situation who comes, after a long round of worthless **or** hardening experiences, upon a young, unsophisticated, innocent soul, is apt **either** to hold aloof, out of a sense of his own remoteness, **or** to draw near and become fascinated and elated by his discovery. (Th.D. Sister Carrie, 95)”. – “Герствуд мавқеидаги кўп йиллар мобайнида ҳеч нарсага арзимайдиган аёллар билан таниш-билиш бўлиб юрган одам ёш, айнамаган, қалби очик жувонга дуч келиб қолганда **ё** икковларининг орасида ер билан осмонча фарқ борлигини фаҳмлаб ўзини четроққа олади, **ё** бўлмаса танишганлигидан суюниб кетиб бутун кучи билан унга етишишга интилади. (Т.Д. Бахтиқаро Керри, 130)”.

Келтирилган гапнинг қисмларини боғлашга айирув боғловчилари хизмат қилган.

3. Эргаштирувчи боғловчилар – Subordinating Conjunctions. Эргаштирувчи боғловчиларбош ва эргаш гапларни ўзаро боғлаш учун тобе гапларнинг бошида, уларнинг олдида келиб, ҳоким гап маъносини изоҳлашга, тўлдиришга хизмат қилади. Эргаштирувчи боғловчилар билан бошланган тобе гап алоҳида гап сифатида ажратилмайди. Масалан: *Whenever I see her, she always curtsseys and asks me how I do.* (Таржимаси: Уни қачон кўрсам, у доим таъзим қилиб мендан аҳволимни сўрайди. (Emmaby Jane Austen. Volume I. Chapter I. – P.4).

Маълумки, инглиз тилида боғловчилар тузилишига кўра тўртга бўлинади. Булар: 1. Содда боғловчилар – Simple Conjunctions: and, but, as, or, nor, after, till, that, so, for, hence, yet, since, when, if, lest, while, whether. 2. Ясама боғловчилар – Derivative Conjunctions: untill, unless, supposing, seeing,

provided, because, once, directly, before, consequently. 3. Қўшма боғловчилар – Compound Conjunctions: however, wherever, although, whereas, nevertheless, therefore. 4. Мураккаб боғловчилар – Composite Conjunctions: as well as, both ... and, either ... or, neither ... nor, whether ... or, as ... as, as ... so, so ... as, so ... that, rather ... than, such ... as, in order ... that, even though, even if, not so ... as, no sooner ... than, not only ... but, the ... the, no matter ..., who (when), such ... that, but that, or else.

Ўзбек тилида ҳам боғловчилар тузилиши ва қўлланиши жиҳатидан тўртга бўлинади:

1. Содда боғловчилар: ва, ҳамда, аммо, лекин, бироқ, ёки, ёхуд...
2. Такрор боғловчилар: ё..ё, гоҳ...гоҳ, дам....дам, бир...бир, ҳам...ҳам, на...на....
3. Жуфт боғловчилар: аммо-лекин, ва-лекин....
4. Қисқартма боғловчилар: аммо-лек, лек, вале.

Инглиз тилида юкломалар тузилишига кўра қуйидаги уч турга бўлинади:

1. Содда: just, still, even, else...
2. Ясама: *merely, simply, alone...*
3. Мураккаб: *also*.

Ўзбек тилшунослигида юкломанинг боғловчи сафига ўтишидан ҳосил бўлган “оралик ходиса”ларга нисбатан **боғловчи-юклама** атамаси ҳам қўллангани кузатилади [1].

Юкломалар сўзни сўзга қўшишга хизмат қилганда, унинг ёрдами билан кўпинча жуфт сўзлар ҳосил бўлади. Масалан: *Она-ю бола – гулу лола. / Она-бола – гул ва лола.*

Агар лотин ёзувида жуфт сўзлар орасида -у/ -ю юкломаси келса, бу юклама олдинги исмдан чизикча билан ажратиб ёзилади ва жуфт сўзлар орасида чизикча қўйилмайди [8]. Масалан: *qor-u yomg'ir, ota-yu ona, ora-yu singil* каби. Бунда чизикча олдинги сўзга тегишли бўлади. Лекин кирилл ёзувида жуфт сўзлар орасида -у/ -ю юкломаси келса, бу юклама олдинги қисмга қўшиб ёзилади ва жуфт сўзлар ўртасига чизикча қўйилмайди. Масалан, *қору ёмғир, отаю она, опаю сингил.*

Юкломалар билан келадиган жуфт сўзлар таркиби, одатда, уч хил кўринишда намоён бўлади:

- а) яқин маъноли, бир туркумга мансуб сўзлардан (масалан, *ошу нон, дўсту ёр, гулу лола*);
- б) антоним, яъни шакли ва маъноси ҳар хил, аммо маъноси бир-бирига зид, қарама-қарши, айни пайтда туркуми бир хил сўзлардан (масалан, *яхшию ёмон, каттаю кичик, ўгилу қиз*);
- с) синоним, яъни шакли ҳар хил, аммо маънодош, туркуми бир хил сўзлардан (масалан, *бахту саодат, ошу овқат*).

Мисоллардан аёнлашмоқдаки, бундай жуфтликлар ўртасида, асосан, -у / -ю, **ҳам** юкломалари келади. Лекин улар юклама сифатида маъно юклаш вазифаси билан эмас, балки боғловчи сифатида икки сўзни тенг муносабатга киритиш, боғлаш вазифасини бажариб келади.

Агар юкорида кўрсатилган жуфтликлар ўртасида соф ҳамда вазифадош тенг-бириктирув боғловчилари (*ва, ҳамда* каби – соф, *ҳам* юкломаси, *билан* кўмакчиси – вазифадош), келса ҳеч қандай тиниш белгиси қўйилмайди. Масалан: *тун ва кун, чол ҳамда кампир, ота ҳам она, шоҳ билан гадо ...*

Бириктирув боғловчиси вазифасида келадиган -у, -ю, -да, ҳам юкломалари кўмакчи-боғловчи саналадиган билан сўзи ўрнида қўллана олади. Чунки билан кўмакчиси синтактик боғлаш вазифасида келувчи аниқ мустақил маънога эга бўлмаган, умумлашган грамматик маъноли лексик сатҳ бирлиги сифатида юкломалар каби қўшиб ҳисоблаш маъносини ифода қилади.

Юкломалар билан ишлатиладиган жуфтликлар, одатда, бир сўз туркумига мансуб бўлади:

Сўз туркуми	Ўзбек тилида	Инглиз тилида
От	<i>олмаю анор, шаҳару қишлоқ...</i>	<i>city and county</i>
Сифат	<i>узоқу яқин, каттаю кичик...</i>	<i>big and small</i>
Феъл	<i>боришу келиш, юклагоду туширмоқ ...</i>	<i>come and go</i>
Сифат	<i>Оқу қора, қизилу сариқ</i>	<i>black and white</i>
Рабиш	<i>эртаю кеч, эртаю индин</i>	<i>early and late</i>
Олмош	<i>сизу биз, сену мен...</i>	<i>you and me</i>
Сон	<i>учу тўрт, тўртю беш...</i>	<i>three to five</i>

Ҳам юкломаси уюшган бўлақларнинг олдида ёки охирида такрорланиб келиши мумкин. Агар у уюшган бўлақларнинг олдида келган бўлсагина боғловчи саналади.

Инглиз тилидаги партикларнинг ҳам бошқа сўз туркумлари билан омонимлик касб этишини кузатиш мумкин. Жумладан, замонавий инглиз тилида деярли барча партиклар бошқа сўз туркумлари билан омоним ҳисобланади, айниқса, равиш предлог ва боғловчилар билан. Жуда кам сонли партиклар бошқа сўзлар билан омоним эмас. Бунга бевосита *else, merely, barely, solely* каби

LINGUISTICS

партикллар мисол бўла олади. Аммо кўпчилиги шаклан қуйидаги сўз туркумлари билан омонимлик хосил қилади:

равиш билан: *exactly, simply, too, never, still, just, yet, right*;

сифат билан: *even, right, just, only, still*;

олмош билан: *all, either*;

фёъл билан: *still*;

боғловчи билан: *but*;

предлог билан: *but* (бирхил).

Қуйидаги мисоллар бевосита particles, яъни юклама билан adverbs, яъни равиш ўртасидаги вазифадошликни ўз ўрнида тўғри фарқлай олиш лозимлигини кўрсатади:

<i>simply</i>	
---------------	--

--	--

I <i>simply</i> do not understand you. (Particle).	He did it quite <i>simply</i> . (Adverb).
---	--

--	--

<i>exactly</i>	
----------------	--

--	--

He always said <i>exactly</i> what he thought. (Particle)	У ҳамиша <i>айнан</i> (худди <i>ўша</i>) ўйлаган нарсасини айтган. (Партикл)
---	--

--	--

She knew <i>exactly</i> what she thought about the others. (Adverb)	У ҳамиша бошқалар ҳақида нима ўйлаганини <i>аниқ</i> (<i>равшан</i>) биларди (Равиш).
---	---

--	--

<i>too</i>	
------------	--

--	--

She is lazy, <i>too</i> . (Particle)	У дангаса ҳам эди. (Партикл)
--------------------------------------	---------------------------------

--	--

She is <i>too</i> lazy. (Adverb)	У <i>ўта</i> дангаса. (Равиш)
----------------------------------	----------------------------------

--	--

<i>just</i>	
-------------	--

--	--

You are <i>just</i> the person I need. (Particle)	Сиз менга керак бўлган <i>айнан</i> (худди) <i>ўша</i> одамсиз. (Партикл)
---	--

--	--

He has <i>just</i> left the room. (Adverb)	У <i>ҳозиргина</i> хонани тарк этди. (Равиш)
--	---

--	--

<i>never</i>	
--------------	--

--	--

He <i>never</i> looked back, he <i>never</i> hesitated. (Particle)	У <i>умуман</i> орқага қарамади, у <i>умуман</i> иккиланмади. (Партикл)
--	--

--	--

I have <i>never</i> been to London. (Adverb)	Мен <i>ҳеч қачон</i> Лондонда бўлмаганман. (Равиш)
--	---

--	--

Навбатдаги мисоллар эса бевосита particles, юклама билан adjectives, яъни сифат ўртасидаги вазифадошликни ўз ўрнида тўғри фарқлай олиш лозимлигини кўрсатади:

LINGUISTICS

<i>only</i>	
I have <i>only</i> two letters to send. (Particle)	Менда <i>фақат</i> иккита юборадиган хат бор. (Партикл)
She is the <i>only</i> child in the family. (Adjective)	У оиласида <i>ягона</i> фарзанд (Сифат).
<i>just</i>	
They are <i>just</i> about to leave. (Particle)	Улар <i>шунчаки</i> кетмоқчи бўлиб турибди. (Партикл)
He is a <i>justman</i> . (Adjective)	У <i>адолатли</i> киши. (Сифат)
<i>even</i>	
I can't cook. I can't <i>even</i> boil an egg. (Particle)	Мен пишира олмайман. Мен тухумни <i>ҳаттоки</i> қайната олмайман. (Партикл)
I couldn't remember those <i>even</i> numbers on the wall. (Adjective)	Мен девордаги <i>ўша жуфт</i> сонларни эслай олмадим. (Сифат)

Кўпчилик инглиз партикллари кўп маъноли ҳисобланади. Масалан, буни *only* ва *just* мисолида кузатиш мумкин. Бу сўзлар ҳам *limiting* (айирув-чегаралов мазмунли) ҳам *intensifying* (кучайтирув-таъкид маъноли) партикл бўлиб келиши мумкин. Жумладан, *only* “*Limiting particle*” сифатида айирув-чегаралов мазмунида келганида, хоҳлаган сўз туркуми билан ишлатилиши ва гапнинг турли ўринларида келиши мумкин. Масалан, “*Only Mary was at home*”. Бу гапда *only* партиклининг гап бошида келаётгани кузатилмоқда.

Л.Типпинг фикрича, *only* сўзининг ўрни гапнинг маъносига таъсир кўрсатади. Буни қуйидаги гаплар мисолида кўриш мумкин:

Only Mary passed in French (= no one else passed).

Mary only passed in French (= passed but did not get honours).

Mary passed in French only (= passed in no other subject).

Only “*Intensifying particle*”, яъни кучайтирув-таъкид маъносида ишлатилувчи партикл бўлиб келса, бу ҳолатда *if* (агар) боғловчиси билан ишлатилиб, бутун гапнинг мазмунига дахлдорлик қилади. Масалан: “*If only she were here, I should speak to her now!*”. – Таржимаси: “Қанийди у шу ерда бўлганида эди, мен у билан ҳозир гаплашган бўлардим”.

Ёки яна: “*If only I had seen her yesterday, I should have told her everything*”. – Таржимаси: “Қанийди мен уни кеча кўрганимда эди, мен унга ҳаммасини айтган бўлар эдим”.

Just “*Limiting particle*” сифатида келса, у сон сўз туркуми ва сонга хос бўлган миқдор сўзлардан олдин берилади: “*The man gave the boy just 3 dollars*”. Ёки: “*He gave me just a little*”.

Агар *just* “*Intensifying particle*” вазифасида келса, у предикативни назарда тутати ва кўпинча буйруқ гапларда ишлатилади: “*Just listen to me. We were just about to start our journey*”.

Инглиз ва ўзбек тилларидаги юклама ҳамда боғловчилар вазифадошлиги таржимада янада ёрқин ўз далилини кўрсатади. Эътиборли томони шундаки, инглиз ва ўзбек тилларида юкламалар сўзни сўзга қўшишга хизмат қилганда, унинг ёрдами билан кўпинча жуфт сўзлар ҳосил бўлиши кузатилади. Масалан, ўзбек тилидаги “Она-ю бола – гулу лола” мақолида она билан бола, гул билан лола шахс ва нарса отларини -у, -ю юкламалари тенг боғловчининг бир тури бўлган “ва” бириктирув боғловчиси вазифасида боғлаб келган. Худди шундай грамматик ҳолатни инглиз тилида ҳам кузатиш мумкин. Масалан, таникли америкалик адиб Т.Драйзернинг инглиз тилида ёзилган “*Sister Carrie*” – “Бахтиқаро Керри” асарида учрайдиган “*Time and repetition – ah, the wonder of it!*”[3] парчасидаги

“and” боғловчиси ёрдамида ўзаро боғланиб, уюшиб келган “time” (вақт) ҳамда “repetition” (такрорийлик) сўзларини таржимон ўзбек тилида шу “and” боғловчисига тўла мувофиқ кела оладиган “ва” боғловчиси билан эмас, балки унга вазифадош ҳисобланган “-у” юклагиси орқали ифода этган: “**Вақту** такрорийлик – о, нақадар зўр куч!” [3]. Демак, юклага билан боғловчининг ўзаро вазифадошлиги, бир хил туркумдаги сўзларни ўзаро боғлаб, жуфт сўзларни, уюшиқ бўлақларни ҳосил қилиши инглиз ва ўзбек тиллари учун барабар хосдир.

Куйидаги парчада инглиз тилидаги “**and**” боғловчисининг ўзбек тилидаги “**-ю**” юклагиси билан таржима қилинганини кўриш мумкин: “Her husband asked a few questions **and** sat down to read the evening paper”. (P.10). – “Мистер Гансон бўлса Керридан у-буларни суриштирган бўлди-ю, оқшомги газетани ўқишга тушди” (Б.17).

Бу таржимада аслиятдан фарқли бир неча ўринлар бор: а) “Her husband” (унинг эри) бирикмаси ўрнида “Мистер Гансон” антропоними таржимон томонидан киритилган; б) “asked a few questions” (турли саволларни сўрамоқ) бирикмаси эса “у-буларни суриштирган бўлмоқ” бирикмаси билан берилган; в) “sat down” (ўтириб, ўтирганча) феъли таржимада акс этмаган. Бироқ аслиятдаги “and” сўзи қўшма гап қисмларини боғлаб келгани сабабли таржимада унинг ўзбек тилида худди шундай грамматик вазифага эга “-ю” юклагиси билан жой алмашгани ўзини оқлайди. Яна шу ўринда аслиятда ва таржима матнида гарчи “кейин” кўмакчиси қўлланилмаган эса-да, унинг ўрни “оқшомги” сўздан олдин сезилиб туради. Зеро, “Мистер Гансон аввал суриштирди, кейин оқшомги газетани ўқишга тушди” дегандай.

Баъзан аслиятда бўлмаган юклаганинг таржима матнига қўшилиши кўзга ташланади: “In the intuitive graces she was still crude” (P.3). Таржимаси: “Нозу карашма бобида унда таржима борлиги мутлақо сезилмасди” (Б.6).

Кўриняптики, аслиятда “нозу карашма” сўзига мос келадиган “mincing, manners, flirt” сўзларидан бирортаси йўқ. Таржимон эса “нозу карашма” деган юклага орқали боғланган жуфт сўздан фойдаланган. Натижада аслиятда мавжуд бўлмаган –у кучайтирув-таъкид юклагиси пайдо бўлган.

Таржимонларнинг кўпинча “**Andyet**” бирикмасини “шундай бўлса-да” юклагамали бирикмаси орқали ифода этиши кузатилади. Масалан: “*And yet she was interested in her charms, quick to understand the keener pleasures of life, ambitious to gain in material things*”.(P.3). – Таржимаси: “Шундай бўлса-**да**, у ўзига қараб юрар, ҳаёт қувончларига бағрини очар ва моддий неъматларга зўр бериб интиларди” (Б.6).

Бунинг сабаби шуки, **yet** сўзи ўзбек тилидаги *бирок, ҳар ҳолда, бунга қарамай, лекин, аммо* боғловчилари билан муқобиллик ҳосил қила олади. Бу фикрни мавжуд инглизча-ўзбекча таржима луғатлари мисолида асослаш мумкин [2].

Ўзбек тилида *аммо, лекин, бирок* зидлов боғловчилари гапнинг бошида ё ўртасида келгани каби инглиз тилида уларга мазмунан мувофиқ келадиган “**andyet**” бирикмаси ҳам гоҳ юқоридаги каби гап бошида, гоҳ гап ўртасида қўлланиши кузатилади: “She realised that hers was not to be a round of pleasure, **and yet** there was something promising in all the material prospect he set forth (P.5). – “Ўзини кўнгилочар нарсалардан бўлак нарсалар **ҳам** кутаётганини жуда яхши тушунар, шундай бўлса-**да**, ҳамроҳи ҳикоя қилаётган нарсаларнинг барида умидвор қилувчи нимадир бор эди” (Б.10).

“**And**” сўзи “**whatever**” сўзи билан бирга “**and whatever**” кўринишида келса ҳам тўсиқсизлик маъносини билдиради. Негаки, инглиз тилидаги “whatever” сўзи ўзбек тилида “нима бўлса ҳам” маъносини англатади. Масалан: “He was, for the order of intellect represented, attractive, **and whatever** he had to recommend him, you may be sure was not lost upon Carrie, in this, her first glance. (P.4). – “Шу ваздан Керри унга бир қарагандаёқ унинг устидаги нархини оширадиган нарсаларнинг барини пайқади-қўйди” (Б.8).

Ушбу матн аслиятидаги “first glance” бирикмаси юклага билан қўлланмаган эса-да, унинг “бир қараганда” кўринишидаги таржимасида –**ёқ** кучайтирув-таъкид юклагасидан фойдаланилган. Лекин бунинг таржимага ёмон таъсири йўқ.

Инглиз тилида кўпинча боғловчи вазифасида келадиган “and” сўзи худди ўзбек тилидаги “ва”, “ҳамда” боғловчилари, “билан” кўмакчиси, “-у”, “-ю”, “-да” ҳам юклагамали каби бир туркумга мансуб иккита сўзни уюшиқ бўлак сифатида боғлашга хизмат қилади. Масалан, куйидаги мисолда “and” боғловчиси “nodded” ва “asked” феълларини боғлаб келган: “Carrie nodded **and** asked her sister about the neighbourhood” (P.11). – “Керри хўп дегандай бош ирғаб қўйди-**да**, опасидан қўни-қўшниларини суриштира бошлади (Б.18). Бироқ таржимада унинг ўрнида қўланилган “-да” юклагиси уюшиқ бўлақларни эмас, иккита содда гапни боғлаб келган.

Хулоса қилиб айтганда, инглиз ва ўзбек тилларидаги юклама ҳамда боғловчилар вазифадошлиги таржима жараёнида ҳам баъзида акс этади. Инглиз тилида юкламалар кўпинча боғловчи сўзлар ўрнида алмашилиб, вазифадош бўлиб келиши кўзга ташланади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Асқарова М. Ўзбек тилида боғловчи-юкламалар ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – 1962. – 5-сон.
2. Бўтаев Ш., Ирисқулов А. Инглизча-ўзбекча, ўзбекча-инглизча лугат. 70.00 0 сўз ва ибора лугати. – Т.: Фан, 2009. – Б.
3. Draiser Th. Sister Carrie. Gutenberg EBook FreeDetorial. 2008. <https://www.gutenberg.org/files/233/233-h/233-h.htm>. – P. 246.
4. Жўраев К., Жўраев Э. ва бошқалар. Таржима назарияси ва амалиёти. – Андижон, 2008. – 116 б.
5. Зияев А. Инглиз тилида сўз маъноларини кучайтиришининг когнитив талқини. – Фарғона, 2011. – 76 б.
6. Ирисқулов М. Тилиуносликка кириши. – Т.: Ўқитувчи, 1992. – 256 б.
7. Каримов С.А. Ўзбек тилининг бадиий услуби. – Самарқанд: Зарафишон, 1992. – 140 б.
8. O'zbek tilining imlo lug'ati. Chiziqcha bilan yozish. – Т.: O'qituvchi, 1995. – В.20.
9. Пардаев А.Б. Ўзбек тили ёрдамчи сўз туркумларининг лисоний тизимдаги ўрни ва лингвопрагматикаси: филол. фан. д-ри. дисс. – Тошкент, 2017. – Б. 44.
10. Шахматов А.А. Синтаксис русского языка. Вып.2. – Л., 1927. – С.97.
11. Kakhkhorova G. (2021). Objectives of Particles in the Uzbek and English Languages. *Philology Matters*, 2021(3), 52-82.
12. Kakhkhorova G. S. (2021). The allocation of particles in translation dictionaries and ways to express them in translation. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 5(2), 84-95.
13. Kaxxorova G. S. (2020). Semantic Grouping of Particles in English and Uzbek Languages. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 4(3), 122-125.
14. Kakhkhorova G. S. (2020). Problems of Translation of Particles in the English and Uzbek Languages. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 4(4), 149-153.
15. Uraeva D. S., Khakharova, I. S., & Khakhorova, G. S. (2020). Meaning of Emotional Words in the Formation of Expressions in English and Uzbek Languages. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 3(2), 54-62.
16. Khamidova M. K., & Qahhorova, G. S. (2020). Features Separate Linguistic Geopoetika in French And Uzbek Languages. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 4(2), 104-108.
17. Kakhkhorova G. S. (2021). The Skills of Uzbek Writers Using Particles in English Translations. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 5(4), 87-96.
18. Qakhkhorova G. S., & Qakhkharova, I. S. (2020). Significant features of the structure of emotional sentences. *Scientific Reports of Bukhara State University*, 3(4), 156-161.
19. Султонова С. Х. (2018). Русский язык в Узбекистане: вчера и сегодня. Гуманитарный трактат, (25), 8-10.
20. Султонова С. Х., & Насириддинова, м. м. (2023). Использование цифровых технологий в практике преподавания русского языка как иностранного (на примере онлайн-доски). *Новости образования: исследование в XXI веке*, 1(9), 1346-1352.
21. Султонова с. х. (2022, april). Коммуникативные аспекты в методике преподавания в школах Узбекистана. In *International Journal of conference series on education and social sciences (online)* (vol. 2, no. 3).
22. Султонова С.Х. "Обучение научным терминам на занятиях по русскому языку как иностранному." *Finland international scientific journal of education, social science & humanities* 11, no. 1 (2023): 777-784.
23. Султонова С. Х. (2023). Синтаксические конструкции на уроках русского языка как иностранного. *O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 2(15), 769-775.

TARIXIY ASARLARDA BUJORONING HUKMDOR AYOLI TAVSIFI

Latipova Sayyora Tohir qizi,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
sayyoralatipova97@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada Buxoro taxtiga o'tirgan ayol hukmdor haqida ma'lumot beriladi. Bir qancha manbalarda hukmdor ayol to'g'risida keltirilgan ma'lumotlar o'zaro qiyoslanadi. Ularning o'xshash hamda farqli jihatlari xususida fikr yuritiladi. Ayolning Buxoro xalqi uchun qilgan beqiyos xizmatlari e'tirof etiladi. Bu orqali ayollarning mamlakat siyosatida tutgan o'rni ochib beriladi. Malikaning ismi, shaxsiyatidagi o'ziga xosliklari, jasurligi hamda matonati aks ettiriladi. Asarlardagi tarixiy joy nomlari, makon-zamon, tarixiy obrazlarning xarakter-xususiyatlari ham o'z tasdig'ini topadi.

Kalit so'zlar: tarixiy roman, tarixiy qissa, turkum, Zardushtiylik dini, roviy, obraz, islom dini, afsona, qahramon.

ОПИСАНИЕ ПРАВИТЕЛЬНИЦЫ БУХАРЫ В ИСТОРИЧЕСКИХ СОБЫТИЯХ

Аннотация. В данной статье представлена информация о женщине-правительнице, сидевшей на троне Бухары. Сведения о женщине-правительнице сопоставляются в нескольких источниках. Обсуждаются их сходства и различия. Признаны несравненные заслуги женщины перед бухарцами. Благодаря этому раскрыта роль женщин в политике страны. Отражено имя принцессы, черты её характера, смелость и упорство. В произведениях также подтверждены названия исторических мест, времени и пространства, характерные черты исторических образов.

Ключевые слова: исторический роман, историческая повесть, сериал, зороастрийская религия, повествователь, образ, исламская религия, легенда, герой.

DESCRIPTION OF THE RULING WOMAN OF BUKHARA IN HISTORICAL WORKS

Abstract. This article provides information about the female ruler who sat on the throne of Bukhara. Information about the female ruler is compared in several sources. Their similarities and differences are discussed. The incomparable services of the woman for the people of Bukhara are recognized. Through this, the role of women in the country's politics is revealed. The name of the princess, her personality traits, courage and tenacity are reflected. Names of historical places, time and space, and character traits of historical images are also confirmed in the works.

Key words: historical novel, historical story, series, Zoroastrian religion, narrator, image, Islamic religion, legend, hero.

Kirish. Jo'ra Fozil – Buxoro adabiy harakatchiligi vakillaridan biridir. Adibning qalami asosan zamonaviy mavzuda asar yaratish natijasida o'tkirlashgan. Mustaqillikning dastlabki yillarida uning 3 qissani o'z ichiga oluvchi "Oshiq Buxoriy qissalari" nomli turkumi nashr qilindi. Mazkur asarlar Buxoro tarixini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qila oladi. Negaki uch qissa hamda "Buxoroyi sharif elchilari" asarida Buxoroning eng ziddiyatli, murakkab uch davri aks ettirilgan. Buxoro o'tmishining eng murakkab davrlari – arablar istilosi va islom dinining tarqalishi, Somoniy hukmdorlar orasidagi ixtiloflar natijasida bu saltanatning inqirozi, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoni mustamlakaga aylantirishi, Buxoro amirining xatolari kabi hodisalar o'z aksini topgan. Adib bu davrlar hayoti, siyosiy vaziyatini to'g'ridan to'g'ri tasvirlamaydi. Bu voqea-hodisalarni qissalarda mavjud bo'lgan bosh obrazlar: "Buxoro malikasi"da Qaboj, "Ibtido ba intiho"da Ismoil Somoniy, Ismoil Muntasir, "Buxoroyi sharif elchilari"da Ernazar Maqsud, "Qizil quyun"da Abduqahhor, Abduvahob kabi tarixiy shaxslarning o'y-fikrlari, xatti-harakatlari, yurt uchun qilgan xizmatlari orqali tasvirilaydi.

Adib "Buxoroyi sharif elchilari" nomli tarixiy asarida bundan taxminan ikki yuz yilcha ilgari Buxoroda yashagan savdogar va elchi Ernazar Maqsudning Moskva, Sankt-Peterburg va Istanbul shaharlariga qilgan safarlari, xorijiy hukmdor va siyosatchilar bilan olib borgan muzokaralari, uning ona

yurti sharafi uchun jonbozliklari va o'z diyorida olisda vafot etishi kabi voqea-hodisalarni tarixiy dalillar bilan ko'rsatib bergan.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Mazkur ishda Buxoroda Zardushtiylik dini mavjud bo'lgan bir davrda taxtga o'tirib, bosqinchilarga qarshi mardonavor kurashgan ayolning hayoti hamda faoliyati yoritilgan bo'lib, unda qiyosiy-chog'ishtirma, tarixiy-tipologik metodlardan foydalanilgan.

Natijalar. Adibning "Buxoro malikasi" nomli tarixiy asari mavjud bo'lib, u "Oshiq Buxoriy qissalari" turkumining birinchi tarixiy qissasi hisoblanadi. Mazkur asarda Buxoro xalqining Zardushtiylik diniga e'tiqod qilayotgan bir davrda arablarning bu mamlakatga qilgan hujumlari, Buxoro malikasining dushmanlarga qarshi mardonavor kurashi, buning natijasida chekkan azob-uqubatlari tasvirlangan. Bu asarni yozishda adib tarixiy faktlarga tayanib, Buxoro aholisining matonati, kurashi, ruhiy holati, iztiroblari, qahramonlarning jasurligini badiiy usulda tasvirlab, o'tmish voqealarini kitobxonga yaxshi tushunarli bo'lishiga imkoniyat yaratib bergan.

Buxoro taxtiga o'tirib, arablar bosqiniga qarshi mardonavor kurashgan ayol haqida bir qancha tarixiy manbalarda ma'lumotlar keltirilgan. Xususan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi", H.Vamberining "Buxoro yohud Movarounnahr tarixi" nomli ilmiy asarlarda ayol hukmdor haqida bir qadar muhim ma'lumotlar uchraydi. Bu jihat – ona yurtimizdagi shunday mard, qudratli, yurt ozodligi uchun matonat bilan kurashgan insonlarga boshqa xalq vakillarining katta qiziqish bilan qaraganligidan dalolatdir.

Taniqli o'zbek adibi Omon Muxtor arab xalifaligining Buxoroga bostirib kelishi va islom dinining yoyilishi haqida "Xotin podshoh" nomli qimmatli asar yaratib, ona yurtimizning tarixini yoritib berishga munosib hissa qo'shgan.

Jo'ra Fozil hamda Omon Muxtorning asarlari bitta tarixiy shaxs hamda Buxoroning qadimdagi hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar beruvchi asarlar sirasiga kiradi. Mazkur asarlarda mavzu va g'oya, voqealar rivojida deyarli mushtaraklik holatlari kuzatilsa-da, ba'zi o'rinlarda jiddiy farqlarga duch kelamiz. Asarlar orasidagi farqlarning birinchisi – bu janr nuqtai nazaridandir. Yuqorida nomi qayd etilgan "Buxoro malikasi" asari qissa janriga mansub bo'lsa, "Xotin podshoh" asari roman turkumiga kiradi. Omon Muxtorning bu romani mavzu ko'lamini jihatdan Jo'ra Fozilning asariga nisbatan kengroq yo'sinda yaratilgan.

Omon Muxtor bu romanda, asarlarda azaliy va abadiy talqin etib kelinayotgan muhabbat mavzusini juda mahorat bilan olib kirgan. Natijada asarning ta'sirchanligi, badiiy saviyasi oshgan. Bundan tashqari, romanda bugungi kunda qo'llanilmaydigan ba'zi so'zlar, joy nomlari uchraydi. Adib ana shu so'zlar (joy nomlari)ning hozirgi davrda qo'llaniladigan variantini ham izoh tariqasida yozadi. Masalan, hisor (Ark, saroy), Omul (Amu), Romtin (Romitan) va shu kabilar.

Omon Muxtor romanining o'ziga xos jihatlaridan biri shundaki, adib xalq og'zaki ijodi na'munalaridan mohirlik bilan foydalangan. Asarda afsonaviy qahramonlar: To'maris va Shiroq jasorati haqida ma'lumotlar uchrashi, Buxoroning Siyovush tomonidan barpo etilganligi haqidagi rivoyatlarning mavjudligi, donishmand hikoyanavis – roviy obrazining asarda ishtirok etishi kabilar asarning ta'sirchanligini oshirib, kitobxonning mazkur romanga bo'lgan qiziqishini oshirishga xizmat qilgan.

Jo'ra Fozilning "Buxoro malikasi" nomli tarixiy asari besh fasldan iborat bo'lib, har bir bo'lim o'z sarlavhasiga ega. Har bir fasldagi voqealar o'zaro bog'liq, biri keyingisining davomi sifatida yaratilgan.

Yozuvchi Jo'ra Fozil Buxoro taxtiga o'tirgan yosh ayolning hayoti, faoliyatini boshdan oxirigacha bayon qilishni istamaydi. Asarda Qabojning og'ir va qiyin jarayonlarda tutgan yo'li, yon-atrofdagilar bilan munosabati va malikaning tevaragida bo'lgan shaxslarning xarakterini ask ettirishni niyat qilgan.

Qissada bir qancha tarixiy joy nomlari ham uchraydi. O'sha davrda "Shiri shutur" deb nomlangan sahro bugungi kunda "Tuya suti" deb ataladi, Haromkom – Zarafshon daryosi hisoblanadi, "Tarovacha" esa bugungi kunda "Torob" deb nomlanadigan qishloqning qadimgi nomidir.

Mazkur tarixiy qissada Buxoroda qadim zamonlarda mavjud bo'lgan me'morchilik namunalari tuzilishi va holati haqida ma'lumot berilgan: Buxoro arkida ikkita darvoza bo'lgan. Ulardan biri Sharq, ikkinchisi G'arb tomonda joylashgan bo'lib, oftob yo'nalishiga qarab "G'uriyon darvozasi"dan kirib, "Registon darvozasi"dan chiqilgan. Ikkinchi darvoza "Alaffurushon darvozasi" deb ham atalgan.

Asardagi voqealar tinch-osoyishta makon bo'lmish Buxoro ustiga arablarning hujumi bilan boshlanadi. Buxorxudotlardan bo'lgan Bidun shu vaqtda Buxoro podshosi edi. Tahlikali paytda u mamlakatni tark etishga qaror qiladi. Podshoh qo'shin to'plash maqsadida Sharqiy Turkistonga ketmoqchiligiga Buxoro malikasini ishontirish uchun shabistonga keladi. Qaboj juda dono va zukko, o'tkir aql-zakovat egasi va mard ayol edi, shu sababi podshohning bu fikrini ma'qullamaydi. Hatto xojasini bu

yo'ldan qaytarish uchun quyidagi so'zlarni aytadi: "Qo'shin oldiga sen chiqib dalda bermasang, ruhlari tushgay, parokandalik yuz bergay. Sen buni mendan yuz chandon yaxshiroq bilursan, shohim!" [1,27]

Asarning shu o'rniga kelganda, qissa qahramonlarining oldida katta jang, fojiali qismat, ona yurtga muhabbatini namoyon etish kabi hodisalar turganligi oydinlashadi.

Malikaning nazarida Buxoro podshohi Bidunning arablarga qarshi qo'shin to'plash maqsadida Sharqiy Turkistonga borishi bir bahonadek edi. Qabojning ko'z o'ngida u qo'rqqoqlik qilib yurtini bosqinchilarga tashlab qochadigan xoin sifatida gavdalanadi.

Qaboj Bidunning ketganidan xabarsiz bo'lsa ham, lekin u juda parishon, bezovta edi. Shu paytda uning ruhiy holati va iztiroblarini adib juda ta'sirli tasvirlaydi. U o'ziga savol berar, bu javobsiz savollar oldida yana o'zi ojiz qolardi. Har xil son-sanoqsiz hayollar girdobida qoladi. "Nahot Bidun bizni tashlab ketisa? Nahot gunohsiz go'dak Tag'shoda qul qilinishi, yoki boshi sapchaday uzilishini o'ylamasa?... Nahot podshoh, elning otasi shunday xiyonatga qodir bo'lsa?" [1, 29] Ushbu voqea asosida malikaning ahvoli kitobxon ko'z o'ngida gavdalanadi. Muallif Qaboj uchun fojiadek bo'lgan holatni, o'z podshohining qilmishidan azoblanayotganligini xuddi rassomlardek, mohirona tasvirlaydiki, oqibatda tasavvurimizda yoshgina, husnda tengi yo'q, nozik malika emas, chorasizlikdan, tuni bilan uxlo olmay, yurti, farzandini taqdirini o'ylab, hayol ko'chalarida kechib yurgan ona qiyofasi shakllanadi. Adib Bidunning dushman yaqinlashib qolganida, taxtni tashlab ketishi, malikaning xavotiri, ruhiy holatini ko'rsatish bahonasida dushmanning kim ekanligini, nimalarga qodirligini ko'rsatib bergan.

Shu o'rinda ikki asar o'rtasida farqli jihatni ko'rish mumkin. Taniqli adib Omon Muxtor Bidun buxorxudotning yurtini tashlab ketganligi haqida ma'lumot bermagan. Uni xalifa Ubaydulloh ibn Ziyod hujum qilishidan avvalroq mayda janglarning birida o'ldirilganligini ta'kidlaydi.

Yozuvchi Jo'ra Fozil esa Bidunni bir nechta xalifalardan so'ng Buxoroga kelgan xalifa Muslim ibn Ziyod davrida o'ldirilganligini dalillar bilan izohlaydi. Bu ma'lumotlarning qaysi biri tarixiy haqiqatligini aniqlash maqsadida biz Abu Bakr Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asariga murojaat qildik. Bu asarda adib Jo'ra Fozil ta'kidlaganidek, Bidun xalifa Ubayddulloh ibn Ziyod emas balki, undan keyin kelgan xalifa Muslim ibn Ziyod davrida o'ldirilgan ekan.

Shu o'rinda aytish joizki, Buxoro malikasining ismi turli manbalarda har xil nomlar bilan ataladi. Lekin tarixiy shaxs bo'lgan ayolning haqiqiy ismini bilish maqsadga muvofiqdir. Shu maqsadda biz bir qancha tarixiy manbalarga murojaat qildik.

Omon Muxtorning "Xotin podshoh" asarida malikaning ismi Oynur tarzida beriladi. Albatta, bu har bir ijodkorning tasavvuri, ijod mahsulidir.

Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida podshoh ayolning nomi berilmay, Xotin tarzida ifodalangan.

Tarixchi G'G'oibovning "Arablarning O'rta Osiyoga qilgan ilk yurushlari" nomli asarida Buxoro malikasini Xo'tak xotun nomi bilan tilga oladi.

Tabariyning "Tarix arrasul valmuluk" asarida malikaning nomi Xutak xotun tarzida beriladi.

H.Vamberining "Buxoro yoxud Mavorounnahr tarixi" asarida arablar bosqini paytida taxtga o'tirgan ayolga Xotun podshoh deb murojat qilingan.

Arab-fors manbalarida esa bu ayolning ismi Xutak xotun, Qabaj xotun, Xotun shakllarida atalgan. Bu tarixiy manbalarga tayanib, adib Jo'ra Fozil asarda Qabaj ismining Qaboj tarzida o'zgartirilgan shaklini qo'llagan.

Qabojning "yetsa – mol, yetmasa – jon" deya shiddat bilan gapirishidan uning mol-dunyoga o'ch emasligini, yurt tinchligini har narsadan ustun qo'yishini tushinish mumkin. U xazinani ko'zdan kechirar ekan: "O'rtada ona shahri or-nomusi turar ekan, ko'zimga hech qanaqa xazina, oltin, dur-u javohir ko'rinmaydur. Mening shon-sharafim, dur-u javohirim – Buxoro!" [1,42] deydi o'ziga o'zi. Bu fikrlarning o'ziyoq, malikaning xarakterini ko'rsatib, uning Buxoroga muhabbati qay darajadiligini ko'rsatib bergan.

Tun kirgach, malika yana javobsiz savollar, iztiroblar qurshovida qoladi. Uning Bidunga, o'ziga beradigan savollari, gapiradigan gaplari ko'p edi. Adib shu o'rinda malikanini qiynab, unga tinchlik bermayotgan gaplarini ichki monolog shaklida beradi. "Shohim, balki sen haqdirsan, erta-indin qo'shin bilan yordamga yetib kelursan. Senga gapirgan gaplarim ko'nglingni og'ritdimi? Men bu gaplarni senga ta'na uchun emas, balki mushkul ahvolda qolganimdan aytmoqdaman. Ehtimol sening o'z oliy haqiqating bordir? Lekin men uchun hozir eng oliy haqiqat – kindik qonim to'kilgan yurti saqlab qolish, uni yog'iy qo'lida xor etmaslik! Mening boshqa haqiqatim yo'q!" [1,35]

Mazkur qissa bir qarashda birgina malikaning faoliyati bilan bog'liq voqealar bayonidan iboratdek ko'rinadi. Lekin keyinchalik ma'lum bo'ladiki, yozuvchi ushbu obraz misolida o'zbek xalqining siymosini gavdalantiradi.

Malika yosh bo'lsa ham tadbirli ayol edi. Uning hali ikki yoshga to'lmagan farzandi bo'lsa-da, yurtni bosqinchilardan himoya qilish uchun o'zi jangga kiradi.

Ayol kishining askarlarga bosh bo'lib jangga kirishi qadimiy afsonaga aylangan, mard ayol – To'marisning shijoatiga qiyoslansa bo'ladi. Qaboj ham To'maris obrazini juda yaxshi ko'rar, o'zi ham shu ayolga o'xshab ketardi.

Uning quyidagi fikrlari malikaning ona yurtiga nechog'lik sodiq farzandligini isbotlaydi: “Hammasini o'ylaydurman, o'ylashga majburdurman. Lekin el-yurt taqdiri, or-nomusi garovga tikilganda chetda turolmayman!” [1,34]

Qaboj arablarga qarshi jangga kirish oldidan lashkarni ruhlantirish uchun quyidagi so'zlarni aytadi: “Agar biz ona shahrimiz ostonalarida halok bo'lar ekanmiz, ona shahrimiz foxira qirmizi qonimiz ila faxr etgusidir!” [1,42]

Buxoro askarlari mag'lubiyatga uchrab, chekinadi. H.Vamberi “Buxoro yohud Mavorounnahr tarixi” asarida mazkur jangning nihoyasi boshqa manbalarga qaraganda farqli ravishda bayon qilinadi. Mazkur jangda Buxoro qo'shini emas, balki Ubaydulloh ibn Ziyod yengilib ortga, Marvga chekinishga majbur bo'ladi. Tabariyning asarida uning Toshkentgacha kelganligi haqida ma'lumot uchraydi. U qasos olish maqsadida juda ko'p asirlarni o'ldirgan, hattoki Buxoroda mavjud bo'lgan anchagina daraxtlarni kesib tashlagan.

Ushbu jangda Qabojning bir poy tilla suvi yurgizilgan etigi jang maydonida qolib ketadi. Shu etik borasida ham ijodkorlarning asarlarida turlicha qarashlar mavjud: Adib Jo'ra Fozilning asarida shu etikni jang maydonidan Abu Zar ismli sarkarda topib, malikaning huzuriga keltiradi. Oltin-u kumushlar bilan bezatilgan etikni ko'rgan arablar qimmatbaho buyumlarni etikdan yulib olinishi malikani seskantiradi, poyabzalni sarkardaga qaytarib beradi.

Omon Muxtorning romanida bir poy etik va malikaning paypog'ini arablar o'z mamlakatiga olib ketganliklari aytiladi. Asardagi ushbu farqni qaysi biri tarixiy haqiqatligini aniqlash uchun biz bevosita Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asariga murojaat etdik. Bu asarda malikaning bir etigi va paypog'ini arablar o'z mamlakatiga olib ketganligi va uning bahosini ikki yuz ming dirham deb belgilaganliklari bayon etilgan.

H.Vamberi “Buxoro yohud Mavorounnahr tarixi” asarida ham malikaning etigi arablarni hayron qoldirganligi, uning bahosini yigirma ming dirham etib belgilanganligi haqidagi ma'lumotlar uchraydi.

Ko'rinib turibdiki, etik borasida tarixiy manbalarga murojaat qilganimizda, jang maydonida qolgan etikning malikaga qaytarib olib kelinishi badiiy to'qimaligi ayon bo'ldi.

Buxoroda ikki (ba'zi manbalarda uch yil) yil tinchlik hukmron bo'lgach, xalifa Said ibn Usmon Buxoroga yurish qiladi. Jangda Buxorolik askarlar yengiladi. Qaboj ilojsiz yana sulh tuzadi. Xalifa malikaga shart qo'yadi. Bunga ko'ra malika Said ibn Usmonga va uning har bir sarkardalariga salomga chiqishi kerak edi. Yurtining osoyishtaligini o'ylagan malika bu shartga rozi bo'ladi. Qabojni nafsoniyatiga tegadigan bunday shart voqeasi Buxoro tarixiga bag'ishlangan hamma asarlarda bir xil tasvirlangan.

Said ibn Usmon xastalanib qoladi. Buni eshitgan malika xalifani ko'rgani boradi.

Sharqda kasalni ko'rgani borish odatining ildizi otashparastlik davriga borib taqalishi mumkin. Barcha dinlarning mazmun – mohiyati bir-biriga yaqin turadi, negaki, Zardushtiylik dini vakili bo'lgan Qaboj xasta xalifaning holidan xabar olgani borgan. Islom dinida ham kasalni ko'rgani borish eng ulug' savobli amallardan biri hisoblanadi.

Jo'ra Fozil asarida xalifani ko'rgani borgan malikaning yuzidagi harir parda to'satdan ko'tariladi va xalifa Qabojning yuzini ko'rib, uni yoqtirib qolishi voqeasi mavjud.

“Buxoro malikasi” asarida Said ibn Usmonning malikadan visol talab qilish voqeasi mavjud. Bu xalifa malikani yoqtirib qolganligi haqida Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" asarida ham aytib o'tgan. Lekin malikaning xalifani yoqtirib qolishi haqida ushbu asarda ham, Jo'ra Fozil ijodida ham uchramaydi. Nosir ijodida bu muhabbat masalasi faqat bir tomonlama bo'lgan.

Xalifa Said ibn Usmon yoshi qirq yoshlar chamasidagi qosa soqol, keng yelkali, zabardast erkak sifatida tasvirlanadi. U malikadan visol talab qilganida Qaboj o'z xalqini o'ylab, yurt tinchligi buzilmasligi uchun o'zini qurbon qilishga majbur bo'ladi. Xalifa unga “sen meni aziz mehmonimsan va men sening oshig'ingman”, deganida malika majburan jilmayadi va hayolida shunday fikr kechadi: “Sening aziz mehmoning bo'lguncha meni qaro yer yutsa bo'lmasmidi?” U xalifaga shunday deydi: “Bir narsani yaxshi bilib ol, amir, dunyodagi jamiki mustahkam qal'alarni kuch bilan olib bo'lur, lekin ayol qalbini kuch bilan olib bo'lmagay...” [1,65]

Jo'ra Fozil asarida malika Usmonni yoqtirganligi haqida na hayolida va na nutqida hatto ishora ham yo'qligini shu o'rinda ko'ramiz.

Yuqoridagi voqealar Omon Muxtor ijodida bir oz boshqacharoq tarzda bayon etilgan. Malika Said ibn Usmon qarorgohiga salomga borganida ular bir-birlarini yoqtirib qolishadi. Bu Xalifa yigirma to'rt- yigirma besh yoshdagi yigitcha. Sochi, qoshlari tus qora, ko'zlari esa ko'kimtir rangga qora qorishiq, shundan olovlanib turgandek taassurot uyg'otardi [1,52]. Malika va xalifa orasida bir necha bor xat yuborish holatlari bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Omon Muxtor Buxoro malikasini erkaklar irodasidan kuchli iroda sohibi sifatida tasvirlasa-da, ammo ayollarni muhabbat oldida taslim holda ko'rsatadi. Malika o'z yurtiga bostirib kelgan dushmani yaxshi ko'rib qolishi muhabbatning nechog'lik qudratli ekanligini, yurak amriga bo'ysunmaslikning iloji yo'qligini isbotlaydi. Hamma ayollar singari malika ham sevishni va sevilishni istaydi. Omon Muxtor ta'biricha, malika shu paytgacha Bidunni sevmagan, haqiqiy muhabbatini endi uchratgan edi. Shu voqeda yozuvchi malikaning boshqa ayollar singari yurak amri bilan ish tutishini ko'rsatib bergan. Bu oxiri yo'q muhabbat uchun malika islom diniga kirishga roziligi ham ochiq aytilmasa-da, shunga yaqin ma'no mavjud. Said ibn Usmon ketmoqchi bo'lganida Malika o'kinch bilan quyidagi fikrlarni ko'nglidan o'tkazadi: "Muhabbat nimalarga qodir emas! Sayyid ibn Usmon Buxoroda bironi podshohlikka qo'yib, sevgilisini dunyoning istagan burchiga olib ketmaydimi?! O'z diniga kiritib, ikki ko'ngilni ham obod qilmaydimi?! Bu damni qadrlab, mardona ish tutsa, din bobida ham – Buxoro o'lkasidagi aholi asta-asta islom diniga o'tishi xayrli kecharami?!" [2, 70]

H.Vamberining tarixiy asariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, uning ijodida malika va xalifa o'rtasida muhabbat mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Yozuvchi Jo'ra Fozil bilan malika va xalifa Said ibn Usmon orasidagi munosabat mavzusida suhbatlashish jarayonida, nosirning tafakkur dunyosini, Buxoroni talagan arab xalifalariga nafratini yaqqol sezish mumkin. Adibning fikricha, yurtini himoya qilish uchun qo'lga qurol olib, bosqinchiga qarshi bir necha marotaba jangga kirgan ayol hech qachon dushmanga ma'shuqa bo'lolmaydi. Nosirning dunyoqarashi, tafakkuri bunday muhabbatni qabul qila olmas ekan.

Har ikkala ijodkor ham ayol podshohning jasurligi, matonati, vatanparvarligini tasvirlagan bo'lishsa-da, ular malikaning turli jihatlarini ko'proq ifodalashga urg'u berishgan.

Omon Muxtor Oynurning o'z diniga hurmati, boshqa dinlarga bo'lgan munosabatiga alohida e'tibor qaratgan. Xotin podshoh barcha dinlarni teng deb bilgan va biror dinga nisbatan norozilik munosabatida bo'lmagan. Adib mazkur tarixiy romanida din masalasiga chuqurroq to'xtalgan. Hatto Xitvar nomli to'qima obrazni asarga kiritganida ham, mazkur personajning din bilan bog'liq bo'lgan faoliyati tasvirlanadi. Xirvar Buxoro taxtini egallash uchun o'z dinidan kechib, islom dinini qabul qiladi. U arablar tomonida turib, o'z yurtiga qarshi jang qiladi. Said ibn Usmon Buxorodan garov tariqasida 80 kishini olib ketadi. U garovdagilarni Samarqanddan qaytgach, qo'yib yuborishi lozim edi, biroq u va'dasiga vafo qilmay, asirlarni o'z yurtiga olib ketadi. Ularga oddiy kiyimlar berib, dala ishlariga band qiladi. "Yomonning umri qisqa", – deganlaridek, xalifa asirlari tomonidan o'ldiriladi. Said ibn Usmonning qay tarzda o'ldirilishi haqida barcha tarixiy manbalarda bir xil ma'lumot uchraydi. Omon Muxtor asarga muhabbat mavzusini mahorat bilan olib kirganligi bizga ma'lum. Adib romanida shu voqeadan so'ng, malika o'z muhabbati va xojasining qarindoshlari uchun mamlakatda qirq kunlik motam e'lon qilgan. Bizning yurtimizda motam masalasiga e'lohida e'tibor beriladi. Motamning tub ildizlari shu davrlarga borib taqalishi ham mumkin.

Tarixiy manbalar, shu jumladan, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida Buxoro malikasi adolatli, dono, xalqparvar sifatida tasvirlaydi. Hattoki bu podshohdan-da odil kishi bo'lmagan.

Jo'ra Fozil malikaning donolik bilan ish yuritishi, amaldorlar va oddiy xalq vakillari o'rtasida adolat o'rnatganligi, uning o'z xalqiga ko'rsatgan saxovati kabi xislatlarini asarda kichik hajmli voqealarni bayon qilish orqali ochib bergan. Malika taxtda o'tirib, turli tabaqa vakillarining arzlari, muammolarini tinglab, kerakli choralarni qo'llagan. Qaboj ariq qazishda jonbozlik qilib, yangi erlarga suv chiqarishga ko'maklashgan bir dehqonning mehnatini munosib taqdirlaydi. Unga sarpo kiydirib, bir hamyon oltin beradi.

Yosh bir yigitni qozi o'limga hukm qiladi. Malika buning sababini bilish uchun yigit bilan suhbatlashadi. Bu muloqot davomida malika qishloq oqsoqoli ko'p xotinlari bo'lishiga qaramay, yigit yoqtirgan qizga uylanib olganligi, shu sababli yigit cholni o'ldirganligi haqidagi voqeani tinglaydi. Yigit nohaqlikka qarshi kurashganligi bois, malika uni o'lim jazosida ozod qilib, darra bilan urishga buyruq beradi.

Dinga nisbatan hurmatsizlik qilgan bir yigitni qozi sazoyi qilishga amr etadi. Malika yigitning so'zlarini tinglab, u xatosini o'zi tushunib olishi va bu yo'ldan qaytishi uchun vaqt beradi. Mazkur voqealar malikaning donolik va adolat bilan mamlakatni boshqarganligini ko'rsatishga xizmat qiladi.

Malika adolat va intizomni shoir qilib olgan edi. U amaldorlariga Buxoroda hukmronlik qilgan Abro'y ismli shaxsning fojeali o'limi haqida tez-tez gapirib turgan. Mazkur qissada Abro'y haqida kitobxonga ma'lumot berish uchun retrospektiva hodisasidan foydalanilgan. Tarixiy manbalarda e'tirof etilishicha, Buxoro shahri hali vujudga kelmagan, lekin Nur, Harqonrud, Vardona, Tarovcha, Safna, Izvona kabilar mavjud edi. Xalq ko'paygach, Abro'yni o'zlariga amir etib saylaydilar. Amir turadigan katta qishloq Poykent edi. Keyinchalik Abro'y xalqqa zulm qiladi. Buxoroliklar Turkiston podshohi Qorajo'rindan yordam so'raydilar. U o'g'li Sheri Kishvarni yuboradi. Mohir sarkarda Abro'yni tutib, qovoqari bilan to'ldirilgan qopga soladi. Natijada Abro'y qop ichida o'ladi.[1,71] O'tmish voqeligiga asoslangan mazkur rivoyatning Qaboj nutqida takrorlanib turishi malika va a'yonlarning mamlakatni adolat bilan boshqarishlarida asos bo'lib xizmat qiladi. Adib mazkur rivoyat mazmunini qissaga mahorat bilan singdiradi.

Xalifa Muslim ibn Ziyod tomonidan Bidun o'ldirilgach, yozuvchi malikaning holatini tasvirida aks ettirmaydi, balki uning mahzun holatini ko'rsatish maqsadida uning turmush o'rtog'i jasadi oldida to'kkan ko'z yoshlarini aks ettirishdan foydalanadi. Bidunning yurti uchun to'kilgan qoni va malikaning iztiroblari uyg'unlikda kitobxonning fojiali holatni tushunishiga yordam beradi.

Yuqoridagi bir nechta asar tahlillaridan ko'rinib turibdiki, adib Jo'ra Fozil Buxoro va uning malikasi haqida yozgan asarida tarixiy haqiqatlar o'zgarimasdan, o'z holicha aks ettirilgan. Badiiy to'qimalardan foydalangan bo'lsa-da, u tarixiy voqealarning mazmunini o'zgartirib yubormagan.

Xulosa. Buxoroning birgina ayol hukmdori haqida nafaqat Buxoro, balki chet elda ham asarlar yaratilganligi e'tiborga molikdir. Malikaning faoliyati, mardligi, matonati anchagina o'lkalarga yoyilgan. Ayol hukmdorning bu darajada shuhrat topishida Narshaxiy, Vamberi, Jo'ra Fozil, Omon Muxtorlarning xizmatlari beqiyosligini alohida ta'kidlash lozim. Xotin podshohning qilgan ezgu ishlari asrlar osha yashab kelmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Fozilov J. *Oshiq Buxoriy qissalari.* – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2017. – 320 b.
2. Muxtor O. *Xotin podshoh.* – T.: Sharq, 2010. – 464 b.
3. G'oibov G'. *Arablarning O'rta Osiyoga qilgan yurishlari.* Dushanbe, 1989
4. Narshaxiy. *Buxoro tarixi.* – T.: Kamalak. 1994
5. Vamberi H. *Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi.* – T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1990

GULBADAN BEGIMNING “HUMOYUNNOMA” ASARI VA TARJIMALARIDA KELTIRILGAN RUBOIYNING ADABIY TAHLILI

*Meliyev Xabibullo Nurillayevich,
University of Business and Science
nodavlat ta'lim muassasasi katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Gulbadan Begim Zahiriddin Muhammad Bobur qizining “Humoyunnoma” asari, uning tarjimasi va tarixiy-adabiy ahamiyati haqida fikr yuritilgan. Maqolada o'rganilgan asl nusxada keltirilgan matnning til va adabiy xususiyatlarini qiyosiy o'rganish maqsad qilingan bo'lib, bu orqali tarjimonlarning asarni tarjima qilishda uning shakli va mazmunini qay darajada o'girilayotgan tilda ifodalangani inobatga olingan. Mazkur maqsadda “Humoyunnoma”da keltirilgan ruboiy o'rganilib qiyosiy tahlil etildi. Tahlil natijalariga ko'ra asl matnda keltirilgan ruboiy A.S.Beverij va Pirimqul Qodirovning “Avlodlar dovoni” asarida berilgan va uning asosiy mazmuni saqlab qolingan. Ikki tilda berilgan tarjimalar mazmunan bir xil fikrni anglatadi, ularning orasida farqlar ko'zga tashlanishi misollar bilan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: adabiy tahlil, ruboiy, tarixiy asar, tarjima, uzilgan yil voqealari, oyna, aks.

ЛИТЕРАТУРНЫЙ АНАЛИЗ РУБАИ, ПРИВЕДЁННОГО В ПРОИЗВЕДЕНИИ ГУЛБАДАН БЕГИМ «ХУМАЮН-НАМЭ» И ЕГО ПЕРЕВОДАХ

Аннотация. В данной статье рассматривается произведение Гульбадан Бегим Захириддина Мухаммада Бабура «Хумаюн-намэ», его перевод и историко-литературное значение. Целью статьи является сравнительное исследование языка и анализ литературных особенностей текста, представленного в оригинальном варианте, и посредством этого изучается, в какой степени переводчики при переводе произведения выразили его форму и содержание на целевом языке. С этой целью был изучен и сопоставлен рубаи, упомянутый в «Хумаюн-намэ». По результатам анализа рубаи, приведённый в оригинальном тексте Гульбадан Бегим, приведён в произведении «Авлodлар Довони» Пиримкула Кадырова и в произведении в переводе А.С. Бевериджа, и основное его содержание сохранилось. Хотя переводы, данные на двух языках, выражают одну и ту же идею, различия между ними анализируются на примерах.

Ключевые слова: литературный анализ, рубаи, историческое произведение, перевод, события прерванного года, зеркало, отражение.

LITERARY ANALYSIS OF RUBAI QUOTED IN GULBADAN BEGIM'S WORK “HUMOYUNNOMA” AND ITS TRANSLATIONS

Abstract. This article discusses the work of Gulbadan Begum Zahiriddin Muhammad Babur's daughter "Humayunnoma", its translation, and historical-literary significance. It aims to do a comparative study of the language and analyze literary features of the text presented in the original version, and through this, it is studied to what extent the translators, when translating the work, expressed its form and content in the target language. For this purpose, the rubaiy mentioned in "Humayunnoma" was studied and compared. According to the results of the analysis, the rubaiy given in the original text by Gulbadan Begum is given in the work "Avlodlar Dovoni" of Primkul Kadyrov and in the work translated by A.S. Beveridge, and its main content has been preserved. Although the translations given in two languages mean the same idea, the differences between them are analyzed with examples.

Key words: literary analysis, rubaiy, historical work, translation, events of the interrupted year, mirror, etc.

Kirish. “Humoyunnoma” asari Zahiriddin Muhammad Bobur qizi Gulbadan Begim tomonidan yozilgan tarixiy asar bo'lib, uning als matni – fors tilida. Asarning yagona va qo'lyozma nusxasi Britaniya muzeyida saqlanayotgani haqida tarjimon A.S.Beverij ma'lumot beradi. Uning tarjimasida als manbada uzilgan yil voqealari izohlar bilan to'ldiriladi. Mazkur voqealar asarning asl nusxasida uzilib qolgan. Asarda

ishlatilgan til uslublari va adabiy tamoyillar turli tillarga turlicha o'tkazilgan. Maqolada shunga doir ayrim jihatlar tahlil qilinadi. Gulbadan Begim Bobur qizining asarida keltirilgan ruboiy va uning A.S.Beverij tomonidan ingliz tilidagi tarjimasida va Pirmiqul Qodirovning "Avlodlar dovoni" asarida berilgan tarjimalari tahlil etilgan.

Sharq va G'arb xalqlari adabiy-badiiy munosabatlari, jumladan, adabiy hamkorligi, o'zbek adabiyoti va uning mumtoz namoyondalari ijodi nafaqat Osiyoda, balki G'arb mamlakatlarida ham katta e'tibor qozonib kelgan. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi shoirlarning durdona asarlari o'zlari hayotlik davrida ham Sharq va Yevropa mamlakatlarida tarqalgan edi. Shu bois, tarjima va uning adabiy hamkorliklari o'rni va mavqeyi manbashunoslik va matnshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, adabiyotshunoslik va tarjimashunoslik masalalari uzoq vaqtlardan beri ko'plab ilmiy tadqiqotlar mavzusi bo'lib kelmoqda.


Asosiy qism. Z.M.Boburdan so'ng Akbarshoh hukmronligigacha bo'lgan davr Movorounnahr, O'rta Sharq, Qobul, Hindiston tarixini o'zida aks ettirgan Gulbdan Begimning "Humoyunnoma" asari O'rta asr tarix fani rivojiga bebaho hissa qo'shgan va o'zining ko'p qirraliligi bilan mashhur bo'lgan "Boburnoma" asarining davomi sifatida maydonga keldi.

Asarning yaratilgan vaqti borasida hozirgacha turli fikrlar mavjud. Bizgacha to'la bo'lmagan va chala holda yetib kelgan hamda hozirda Britaniya Muzeyida saqlanayotgan ushbu asarning yagona nusxasini ingliz olimi Charlz Ryu XVII asrning birinchi yarmida ko'chirilgan deb izohlaydi. Ingliz tarjimoni A.S.Beverij honim esa: "Mazkur nusxa muallifning o'z qo'li bilan yozilgan va bu 1585-1587- yillarga to'g'ri keladi", - deydi. A.S.Beverij xonim tarjimaning kirish qismida quyidagi fikrlarni keltiradi: "Bu jildda aks ettirilgan tarixning oz sonli muqobili bor, chunki u musulmaning ishi bo'lib, o'zining ayollik dunyosini yoritib turadi. U og'zaki til normalari bilan, to'xtalishlarsiz, ta'sirlanmagan va tabiiy holatda yozadi. Shuning uchun ham men bu Britaniya muzeyidagi uning yagona o'zi tomonidan yozilgan qo'lyozmaning matnini nusxalashga va undagi so'z va harflarning xususiyatlarini saqlashga harakat qildim. Biroz istisno bilan hech qanday sharhsiz uning umumiy qoidadan chetlanishlarini qayta ishlab chiqdim; qo'lyozmaga mening qo'shganlarim ba'zi izofalar va unda berilgan ba'zi misollarning belgilari bilan cheklandi" [1, 7].

Mamlakatimizda ham "Humoyunnoma" asarining tarjimasini bilan bog'liq bir necha amaliy ishlar olib borilgan. Ulardan Sabohat Azimjonovna va Botirali Yo'ldoshevlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalar alohida ahamiyat kasb etadi. Lekin mazkur tarjima asarlarda uzilib qolgan voqealarni aks ettiruvchi sahifalar mavjud emas.

Yevropada "Humoyunnoma"ning birinchi to'liq matni ingliz sharqshunosi A.S.Beverij xonim tomonidan tarjimaga yaqin 100 sahifalik so'z boshi, to'ldirilgan qo'shimcha izohlar, sharhlar hamda fors tilidagi nusxasi bilan nashr ettiriladi. Jan Pol Ryu hamda Jan Lui Bakke Gramonlar "Humoyunnoma"ni fransuz tiliga o'girib, 1966- yili tanqidiy matnga o'xshash to'ldirishlar bilan fransuz kitobxonlariga taqdim etadi.

Fransuz tarjimoni B.Gramon ham fransuzcha tarjimaning so'z boshida 1587- yilda Akbarshoh o'zining bosh vaziri va tarixchisi Abul Fazlga saroy tarixini yaratishni buyurganligini tilga oladi. Shu munosabat bilan bobosi Boburshoh hamda otasi Humoyun podshohni yaxshi bilgan olimlar hamda nufuzli sarkardalarga murojaat qilib, ular haqida bilganlarini yozishni buyurgan. "Buning natijasi o'laroq, "Humoyunnoma" ham aynan o'sha yillari yaratildi", - degan fikrni ilgari suradi [3.108]. Asarning tarjimalariga kelsak, bu asar ilk bor 1870- yili fors tilidagi aslidan urdu tiliga pokistonlik Rashid Axtar Nadviy tomonidan o'girilgan. Bularni xotirga olganimizda turli qit'alarining xalqlari, har xil e'tiqoddagi millatlar, turfa zaminu zamonlarni "yakqalam" qilib uyushtirishga kamarbasta bo'lib kelayotgan Hazrati Odanning o'ziday ko'hna tarixga, asarni yozilishiga farmon bergan janobu oliylariga, zahmatkash mutarjimlarga tahsin aytish joiz bo'ladi. Ingliz tarjimonlari: H. Vitsen, B. Erskin, J. Leyden, L. King, fransuz tarjimonlari: P. Kurteyl, B.Grammaon, nemis tarjimonlari: A. Kayzer, fors tarjimonlari: A. Bayramxon, R. Oro Begim, turk tarjimonlari: R. Rahmati Orot, rus tarjimonlari: M.Salye, yapon tarjimonlari: E.Mano, pokistonlik M.N.H.Ko'ragoniy, R.A.Nadviy, hindistonlik S.A.Rizvon va boshqalar aynan Osiyoning tarixiga oid asarlar tarjimasini bilan shug'ullangan til va adabiyot namoyondalaridir. Mazkur tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan ishlar jahonshumul tarjimachilik faoliyatining yorug' tomonlari sifatida iz qoldirgan. Ammo tarjima ishining ayrim soyali va nuqsonli taraflari ham mavjud bo'lib, buni yoritish uchun keltirilayotgan parchalar tahliliga o'tishga to'g'ri keladi. Umumiy tarzda esa bir muammoga to'xtalib o'tsak. Z.M.Boburning qizi Gulbadan Begimning "Humoyunnoma" asarida quyidagi ruboiy va tarjimasini keltirilgan. Ruboiyda Bobur o'zi ta'sir o'tkazmoqchi bo'lgan shaxsga pand-nasihat qilishi va unga o'zining amallari haqida o'ylab ko'rishi va u hech qanday kuchga emasligini tushunishib yetishi kerakligini ta'kidlaydi.



Дар оинаи гарче худ намоий бошад
Пайвасте зи хийштан жудой бошад
Худро бемисоли гайр дидан ажибаст
Ин булъ ажаби коре худое бошад.

Tarjimasi:

Oynada o'zingni ko'rganing bilan,
Baribir boshqadir ul siymo sendan.
O'zingni boshqacha ko'rganing bilan
Bul ajib ishni ul hudodir qilgan.

Humoyun Mirzo qalamiga nisbat berilgan huddi shu to'rtlik yozuvchi Pirimqul Qodirovning "Avlodlar davoni" romanida ham tilga olingan.

Garchi oynada o'zingni ko'rursen,
Vale ul ko'rganing o'zing emassen
(ya'ni surat bilan siyrat orasida farq, judolik bor)
O'zingni o'zganing o'rnida ko'rish ajabdir
Ammo bu ajiblik ham Xudoning ishidir. [2.125]

Biz in'ikos nazariyasini G'arbdan qidirsak-da, uning ma'lum shakllari Sharqda mavjud edi. Sharqda falsafa sharhlanmagan, ifodalangan, yoritilgan. Birgina ruboyida bir dunyo ma'no va falsafaning berilishi Sharqda falsafaning qay darajada ekanligini ko'rsatadi. Oynada o'zingni ko'rib turibsan. Lekin bu o'zingsan va o'zing emassen. In'ikos nazariyasining mohiyati – shu. Qilni qirq yorgan mohir rassom ham tasvirga olayotgan kishining aynan o'zini ifoda eta olmaydi. "Humoyunnoma" asarining tarjimalariga ham shu nisbat berilgan bo'lishi mumkin. Ular qanchalik mohirlik bilan tarjima qilingan bo'lsa-da muallif taqdim etayotgan ma'lumotning asl maqsadiga har doim ham mos bo'lavermaydi. Mazkur ruboiy asarning barcha tildagi tarjimalarida mavjud. A.S.Beveridge xonim ham ruboiyni o'z tarjimasida ingliz tilida keltirib o'tgan.

Although one's image be shown in the mirror,
It remains always apart from one's self.
'It is wonderful to see one's self in another form:
This marvel will be the work of God.

Garchi oynada o'zingni ko'rursen,
Vale ul ko'rganing o'zing emassen
(ya'ni surat bilan siyrat orasida farq, judolik bor)
O'zingni o'zganing o'rnida ko'rish ajabdir
Ammo bu ajiblik ham Xudoning ishidir.

Ruboiyda kishining o'z siymosini aks ettirishi va anglashi haqida fikrlar surilgan. Unda ma'lum bir potensial afzalliklarni ko'rilishi mumkin.

Unda o'z-o'zini, ya'ni o'z timsolini ko'zguda ko'rish harakatiga alohida urg'u beriladi. O'z aksini o'rganish insonga, avvalo, o'zini, qolaversa, o'z tajribalarini va tabiatini chuqurroq tushunish imkonini beradi. Bu shaxsiy rivojlanish uchun qimmatli bo'lgan o'z-o'zini anglash, shaxsiy o'sish va introspektsiyaga olib kelishi mumkin.

Surat va nafs o'rtasidagi farqqa ham alohida e'tibor qaratilgan. U inson ko'zguda o'z siymosini ko'rishiga qaramay, u o'zining asl o'zligidan ajralib turishini ko'rsatadi. Bu farq bizning tashqi ko'rinishimiz bizni to'liq aniqlamasligini bildirishi mumkin. Bu yuzaki xususiyatlardan tashqariga qarash va o'z borligining mohiyatini tan olish muhimligini ifodalaydi.

Turli nuqtayi nazarlarni qadrlash ham aynan shu jarayonda shakllanishi mumkin. O'zini boshqa shaklda ko'rish tushunchasi o'zini turli nuqtayi nazardan idrok etish qobiliyatini nazarda tutadi. Bu insonda empatiyani, tushunishni va boshqalarning tajribalari va fikrlarini qadrlashni rivojlantirishi mumkin. Bu hayotda kengroq dunyoqarash, bag'rikenglikni rag'batlantiradi.

Bundan tashqari ruboiyda ilohiylikni ham e'tirof etiladi. Ruboiy o'z-o'zini boshqa shaklda ko'rish mo'jisani Allohning ishiga nisbat berishini nazarda tutadi. Bu nuqtayi nazar ma'naviyatning rolini yoki insonning shaxsiyatini va tajribalarini shakllantirishda yuqori kuchini tan oladi. Bu tasalli berishi, hayrat uyg'otishi va kattaroq narsa bilan bog'lanish tuyg'usini kuchaytirish mumkin.

Tarjimada matnida keltirilishicha shu maqsadlarda yozilgan bu to'rtlik Sher Xonga yozilgan. Gulbadan Begimning ma'lum qilishicha, Hamida Bonu Begim to'rtlikni zoti oliylari – Bobur tomonidan mirzo – Humoyunga yozilgan deb aytgan bo'lsa-da, aslida u elchi tomonidan Sher Xonga jo'natilgan edi. "Hamida-banu Begam says it was his Majesty who wrote and sent the following verse to the Mirza. I had heard that he sent it to Shir Khan by the envoy" [1. 145].

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, asarlar tarjima qilinar ekan ulardagi ilg'or fikrlar bir ko'rinishdan ikkinchisiga o'tsa-da, muayyan bir jamoa, qolaversa, ijtimoiy qatlamning tafakkurini rivojlanishiga sabab bo'luvchi omil bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. Beveridge A.S. Translation of "The history of Humayun (Humayunnama)" by Gulbadan Begam (Princess Rose-Body). – London: - 1902. - 468 p-s.
2. Pirmqul Qodirov. Humoyun va Akbar (Avlodlar dovoni). Toshkent. - 2018. - 529 b.
3. Ahmedova Sh. "Humāyūn-nāma" by Gulbadan Begim is a magnificent contribution to the field of literature. Theoretical and applied science. Volume 91. – Philadelphia. - 2020. - P-s. 108-110.

РУМИЙ “МАСНАВИЙИ МАЪНАВИЙ” МАНЗУМАСИНИНГ АСЛИЯТ ВА ЎЗБЕКЧА ТАРЖИМАСИНИНГ РАҚАМЛАРДА БЕРИЛИШИ

Тўхсанов Қахрамон Раҳимбоевич,
Бухоро давлат университети профессори,
филология фанлари доктори (DSc)
q.r.tuxsanov@buxdu.uz

Аннотация. Мазкур мақолада Жалолиддин Румий “Маснавийи маънавий” асарининг бевосита аслиятдан ўзбек тилига шеърий ўғирилган нусхалари қиёси асосида мутаржимларнинг вазн, қофия, радиф, лафзий ва маънавий санъатлар, ислоний-тасаввуфий истилоҳлар, ояту ҳадислар, мақолу архаизмлардан фойдаланиш услубий маҳоратини илмий асослаш ва уларни тадқиқ қилиш вазифа қилиб олинган. Ушбу вазифани бажариш учун асарнинг аслияти ва ўзбекча таржималари рақамларда жадвал асосида ўрганилган ҳамда янада аниқроқ, фактлар асосида қиёсий ўрганишга ҳаракат қилинган.

Калит сўзлар: Жалолиддин Румий, “Маснавийи маънавий”, таржима, аслият, услуб, мутаржим, қиёсий таҳлил.

ИЗДАНИЕ ОРИГИНАЛА И ПЕРЕВОДА НА УЗБЕКСКИЙ ЯЗЫК МАНЗУМЫ РУМИ “МАСНАВИЙИ МАЪНАВИЙ” В ЦИФРАХ

Аннотация. В данной статье на основе сравнения копий произведения Джалалуддина Руми «Маснави Маънави», непосредственно переведённых с оригинала на узбекский язык, ставится задача научно обосновать и исследовать методическое мастерство переводчиков в использовании веса, рифмы, радифа, словесного и духовного мастерства, искусства, исламско-мистические нововведения, аяты и хадисы, а также пресловутые архаизмы. Для выполнения этой задачи было изучено своеобразие произведения и узбекских переводов на основе таблицы в цифрах и предпринята попытка провести сравнительное исследование на основе фактов.

Ключевые слова: Джалалиддин Руми, “Маснави Маънави”, перевод, оригинал, стиль, переводчик, сравнительный анализ.

ISSUANCE OF THE ORIGINAL AND UZBEK TRANSLATION OF THE RUMI “MASNAVIYI SPIRITUAL” MANZUMA IN NUMBERS

Abstract. In this article, on the basis of the comparison of copies of Jalaliddin Rumi's "Masnaviyi spiritual", which were directly translated from original to Uzbek, the task was to scientifically substantiate the methodological skills of the use of mutarjim in weight, rhyme, radif, lafzi and spiritual arts, Islamic-mystical conquests, ayat hadiths, proverbs and archaisms and research them. To fulfill this task, the original and Uzbek translations of the work were studied in numbers on a tabular basis, and a more specific, factual comparative study was tried.

Keywords: Jalaliddin Rumi, "Masnaviyi spiritual", translation, originality, style, mutarjim, comparative analysis.

Кириш. Жаҳон адабиётида умуминсоний кадрятлар ва инсон маънавий камолотини васф этган асарлар ҳамиша бутун башариятнинг мулки сифатида эътироф этиб келинади. Айниқса, Шарк мумтоз адабиёти ва унинг иждокорлари асарларига бўлган қизиқиш кундан кунга ортиб бормоқда. Шу боис асар ғояси ва фалсафасининг жамият маънавиятини юксалтиришдаги аҳамиятидан келиб чиқиб, унинг таржимасига эҳтиёжни туғдирган ижтимоий-психологик омилларни аниқлаш ҳамда таржима савиясини баҳолаш таржимашунослик олдида турган долзарб масалалардан ҳисобланади. Қайта-қайта таржима қилинган асарларнинг универсал ва парадигматик жиҳатларини очиш эса дунё таржимашунослиги тараққиёти билан боғлиқ кўплаб муаммоларнинг ечимини топишда муҳим аҳамият касб этади.

Асосий қисм. Шарқ мумтоз адабиётининг буюк вакили, шайх ва шоир, тасаввуф илмининг билимдони, Мавлоно Жалолоддин Румийнинг “Маснавийи маънавий” асари ва унинг таржималарини ўрганишга йўналтирилган илмий изланишлар жаҳоннинг қатор етакчи илмий марказлари ва олий таълим муассасалари, жумладан, Istanbul Üniversitesi (Туркия), Балх давлат университети (Афғонистон), University of Washington Press (АҚШ), Humbolt University of Berlin (Германия), Институт Востоковедения РАН, Институт восточных рукописей в Санкт-Петербурге (Россия), Қозон давлат университети, Қозоқ миллий университети (Қозоғистон), Azərbaycan Milli Pimilər Akademisi, Bakı Dövlət Universiteti, Z.Bünyadov adına Şerqşünaslıq İnstitutu (Озарбайжон), Алишер Навоий номидаги Тошкент давлат ўзбек тили ва адабиёти университети, ЎзР ФА Ўзбек тили, адабиёти ва фольклори институти, Тошкент давлат шарқшунослик институти, Ўзбекистон халқаро ислом академияси, Самарқанд, Қарши ва Бухоро давлат университетлари (Ўзбекистон)да илмий тадқиқотлар олиб борилмоқда.

Жаҳон адабий жараёнида “Маснавийи маънавий” матни таржималарига йўналтирилган тадқиқотлар натижасида бир қатор, жумладан, куйидаги илмий натижалар олинган: асар таржималари қаерларда амалга оширилганлиги географияси аниқланган. “Маснавийи маънавий” билан боғлиқ таржима санъатининг лингвистик мавқеи, шаклланиши ва ривожланиши илмий исботланган. “Маснавийи маънавий”нинг ғоявий-бадий таъсирчанлигини ошириш мақсадида унинг таркибига киритилган афсона, ривоят, ҳикоят, ояту ҳадис, мақолу ҳикматларнинг поэтик вазифалари, исломий-тасаввуфий истилоҳларнинг аҳамияти ва уларнинг ўзига хос хусусиятлари тадқиқ қилинган.

Дунё адабиётшунослигида мумтоз асарларни турли тилларга таржима қилиш ва уларни тадқиқ этишнинг куйидаги устувор йўналишларида тадқиқотлар олиб борилмоқда: жаҳон таржимашунослигида шеърий таржималарнинг ўзига хос томонлари, жумладан, вазн, қофия, радиф, поэтик санъатларнинг таржимада акс этирилиши, уларда таржима асарларнинг адекватлик даражасини таъминлаш; ноадекват таржима сабабларини топиш ва уларни бартараф этиш йўллари ишлаб чиқиш; тил бирликларини, айниқса, архаизмларни, исломий-тасаввуфий тушунчаларни ифодаловчи сўзларни таржима тилида беришнинг қиёсий таҳлили, таржимада прагматик мувофиқлик ва номувофиқликни келтириб чиқарувчи унсурларини аниқлаш; мумтоз асарларни таржима қилиш тамойилларини белгилаш кўзда тутилмоқда.

Шеърий матнни идрок этиш ва уни бир тилдан бошқа тилга ўгириш масаласи узоқ йиллардан бери таржимашунослар эътиборини жалб қилиб келмоқда. Жаҳон ва рус адабиётшунослигининг кўп вакиллари шеърий таржима ва бадий матнни қайта яратиш масаласига оид тадқиқотлари билан бу соҳа ривожига бекиёс ҳисса қўшдилар [1].

Дунё ва ўзбек адабиётшунослигида “Маснавийи маънавий”нинг аслияти, турли тилларда амалга оширилган таржима ва шарҳлари ҳақида катта-кичик тадқиқотлар мавжуд. Бирок кузатишлар шуни кўрсатдики, тадқиқотимиз учун бош манба ҳисобланган асарнинг Жамол Камол таржимаси тўғрисида ҳозирча бир неча тарғибий мақола мавжуд.

Жалолоддин Румий “Маснавийи маънавий” асарининг бевосита аслиятдан ўзбек тилига шеърий ўгирилган нусхалари қиёси асосида мутаржимларнинг вазн, қофия, радиф, лафзий ва маънавий санъатлар, исломий-тасаввуфий истилоҳлар, ояту ҳадислар, мақолу архаизмлардан фойдаланиш услубий маҳоратини илмий асослаш ва уларни тадқиқ қилишган. Хусусан асарнинг аслияти ва ўзбекча таржималарини рақамда ўрганишни жадвал асосида беришни мазкур мақолада мақсад қилдик.

“Маснавийи маънавий”га шарҳ ёзиш XV асрдан бошланган. Илк шарҳлардан бири Камолддин Ҳусайн Хоразмий томонидан ёзилди. Лекин у “Жавоҳир ул-асрор ва завоҳир ул-анвор”да “Маснавийи маънавий”нинг фақат уч дафтариини шарҳлаган. Бундан ташқари, Яъқуб Чархий ҳам “Маснавийи маънавий”даги най тимсолини шарҳлаб рисола ёзган. XVIII асрга келиб яна битта шарҳ ёзилди. Бу Шайх Одина Муҳаммад Хоразмийнинг “Маснавийи маънавий”нинг дастлабки уч дафтарига ёзган ирфоний шарҳидир.

Жамол Камол кўп қиррали ижодий изланишларининг муҳим бир соҳаси унинг ўзбек таржимачилик санъатини ривожлантириш йўлидаги фаолиятидир. Бугунги ўзбек таржима санъатининг ривожига ҳақида гап кетганда, бу соҳада ғайрат кўрсатаётган фидойилар сафининг аввалида Жамол Камол номининг эътироф этилиши ғоят табиийдир. Зотан, шоир иқтидори, кўп йиллик заҳматли изланишлари маҳсули сифатида дунёга келган, жаҳоннинг турли тилларида яратилган асарлар таржимаси нафақат шоир ижодий йўлига кўрк бўлиб қўшилди, балки ўзбек

китобхонлари маънавий хазинасининг қатор нодир ва муқаддас дурдоналар ҳисобига тўлишига замин яратди [2].

Биринчи жадвалимиз: “Маснавийи маънавий”нинг ҳажми ва таркибидир, асар аслиятда [3] олти дафтар деб номланган, ўзбекча варианты [4] эса олти китобдир. Аслият ва таржимадаги байтлар сони ва асар ҳажми тўлиқ келтирилган.

№	Аслият	Байтлар сони	Ўзбекча таржимаси	Байтлар сони	Аслиятга сарлавҳалар сони	Таржимасида сарлавҳалар сони
1.	Дафтар	4018	Китоб	4018	173	173
2.	Дафтар	3825	Китоб	3825	113	113
3.	Дафтар	4810	Китоб	4810	227	227
4.	Дафтар	3855	Китоб	3855	139	139
5.	Дафтар	4240	Китоб	4240	179	179
6.	Дафтар	4930	Китоб	4930	141	141
	Жами:	25685		25685		

Ўтмишда ва бугунги кунда “Маснавийи маънавий” бир қатор адабиётшунослар ва мутаржимлар томонидан гоҳо назмдан назмга, гоҳо назмдан насрга ва баъзан шарху изоҳлар ўзбек тилига берилгани кувонарли ҳолдир. Бу анъана айни кунларда ҳам давом этмоқда.

Иккинчи жадвалда эса “Маснавий”нинг ўзбекча шеърӣ таржималари қайси шоир, мутаржим, адабиётшунос томонида шарх, изоҳ ва назмдан назмга ўзбекчалаштирган келтирилган.

№	Таржимонлар	Шарх бериш	Изоҳ бериш	Таржима
1.	Бобораҳим Машраб	48 байт		
2.	Шайх Одина Муҳаммад Хоразмӣ		1384 байт	
3.	Алибек Рустамов			10 байтни
4.	Аскар Маҳкам			1207байт
5.	Жамол Камол			Тўлиқ таржима
6.	Мирзо Кенжабек			18 байт
7.	Вазира Шодиева			18 байт
8.	Шоислом Шомухаммедов			6 байт
9.	Қосимов Хайрулло	1388 байт		
10.	Йўлдош Парда	4 байт		
11.	Эргаш Очиллов	50 байт		

Булардан ташқари бир қатор мутаржимлар томонидан мазумандаги ривоят ва ҳикматлар ҳам ўзбекчалаштирилган. Шоир Муҳаммад Али “Маснавийи маънавий”нинг биттагина ривоятини ўзбекчалаштирган.

Адабиётшунос ва мутаржим Нажмиддин Комилов “Маснавийи маънавий”дан олти хикоятнинг насрий баёни билан бирга талқинини ҳам келтирган.

Ўзбекистон Миллий университети ўзбек филологияси факультети туркология бўлими 2-курсининг 16 нафар таржимон талабалари томонидан “Маснавийи маънавий” асаридан 49та ибратомуз хикоятлари соддалаштирилган насрий баён қилинган. Бу тўпламнинг иккинчи нашри ҳам чоп этилган.

Таржимон шоир, ёзувчи, адабиётшунос Хайрулла Қосимов шундай дейди: “Маснавийи маънавий”даги ҳар бир байт ўзига хос ҳикмат жавоҳирларидир. Камина мавлоно асарларининг бир мухлиси сифатида шоир Жамол Камол таржималаридан фойдаланган ҳолда айрим байтларни ажратиб тўпладим ва уни шартли равишда “Эпласанг, қочгил ўлимдин...” (Румӣ) деб атадим”. Унда 478 байтнинг шарҳи ва насрий баёни, иккинчи китобда эса жами 143 та байтнинг насрий баёни келтирилган.

Адабиётшунос ва мутаржим Сабоҳат Бозорова Румийнинг ҳикматларини мавзуларга бўлиб, турк тилидан ўзбекчалаштирган. Китобда 85 та сарлавҳа остида ҳикматли сўзлар таржима изоҳи берилган.

Адабиётшунос ва таржимон Абдумурод Тилавов томонидан 40 ҳикоятга 40 та шарҳ ёзилиб, иккита китоб шаклида нашр этилган. Мазкур китобни тайёрлашда бирламчи манба сифатида профессор Маҳмуд Темирчининг “Маснавийи маънавий”га ёзган шарҳларидан, шунингдек, Алишер Навоий, Абдурахмон Жомий, Аҳмад Яссавий, Бобораҳим Машраб, Сўфи Аллоёр каби мумтоз шоирларнинг, айрим ўринларда кейинги давр ижодкорларининг асарларидан, хусусан, ўзбек халқ мақолларидан фойдаланилган. Кейинчалик икки китоб бирлаштириб чоп этилган. Фақат 40 ҳикоятга 40 шарҳдан ташқари, “Найнома” таржималари, “Маснавийи маънавий”дан ҳикматлар келтирилган.

Таржимон, шоир, ёзувчи, адабиётшунос Хайрулла Қосимов томонидан “Маснавийи маънавий”дан 577 байт шарҳланиб, ўзбек китобхонига тақдим этилган.

Бугун ҳар қандай маърифатли инсон ўзбек китобхони имконият даражасида Ҳазрат Румийнинг асарлари билан таништиришга ҳаракат қиляпти. Саодат Мейлиева Карим Қоранинг “Мавлоно Маснавийсида қалб – кўнгил” тадқиқотини чоп этган.

Таржимон Абдуллоҳ Раҳимбоев “Маснавийи маънавий”дан 67 ҳикоятни насрий таржима қилган.

Эргаш Очиллов ҳам Румий ҳикматларини жамлаб, бир китоб шаклида чоп эттирди. “Ҳикматлар” китобида Алишер Навоий, Шоислом Шомухаммедов, Жамол Камол, Шерали Турдиев, Жаъфар Муҳаммад, Йўлдош Парда ва Эргаш Очиллов таржималари тўпланган.

Таржимон Рустамжон Раҳматуллоҳзода томонидан ҳам бу соҳада муайян ишлар қилинган.

Учинчи жадвалда эса “Маснавий”ни қайси шоир ва адабиётшунос томонидан ўзбекчада насрий баён этилган келтирилган.

№	Таржимонлар ва шорехлар	Нечта ҳикоятни шарҳ берган	Нечта ҳикматни шарҳ берган
1.	Алишер Навоий		8
1.	Нажмиддин Комилов	7	
2.	Абдумурод Тилавов	91	
3.	Сабоҳат Бозорова		85
4.	Саодат Мейлиева		185
5.	Абдуллоҳ Раҳимбоев	67	
6.	Муҳаммад Қобил		43
7.	Маҳмуд Ҳасаний		94
8.	Шерали Турдиев		2
9.	Жаъфар Муҳаммад		4
10.	Йўлдош Парда		1
11.	Эргаш Очиллов		29

“Маснавийи маънавий” асарининг вужудга келиши биланоқ дунё халқлари томонидан бадиий сўз санъати сифатида кутиб олинди. Румийшунослар бу асарни “Форсий Қуръон”, “Тасаввуф қомуси”, “Маънавият денгизи”, “Дунёнинг китоби” каби номлар билан ҳам улуғлайдилар. Тасаввуфда Ҳақ йўлига кирганларни аҳлиуллоҳ, аҳли ҳол, аҳли ботин, дарвеш, қаландар, фақир, авлиё, сўфий, шайх, солиқ каби номлар билан тилга оладилар. Асарда авлиё сўзи 106, фақир сўзи 69 ва бошқа истилоҳлар жуда кўп маротаба турли мақсадларда истифода қилинган.

“Маснавийи маънавий”да мақомот, қурб, муҳаббат, шавқ, ҳол, қол, унс, мужоҳида, жазба, маърифат, тавба, зуҳд, фақир, сабр, хавф, рижо, таваккул, ризо, қаноат, зикр, мууроқаба, ориф, зоҳид, нафс, хилват, дарвеш, сўфий, валий, толиб, солиқ, каромат, ҳақ, ҳақиқат, ботин, зоҳир, ғайб, сир, асрор, ишқ, риёзат, таважжўх, хилват, анжуман, футувват, имон, ҳилм, такво, карам, сидк, мурувват, шафқат, эҳсон, вафо, ҳаё, ғайрат, муршид, иршод, мурид, ваҳдат, хирқа, яқин, мақом, дард, сахв, “муту қабла ан тамуту”, фоний, боқий, абдол, авлиё, адам, адаб, азоб, амал, анбиё, арз, арш, асмо, ақл, ағёр, аҳл, бало, бақо, бурҳон, васл, вақт, ваҳм, ворид, восил, вужуд, жалол, жамол, жилва, жунун, завқ, зот, ибодат, имон, илҳом, истиқомат, истиғроқ, ишорат, кавн, кашф, ладун, латифа, мавт, муҳаббат, нафас, нафс, ниёз, нур, огоҳ, озод, олам, рамз, риё, сайр, сакр, самоъ, сафар, сафо, сир,

LITERARY CRITICISM

тавҳид, туш, фақр, фитрат, хотир, якин, қалб, ҳайрат, ҳақиқат, ҳижоб каби кўплаб тасаввуфий истилоҳлар тилга олинган.

Шуларни инобатга олган ҳолда тўртинчи жадвалимиз, тасаввуфий истилоҳларни аслиятдаги ва таржимада берилишидан иборатдир.

№	Диний – тасаввуфий истилоҳлар	1д	1к	2д	2к	3д	3к	4д	4к	5д	5к	6д	6к
1.	Тавба	11	15	12	18	5	8	20	21	37	45	30	39
2.	Зӯҳд	2	2	2	2	-	-	2	3	4	3	4	3
3.	Фақр	20	10	5	3	9	2	9	2	9	5	14	-
4.	Сабр	26	42	34	32	41	51	18	24	42	59	63	73
5.	Хавф	8	6	11	10	26	19	4	6	18	7	26	13
6.	Ражо	6	4	4	2	1	2	3	-	7	3	9	4
7.	Таваккул	19	12	-	-	2	1	3	-	18	14	1	1
8.	Ризо	3	3	6	4	13	10	5	1	9	4	7	5
9.	Қаноат	8	10	-	1	-	3	3	3	5	9	2	-
10.	Зикр	12	12	18	16	21	16	6	5	6	3	20	11
11.	Муроқаб	-	-	-	2	-	-	-	-	-	-	-	-
12.	Ориф	7	10	9	10	5	5	9	7	13	14	21	23
13.	Зоҳид	-	1	8	9	8	8	4	3	24	27	9	11
14.	Нафс	40	59	62	72	47	53	32	35	49	67	35	40
15.	Хилват	18	26	6	5	11	14	3	3	15	12	11	12
16.	Дарвеш	23	31	13	14	20	19	11	16	10	8	24	27
17.	Суфий	9	7	51	54	7	9	23	17	27	21	36	33
18.	Вали	10	15	3	9	1	10	2	7	3	6	6	13
19.	Толиб	14	8	13	13	20	10	14	4	20	9	27	21
20.	Солик	1	1	1	-	7	2	2	1	3	2	1	1

Назм ўзининг гўзаллиги, оҳанги, дилкашлиги, таъсирчанлиги ва юксак бадиияти билан инсон қалбини ҳамиша ром қилиб келган. Чунки шеърини нутқдаги жозибадорлик, рангинлик ва равонлик шеърни биринчи ўқишдаёқ ўқувчи эътиборини тортиб, унга кучли ижобий таъсир қилади. Мумтоз адабиёт намояндларининг ўлмас маънавий мероси бунга яққол мисол бўла олади. Уларнинг машҳурлиги сири шундаки, қўлланган ҳар бир сўз, ибора ва мисра юксак ҳамда бетакрор бадиияти билан инсон маънавий ва руҳий камолотига катта хизмат қилади.

Ўзбек ва тожик халқларининг қадимдан бир юртда яшаб, бир ариқдан сув ичиб, умргузаронлик қилиши нафақат уларнинг ҳаёти, яшаш тарзи, балки адабиётларида ҳам ўхшашлик ва муштаракликни аниқлаган.

Адабиётшунос ва таржимон Ш. Шомухаммедов бу хусусда шундай ёзади: “Ўз адабиётларида айна бир хил вазнларга эга бўлган, адабий, маданий анъаналари бир-бирига яқин халқларда бу муаммо, чамаси, анча енгил ҳал қилинади. Масалан, шеърда ҳижола нисбати жиҳатидан классик ўзбек ва тожик адабиётларида муштараклик бор”. Олим бу ўринда нафақат икки адабиётдаги вазннинг муштарак хусусиятларини қайд қилган, балки улардаги адабий жанрлар, мавзулар силсиласи, ҳатто бадиий воситаларни қўллаш борасида бир-бирига ҳамоҳанг эканлигини ҳам назарда тутган. Бу ҳолат қофия ва радиф қўллаш мисолида янада яққолроқ намоён бўлади.

Қофиядош сўзлар шеърдаги бошқа сўзлардан кўра ўқувчига кучлироқ таъсир этади. Унинг хотирида узоқроқ сақланади, диққатини кўпроқ жалб этиб, бошқа сўзларнинг ҳам таъсирчанлиги ва маъно салмоқдорлигини оширади. Қофия мисраларни жуфтлаб, композицион яхлитликка олиб келади, ритмик бирликни ниҳоясига етказиб, шеърини паузани ҳосил қилади, мазмун маъноларни бир – бирига яқинлаштиради. Хуллас, қофия шеърнинг асосий унсурларини ўзаро алоқага киритиб, жўр қилувчи, барча экспрессив воситаларни бир жойга жамлаб, бир бутун кучга айлантирувчи воситадир”. Инсон руҳиятига кучли таъсир этувчи ва шеърини санъатларни орқасидан ташувчи, байтдаги қофияларнинг аслият ва таржимасини киёсий ўрганиб, мутаржим меҳнатига тўғри баҳо бериш асосий мақсаддир.

“Қофия” арабча сўз бўлиб, луғавий маъноси *бошининг орқаси, ҳар бир нарсанинг охири, узидан*

боришидир.

Термин маъносида, шаклан ўхшаш, ҳамоҳанг ё вазндош сўзларни қофия дейдилар. Асосан, шеър мисрасининг охирида келиб, унинг вазни ва оҳангдорлигини таъминлайди. Масалан, “дод”, “бод”, “шод”, “род” ва “даст”-у “раст”-у “хаст” ва ҳоказо.

Таъкидлаш жоизки, дунё тилларида “Маснавийи маънавий”нинг жуда гўзал таржима ҳамда шарҳлари бор. Ўзбек тилида эса шоир Асқар Маҳкам, Жамол Камол вариантлари ўз мухлисларини топиб улгурди. Асар шундай сўзлардан таркиб топганки, унинг ҳар бири етти-саккиз хил маънода жилоланади. Изланишлар шуни кўрсатадики, назмий таржимада ҳамиша бундай серқирра сўзларни топиш қийин. Шу боис таржима ҳар қанча муваффақиятли чиқмасин, асарнинг аслига тенг бўла олмайди. “Маснавийи маънавий” шарҳлари, таржималарининг сони кўплиги ҳам шундан бўлиши мумкин. Ҳар бир китобхон ундан ўз олами доирасида маъно жавоҳирларини таради. Маъно жавоҳирлари эса асло тугамайди.

Назмдан назмга таржима қилиш шартларидан яна бири қофия ва радифнинг аслиятини таржимада берилишидир. Олиб борилган тадқиқотлар қуйидаги жадвалда ўз аксини топган:

№	Дафтар+китоблар	Қофия аслият	Радиф аслият	Қофия таржимада	Радиф таржимада
1	Биринчи дафтар+китоб	3136	882	3272	746
2	Иккинчи дафтар+китоб	3182	643	3149	676
3	Учинчи дафтар+китоб	4259	551	4071	739
4	Тўртинчи дафтар+китоб	3417	438	3280	575
5	Бешинчи дафтар+китоб	3779	461	3487	753
6	Олтинчи дафтар+китоб	4408	522	4199	731
Жами:	25678	22181	3497	21458	4220

Хуллас, истиқлол шарофатидан юртимизда Жалолиддин Румий ҳаёти ва ижодини ўрганиш, меросини таржима қилиб, нашр этишда алоҳида давр бошланди. Асқар Маҳкам, Жамол Камол, Эргаш Очилов каби шоир-мутаржимлар бу борада катта хизмат қилдилар. “Маснавийи маънавий”нинг Жамол Камол тўлиқ таржимаси, шунингдек, унинг боб ва ҳикоятларидан парчаларнинг назмий ва насрий таржималари ҳам асарни ўзбек китобхонига таништиришда муҳим аҳамият касб этмоқда.

“Маснавийи маънавий” аниқ бир сюжетдан иборат эмас. Адиб ҳикоя ичида ҳикоя, ривоят ичида ривоят, сура ичида оят, ҳадис таркибида халқ мақоллари, халқона масаллар ва ҳоказоларни келтириш билан ўз мақсадини ўқувчига етказди. Муаллиф масалаларни бадиий тасвирлар экан, аниқ бир тартибга риоя қилмайди ҳамда аниқ боб ва фаслларга ажратмайди. Буларнинг бари асар таржимасини мураккаблаштиради.

Бироқ “Маснавийи маънавий” аниқ бир сюжетдан иборат бўлмаса ҳам, мавзулар кўлами, ривояту ҳикоятлар силсиласи ҳамда ҳадису оятлар талқини мантиқан бир-бирига боғланиб, бир-бирини тўлдириб боради, мукаммалаштиради.

Мавлоно Жалолиддин Румий ривоятлар, киссалар ва ҳикоятлар таркибида баъзан лирик чекиниш қилиб, одоб-ахлоқ, сабр, шукур, қаноат, нафс тарбияси, ўзаро ҳурмат, ўзликни англаш, оилавий муносабатлар, ота-онани кадрлаш, турли касб эгаларини ҳурмат қилиш каби инсоний фазилатларни улуғлайди; устозни азиз билиш, ҳаёт кадрига етиш, бировга зулм қилмаслик, ақл-заковат билан иш тутиш, катталарни ҳурмат қилиб, кичикларнинг иззатини ўрнига қўйиш каби масалалар хусусида ҳам сўз юритади. Бунда у ўзи яшаган давр форс-тожик тилининг бор имкониятларидан кенг фойдаланган. Шунинг учун ҳам мутаржим ўша давр форс-тожик тилининг лексик-грамматик хусусиятларини билиши муҳимдир.

Ўтмишда ҳам “Маснавийи маънавий”ни ўзбек тилида шарҳлашга уринишлар бўлган. “Маснавийи маънавий”га шарҳ ёзиш XV асрдан бошланган. Илк шарҳ Камоллиддин Хусайн Хоразмий томонидан ёзилган. Лекин адиб “Жавоҳир ул-асрор ва завоҳир ул-анвор”да манзуманинг фақат уч дафтарини шарҳлаган. Алишер Навоийнинг “Мажолис ун-нафоис” тазкирасида Қосим Анворнинг Румий “Маснавий”си вазнида маснавий ёзганлиги, Хусайн Хоразмийнинг Румий “Маснавийи маънавий”сига шарҳ битганлиги айтилган. Гарчи муаллиф у ҳақидаги қайдларга алоҳида ўрин

ажратмаган бўлса-да, бошқа бир қатор асарларида турли сабабларга кўра, Румий сиймосига мурожаат этган. Яна Машрабнинг “Мабдаи нур”, XVIII асрда Хоразмда яшаб фаолият кўрсатган Шайх Одина Муҳаммад Хоразмийнинг “Мифтоҳ ул-асрор” асарлари Румий услубида ёзилганлиги билан эътиборни тортади.

“Маснавийи маънавий” шарҳи ва таржимасига қўл урган барча ижодкорлар мутаржим-шоир Жамол Камол учун тажриба мактабини таъминлаб берди. Таржимон уларнинг ютуқ ва камчиликларидан сабоқ олди, қаламини сайқал берди.

“Маснавийи маънавий” асари ўзбек атоқли шоир ва мутаржими Жамол Камол томонидан илк бор тўлиқ ўзбекчага ўгирилди. Ўзбек китобхонлари Жалолиддин Румий “Маснавийи маънавий” сени маҳоратли шоир ва мутаржим таржимасида худди аслият даражасида яратилган асар сифатида яхлит ҳолда ўқиш имкониятига эга бўлди.

“Маснавийи маънавий” асарида шеъринг санъатларнинг қиёмига етказиб ишлатилганлиги асар тилининг мураккаблашишига эмас, аксинча, содда ва раvon бўлишига замин яратган. Унинг ўзбекча таржимасида ҳам ана шу содда ва раvonлик сақланиб қолган. Ўқувчилар уларни қийналмасдан тушуниб оладилар.

Асар таркибидаги аксарият бадиий санъатлар моҳирлик билан ўзбек тилига ўгирилиб, талабчан китобхонлар диққатига ҳавола этилган. Уларда румийна руҳ яққол сезилиб туради. Лекин таъкидлаш жоизки, мутаржимлар баъзан аслиятдаги бадиий санъатларнинг айнан муқобилини бермай, уларни оддий баён этиш орқали ўқувчига етказишга ҳаракат қилишган. Бундай ҳолларда аслиятдаги байтлар мазмуни бузилмаган бўлса ҳам, бадииятга қусур етганлиги билиниб туради. Бу жиҳатдан айтиш мумкинки, Жамол Камол “Маснавийи маънавий” таркибидаги бадиий санъатларнинг аксариятини жуда маҳорат билан катта заҳмат эвазига ўзбек китобхонига етказа олган.

Жамол Камол “Маснавийи маънавий” таркибидаги бадиий санъатларни ўзбек тилида ўғирар экан, уларда шарқона руҳ, туркона оҳанг, мумтоз ва замонавий лисоннинг гўзал бир тарзда уйғунлашувидан ҳосил бўлган ширали тилни таъминлай олган. Айнан бадиий санъатлар таржимасидаги ана шу ширали тил, ҳассос руҳ, жозибали оҳанг ва раvon услуб таржиманинг худди аслиятдагидай жаранглаб чиқишини ҳамда унинг муваффақияти ва ўқишлилигини таъминлаган.

Асар таржималарини қиёслаш жараёни шуни кўрсатадики, Жамол Камол таржималари пухтароқ, аслият мазмунини нисбатан тўлиқроқ акс эттира олган. Шоир-мутаржим ҳар бир сўз устида курашган, ўқувчисига аслиятни имкон қадар мукамалроқ етказишга ҳаракат қилган. Бу ниҳоятда заҳматли иш бўлса-да, Жамол Камол унинг уддасидан чиқа олган. Айниқса, бадиий санъатлар таржимасида бу яққол кўзга ташланади.

Таржима мураккаб жараён бўлиб, асл нусханинг мазмунини аниқ ва тўғри бера олиш учун фақатгина сўзларнинг мосини топиш кифоя эмас, уларга алоқадор грамматик шакл ва бирликларни ҳам тўғри ифодалаш зарурдир. Шу жиҳатдан, таркибида кўплаб исломий-тасаввуфий тушунчаларни ифодаладиган сўзлар, оят ва ҳадислардан парчалар ҳам мавжуд бўлган “Маснавийи маънавий”ни ўзбек тилига маҳорат билан тушунарли ва оҳангдор тарзда ўғириш таржимондан бу борада етарли диний билим, дунёқараш, бадиий-эстетик тажрибани талаб қилади. Жамол Камол таржимасида бундай сўзлар икки йўл билан ўқувчига етказилган: биринчидан, диний-тасаввуфий истилоҳларнинг айнан ўзи сақланган; иккинчидан, мазкур сўзларнинг ўзбек тилидаги муқобили ёки маънодоши ишлатилган.

Бошқа таржимонлар кўпинча вазн талаблари ҳамда байтдаги мазмунни аслиятга яқин ҳолда сақлаб қолиш ниятида шоир ишлатган қофияларни кўллашга ҳаракат қилганлар. Маҳоратли таржимон Жамол Камол эса “Маснавийи маънавий” таржимаси жараёнида аксарият ҳолларда қофияларни аслиятдагидек сақлаб қолган.

Мутаржимлар архаик сўзларни таржима қилиш жараёнида имкон қадар ҳар иккала тил хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ёндашганлар. Муқобил вариантга эга бўлмаган архаик сўзларни таржима қилиш жараёнида қийинчиликка учраганлари табиий ҳол. Бу қийинчиликни Жамол Камол ўз шоирлик маҳорати ва бу соҳадаги катта тажрибаси эвазига енга олган. У ўзбек тилида муқобил варианты мавжуд бўлган архаик сўзларни шу тушунча маъносини берувчи мос сўзлар билан маҳорат ила ифодалашга муваффақ бўлган.

Хулоса. Диний-тасаввуфий сўзларнинг таржимаси анча мураккаб ҳисобланади. Бу сўзлар оддий сўзлар сирасига кирмайди. Уларнинг маъноси замирида жуда чуқур илдиз отган шариат ва тасаввуфий одоб-ахлоқ қоидалари, урф-одатлар, ҳикматли ривоят ва қиссалар ётади. Бу кадрятларни билмай туриб, “Маснавийи маънавий” таркибидаги диний-тасаввуфий истилоҳларни бошқа тилда

бехато бериб бўлмайди. Жамол Камол диний-тасаввуфий сўзларни таржима қилиш жараёнида жуда эҳтиёткорлик, маҳорат ва билимдонлик билан ёндашиб, сўзлар замирида ётган катта ҳикмат хазинасини англаган ҳолда уларни ўзбек ўқувчисига етказиб бера олган.

Мазкур мақолада аслият ва таржимани қиёслаб жадвал асосида тадқиқотимизни янада аниқроқ, фактлар асосида беришга ҳаракат қилдик.

АДАБИЁТЛАР:

1. Балхӣ, Мавлоно Чалолiddин Муҳаммад. *Маснавийи маънавӣ. Бар асоси матни Р.Никольсон ва муқобила бо нусхаҳои дигар.* – Техрон: Замон, 2001. С. – 728.
2. Гачечиладзе Г. *Художественный перевод и литературные взаимосвязи.* – М.: Сов. Писатель, 1980.
3. Мавлоно Жалолiddин Румий. *Маснавийи маънавий. Форсийдан Ўзбекистон халқ шоири Жамол Камол таржимаси.* – Т.: MERIYUS XHMK, 2010. – Б. 864.
4. Россельс В. *Сколько весит слово.* – М.: Сов. Писатель, 1984
5. Тўхсанов Қ. *“Маснавийи маънавий” асари ўзбекча таржималарининг қиёсий тадқиқи. Монография.* – Globe Edit, 2021. – 265 бет.
6. Фёдоров А. *Основы общей теории перевода.* – М.: Высшая школа, 1983
7. Шомухаммедов Ш. *Таржима санъати. Мақолалар тўплами.* – Т.: 1973. – Б. 44.
8. Эткинд Е. *Поэзия и перевод.* – Л. – М.: Сов. писатель, 1963

*Болтаева Гулчехра Шокировна,
доцент Навоийского государственного
педагогического института,
кандидат филологических наук*

***Annotatsiya.** Dunyo adabiyotshunosligida lirik janrlarga xos xususiyatlar, ulardagi transformatsion jarayonlar, badiiy takomil xususiyatlari, tasnifiy belgilari bo‘yicha muayyan izlanishlar olib borilmoqda. Shu jihatdan Sharq mumtoz adabiyoti, jumladan, o‘zbek adabiyoti rivojida alohida o‘rin tutgan muxammasning mustaqil she‘riy janr sifatida shakllanish tarixini tadqiq etish, uning tadrijiy takomili jarayonini aniqlash va o‘ziga xos g‘oyaviy-badiiy xususiyatlarini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganishga alohida diqqat qaratilmoqda.*

O‘zbek adabiyoti tarixida muxammas yaratish an‘anasi barcha davr shoirlari ijodida uchraydigan adabiy hodisadir. Maqolada o‘zbek adabiyotida Hofiz Xorazmiy tomonidan yaratilgan ilk muxammasning poetik xususiyatlari tahlil etiladi.

***Kalit so‘zlar:** o‘zbek mumtoz she‘riyati, muxammas, poetik mavzu, poetik mazmun, poetik shakllar.*

ПЕРВЫЙ МУХАММАС В УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

***Аннотация.** В мировой литературе проводятся специальные исследования особенностей лирических жанров, процессов их трансформации, художественного развития и классификационных признаков. В связи с этим имеет особое значение исследование генезиса мухаммасов как самостоятельного поэтического жанра, занимающего своеобразное место в развитии восточной классической литературы, в том числе узбекской, определение процесса его постепенного совершенствования, идейно-художественные особенности и научно-теоретический анализ его уникального характера.*

В истории узбекской литературы традиция создания мухаммасов – литературное явление, встречающееся в творчестве поэтов всех эпох. В статье анализируются поэтические особенности первого мухаммаса, созданного Хафизом Хорезми в узбекской литературе.

***Ключевые слова:** узбекская классическая поэзия, мухаммас, поэтическая тема, поэтическое содержание, поэтические формы.*

THE FIRST MUKHAMMAS IN UZBEK LITERATURE

***Abstract.** In world literature, special studies are conducted on the characteristics of lyrical genres, the processes of their transformation, artistic development and classification characteristics. In this regard, it is of particular importance to study the genesis of mukhammas as an independent poetic genre, which occupies a unique place in the development of Eastern classical literature, including Uzbek, to determine the process of its gradual improvement, ideological and artistic features and a scientific and theoretical analysis of its unique character.*

In the history of Uzbek literature, the tradition of creating mukhammas is a literary phenomenon found in the works of poets of all eras. The article analyzes the poetic features of the first mukhammas, created by Hafiz Khorezmi in Uzbek literature.

***Keywords:** Uzbek classical poetry, mukhammas, poetic theme, poetic content, poetic forms.*

***Kirish.** O‘zbek adabiy tafakkuri taraqqiyotida poetik mazmun va shakl yangilanishining adabiy-estetik asoslari, adabiy tur va janrlar, ularning evrilishi, sinkretizmi, stilisatsiyasi, poetik an‘ana sintezi kabi masalalar dolzarb muammolardan biri sifatida tadqiq etib kelinmoqda. Ijodkor poetik tafakkurining yangilanishi an‘analarga yondashuvning, lirik qahramon tabiatining, badiiy obrazlar tadrijining, janrlar takomili va poetik shakllarning yangilanishiga asos bo‘ladi. Ma‘lum bir janr genezisini mazkur yo‘nalishda tahlil etish adabiyotshunoslik ilmining adabiy tur va janr, vazn va qofiya, mavzu va obraz, an‘anaviylik va novatorlik, badiiyat va adabiy ta‘sir kabi nazariy masalalarini yanada aniqlashtirishga, takomillashtirishga xizmat qiladi.*

Ma'lumki, qator lirik janrlarning shakllanishi arab adabiyotida borib taqaladi. Islomga qadar johiliya davri ijodkorlarining yuzdan ortiq she'riy asarlari mavjud bo'lgan. Bular asosan V asrdan boshlab, VII asrning o'rtalarigacha bo'lgan davr adabiyotini qamrab oladi [2,11]. Bu davr adabiyotida, asosan, qasida janri namunalari yetakchilik qiladi. Johiliyat davrida yashagan Umru-l-qays, Labid, Antara, Sobit ibn Abu al-azdi, Tabbata Sharan Bashar ibn Burd, Farazdaqning qasidalarini "Ayomu-l-arab" to'plamida tilga olingan. Keyinroq islomiyat davrida yashagan Ibn Qutayba tomonidan yaratilgan "Shoir va she'r" kitobida qasidaga doir poetik unsurlar bayon qilinib, unda qo'shiqqa xos lirik kechinmalar ham, dostonga xos epik voqealar tasviri ham berilgan.

Adabiyot olamida lirik janrlarda mahorat ko'rsatib, uning rivojiga o'zining munosib hissasini qo'shgan ijodkorlar bor. Misol uchun arab ijodkori Al-Xansa marsiyada, Rudakiy qasidada, Ibn Yamin, Anvari qit'ada, Burxoniddin Ahmad turkiy tuyuqda, Monuchehri va Qatron Tabriziylar esa musammat janrining rivojiga katta hissa qo'shganlar.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Musammat shakllarining yozma adabiyotda paydo bo'lishi xususida O.Nosirov quyidagi fikrni bildiradi: Y.E.Bertelsning fikricha, fors-tojik klassik she'riyatida musammat dastlab XI asr shoiri Manuchehriy va Qatron Tabriziy ijodida ko'rinadi. XII-XIII asr shoirlarida, masalan, Sa'diyda keng rivojlanadi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, musammatning ildizlari yozma she'riyatdan ancha ilgari xalq ijodida paydo bo'lgan edi. Xuddi shuningdek, holatni turkiy xalqlar, jumladan, o'zbek adabiyotida ham ko'rish mumkin" [3,114]. Bu fikrlar o'zbek adabiyotida ham muxammas janrining genezisi bevosita xalq og'zaki ijodi bilan aloqadorligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. O'zbek mumtoz adabiyoti dunyo badiiy tafakkuri taraqqiyoti va takomiliga munosib ulush qo'shganligi bilan bashariyat ma'naviy va ma'rifiy rivojida o'ziga xos mavqe' kasb etadi. Buni 2017-yil avgust oyida o'zbek ziyolilari bilan uchrashuvda muhtaram Prezidentimiz "bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor, havas qilsa arziydigan ulug' ajdodlarimiz bor. Havas qilsa arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Va men ishonaman, nasib etsa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz, buyuk adabiyotimiz va san'atimiz ham, albatta. bo'ladi", deya qat'iy ta'kidlagan edi [1].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning adabiy-madaniy meros va ma'naviy qadriyatlarini o'rganishga oid asarlari hamda o'zbek tili va adabiyotiga oid fundamental tadqiqotlar mazkur maqolaning metodologik asosini tashkil etadi.

Tahlil va natijalar. O'zbek mumtoz lirikasida misralar soni va band tuzilishiga qarab xillarga ajratiluvchi janrlar ham mavjudki, ularga mumtoz adabiyotdagi musammat kiradi. Bu tizimdagi she'rlar o'zbek mumtoz she'riyatining g'azaldan keyingi eng faol janrlaridan sanaladi. Muxammas ham musammat tarkibiga kiruvchi arab-fors she'riyati, aruz vazni orqali turkiy adabiyotga kirib kelgan lirik janr. Bizga ma'lumki, lirik janrlar tuzilishiga ko'ra ikkiga bo'linadi: kichik lirik janrlar va katta lirik janrlar. Kichik lirik janrlarga qit'a, fard, ruboiy, muammo kabi janrlar kirsa, katta lirik janrlarga g'azal, tarjiband, tarkiband, musammat kabilarni kiritishimiz mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, muxammaslar katta lirik janrlar sirasiga kiradi.

O'zbek adabiyoti tarixida muxammas yaratish an'anasi barcha davr shoirlari ijodida uchraydigan adabiy hodisadir. O'zbek adabiyotida turkiy muxammasning ilk namunasi Hofiz Xorazmiy nomi bilan bog'liq. Bu haqda Xorazmiy ijodini maxsus o'rgangan olim Mo'minjon Sulaymonov shunday yozadi: "Hofiz Xorazmiyning tarkiband va muxammasi, ikki mustazodi garchi son jihatidan kam bo'lsa ham, bu janrlarning o'zbek adabiyotidagi dastlabki mumtoz namunasi hisoblanishi bilan qimmatlidir" [4,12].

Dilnavoz Yusupova o'zbek adabiyotida tab'i xud muxammasning Hofiz Xorazmiy ijodidan boshlanganini qayd etadi: "Turkiy adabiyotda tab'i xud muxammasning ilk namunalari Hofiz Xorazmiy va Yusuf Amiriy ijodida uchraydi" [5,164]. Shu fikrlarga asoslanib, Hofiz Xorazmiy devonini varaqlaganimizda, shoirning 9 band 45 misradan iborat ishqiy mavzudagi muxammasini aniqladik.

Eykim, ko'runur la'li labing shahd ila shakkar,
So'z birla labi la'ling erur qandi mukarrar,
Santak sanamo yo'qturur ruhi musavvar,
Ko'ngul olg'uchi qadi chu sihiy sarvu sanavbar
Kim, bo'lsa sachi sunbulu yuzi gul-i ahmar.

Lutf aylayu g'amgin ko'nglimni qilako'r shod,
Banda-i g'am elidin mani qil bir yo'li ozod,
Mulki ko'nglim ichra g'amzang solg'ali bunyod,
San bor ekan o'zga din izdamadi ul dod,
Bedodu jafu birla mani aylama muztar [6, 258].

Yuqoridagi satrlar o'zbek adabiyotidagi muxammasning ilk ko'rinishi. Undagi tasvir uslubi, tashbehlar, poetik fikr to'liqini yakpora g'azalga monand jaranglaydi. Chunki mumtoz g'azaliyotda ishqi mavzudagi g'azallarda tadrijiylik bo'ladi: ma'shuqaning husni-jamoli, tashqi ko'rinishi, go'zallik belgilari birma-bir tasvir ettiriladi. Labning la'lga, shahd (asal) va shakarga tashbehlaniishi an'anaviy. Yoki uning so'zi qandga – shirinlikka qiyos etilgan. U ruhning musavviri – rassomi, qadi sarvu sanavbar, sochi sunbul, yuzi qizil gulga o'xshatilyapti. “Ahmar” so'zi Navoiy asarlari lug'atida “qip-qizil, qizil” degan ma'noni anglatadi [7,77]. Ko'rinadiki, bu tasvir-tashbehlar an'anaviy mazmunga ega. Shoir ham dastlabki bandda yor go'zalligini shu tarzda ifoda etadi. Bunda birinchi band muxammas tarzida a-a-a-a-a (shakkar-mukarrar-musavvar-sanavbar-ahmar) tarzida qofiyalangan. Mazkur jihat yozma muxammaslarning birinchi spetsifik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. Ikkinchidan, muxammasning fors-tojik adabiyotida shakllanganligi va asosan, ishqi mavzuda bitilganligi inobatga olinsa, bu she'r ham shuning uzviy davomi sifatida taassurot uyg'otadi. Keyingi band ham g'azallardagi kabi silsilaviylik kasb etadi. Unda oshiq shunday go'zallik, jozibani o'zida mujassam etgan suyuklisidan mehr, muhabbat rishtalarini bog'lashni so'raydi. Ma'shuqadan oshiq uning g'amgin ko'nglini shod, o'zini ozod qilishini, ko'ngil mulkini obod qilishini iltijo qilib so'raydi. Bunda ham muxammas janr qofiya tizimiga muvofiq ravishda b-b-b-b (shod-ozod-bunyod-dod), a (muztar) tarzida ohangdoshlik hosil qiladi. aytish kerakki, shu tartib keyingi bandlarda ham rivojlantiriladi.

Olamda saningtak ani bir mohliqoye
Kim bo'lsa o'shul husn bila mehrfizoye,
Dard-u dilim rahm qilib, ayla davoye,
Ne bo'lg'ay agar topsa navo xasta gadoye
Sandinkim, erursan bu jamol ila tavongar.
Ey soqiy-i ushshoq, kelturgil anga jome,
To kuy-i xarobatda bo'lsun manga nome,
Sandin ne bo'la shod agar b'olsa g'ulome,
Qilsang nazare hosil o'lur bandaga kome,
Chun shoh-i zamonsan taqi davlat sanga chokar [6, 259].

“Mohliqoye”, “mehrfizoye” kabilar suyuklining sifatlarini ifodalab kelmoqda. Bunda bog'lanib kelgan g'ulome, kome so'zlari izchillik asosida qofiyadosh bo'lib kelmoqda. Aytish kerakki, mazkur ohangdosh so'zlar shoir aytmoqchi bo'lgan fikrlar uchun ham ochqich vazifasini o'tamoqda. Ularda ma'shuqa va oshiqning ruhiy holati aks etgan. Bunda soqiynoma unsurlarini ham ko'rish mumkin. Chunki soqiyu ushshoq – oshiqlar soqiysi deb shoir oshiqqa murojaat qilib, unga jomda may keltirishini so'rayapti. Xarobot mumtoz adabiyotda mayxonani bildirib keladi. Mayxonadagi kishi esa g'ulom – quldir, mayning quli. Ma'shuqa vaslidan umidvor oshiq ishq yo'lida g'ulom bo'lishdan shod bo'ladi. Bu misralarning zohiriy ma'nosi. Majoziy jihatdan esa ollohga qul bo'lish va uning vasl mayidan totish degan mazmunni ham bildirib kelmoqda.

Jonim ko'zi diydoring ila bo'lg'ali Ravshan,
Mulki-i ko'nglum bo'ldi muhabbat bila Gulshan,
Man do'stman-u qilma havola manga dushman,
Miskinlik ila qildim eshigingda chu maskan,
Miskinlarga bo'lg'il bu zamon nosiru yovar [6, 259].

Dastlabki misrada iyhom san'ati qo'llangan. Ya'ni “Ravshan” shu nomdagi xalq dostonining bosh qahramoni nomini ifodalamoqda. Shu bilan birga yor diydoridan ko'ngilning oydin, yorug' bo'lishi ko'zda tutilgan. Keyingi misrada ham shu an'ana davom etadi: Gulshan “Gulshanbog” xalq dostonining qahramoni. Qolaversa, keyingi ma'noda oshiqning ko'ngil mulki muhabbat tufayli gulshanga – gulzorga aylanganligi ifoda etilgan. Uchinchi satrda tazod orqali oshiq holati tasvir etilgan: ya'ni oshiq do'st, lekin ma'shuqadan unga dushmanlik qilmaslik, mehridan mosuvo etmaslikni so'rayapti. Miskin so'zi ham oshiqni bildiradi. “Nosir” so'zi “yordam beruvchi, yordamchi” [7, 458], “yovar” [7, 208] so'zi ham “nosir”ga sinonim “yordamchi, madadkor” degan ma'noni anglatadi. U ishq yo'lida oyoqosti bo'lishga tayyor fidoyi sifatida ma'shuqa eshigini maskan qilishga tayyor. Bu yo'lida u ma'shuqani unga madadkor-yordamchi bo'lishini istaydi.

Qani sanga o'xshash saname g'amzasi g'ammoz,
Sansan bu zamon jumla xaloyiq aro mumtoz,
Savdi sani jon o'ynag'ali oshiq-i jonboz,
Lutf ayla bu Hofizg'a, ayo sarv-i sarafroz,
Chun dodger ayladi sani lutf ila dovar [6, 260].

Bu bandda ham ma'shuqa ta'rifi bilan bog'liq fikrlar rivojlantiriladi. Endi u "g'amzasi g'ammoz", "xaloyiq aro mumtoz", "sarv-i sarafroz" qiyofalarida ko'rinish beradi. So'nggi band g'azal maqta'si kabi intiho topadi: unda shoir taxallusi keltiriladi. "Oshiqi jonboz" esa oshiqning sifati bo'lib, u jonini suyukliga fido qilishga tayyor. Ko'rinadiki, yuqorida tahlil etganimiz muxammas fors-tojik adabiyotida yuz ko'rsatgan muxammasning o'zbek mumtoz she'riyatidagi ilk go'zal namunasidir. Darhaqiqat, unda ishqiy mavzu davom ettirilgan, yakpora g'azaldagi kabi har bir band tugallik kasb etgan va bandlararo aloqadorlik mustahkamlanib borganbor: ma'shuqa sifatlari, go'zalligi banddan bandga o'tgani sari ortib borgan. Qolaversa, bunda ikkita ma'no anglashiladi: birinchisi, she'ning Hofiz Xorazmiyga nisbat berilishi bo'lsa, ikkinchidan, o'sha oshiq Hofizning o'zidir degan fikr anglashiladi.

Xulosa va takliflar. Ko'rinadiki, yuqorida tahlil etganimiz muxammas fors-tojik adabiyotida yuz ko'rsatgan muxammasning o'zbek mumtoz she'riyatidagi ilk go'zal namunasidir. Darhaqiqat, unda ishqiy mavzu davom ettirilgan, yakpora g'azaldagi kabi har bir band tugallik kasb etgan va bandlararo aloqadorlik mustahkamlanib borgan: ma'shuqa sifatlari, go'zalligi banddan bandga o'tgani sari ortib borgan. Qolaversa, bandlardagi zohiriy ma'nolar botiniy mazmun sari yo'l ochgan. Soqiynoma ruhi seziladi. Lirik qahramon unga murojaat qilib, chin vasldan umidvorlik istaydi. Binobarin, muxammasda g'azal mazmuni, kompozitsiyasi xususiyatlari ko'proq kuzatiladi. Bizningcha, bu g'azalning Sharq adabiyotidagi yetakchi janr ekanligi bilan chambarchas bog'liq.

Muxammaslarning paydo bo'lish tarixidan ma'lumki, ular dastlab mustaqil tarzda yuzaga kelgan. Ularning mazmuni turli xil hayotiy vaziyatlar, insoniylik, ishq-muhabbat mavzularida yozilgan. Janrning spetsifik belgilaridan biri—unda shoir o'zini erkin his qiladi, cheklanmaydi, kechinmalarni baralla kuylash, ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ularda shoirning o'ziga xos tasavvuri, mahorati va iste'dodi namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Mirziyoyev Sh. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish – xalqimiz ma'naviy olamini yuklastirishning mustahkam poydevoridir // "Xalq so'zi" gazetasi. Toshkent, 2017- yil, 4-avgust.*

2. *Ханна ал-Фахури. История арабской литературы. Перевод с арабского В.В.Атамали, Д.А.Баширова, В.С.Сегалю. Часть I. – Москва, 1960.*

3. *Носиров О.ва бошқалар. Ўзбек классик шеърятининг жанрлари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1979.*

4. *Сулаймонов М. Ҳофиз Хоразмий ва ўзбек лирик шеърятининг ривожини. Филология фанлари номзоди дисс.автореф. –Тошкент, 1996.*

5. *Yusupova D. Aruz vazni qoidalari va mumtoz poetika asoslari. O'quv qo'llanma. – Toshkent, 2018.*

6. *Хоразмий Ҳофиз. Девон. II китоб. –Тошкент, 1981.*

7. *Навоий асарлари луғати. Тузувчилар: Шамсиев П., Иброҳимов С. – Тошкент: Ф.Фулом номидаги нашриёт матбаа ижодий уйи, 1972.*

UO'K 821.51.1.11:821.111

INGLIZ HAMDA O'ZBEK ERTAKLARIDA G'AROYIB SAFAR MOTIVI

Abdullayeva Xurshida Ne'matjonovna,
Andijon davlat universiteti
birinchi bosqich tayanch doktoranti
khurshidakhon.abdullayeva.86@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada butun jahon folklorshunoslari uchun hamon qiziqarli bo'lib kelgan epik asarlarning o'ziga hos badiiyati, estetik tabiati hamda jozibali syujetlari bilan ajralib turuvchi epik janrlaridan bo'lgan sehrli ertaklar o'zbek va ingliz xalqlarining ertaklari o'rtasidagi tipologik tahlili qisqacha ko'rsatib o'tilgan. Tahlil natijasi shuni ko'rsatadiki, o'zbek ertaklari o'zining badiiy jozibasi shaklan turfa xilligi bilan ajralib turishi, ingliz ertaklarida esa syujet va obrazlar munosabatlari aniq va jadal bayon etilishi aniqlangan. Albatta, sehrli ertaklarning barcha badiiy ko'rinishi, o'ziga xos belgilari ikki xalq ertaklarida bir xillik taraflari ham mavjud. Jumladan, tilsim pretmedlarni ishtiroki, epik qahramonning safar jarayonlardagi sehrli janglari, safar sarguzashtlarida ham mushtaraklik mavjudligini izlanishlar natijasi ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: o'liklar saltanati, tegirmonxona, yovuz dev, tilsim, shaffof fonus, fetishizm, totemizm, animizm.

МОТИВ НЕОБЫЧНОГО ПУТЕШЕСТВИЯ В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ СКАЗКАХ

Аннотация. В данной статье проводится типологический анализ волшебных сказаний эпических жанров, до сих пор представляющих интерес для фольклористов мира, отличающихся неповторимой художественностью, эстетичностью и привлекательностью сюжетов. Результат анализа показывает, что узбекские сказки отличаются художественным очарованием и разнообразием форм, тогда как в английских сказках чётко и интенсивно описываются взаимоотношения между сюжетом и персонажами. Конечно, весь художественный облик и характерные черты волшебных сказок имеют в сказках двух народов аспекты однородности. В частности, результаты исследования показывают, что есть общность в участии магических предметов, магических сражениях былинного героя в процессе путешествия и приключениях в путешествии.

Ключевые слова: царство мертвых, мельница, злой великан, заклинание, прозрачный фонарь, фетишизм, тоtemизм, анимизм.

AN ASTONISHING MOTIVE TRAVEL IN ENGLISH AND UZBEK FAIRY TALES

Abstract. In this article, a typological analysis of the magical tales of the epic genres, which are still interesting for the folklore scholars of the world, is distinguished by their unique artistry, aesthetic nature, and attractive plots. The result of the analysis shows that Uzbek fairy tales are distinguished by their artistic charm and variety of forms, while in English fairy tales, the relationship between the plot and characters is clearly and intensively described. Of course, all the artistic appearance and characteristic features of magical fairy tales have aspects of homogeneity in the fairy tales of the two peoples. In particular, the results of the research show that there are commonalities in the participation of magical objects, the magical battles of the epic hero during the travel process, and the travel adventures.

Key words: Kingdom of the dead, millhouse, evil giant, spell, transparent lantern, fetishism, totemism, animism.

Kirish. Dunyo folklorshunoslarining har doim diqqat markazida bo'lgan o'zining turfa xil syujet, o'xshash motivlar jamlanmasini o'z ichiga olgan epik janr bo'lmish sehrli ertaklar o'zing badiiyati, tabiati bilan boshqa nasriy janrlardan hamisha ajralib turgan. Sehrli ertaklar har bir xalqning tarixi, madaniyati, o'ziga xos turmush tarzi, urf-odatlarini, marosimlari va qadimiy e'tiqodiy qarashlarini o'rganishda muhim manba sifatida xizmat qila oladi. Chunki ular o'ziga xos fantastik talqin, xayoliy uydirma va tilsim bilan aloqador g'aroyib hodisa va narsalar tasviriga asoslanishi bilan alohidalik kasb etadi. Ularning kelib chiqishi

qadimgi mifologik tasavvurlar, ibtidoiy diniy e'tiqodlar (fetishizm, totemizm, animizm), tabu hamda marosimlar bilan bevosita bog'lanishi jihatidan e'tiborni tortadi.

Adabiyotlar tahlili. Jahon folklorshunosligida sehrli ertaklarni yozib olish, nashr etish, boshqa tillarga tarjima qilish va tadqiq etish alohida ahamiyat kasb etadi. Ertaklar mavzusiga munosabat aks etgan A.Aarne, S.Tompson hamda Uter (ATU) [1.300-365] katalogiga ko'z tashlash juda zarur hisoblanadi. Barcha xalqlarning sehrli ertaklari motiv ko'rsatkichlari ikki xalqning sehrli ertaklarini qiyoslashda ham juda katta samara beradi. Rus folklorshunosligida V.Y.Propp [2.184-185] tadqiqotlari ertaklar qiyosiga bag'ishlangan bo'lib ularda, asosan, morfologik jihatdan tahlil qilingan. O'zbek folklorshunosligida Z.Rasulova [3.33-44,44-52] "O'zbek xalq sehrli ertaklarida g'aroyib buyumlar" dissertatsiyasida ko'plab sehrli buyumlarni qiyoslab, ularni tasnifini keng tarzda berib o'tgan, ular sehrli uzuk, g'aroyib oyna kabilardir.

Maqolaning metodologiyasi sifatida qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, lingvofolkloristik metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ikki xalqning sehrli ertaklarida tipologik ko'rinishlari ularning etimologik, kultural urf-odatlarini xilma-xildir. Shu boisdan ularni shu metodlar orqali qiyoslash zarur. ATU kataogida barcha dunyo ertaklarini sehrli ertaklarini motiv ko'rsatkichi orqali jamlab chiqilgan, qiyoslash jarayonida ham, albatta, ertaklarni ikki xalq ertaklari belgilari epik obrazlari, epik syujetlari, badiiy ta'siri jihatidan qiyoslash juda samari usullardan hisoblanadi.

Tahlil va natijalar. Sehrli ertaklarda yer osti dunyosi, o'liklar saltanati, suv osti mamlakati, tog' usti (xususan, Yonar tog', Ko'hiqof kabi), chinor osti yoki usti, g'orlar, quduq tubi, tegirmonxona, qalin o'rmon yoki kimsasiz cho'l singarilar epik g'aroyib makonlar sifatida talqin etiladi. Bu barcha xalqlarning sehrli ertaklariga xos tipik belgilardan biridir.

Ertak qahramonlarining "o'zga yurt", sirli makon tomon qiladigan safari, asosan, biror-bir g'aroyib buyumni qo'lga kiritish maqsadi bilan bog'lanadi. Bunday joylar ko'pincha vahimali, qo'rqinchli, kimsasiz ko'rinishda tasvir etiladi.

Epik qahramon ko'pincha sirli manzilga biror-bir g'aroyib predmetni olib kelish yoki kimnidir (ko'pincha go'zal qizni yoki sehrlangan og'aynilarini) qutqarib, yonlariga qaytarish, yoyinki ajdaho yo yovuz devni yo'q qilish maqsadida safar uyushtiradi.

G'aroyib makonga safar motivi ibtidoiy insonlarning o'zi yashab turgan olamdan tashqarida yana boshqa o'zga olam borligiga ishonchi, abadiy hayot to'g'risidagi orzu-istagi asosida shakllantirilgan.

Sehrli makonga borish ertaklarda uch yo'l – "borsa kelar", "borsa kelmas", "borsa xatar" orqali boriladi. Unga yetish uchun qahramon "yo'l yursa ham, mo'l yuradi". Ko'pincha Simurg ko'magida unga yetadi.

Tilsim g'orga kirish uchun sehrli so'zdan foydalanadi. Masalan, sehrli so'zni aytish orqali toshni yorish, g'orning og'zini ochish motivlari shular jumlasidandir.

Inglizlarning "Keyt – yong'oq chaqqich" ("Kate Crackernuts") ertagida sirli yashil qoya ichidagi sehrgarlar makoni bo'lgan g'or obrazi keltirilgan. Unga qahramonlar "yo'l yursalar ham, mo'l yurib" yetib boradilar. Dastlab qahramonlar bir baland qasr oldiga keladilar. Keyt qasr eshigini taqqillatib, o'zi hamda bemor singlisiga bir kecha tunab qolishlari uchun joy berishlarini iltimos qiladi. Ular kelgan joy bir qirolning qasri ekan. Qirolning ikkita o'g'li bor ekan va ulardan biri bemor ekan. Uni tuzatish davosini hech kim bilmas ekan. Qirol esa o'g'lga bir tun qarab chiqqan kishiga bir qancha kumush tangalar berarkan. Keyt juda jasur va qo'rqmas qiz bo'lganligi uchun bemor yigitga qarab chiqmoqchi bo'libdi. Yarim tunda soat millari o'n ikkiga bong urgan paytda bemor shahzoda o'rmidan turib, kiyinib, zinalardan pastga tushibdi. Keyt esa uni orqasidan kuzatib boraveribdi. Shahzoda tashqariga chiqib, ot aravasini, keyin itini chaqiribdi. Shu payt Keyt ham sekingina ularning orqasidan ergashibdi. Shahzoda bilan Keyt yashil o'rmon ichidan o'tib, qalin yong'oq daraxtlari orasidan kesib chiqibdilar. Keyt etagiga yong'oqlardan sezdirmasdan solib olibdi. Ular to yashil cho'qqiga etib borguncha uzoq yurishibdi. Shahzoda otining yuganini tortib, to'xtatibdi va qoyaga qarab: "Ochil, ochil yashil qoya", – debdi. Shu payt qoya ochilib, shahzoda oti bilan ichkariga kiribdi. Keyt ham ular bilan birga bildirmasdan ichkariga kirib olibdi. Undan so'ng, Shahzoda g'orga kiribdi, Keyt esa eshik orqasiga yashirib, uni kuzatib turibdi. Bu yer muhtasham, juda chiroyli saroy bo'lib, bir qancha sehrgarlar bilan to'la edi.

"Keyt – yong'oq chaqqich" ("Kate Crackernuts") ertagida inson qiyofasidagi sehrgarlar obrazi keltirilgan. Ular bemor shahzodaning atrofida aylanib raqs tushadilar. Shahzoda ham ular bilan uzoq vaqtgacha raqs tushadi va nihoyat charchab yerga yiqiladi. Keyin sehrgarlar uni ko'tarib yana raqs tushishga majburlashadi. To xo'roz qichqirgancha ular raqs tushadilar. Xo'roz qichqirg'ini eshitgan shahzoda tezgina otiga minib, shoshib uyiga qaytadi. Uni orqama-orqa kuzatib yurgan Keyt ham shahzodaning orqasiga mingashadi. Ertalab tongda quyosh charaqlab chiqqan paytda barchalar Keytning olov oldida o'tirib yong'oq

chaqayotganini ko‘radi. Keyt ularga shahzoda yaxshi dam oldi, deb aytadi, lekin agar unga bir qop oltin bermasalar, keyingi tunda unga qarab chiqmasligini bildiradi. Keyingi tun kechasi shahzoda yana o‘rnidan turib kiyinib, otini chaqirib o‘sha saroyga boribdi. Keyt yo‘lda sezdirmay yong‘oqlardan etagini to‘ldirib olibdi. Yetib borishgach, shahzoda sehrgarlar bilan raqsga tusha boshlabdi. Bu safar u shahzodaning raqsini kuzatmabdi, ammo u o‘sha yerda bir kichkina sehrli bolaning tayoqchalar o‘ynab o‘tirganini ko‘rib qolibdi. Shu payt sehrgarlardan biri bolaga qarab “shu tayoqchalardan uchtasi Keytning singlisini asl chiroyli holatiga qaytaradi” debdi. Buni eshitgan Keyt yong‘oqlaridan bolaning oldiga tashlabdi va bola ularni tera boshlabdi, Keyt esa fursatdan foydalanib uning tayoqchalaridan uchtasini olib, etagiga solib qo‘yibdi. Birozdan so‘ng xo‘roz qichqiribdi. Ular avvalgidek shoshib uyga qaytishibdi. Keyt olib kelgan sehrli tayoqchalar bilan singlisiga xuddi eshitganidek uch marta urgan ekan, haqiqatan ham, Anna shu zahoti oldingidek go‘zal holatiga qaytibdi. Uchinchi kun ham tunda Keyt bemor shahzodaga qarab chiqishga rozi bo‘libdi. Ular yana o‘sha sehrli g‘orga borishibdi. Bu safar Keyt sehrgar bolaning qush o‘ynayotganini kuzatibdi. Sehrgarlardan biri bolaga qarab: “Agar shu qushning go‘shtidan shahzoda uch qoshiq esa, u avvalgi holatiga qaytadi”, debdi. Buni eshitishi bilan Keyt etagidagi barcha yong‘oqlarni bolaning oldiga sekingina dumalatib tashlab, tezda qushni o‘g‘irlab olishga harakat qilindi. U qushni olib, etagiga yashiribdi. Xo‘roz qichqirishi bilanoq, ular yana o‘z saroylariga shoshib jo‘nab ketishibdi. Bu safar Keyt olov oldida yong‘oqlarni chaqib o‘tirmabdi. U qushning patlarini yulib, undan ovqat tayyorlabdi. Ovqatning mazali hidini sezgan shahzoda: “Oh, men bu qushning go‘shtidan yeyishni istayman”, – dedi. Keyt unga bir bo‘lak go‘sh t beribdi. Shahzoda oyoqlarida tik turibdi-da, “yana bir bo‘lak go‘sh t yeyishni xohlayman”, – debdi. Keyt unga yana bir bo‘lak go‘sh t beribdi, uni yegandan keyin shahzoda karovotiga o‘tiribdi va “menga yana bir bo‘lak go‘sh t beringlar”, deb so‘rabdi. Keyt unga uchinchi bo‘lak go‘sh tni ham beribdi. Shahzoda o‘rnidan sog‘lom va baquvvat bo‘lib turibdi, kiyinib olov oldiga borib o‘tiribdi. Ertasi kuni ertalab odamlar xonaga kirishganda sog‘lom shahzodani olov oldida o‘tirib Keyt bilan yong‘oq chaqayotganini ko‘ribdilar. O‘sha payt uning akasi ham Annani ko‘rib, sevib qolibdi. Shunday qilib, shahzoda aqlli opaga, aqlli aka esa sehr-jodudan xalos bo‘lgan singilga uylanib, uzoq umr va baxtli hayot kechiribdilar.

“Child Rowland” ertagida [5.123] qirolning Zulmat qasri haqida so‘z yuritiladi. Singlisini shu qiro l o‘g‘irlagan makonni so‘rab yo‘lga chiqqan qahramon otboqar, molboqar, tovuqboqarlardan ushbu manzil daragini so‘raydi. Unga kulrang yopingchiqli ayol Zulmat minorasining qayerdaligini, unga kirish yo‘lini aytib beribdi. Child Rowland ayol aytganidek, halqali cho‘qqilar bilan o‘ralgan, yam-yashil aylana tepalikni ko‘ribdi. Uni uch marta aylanib, “Ochil eshik! Ochil eshik! Ichkariga kirishimga ruxsat ber”- debdi. Shu so‘zlarni uchinchi bor aytganida eshiklar ochilibdi va yigit ichkariga kiribdi. U kirib borgan g‘or butunlay zulmat bo‘lmasa ham, g‘ira-shira ekan. U yerda na oyna, na sham borligi uchun g‘ira-shira yorug‘lik tomi va devorlari bo‘lmagan g‘orning qayerdan kelayotganligini bilib bo‘lmas ekan. Bu yorug‘lik yorqin toshlar va kumush bilan qoplangan, qattiq va shaffof qoyali arkalardan taralayotgandi. Qoyalar bilan o‘ralganligiga qaramay, Parilar yurti iliq edi. Shunday qilib, yigit yo‘lak bo‘ylab toki ikkita birozgina ochilgan eshikka yetib kelgunicha ketaveribdi. Eshikni ochib juda ham ajoyib manzaraga guvoh bo‘libdi. Ulkan, keng zal yashil tepalikning o‘zidek baland va keng ko‘rinardi. Tomni ulkan va ajoyib ustunlar tutib turardi, bu ustunlar oldida cherkovniki hech narsa emas edi. Bularning barchasi oltin va kumush bilan bezatilgandi, turli-tuman gullar bilan to‘lgan chamanzor ham bor edi. Arka olmoslar, yoqutlar, marjonlar va boshqa qimmatbaho toshlar bilan bezalgandi va barcha arkalar tomning o‘rtasida birlashib ketardi va xuddi o‘sha nuqtada ulkan marjonli, shaffof fonus oltin zanjirda osilib turardi. O‘rtada ulkan qimmatbaho, qiziltosh tinmay aylanib turar va butun zalga quyosh kabi nur taratardi. Hashamatli jihozlangan zalning oxirida baxmal, ipak va oltindan bo‘lgan ajoyib o‘rindiqa oltinrang sochlarini kumush taroq bilan tarab Burd Ellen o‘tirardi. Akasini ko‘rgan qiz: “Parilar yurtiga kelganingdan ko‘ra tug‘ilmaganing yaxshi edi, baxtiqaro akajonim”- debdi.

Child Rowland parilar yurti qirolini yengib, ikki akasi va singlisini ozod etadi va yurtiga olib ketadi.

“Chol bilan Dev” ertagida aytilishicha, qadim zamonda bir chol bilan kampir bor ekan, ularning farzandi yo‘q ekan, chol o‘tin terib, sotib tirikchilik qilar ekan. Har kuni o‘tinga ketayotganida kampir unga qotirma qilib berar ekan. Chol qotirmani qo‘yib o‘tin qilgani ketsa, unga o‘rgangan bir tulki kelib har kuni cholning qotirmasini eb qo‘yar ekan. Bir kuni chol o‘tinga ketayotib yo‘ldan bir dona tuxum topib olibdi. O‘tin teradigan joyga borganda birdaniga qyun ko‘tarilibdi. Momaqaldiroq bo‘lib, yomgir yog‘a boshlabdi. Cho‘l belidagi arg‘amchini, qo‘lidagi ayri kaltakni va qo‘ynidagi tuxumni yerga ko‘mib qo‘yibdi. Bir vaqt quyunning ichida bitta dev kelibdi va choldan:

– San kimsan, ajinamisan, insmisan, jinsmisan? – deb so‘rabdi.

– Man odamman, – debdi chol.

- Odam bo‘lsang, sani eyman, – debdi Dev.
 - Bo‘lmasa shartim bor, agar shu shartlarimni bajarsang, mani esang mayli, bo‘lmasa sani man eyman, – debdi chol.
 - Shartingni ayt , – debdi Dev.
- Chol shartlarini aytibdi:
1. Yerning miyasini yorib, qatig‘ini chiqarasan.
 2. Yerning qovurg‘asini sindirasan.

Dev bu shartlarni bajarish oson deb, yerni rosa tepibdi, lekin yerga hech nima bo‘lmabdi. Chol menga navbat deb, tuxum ko‘milgan yerga borib bir tepgan ekan, tuxum pachaq-pachaq bo‘lib ketibdi. Chol uni ko‘rsatib: “Mana bu yerning qatig‘i bo‘ladi”, – debdi. Dev tan beribdi. Dev endi yerning qovurg‘asini sindirmoqchi bo‘lib, yerni rosa tepibdi, yer larzaga kelibdi-yu, lekin uning qovurg‘asi chiqmabdi. Chol kaltak ko‘milgan yerga borib bir tepgan ekan, kaltak sinib, er ustiga chiqibdi. Chol uni ko‘rsatib: Mana bu yerning singan kovurg‘asi bo‘ladi”, – debdi. Dev bunga ham tan beribdi. Dev endi yerning ichagini chiqaraman deb yerni yana besh-olti tepib, yerni larzaga keltirsa ham, yerga hech narsa bo‘lmabdi. Navbat cho‘lga kelibdi. U arg‘amchi ko‘milgan yerga borib, u yerni bir tepgan ekan, yerdan arg‘amchi chuvalanib chiqibdi, dev bunga ham tan beribdi. Shartga muvofiq, chol devni yeyishi kerak edi, shuning uchun chol unga yopisha boshlabdi. Dev choldan qo‘rqib: “Shoshmay tur, san mani yema, nima tilaging bo‘lsa, bajo keltiray, sanga xizmatkor bo‘lay”, – debdi. Chol uyimga olib borib qo‘y, deb devning ustiga minibdi. Uyiga yetib boray deganda: “Qozonga oq dev bilan qora devning kallasini solib sho‘rva qil, uyga mehmon kelyapti”, – deb qichqiribdi. Bu gapni eshitib dev cholni ustidan yiqitib, orqasiga qaramay qocha boshlabdi. Dev choldan qo‘rqib qochib ketayotsa, cholning qotirmasini har kuni eb yurgan tulki devning oldidan chiqib qolibdi va undan nega qochayotganini so‘rsa, dev unga: “Mana bu yerda bir chol bor ekan, u butun devlarni so‘yib yer ekan, bugun mani ham kurashda yengib, o‘ziga bo‘ysundirdi, uyiga borsam, kampiri qozonda oq dev bilan qora devning kallasini solib sho‘rva qilayotgan ekan, shuni ko‘rib qochib ketyapman”, – debdi. Tulki esa devga: “Ey, shu choldan qo‘rqdingmi? Man har kuni bu cholni aldab qotirmasini yeb yuraman. Yur, hozir man sani o‘zim boshlab boraman”, – debdi. Dev qo‘rqib cholning uyiga qarab yurmagan ekan, tulki uni dumiga bog‘lab, boshlab ketibdi. Uzoqdan ularning kelayotganini ko‘rgan chol kampiriga: “Ey kampir, bitta dev edi, tulkijon yana bittasini yetaklab kelyapti, sanga xudo berdi”, – deb baqiribdi. Dev cholning bu gapini eshitib, tulki mani aldab cholga tutib bermoqchi ekan, – deb tulkini sudrab orqasiga qarab qochibdi. Devning tez yugurganidan tulkining go‘shlari yo‘lda parcha-parcha bo‘lib ketibdi. Shunday qilib, chol ayyor tulkidan va devdan qutulib, tinch-omon yashab, murod-maqsadiga yetibdi.

Kuzatishlar natijasida ikki xalq ertagida ham safar qilgan epik qahramon turli hil sarguzashtlarni turli joylarda boshidan o‘tkazadilar, safar jarayonida yovuzlarga va sehrli sinovlarga duch keladilar, lekin ikki xalq epik qahramonlari bitta ezgu maqsad yuzasidan shuncha sinovlardan o‘tib oxir- oqibat o‘z maqsadiga yetadi. Ikki xalqning ertaklarida eng katta o‘xshashlik ham shundaki, ertaklarida doim yaxshilik, ezgulik, adolat g‘alaba qozonadi, yovuzlik esa mag‘lub bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, sehrli ertaklar o‘zining jozibali fantastik motivlari, tilsimli predmetlar ishtirokidagi syujetlari bilan ajralib turuvchi janr hisoblanadi. O‘zbek sehrli ertaklarini tahlil qilinar ekan, o‘zbek xalqining qanchalik badiiy tasavvurga, estetik tasvirga boy ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin. Ingliz ertaklari bilan o‘xshash motivlari ham uchrab turishi bilan birgalikda ularning badiiy tasvirida juda katta arqlanishiga guvoh bo‘lish mumkin. Ingliz ertaklari aniqlik voqealarning ixchamliklari bilan katta farq qiladi. Safar motivida ham shunday farqlarni aniqlash mumkin. O‘zbek ertaklarida safarlar davomiyligi bir necha, hatto, besh- olti qismli syujetlarni o‘z ichiga olishi mumkin, inglizlarda esa ko‘pincha aksini ko‘rish mumkin.

ADABIYOTLAR:

1. <http://www.mftd.org/index.php?action=atu&src=atu&id=660> [1.300-365]
2. *Пронн В.Я. Исторические корни волшебной сказки. 2-ое издание. – Л.: Наука, 1986. – С.184-185;*[2.]
3. *Rasulova Z. O‘zbek xalq sehrli ertaklarida “g‘aroyib buyumlar” (spesifikasi, genezisi va badiiyati): Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. – T., 2012. – 26 b. [3.33-44,44-52]*
4. *Guliyahqah pari. O‘zbek xalq fantastikasi. VI-kitob. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1988. –B.35.*
5. *English fairy tales collected by Joseph Jacobs. – Pennsylvania State University, 2005. – [5.,123].*
6. *Samo tulpori. O‘zbek xalq fantastikasi. V-kitob. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1987. –B[5.107.]*
7. *Ведерникова Н.М. Русская народная сказка. – М.: Наука, 1975. – [С.60].*
8. *English fairy tales By Jacobs, Joseph, 1854-1916, ed; Batten, John Dickson, 1860-1932, ill*

UDC 82-6(091)

DESCRIPTION OF THE ORIENT IN LAWRENCE'S "SEVEN PILLARS OF WISDOM"

*Habibova Manzila Nuriddinova,
Bukhara State Medical Institute,
teacher of English language department
khabibovamanzils@gmail.com*

Abstract. *This study aims to examine Thomas Edward Lawrence's Seven Pillars of Wisdom as a momentous instance of the twentieth century English travellers, with an Orientalist viewpoint. Linking the historical approach with an analytical one, it hints the Oriental influence on Lawrence's piece of writing during the Arab Revolt in the First World War by shedding light on myriad features of the Orient that has been mentioned in Lawrence's account. This research opens by addressing one of the marked Postcolonial issues, namely Orientalism, along with an emphasis on the most prominent concepts that shape Lawrence's Seven Pillars of Wisdom, that analyses the oriental aspects and the dramatic events that are described in Lawrence's work.*

Key words: *the oriental influence, the oriental aspects, analyses, depiction, prominent concepts, the historical events, civilization, literary works.*

ОПИСАНИЕ ВОСТОКА В ПРОИЗВЕДЕНИИ ЛОУРЕНСА «СЕМЬ СТОЛПОВ МУДРОСТИ»

Аннотация. *Это исследование направлено на изучение книги Томаса Эдварда Лоуренса «Семь столпов мудрости» как важного примера английских путешественников двадцатого века с точки зрения востоковеда. Связывая исторический подход с аналитическим, он намекает на влияние Востока на произведения Лоуренса во время арабского восстания в Первой мировой войне, проливая свет на бесчисленные особенности Востока, упомянутые в отчёте Лоуренса. Это исследование открывается обращением к одной из отмеченных постколониальных проблем, а именно ориентализму, наряду с акцентом на наиболее выдающиеся концепции, которые формируют «Семь столпов мудрости» Лоуренса, анализируя восточные аспекты и драматические события, описанные в работе Лоуренса.*

Ключевые слова: *восточное влияние, восточные аспекты, анализ, изображение, выдающиеся понятия, исторические события, цивилизация, литературные произведения.*

LOURENSNING "DONOLIKNING YETTI USTUNI" ASARIDA SHARQNING TAVSIFI

Annotatsiya. *Ushbu maqola Tomas Edvard Lourensning "Donolikning yetti ustuni" asarini sharqshunoslik nuqtayi nazaridan XX asr ingliz sayohatchilarining muhim namunasi sifatida ko'rib chiqishga qaratilgan. Tarixiy yondashuvni analitik yondashuv bilan bog'lab, u Birinchi jahon urushidagi arab qo'zg'oloni davrida Lorensning yozgan asariga sharqona ta'sir ko'rsatganiga ishora qilingan, Lourensning hikoyasida eslatib o'tilgan Sharqning ko'plab xususiyatlari yoritib berilgan. Maqolada, shuningdek, Lorensning "Donolikning yetti ustuni" asarini shakllantiradigan eng muhim tushunchalarga e'tibor qaratilgan hamda Lorens asarida tasvirlangan sharqona jihatlar va dramatik voqealarni tahlili bayon qilingan.*

Kalit so'zlar: *Sharq ta'siri, sharqona jihatlar, tahlillar, tasvir, muhim tushunchalar, tarixiy voqealar, sivilizatsiya, adabiy asarlar.*

Introduction. Thomas Edward Lawrence's *Seven Pillars of Wisdom*, is possibly regarded as one of the most substantial work in the history of English traveller writings about Arabia; a magnum opus of psychological analysis and self-revelation, which may enclose the truth and fantastic events, but which is undoubtedly an important piece of English prose. It was enormously influential in the development of the later perception and image of the Arabs in the consciousness of Lawrence's counterparts in England and other parts in the West. Yet Lawrence's true story and legacy is still a subject of matter and debates among historians. The central issue addressed in this chapter is to put forward the inspiration of the author and the

description of the Orient by Lawrence in *Seven Pillars of Wisdom*, along with a focus on Lawrence's masquerading, and his identity crisis. Besides, the intent is to highlight the common stereotypes, between Lawrence and his previous travellers. The last part of this chapter is consecrated to the notion of authenticity with an emphasis on the most controversial events in Lawrence's journey to the Middle East.

During the twentieth century, an exclusive the Oriental influence who goes by the name of Thomas Edward Lawrence wrote books about the Arab revolt against the Ottoman Empire during the First World War that continued to inspire many writers especially the westerns. Nevertheless, Lawrence found himself unexpectedly living in a period of time when abnormal conditions allowed him to do extra-ordinary things and for that reason he became remarkable. From a literary perspective, his considerable works and notably his magnum opus *Seven Pillars of Wisdom* reverses the main qualities and characteristics of the travel writers of the Victorian age and the twentieth century towards the Middle East, and regarded as a trustworthy source to justify the British conspiracy against the Arabs. But Lawrence was not spared from criticism for his ambiguous style, his manner of mixing facts with fictions, and mainly for the depiction of the conflicting and contradictory events between his literary works and his military reports.

Methodology. *Seven Pillars of Wisdom* is one of Lawrence's famous and controversial canonical works; it is a kind of report which shows the political and the historical events that shaped the Arab revolt, and it is an interpretation of the white man's vision rather an archive of an earnest and objective person's experience and examination. Nonetheless, Lawrence was one of the romantics who perceived the Orient as an extraordinary place for their fertile imaginary literary formation. Lawrence was looking for the exoticism of this land to achieve what he could not recognize in his motherland, and to get rid from the restricted English Victorian society, and also relying on that very contrast to scatter some magic on his own writings. In fact, it has been generally assumed that Lawrence's bias was the same prejudice pattern of his counterparts, Said strongly confirms that the majority of western writers are unable to conceive the Orient with real critical eyes, far away from the ethnic and racial preoccupations, and are all endorsing the idea of its inferiority, to that, Lawrence was not an exception. He assumed that Lawrence was a new Orient lived among the people of the East, as if he was one of them, but the purpose was not to appreciate the realistic Eastern lifestyle but to gather more information about them, and this paved the way to rule them easily. Throughout his wanderings in the desert, T.E. Lawrence perceived Arabs and their lands from his own stance: his whims and fancies intertwined with his observations, his pronounced imperialistic purpose was involved in his writing and the 'White Man's Burden' spirit was dominant. This can be noticed in his depiction of the people (Arabs and Turks) and the place.

Coming from a country that prides itself with its sophisticated urbanization and being born to a religion that is confined to some rituals and few practices in cathedrals, Lawrence contemplated the desert with great interest, claiming that it was a purifying instrument for the Arabs. He states: "Their birth set them in crowded places. An unintelligible passionate yearning drove them out into the desert. There they lived a greater or lesser time in meditation and physical abandonment; and thence they returned with their imagined message articulate, to preach it to their old, and now doubting associates" [1,37]. According to Lawrence, Arabs set their mythical patterns in the desert, and rely on its vastness and purity to disassociate themselves from the material world.

Results. In contrast to the "clean" and spiritual desert, Lawrence provides a horrifying description of Arabs war cities. In addition to that, the port of Jidda, in which "the foundations of the Arab Revolt" [1,28] are laid, was depicted as ruined and redolent in Lawrence's words: "The style of architecture was like crazy Elizabethan half-timber work, in the elaborate Cheshire fashion, but gone gimcrack to an incredible degree ... The atmosphere was oppressive, deadly" [1, 73]. The simile in the passage coheres with T.E. Lawrence's Victorian pride that made surface when he considered the harbor of his supposedly glorious Arab revolt as primitive and ruined. In a similar vein, Lawrence allows his negative portrayal of the cities to prevail, most clearly through his architectural description of the city of Akaba, where he states:

"Through the whirling dust we perceived that Akaba was all a ruin. Repeated bombardments by French and English warships had degraded the place to its original rubbish. The poor houses stood about in a litter, dirty and contemptible, lacking entirely that dignity which the durability of their time-challenging bones conferred on ancient remains"[1,314].

The author has purposefully chosen the less beautiful side and sites of Akaba to put forward its inferiority, over-simplicity and dull effects once compared with the Crusaders' castles in the mountains of south Syria. Likewise, Jerusalem was described by Lawrence as "a squalid town" [1, 333], thus ignoring its historical and architectural richness. The Arab cities which were supposed to form the Seven Pillars of

Wisdom are symbols of political, architectural and spiritual decay. Lawrence fashions himself as the prophet of the Arab Revolt and describes the cities as sinister and fanatic, neglecting their geographical and historical importance.

Analysis. The description of the Arab people was, in some instances, less negative than that of the cities, but the Western image of an immature primitive race that should be kept under the white man's tutelage prevailed in Lawrence's work. The Bedouins are regarded as highly spiritual individuals who find comfort in "the emptiness of the world and the fullness of God"[1, 39], but at the same time, the Semite "hovers between lust and self-denial" [1, 40]. Dislocation and civilization are fatal to the Arabs in Lawrence's standpoint, because the strength of the Bedouins is "the strength of men geographically beyond temptation: the poverty of Arabia made them simple, continent, enduring. If forced into civilized life they would have succumbed like any savage race to its diseases, meanness, luxury, cruelty, crooked dealing, and artifice; and, like savages, they would have suffered them repeatedly for lack of inoculation"[1,227]. In his first period of his stay in Arabia, Lawrence was careful and tended to study and analyses the people he meets, He states: "A first difficulty of the Arab movement was to say who the Arabs were. Being a manufactured people, their name was changing in sense slowly years by years. Once it meant an Arabian. There was a country called Arabia; but this was nothing to the point."[1, 13]. The author he feels superior to those people, who are so unlike from him for the color, of their skin, the clothes they wear, the language they speak and the religion they embrace, he held the same typical attitude of the European society in the nineteenth and twentieth century that consisted in seeing and portraying the Oriental people as inferior beings. At close quarters, in the first pages of the book there are some reflections on the Arabs that are the outcome of an imperialist vision. In this vein, he asserts: "That these people are incapable to rationalize reality, they are without any type of moral or material organization and they are incapable to appreciate what is materialistic"[1, 298]. Moreover, he goes on arguing that: "the Arabs do not feel any duty for the state but they are mainly lovers of their houses and domestic eases"[1, 242]. According to Lawrence the Arabs are greedy, dirty, small-minded, vindictive, ignorant and abstemious.

Discussion. Most specifically, the *Seven Pillars of Wisdom* is mostly shaped around the plot, structure, and the themes of Sir Thomas Malory's *Morte d'Arthur*, the only book that Lawrence carried with him throughout the desert campaign. *The Morte d'Arthur* delivers as proto-narrative³ of Lawrence judgments of Arab culture by lying over the Arthurian narrative upon the events of the Arab campaign. In serving as the proto-narrative for the Arab revolt, *The Morte d'Arthur* provides Lawrence with ready - made scenario for action, with a legal justification for his role in the Arab campaign, which he saw himself as committed in the chivalric operation by correcting a wrong done to another people by helping the Arabs to overrun the tyranny of the Turks, and with a rational authorization for Britain's mediation in the history of another people. However, as described in Lawrence's masterpiece, the Arab warrior tribesman parallel in many ways the brotherhood of the round table, he states: "the collective responsibility and group-brotherhood of the desert, contrasted with the isolation and competitive living of the crowded districts"[1, 240]. He sees the Bedouins as a congenial band, similar to the knights – errant, committed to wresting freedom from the Turks and thus acquiring justice. Among other conceptualization, Lawrence regarded the Arabs as an immature race that they are not qualified to burrow deep into Western philosophical and metaphysical questioning and issues. He states that:

"Semites had no half tones in their register of vision, they were a people of Primary colors, or rather black and whites, who saw the word always in contour, they were a dogmatic people, despising doubt, our modern crown of thorns .They did not understand pour metaphysical difficulties, our introspective questioning; they know only truth and untruth, belief and unbelief, without on hesitating retinue of finer shades"[1,17]. Thus, according to him the Arabs belief in god it could not be anything more than a simple doctrine unaffected by rational abilities. The special focus of Lawrence in 'Our' in which referred to his own race (The Westerners), is planned to make a pointed discrimination between the intellectuals and philosophical levels between the British and Semitic races. Lawrence was an oxford graduate and Archaeologist in the Middle East who was fascinated by history, and who held a considerable knowledge about the Semitic races, all this qualities were supposed to form a better description about the Arabs in his writings. Besides, albeit the historical proof of the Arabs contribution the Western renaissance, Lawrence intended to depict the Arabs as primitive people living a yahoo life, having no comprehension of the Western civilization, and he automatically considered himself as a member of a sublime race that must guide the Arabs in their revolt against the Turks.

Conclusion. Lawrence was an Oxford graduate and Archaeologist in the Middle East who was fascinated by history, and who held a considerable knowledge about the Semitic races, all these qualities were supposed to form a better description about the Arabs in his writings. Besides, albeit the historical proof of the Arabs' contribution to the Western Renaissance, Lawrence intended to depict the Arabs as primitive people living a Yahoo life, having no comprehension of the Western civilization, and he automatically considered himself as a member of a sublime race that must guide the Arabs in their revolt against the Turks. Throughout his wanderings in the desert, T.E. Lawrence perceived Arabs and their lands from his own stance: his whims and fancies intertwined with his observations, his pronounced imperialistic purpose was involved in his writing and the 'White Man's Burden' spirit was dominant. This can be noticed in his depiction of the people (Arabs and Turks) and the place.

REFERENCES:

1. Lawrence, Thomas Edward. *Seven Pillars of Wisdom: A Triumph*. London: Reprint Society, 1939. Print.
2. Abdel-Malek, Anouar. *Orientalism in Crisis*. New York: Diogenes, 1963. Print.
3. Dold, Bernard. *T.E. Lawrence: writer and wrecker*. Roma: Herder, 1988. Print.
4. Lawrence, T. E., Robert Graves, and Liddell Hart Basil Henry. n.d.: n. pag. Print.
5. Lawrence, T. E., Jeremy Wilson, and Nicole Wilson. *T.E. Lawrence: correspondence with Bernard and Charlotte Shaw, 1927*. Fordingbridge: Castle Hill, 2003. Print.
6. Habibova, M. N. (2021). Jorjina Houellning "Queen of the desert" biografik asarida Gertruda Bell timsoli tasviri. *Academic research in educational sciences*, 2(2), 770-778.
7. Habibova, M. N. (2021). The theme feminism in the epistolary novels in modern times. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 11(103), 1101-1105.
8. Habibova, M. N. (2022). The history of the Russian epistolary novel in eighteenth century. *Eurasian journal of social sciences, philosophy and culture*, 2 (3), 135-139.
9. Habibova, M. N. (2022). Evaluative observation on Lawrence's epistolary achievement. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2 (4), 489-494.
10. Habibova, M. (2022). Theories of intertextuality and the basic framework of Kristeva's formulation of her theory of intertextuality. *Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture*, 2(5), 301-307.
11. Habibova, M. N. (2022). A Biography is a specialized form of history and basic types of biographies. *Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5), 495-503.
12. Habibova, M. N. (2022). Epistolary Novel as a Scientific Problem. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 211-214. Retrieved from <https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/1575>
13. Habibova, M. N. (2022). The Epistolary Form and Art in Modernist Literature. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 206-210. Retrieved from <https://www.grnjournals.us/index.php/ajshr/article/view/1574>
14. Habibova, M. . (2022). Writing the novel of letters and the analysis of letter fiction and diary fiction. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 2(11), 260-264. Retrieved from <https://researchcitations.com/index.php/ibast/article/view/317>
15. Habibova, M. (2022). Epistolary narratology and citations from an epistolary source: Samuel Richardson's Pamela and Clarissa and Frances Burney's Evelina. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(12), 1131-1135.
16. Manzila Nuriddinovna Khabibova. (2022). Joyce's development as an author and his experiments with the epistolary form. *American Journal Of Philological Sciences*, 2(11), 73-81. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume02Issue11-10>
17. Manzila Nuriddinovna Habibova. (2022). Letter writing as allegory for the woman writer. *American Journal Of Philological Sciences*, 2(11), 88-92. <https://doi.org/10.37547/ajps/Volume02Issue11-12>
18. Хабибова, М. Н. (2022). Эпистолярный роман как научная проблема. *Results of National Scientific Research International Journal*, 1(9), 394-402. Retrieved from <https://academicsresearch.com/index.php/rnsr/article/view/1379>

19. Habibova, M. N. (2023). *Origins of the Epistolary Novel and the Principal Epistolary Works*. *International journal of language learning and applied linguistics*, 2(2), 70–74. Retrieved from <https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/1159>

20. Khabibova, M. N. (2023). *The Historical Influence of the Epistolary Novel*. *International journal of language learning and applied linguistics*, 2(2), 75–79. Retrieved from <https://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/article/view/1161>

21. Habibova, M. (2023). *Specific possibilities writing techniques used in epistolary form and their effects on both the characters AND READERS*. *Eurasian Journal of Academic Research*, 3(5), 172–177. Retrieved from <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/14085>

22. Habibova, M. (2023). *Epistolary comparisons and trends*. *Евразийский журнал академических исследований*, 3(5 Part 4), 330–338. Извлечено от <https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/view/16170>

ARUZ – METAFORIK TAFAKKURNING KENG MAYDONI SIFATIDA

*Karamova Shohida Luftillayevna,
Qarshi davlat universiteti, Yangi o'zbek adabiyoti va
adabiyot nazariyasi kafedrasida dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
karamovash@mail.ru*

Annotatsiya. Maqolada metafora – ijodkorning salohiyati, ijodiy quvvati va iste'dodini namoyish qiladigan hodisa ekanligi haqida so'z boradi. Ayrim ashyolar, holat va hodisalar bugungi hayotimizdan butkul yo'qolib ketgan bo'lishiga qaramasdan, ular tashbeh, tafsil yoki istiora o'laroq she'riyat sathida faol ekanini E.Vohidov, A.Oripov, R.Parfi she'rlari misolida tahlilga tortilgan.

Kalit so'zlar: metafora, metaforik tafakkur, majoziy, ko'chim, g'azal an'anaviy timsol, tashbeh, tafsil.

ARUZ КАК ШИРОКАЯ ОБЛАСТЬ МЕТАФОРИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ

Аннотация. В статье отмечается, что метафора – явление, демонстрирующее потенциал, творческую энергию и талант автора. Несмотря на то, что некоторые предметы, ситуации и события сегодня полностью исчезли из нашей жизни, они активны на уровне поэзии как аллюзия, деталь или метафора, это анализировалось на примере стихотворений Э.Вохидова, А. Орипова, Р.Парфи.

Ключевые слова: метафора, метафорическое мышление, образность, перенос, традиционный символ газели, аллегория, деталь.

ARUZ AS A LARGE FIELD OF METAPHORICAL THINKING

Abstract. The article notes that metaphor is a phenomenon that demonstrates the potential, creative energy and talent of the creator. Despite the fact that some objects, situations and events today have completely disappeared from our lives, they are active at the level of poetry as an illusion, detail or metaphor, this was analyzed using the example of poems by E. Vohidov, A. Oripov, R. Parfi.

Key words: metaphor, metaphorical thinking, imagery, metaphor, traditional gazelle symbol, allegory, detail.

Kirish. She'riyatda metafora, metaforik tafakkur muammosi adabiyotshunoslikda chuqur tadqiq etilgan. Binobarin, metafora nazariyasi so'zning ko'p ma'noliligi, so'z ma'nolarining ko'chishi aspektida tilshunoslikda adabiyotshunoslikdan ham ko'proq o'rganilgan. Metafora (istiora) muammosi antik zamonlardayoq nafaqat olimlar, ijodkorlarning ham diqqatini o'ziga tortgan. Chunki metaforik tafakkur insoniyat ongli hayotining ilk davrlaridanoq o'zidan darak bergan, qadimiy qoyatosh rasmlaridan tortib folklorning ilk namunalarigacha in'ikos topgan. Metaforaga oid tadqiqotlar nihoyatda ko'p. Inson tafakkurining g'aroyib bu hodisasi tilshunoslar va adabiyotshunoslardan, ijodkorlardan tashqari, falsafa, psixologiya, mantiq, san'atshunoslik, folklor, hatto jamiyatshunoslik sohasi olimlari diqqatini ham o'ziga jalb etmoqda [1.512-bet].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Metafora, sodda qilib aytganda, bir narsa-hodisani o'rtadagi o'xshashlikka asosan boshqa narsa-hodisani nomi bilan atashdir. Bobur “Sen, ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz” degan misrani yozganda yorni gulga o'xshatgan va uni “yor” emas, “gul” deb atagan. Metaforaning sharqona nomi “istiora” bo'lib, so'zning lug'aviy va terminologik ma'nosi ham shundan dalolat beradi. Chunki “istiora” – omonat, oriyatga olmoq, ya'ni biror kishining buyumidan bebadal foydalanib turmoq demak. Terminologik ma'noda ham ijodkor muayyan voqea-hodisani ifodalash uchun boshqa bir so'zdan bebadal foydalanib turadi. Yuqoridagi misolda Bobur “yor” ma'nosini ifodalash uchun “gul” so'zini, obrazli aytganda, “arendaga olgan”. Mana shu tarzda metafora (istiora) badiiy matnda qariyb topishmoq, jumboq kabi namoyon bo'ladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, Aristotel “topishmoq – mohirona yaratilgan metaforadir”, [2. 92 -bet] degan edi.

“Yor”ning “gul”ga istiora qilinishi mumtoz adabiyotda ham, zamonaviy adabiyotda ham nihoyatda ko'p uchraydi. Shu o'rinda “Nega “gul” ramz emas, takror-takror qo'llanib ramzga aylanib ketmagan?” -

degan savol tug'ilishi tabiiy. Umuman olganda, adabiyotshunosligimizda ramz va metaforaning chegaralarini aniqlay olmaslik uchrab turadi. Ramz (simvol) va metafora-istora bir-biriga yaqin, o'xshash hodisalar bo'lsa-da, ba'zan metaforaning ramzga aylanib ketishi badiiy so'z tarixida uchrab tursa-da, ularni farqlab olish lozim. Ramz – kengroq tushuncha, o'rni bilan u metaforani ham o'z ichiga olishi mumkin. Ammo ramzlar hammavaqt ham o'xshashlik asosidagi ma'no ko'chishiga asoslanmaydi, ramzlar nihoyatda chuqur ma'noga, tarixga ega bo'ladi. Masalan, kabutarni tinchlik ramzi deb oladigan bo'lsak, ikki o'rtada o'xshashlik yo'q. Umuman, mavhum tushunchani konkret predmetga o'xshatib bo'lmaydi. Mavhum tushunchani konkret predmet vositasida tasvirlash, tushuntirish mumkin. Kabutarning tinchlik ramzi o'laroq taqdim etilishi qadim rivoyatlar bilan bog'liq. Bu rivoyatlar "Eski Ahd"da ham, "Injil"da ham, qadimgi Rim afsonalari ichida ham uchraydi. "Eski Ahd"ga ko'ra, Nuh payg'ambar to'fon tugagan-tugamaganini bilish uchun o'z kemasidan kabutarni uch marta uchirib yuboradi. Birinchi gal qush qaytib keladi, ikkinchi gal tumshug'ida zaytun shoxchasini olib keladi va Yer yaqin orada ekanidan xabar beradi, uchinchi gal butunlay qaytib kelmaydi va kema dagilar to'fon tugaganini anglaydilar. Shundan keyin kabutar Xudo va banda o'rtasidagi sulh, tinchlik ramzi o'laroq tushuniladigan bo'ladi. Nasroniylikda Muqaddas Ruh kabutar jismiga joylashgan deb anglangan. Kabutar tinchlik ramzi sifatida ikkinchi jahon urushidan keyin tan olingan [7]. Boshqa ramzlarning ham shunday muxtasar "tarix"lari bor. Ramz – butun insoniyat tafakkuri tarixi bilan bog'liq va hammaga tushunarli bo'lsa, metaforalar – individual tafakkur mahsuli, miqyosan kichikroq hodisadir.

"Adabiyotshunoslik lug'ati"da metaforaning ana shu xususiyati uning matn bilan qattiq bog'langan ekanligi orqali quyidagicha ochib berilgan: "Badiiy matndagi metaforaning ma'nosi g'oyat serqirra, chunki u kontekstdagi boshqa so'zlar bilan birga mazmuniy butunlikni tashkil qilar ekan, ular bilan aloqada hosil bo'lgan assotsiatsiyalar tufayli ma'no diapazonini kengaytiradi. Mas., matndan ajratib olingan holda "suv sindi" birikmasining ma'nosi juda xira, uning metafora ekanligini idrok qilish uchun aqlni zo'riqtirish talab etiladi. Biroq R. Parfining "Suv ostida yaltiraydi tosh, Xarsanglarda sinadi suvlar" satrlarida badiiy matn kontekstidagi birikma ma'nosi yorqin namoyon. "Suv sinishi" uchun uning oynaga o'xshatilishi zarur, lekin she'rda suv oynaga o'xshatilgan emas. Shunga qaramay, assotsiativ aloqalar asosida "ostida yaltiragan tosh" ko'rinadigan darajada tiniq suvni oynaga o'xshata olamiz va shuning uchun ham uning "sinishi" tabiiy ko'rinadi"[8.169- bet].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Agar metaforik tafakkur – majoziy, ko'chimga asoslangan tafakkur ekanidan kelib chiqadigan bo'lsak, bu hodisaning so'z san'atining mohiyatini tashkil etishi ayonlashadi. Metafora – assotsiya, ya'ni turli narsa-hodisalar o'rtasidagi aloqadorlik, o'xshashliklarni idrok etish va so'zda ifoda etish asosida maydonga keladigan hodisa. Adabiyotning asosini tashkil etgan obrazlilik ham qariyb shu mezonga asolanadi. Binobarin, metafora – ijodkorning salohiyati, ijodiy quvvati va iste'dodini namoyish qiladigan hodisadir.

Ma'lumki, mumtoz she'riyatimiz istoraviylikning quyuqligi bilan alohida hodisadir. Zamonaviy milliy she'riyatning metaforalarga boy ekani ham, bizningcha, bevosita mumtoz adabiyot an'analari bilan bog'liq. Istioraviylik kuchli bo'lmagan she'r bizda hatto kitobxonni ham qoniqtirmaydi. Biz she'rda kuchli istoraviylikka, badiiy san'atlarga o'rganganmiz.

Binobarin, zamonaviy o'zbek aruzi ham quyuq metaforalari bilan xarakterlanadi. Hatto aytish mumkinki, istoraviylik – zamonaviy o'zbek aruzining eng muvaffiqiyatga erishgan sathidir.

Zamonaviy o'zbek aruzini metafora nuqtayi nazaridan shunday xulosaga kelish mumkin. Hozirgi o'zbek shoirlari aruzda qo'llagan metaforalarni an'anaga munosabatan quyidagi uch guruhga ajratish lozim:

Mumtoz she'riyatda qo'llangan metaforalar.

Mumtoz she'riyatda qo'llangan metaforalar bilan bog'liq ravishda paydo bo'lgan metaforalar.

Individual-ijodiy metaforalar.

Alohida ta'kidlash lozimki, zamonaviy aruzda, xuddi mavzu sathida kuzatilganidek, o'tmish shoirlarimiz qo'llagan metaforalar miqdor jihatdan ko'p.

Ma'lumki, o'tmish she'riyatimizga mansub gul, bulbul, may, sham, parvona, soqiy kabi istoralar "bosim"idan milliy adabiyotda o'ziga xos inqilob yasagan jadid shoirlari ham emin bo'lolmaganlar. "Ko'p shoirlarimiz jadid bo'lushtlik ila eski she'rlarini yirtib, yondurib tashlagon"[4.170-bet] bo'lsalar-da, eski adabiyotdagi vazn, qofiya kabi shakliy unsurlar bilan bir qatorda, poetik obraz va tafsillardan, istoralardan ham foydalanib turdilar. Bu haqda tadqiqotchi Sh. Nazarova shunday yozadi: "Jadid she'riyatida ham olamni poetik idrok etish ilmi bade' ruhida edi. Bu avlod o'z she'riyatidagi o'z markaziy obrazlarini tizimga solguncha, yangi poetik timsollarni yaratguncha, to'laligicha mumtoz adabiyot asosiga tayandi... Bunda mavjud timsollar mohiyati yangilandi, semantik qamrovi kengaydi" [4.121-bet]. Qizig'i shundaki,

zamonaviy o'zbek aruznavislari mumtoz adabiyotdan vaqt nuqtayi nazaridan ancha uzoqlashgan, til, imlo o'zgarishlari, sho'roning "yangi proletar madaniyati" yaratish tamoyili bu uzoqlashuvni yanada chuqurlashtirgan bo'lsa-da, fonetik va leksik sathda ko'rib o'tilganidek, obrazlilik sathida ham an'ananing ta'siri kuchli bo'ldi. Bu ta'sir hatto katta shoirlar ijodida ham sezilarlidir.

Netaykim, har / tarafdan yo / g'ildir g'am o'q /lari menga,
Lekin mahv et / gali zulfig / dayin dor / ni topmasman[5.117-bet].
V - - - / V - - - / V - - - / V - -

Mafoiylun mafoiylun mafoiylun fauvlun.

Hazaji musammani mahzuf.

Ishqiy mavzuda yozilgan mazkur g'azal Abdulla Oripov qalamiga mansub. Ushbu baytda bizning diqqatimizni tortgan badiiy tasvir vositalari "g'am o'qlari" ochiq metaforasi hamda "dor" tashbehidir.

G'am o'qlari va dor. Biz o'q ishlatilmaydigan, dor qurilmaydigan makon va zamonda yashashimizdan, na ijodkorlar va na kitobxonlar aksariyatining umrida o'q va dorni ko'rmaganligidan kelib chiqsak, bu ikki tasvir vositasining mumtoz adabiyot ta'sirida qo'llanganini boshqa yo'l bilan isbotlashga hojat qolmaydi.

Umuman olganda, ushbu g'azal an'anaviy timsol, tashbeh, tafsil va obrazlar asosiga qurilgan.

Demishlar hur, malaklar ko'p, nihondir, ko'zga tashlanmas,

Bu ne sirdur, bashardursan, borsan, borni topmasman.

Mukammal suratingga jo bo'libdi siyrating, ey yor,

Muallif qaydadir, kim ul? Me'morni topmasman.

Junun vodiysida sarson misoli Shayx San'onman,

Qo'limda tasbehu, goho zunnorni topmasman.

Visoling vasfidan ortiq go'zal she'ru g'azal bo'lmas,

Tavof aylay desam gar Hofizu Attorni topmasman.

G'azal matni lingvistik jihatdan, grammatika nuqtayi nazaridan hozirgi o'zbek tili adabiy tili qoidalariga muvofiq yozilgan. Unda ayrim aruznavislarda o'rinli-o'rinsiz ravishda qo'llanadigan arxaik, tarixiy tushunarsiz so'zlar ham, shakl va qo'shimchalarning eski o'zbek tilidagi shakllari ham qo'llanmagan. G'azal til jihatdan bugungi o'quvchiga to'la tushunarli. Ayni vaqtda mazkur baytlardagi hur, malak, junun vodiysi, Shayx San'on, zunnor, Hofiz, Attor kabi obraz, tafsil va metaforalarning har biri qaysidir bir jihatlardan g'azalni mumtoz she'riyatga qarab tortadi. Hur, malaklar tilga olingan baytda "bashardursan" so'zining kelishi darhol Mashrabni yodga tushiradi. Bugungi shoir yoki o'quvchi zunnorning shaklu shamoyilini tasavvur qilolmasa-da, mohiyatini mumtoz adabiyot, Shayx San'on qissasi orqali bir qadar tushunadi, lekin ko'rmaganligi aniq. "Mukammal suratingga jo bo'libdi siyrating, ey yor, // Muallif qaydadir, kim ul? Me'morni topmasman" baytida ham an'anaga ko'ra Yaratuvchi, uning buyukligi haqida so'z boradi. Biroq A. Oripov shu baytda Parvardigori olamni "muallif" degan istiora orqali ifoda etadiki, mana shu birgina istiora tufayli an'analarga ko'milgan g'azal butunlay yangicha ruh paydo qiladi. Shoir benazir iste'dod kuchi tufayli birgina ohori istiora orqali she'ning badiiyatini yuksak darajaga ko'tara oladi.

Mustaqillik davri aruzida obrazlilik sathida vorisiylikka xos yana bir xususiyat bor. Mumtoz she'riyatda qo'llangan obraz, tafsil, tasviriy vositalar yangilangan holda, boshqa qirralarini namoyon qilgan holda qo'llanadi. Masalan, sochning tunga, yuz yo tishning tongga tashbeh, istiora qilinishi mumtoz shoirlarimizda o'nlab marta uchraydi. Endi ikki zabardast zamonaviy shoirning shu tafsillarni qo'llashiga e'tibor qarataylik.

Tun qorong'usida men Soching shabistonin ko'ray,
Tongotarda yuzlaringni Tong kabi ravshan topay.[2.10 -bet]

V - - / - V - - / - V - - / - V -

Foilotun foilotun foilotun foilun.

Ramali musammani mahzuf.

Erkin Vohidov bu g'azalida yorning sochini tunga, chehrasini tongga mengzayapti. Ammo bu o'xshatish to'g'ridan-to'g'ri "sochlaring tundir sening, oq yuzlaring – tongdir sening" qabilida sodir bo'lmaydi. Lirik qahramon tunga boqib mahbubasining sim-siyoh sochlarini, tongga qarab esa oppoq chehrasini xotirleydi, ushbu jarayonda uning ko'z o'ngida yorning shakl-shamoyili namoyon bo'ladi. Shu tariqa milliy she'riyatimizda nihoyatda faol bo'lgan istiora, o'xshatish yangicha usulda istifoda etiladi, xuddi ohori tasviriy vositadek zavq uyg'otadi.

Endi Abdulla Oripov baytiga diqqat qilaylik.

Sochlaring yoymay turib, tushgan qorong'u tun emas.

Tishlaringni ko'rmayin tong ham oqargan kun emas.

V - - / - V - - / - V - - / - V -

Foilotun foilotun foilotun foilun.

Ramali musammani mahzuf.

Bu baytda ham asl muddao yorning sochlarini tunga, tishlarini tongga tashbeh qilish. Ammo lirik qahramon uchun butun olam ma'shuqa prizmasi orqali idrok etiladi. Olamning har bir ashyosi, hodisasi uningsiz ahamiyatsiz bo'lib tuyuladi. Sevimli yor yonida bo'lsagina, hayot – oshiq uchun hayotdir... Shu tariqa ikki buyuk shoirimiz mumtoz adabiyotdagi ikki tafsilga yangi hayot bag'ishlaganlar. Mana bu baytda esa mumtoz lirikada yor va oshiqqa istiora qilingan gado va shoh Abdulla Oripov tomonidan nihoyatda latif qo'llanadi.

Men gado bo'lsam agar, shohsan muhabbat mulkida,

Ayt o'zing, qay bitta shoh bo'lmish gadolardan xalos?

V - - / - V - - / - V - - / - V -

Foilotun foilotun foilotun foilun.

Ramali musammani mahzuf.

Xulosa. Bu – milliy she'riyatimizda an'analarning ta'sir kuchi nihoyatda katta ekanligi bilan bog'liq qonuniyatdir. Yuz yillar davomida shakl va mazmun bilan bog'liq ko'p unsurlar o'zgardi, yangilari paydo bo'ldi, sarbast misolida qofiya va vazn kabi unsurlar chetga chiqdi. Umumiyati-la go'yoki yangi bir she'riyat paydo bo'ldi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, leksik, fonetik, morfologik sathda, obrazlar sathida mumtoz adabiyot ta'sirining, o'rta asrlar aruziga xos elementlar quyuq ekanini ko'rish mumkin. Ayrim ashyolar, holat va hodisalar bugungi hayotimizdan butkul yo'qolib ketgan bo'lishiga qaramasdan, ular tashbeh, tafsil yoki istiora o'laroq she'riyat sathida faol ekanini ko'ramiz. Vaholanki, ular faqat muzeylarda, tarix sahifalarida, shuningdek, badiiy matnlar qavatidagina uchraydi.

Zamonaviy aruzda mumtoz lirikada o'ta faol bo'lgan ochiq istioralar ham quyuq istifoda etilgan. Aniqrog'i, zamonaviy shoirlar mazkur tasviriy vositaning modelini – biri o'z va biri ko'chma ma'noga ega bo'lgan aniqlovchi-aniqlanmish tipidagi modelini saqlab qolgan holda original istioralar yaratdilar.

ADABIYOTLAR:

1. Теория метафоры. Сборник: Пер. с англ., фр., нем., исп., польск. яз. / Вступ. ст. и сост. Н. Д. Арутюновой. Общ. ред. Н. Д. Арутюновой и М. А. Журиной. — М.: “Прогресс”, 1990. — 512 с
2. Воҳидов Э. Сайланма. Танланган асарлар – Тошкент, “Шарқ” нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси бош таҳририяти, 2018. – 10-бет.
3. Энциклопедический словарь юного литературоведа. – Москва, “Педагогика”, 1988. – Стр. 92. (416 стр.)
4. Миллий уйғониш ва ўзбек филологияси масалалари. – Тошкент, “Университет”, 1993. – 70-бет.
5. Nazarova Sh. XX asr boshlari o'zbek she'riyatining yangilanish tamoyillari (yangi o'zbek she'riyati kontekstida). Filologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Toshkent, 2023. – 121-бет.
6. Oripov A. Tanlangan asarlar. 7-jild. – 117-бет.
7. Parpishoyev K. Charo kabo'tar ramzi sulh ast? // <http://marifatiomuzgor.tj/blog-detail.php?id=236>;
8. Mayakova O. Kak poyavilsya simvol “golub mira”? // <https://www.culture.ru/s/vopros/golub-mira/>
9. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati, 169-170-бетlar

ZAMONAVIY INGLIZ VA O‘ZBEK SHE’RIYATIDA TOVUSH TAKRORLARINING O‘ZIGA XOS JIHLARI

*Karimova Shaxnozaxon Karimovna,
Buxoro davlat universiteti o‘qituvchisi
karimovashakhnoz@gmail.com*

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy ingliz va o‘zbek she’riyatida tovush takrorlari – alliteratsiya, assonans va konsonansning o‘ziga xos xususiyatlari va vazifalari qiyoslangan. Maqola zamonaviy ingliz va o‘zbek she’riyati vakillari Habib Sa’dulla, Sirojiddin Sayyid, Abdulla Oripov, Usmon Azim, Ros Barber, Jeki Key, Kerol Enn Daffi, Kerol Rumens she’rlarida tovush takrorlarining ishlatilishi masalalariga bagishlanadi. Bundan tashqari, maqolada tovush takrorlarining she’riy nutqning musiqiyliigi, uning ohangdorligini oshirishdagi o‘rni dalillangan. Umuman, maqolada fonetik takrorlarining zamonaviy she’riyatda qo‘llanilishining poetik fikr takomiliga xizmat qilishi misollar yordamida ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar: alliteratsiya, assonans, konsonans, ohangdorlik, musiqiylik, turg‘un alliteratsiya, kesishgan alliteratsiya, affiksalliteratsiya

ОСОБЕННОСТИ ЗВУКОВЫХ ПОВТОРОВ В СОВРЕМЕННОЙ АНГЛИЙСКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ

Аннотация. В данной статье сравниваются особенности и функции звуковых повторов – аллитерации, ассонанса и созвучия в современной английской и узбекской поэзии. Статья посвящена использованию звуковых повторов в стихотворениях представителей современной английской и узбекской поэзии Хабиба Садуллы, Сироджиддина Сайида, Абдуллы Орипова, Усмана Азима, Роса Барбера, Джеки Кейя, Кэрала Энн Даффи, Кэрала Руменса. Кроме того, в статье доказывается роль звуковых повторов в повышении музыкальности поэтической речи и ее мелодичности. В целом, в статье на примерах показано использование фонетических повторов в современной поэзии для совершенствования поэтической мысли.

Ключевые слова: аллитерация, ассонанс, консонанс, мелодичность, музыкальность, константная аллитерация, скрещённая аллитерация, аффиксальная аллитерация.

SPECIFIC ASPECTS OF SOUND REPETITIONS IN MODERN ENGLISH AND UZBEK POETRY

Abstract. This article compares the specific features and functions of sound repetitions - alliteration, assonance and consonance in modern English and Uzbek poetry. The article is devoted to the use of sound repetitions in the poems of modern English and Uzbek poetry representatives Habib Sadulla, Sirojiddin Sayyid, Abdulla Oripov, Usman Azim, Ros Barber, Jackie Kay, Carol Ann Duffy, Carol Rumens. In addition, the article proves the role of sound repetitions in increasing the musicality of poetic speech and its melodiousness. In general, the article shows the use of phonetic repetitions in modern poetry to improve poetic thought with the help of examples.

Key words: alliteration, assonance, consonance, melodiousness, musicality, constant alliteration, crossed alliteration, affixal alliteration

Kirish. Zamonaviy ingliz va o‘zbek she’riyatidagi eng ko‘p qo‘llanadigan tovush takrorlaridan biri – alliteratsiyadir. Alliteratsiya ham nasrda, ham nazmda qo‘llaniluvchi fonetik takror unsuridir. U – boshlang‘ich undosh tovushlarning ikki yoki undan ortiq yaqin so‘zlarda takrorlanishini aks ettiruvchi adabiy vosita. Bunda har bir urg‘uli so‘zning boshida undosh tovushning takrorlanishi tushuniladi. Ingliz adabiyotshunosligida alliteratsiyaning turg‘un va kesishgan alliteratsiya xili mavjudligi qayd etilgan. Turg‘un alliteratsiyada muayyan tovush ketma-ketlikda har bir so‘z boshida takrorlanib keladi. Kesishgan alliteratsiyada muayyan tovush so‘zlar osha takrorlanib keladi [1.68]. Adabiyotshunos D.Quronovning fikricha: “Alliteratsiya (lot. Al –yonida, litera – harf) – she’riy nutqda (nasrda nisbatan ham) bir xil undosh

LITERARY CRITICISM

tovushlarning takrorlanishiga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi.

Tadqiqot metodologiyasi. Alliteratsiya she‘rning alohida satri yoki misradagi so‘zlar guruhini fonetik jihatdan ajratadi, natijada she‘rning ifodaviyligi, musiqiyliigi, xushohangligi ortadi” [2,26]. Ingliz she‘riyatida alliteratsiyaning har ikkala ko‘rinishi ham qo‘llanganligini kuzatish mumkin. Buni alliteratsiya qo‘llangan she‘rlar misolida tahlil qilishga harakat qilamiz.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
You might forget the exact sound of her voice, Or how her face looked when sleeping. You might forget the sound of her quiet weeping Curled into the shape of a half moon, When smaller than her self , she seemed already to be leaving Before she left, when the blossom was on the trees And the sun was out, and all seemed good in the world. I held her hand and sang a song from when I was a girl – Heil Ya Ho Boys, Let her go Boys And when I stopped singing she had slipped away, Already a slip of a girl again, skipping off, Her heart light, her face almost smiling.[3]	Qaro qoshing qarolikda Qaro tunni xarob etmish [4,43]. Qay kunikim, kun jamoling Ko‘rdi bu ko‘z, dilrabo [4,71].

Yuqoridagi misralarda “q” va “k” undoshlari takroriga asoslangan alliteratsiya leksik ma‘no ustiga qo‘shimcha she‘riy “bo‘yoq”, tegishli ohang va joziba berish vazifasini bajargan. Jeki Keyning “*Darling*” nomli she‘ri shoiraning eng yaqin do‘sti Julia Darling xotirasiga bag‘ishlangan. Shoir kitobxonlarning bu satrlarni o‘qib, o‘zlariga taskin topishlariga umid qiladi. To‘rt bandli, to‘rt qatorli misralardan tuzilgan bu she‘r erkin vaznda yozilgan. Shoir matnda bir necha takror va yarim qofiya namunalarini, shuningdek, mukammal qofiyani yaxshi namunalarini ham mahorat bilan qo‘llaydi. Bunda shoir o‘lim mavzusini tilga oladi. U hozirgina vafot etgan kishi hayotda ularni sevganlar bilan yaqin bo‘lib qolishini, faqat odam ularga tayyor bo‘lganda ketishini nazarda tutadi. Ikkinchi baytning birinchi qatorida “*smaller*” va “*self*”, uchinchi baytning uchinchi qatorida “*slip*” va “*skipping*” so‘zlari kesishgan alliteratsiya bo‘lib kelgan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
I did not promise to stay with you till death do us part , or anything like that, so part I must, and quickly. There are things I cannot suffer any longer: Mother, you never, ever said a kind word or a thank-you for all the tedious chores I have done; There are parents who stroke their children’s cheeks in the dead of night and sing in the colourful voices of rainbows, red to blue.[5]	Visol – Sizsiz, Muhabbat- Siz Vatan ham, e‘tiqod ham Siz, Vafo ham – siz, Baqo ham – siz, Lazizsiz barcha ne‘matdan [4,106].

Tahlil va natijalar. Habib Sa‘dulla ijodida qofiyadosh, ohangdosh so‘zlarning yoki bir xildagi tovush hamda qo‘shimchalarning takroriga asoslangan alliteratsiya ko‘rinishlarini kuzatish mumkin. a) qofiyadosh so‘zlar alliteratsiyasi. Ushbu she‘rda alliteratsiya qofiyadosh so‘zlar va “s” tovushi takroridan yuzaga kelgan. Misralardagi olmoshlarning takrori esa qat‘iy hukm, kuchli ta‘kid, cheksiz hurmat kabi ma‘nolarni ifodalashi barobarida, lirik qahramon dilida kechayotgan beg‘ubor ishq tuyg‘ularini nechog‘li bebaho va beqiyos ekanligini ko‘rsatmoqda. Ingliz tilidagi “*Divorce*” (“*Ajralish*”) 2 bandlik she‘r bo‘lib, jami 14 misradan iborat. Misralari erkin vaznda yozilgan ushbu she‘r ota-ona va bola munosabatlari talqiniga bag‘ishlangan. Xususan, shoir notiqning ota-onasiga munosabatini, ular farzand haqida qayg‘urishlarini ifoda etgan. Lirik qahramon idealidagi ota-ona bilan hayotdagi ota-ona u qadar muvofiq kelmasligi uni o‘yga toldiradi. Bunda shoir alliteratsiyadan samarali foydalangan. Dastlabki bandning birinchi va ikkinchi qatorlaridagi “*promise*” va “*part*” so‘zlarida [p] va ikkinchi banddagi “*children’s cheeks*” so‘zlarida esa [tʃ] tovushlari takrorlangan va o‘ziga xos ohangdorlik kasb etgan. Buni turg‘un alliteratsiya deyish mumkin.

LITERARY CRITICISM

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O'zbek tilida</i>
Not a red rose or a satin heart. I give you an onion. It is a moon wrapped in brown paper. It promises light like the careful undressing of love. Here. It will blind you with tears like a lover. It will make your reflection a wobbling photo of grief. I am trying to be truthful. Not a cute card or a kissogram . I give you an onion.[6,9]	Ruhbaxsh dastur misol ustoz sabog'i Barham berdi gina-quduratlarga "Toshkentnoma" bo'lib adib mayog'i Chorladi ijodga, yo'lga, safarga ... [7,430] Men uchun har maktub bir butun olam, Har xat ola kelar qalbimga bahor. Onajonim yozar: "Sog'misan, bolam?" "Boshingiz omonmi?! – deya so'rar yor... Har kun xat olaman yaqin-olisdan – Ammadan, xoladan, tog'a-jiyandan. Ishchi kasbimdan, Sinfdosh qizdan, Nechun xat kelmaydi, do'stinam sendan?[7,48]

Shoir Habib Sa'dullaning alliteratsiya qatnashgan she'rlarida qo'shimchalar takroridan hosil bo'lganligini ham kuzatish mumkin. Demak, alliteratsiyaning 2-turi b) qo'shimchalarning aynan takroridan iborat ko'rinishi qo'llangan. Yuqoridagi misollarda dastlab *ijodga, yo'lga, safarga* so'zlaridagi jo'nalish kelishigi qo'shimchasi *-ga* hamda *ammadan, xoladan, tog'a-jiyandan* kabi qarindoshlik ma'nosini ifodalovchi shaxs otlariga qo'shilgan *-dan* chiqish kelishigi qo'shimchalari alliteratsiyani hosil qilgan. Kerol Enn Daffining "*Valentin*" nomli she'ri muhabbat mavzusida yozilgan. Shoirning lirik qahramoni – ishqdan ozorlangan shaxs. Shu bois unda kamon sevgi ramzini ifodalab keladi. "*Valentin*" kunida sevishtanlar bir-birlariga sovg'alar beradilar. Bu sovg'aning nima bo'lishi sevgining oldida u qadar ahamiyatli emas. Chunki haqiqiy muhabbat his-kechinmalarda, qadr-qimmatda namoyon bo'ladi. Ya'ni oshiq sevmasa-yu, qimmatbaho sovg'a bersa, unday sevgining keragi yo'q. She'r misralaridan shunday fikrlarni anglash mumkin. Bunda oshiq ma'shuqaga piyoz beradi. Bundan tashqari, shoir avliyo Valentin kunida sevishtanlarning bir-biriga sovg'a berishlarini yoqlamaydi. Lirik qahramon sevishtanlarning bir-biriga "qizil atirgul" va yurak shaklidagi sovg'alar berishlarini u qadar oqlamaydi. Shuning uchun u har kunlik oshxonasidagi asosiy sabzavot – piyozni berishni ma'qul ko'radi. Bu ramziy ma'noda muhabbatning barqaror, abadiy tuyg'u ekanligini ta'kidlaydi. She'rdagi "*cute card or a kissogram*" satrda alliteratsiya qo'llangan. Ingliz tilida "*c*" va "*k*" harflari [k] tovushini ifodalab keladi va tovush takrorini hosil qiladi. Bu bilan shoir muhabbatga nisbatan his-tuyg'ularni yangicha ifodalash uchun piyozni tanlaydi.

Beloved sweetheart bastard.

Not a day since then I haven't wished him dead.
 Prayed for it so hard I've dark green pebbles for eyes,
 Ropes on the back of my hands I could strangle with.[6,9]

Shoiraning ushbu she'ri Miss Havisham tomonidan aytilgan monologdir. Kerol Enn Daffi feministik fikr tarafdori edi. Yuqoridagi she'r Charlz Dikkensning "*The Great Expectations*" ("*Buyuk umidlar*") romani qahramoniga bag'ishlangan. Zamonaviy ingliz she'riyati vakili Kerol Enn Daffi Shotlandiyaning Glazgo shahrida tug'ilgan va Angliyada o'sib-ulg'aygan. U Angliyaning "*Poet-laureat*" ("*Poet-laureate*") unvoniga sazovor bo'lgan ilk ayol shoiradir (2009-yilda Britaniya qirolichasi Yelizaveta tomonidan taqdirlangan). Uning lirik qahramonlari o'zidan tashqari, o'zga kishilar hamdir. Shuning uchun ham yuqoridagi she'rning lirik qahramoni Miss Havishamdir. She'r xiyonatdan ozor chekkan lirik qahramonning qalb og'riqlari, ruhiy iltiroblari, nafratli kechinmalaridan so'zlaydi. Undagi o'tli satrlardan ma'lum bo'ladiki, lirik qahramon xiyonat tufayli uzoq yillar iltiroblar ichida yashagan. Shu bois unda tushkunlik kayfiyati ustunlik qiladi. Ana shu kechinmalarni ifoda etishda kesishgan alliteratsiyadan foydalanilgan. Ayolning eri Janob Havishamning xiyonatidan keyin unda pessimistik kayfiyat tobora ortishi tasvirlangan. Bundan tashqari, she'rning ehtirosli diksiyasi xonimning qalbidagi ehtirosga ishoradir. "*Beloved sweetheart bastard*" satrida [b] tovushi ketma-ket emas, so'zlar osha takrorlangan. Lirik qahramon turmush o'rtog'iga murojaat etar ekan, uni "*sevgilim, azizim*" deyish barobarida xiyonatkorligiga ishora qilib, "*bastard*" so'zini ishlatadiki, bu o'ziga xos oksimorondir.

LITERARY CRITICISM

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
<p>Here are my bees, brazen, blurs on paper, besotted; buzzwords, dancing their flawless, airy maps. Been deep, my poet bees, in the parts of flowers, in daffodil, thistle, rose, even the golden lotus; so glide, gilded, glad, golden, thus – wise – and know of us: how your scent pervades my shadowed, busy heart, and honey is art.[8]</p>	<p>Samimiyatni ham, Andishani ham, Lutfu karamni ham, Odob - esni ham, Mehru-oqibatni, insoniylikni – Bir so‘zga qilib jom Keksani ko‘rsam ham, Yoshni ko‘rsam ham Labimdan uchajak kalom - “Assalom!” [7,56]</p>

“Bees” (“Asalarilar”) she’ri 2011-yilda “The Bees” to‘plamida chop etilgan. Mazkur to‘plam 2011-yilda she’riy asarlarga beriladigan Kosta mukofotini qo‘lga kiritadi. Bu shoiraning shoir-laureat unvonini olgandan keyingi birinchi to‘plami hisoblanadi. She’rda asalarining poetik obrazi yaratilgan. Bu nihoyatda mehnatkash hasharotlar guldan gulga qo‘nib, nektar izlaydilar va ularni o‘z inlariga olib keladilar. Natijada tabiatning eng yaxshi mo‘jizasi asalni yaratadilar. Darhaqiqat, shoirning san’atkorligi, uning qo‘llagan har bir so‘zi asalari mehnatiga qiyos etiladi. Asal yig‘ish jarayonida asalari hamma gulga ham qo‘navermaydi. Shoira ham so‘zning eng saralarini satrlarga tizadi. Qolaversa, she’r ohangdorligini ta’min etgan vositalardan biri – alliteratsiyadir. Jumladan, birinchi bandda “bees, brazen, blurs”; besotted; buzzwords” so‘zlaridagi [b], ikkinchi banddagi “gilded, glad, golden” so‘zlaridagi [g], uchinchi banddagi “heart and honey” so‘zlaridagi [h] undosh tovushlari takrorlanishi natijasida turg‘un va kesishgan alliteratsiya yuzaga kelgan. Mazkur misralardan asalarining g‘izillab nektar yig‘ishi holatini lirik qahramon ko‘z oldiga keltiradi. Bu so‘zlar asal bilan bog‘liq tushunchalarni bildirib keladi. Qolaversa, takror tovushlar va asalari harakatlarida uyg‘unlik mavjud.

Ma’lumki, kelishik qo‘shimchalari tilshunoslikda sintaktik munosabat hosil qilish vazifasini bajaradi, ya’ni so‘zlarni bir-biriga bog‘lash vazifasini bajaradi. Habib Sa’dullaning yuqoridagi misralarida esa, bu affikslar grammatik vazifa bajarish bilan bir qatorda affiksalliteratsiyani hosil qilgan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
<p>I’m fond, neroids and nymphs, unlike some, of the pig, of the tusker, the snout, the boar and the swine. One way or another, all pigs have been mine – under my thumb, the bristling, salty skin of their backs, in my nostrils here, their yobby, porky colognes.[6,28]</p>	<p>Poezdlarda, Samolyotlarda, Tramvayda, Saman otlarda Uchqurlikda bo‘lib go‘yo nur O‘tmoqda umr [7,134].</p>

Bu she’r yunon afsonasi syujeti, aniqrog‘i, Homerning “Odissey” asaridagi Kirka ma’budasi qissasi asosida yozilgan. Circe (Kirka) – quyosh xudosi Heliosning qizi. U Eeya orolida yashagan va u yerda Odisseyni Troya urushidan uyiga qaytayotganda uchratadi. U o‘z odamlarini Kirka orolini kashf qilish uchun yuboradi va uning mehmondo‘stligini qabul qiladi. Ko‘pchilik uyga kiradi. Bir kishi tashqarida qoladi. O‘sha kishi Kirkaning sehr yo‘li bilan odamlarni cho‘chqa, sher va boshqa hayvonlarga aylantirayotganini ko‘radi. Bu odam Evrilox, Odisseyga ko‘rganlarini aytib beradi. Ular tashqi ko‘rinishlari o‘zgartirilgan odamlarni ozod qilish rejasini ishlab chiqadilar. Germes ularga o‘zgarimasligi uchun ma’lum bir o‘simlikni ichimlikka solib qo‘yishni aytadi. Odissey Kirkaga tahdid qiladi va uni erkaklarni o‘z shakllariga qaytarishga majbur qiladi. Odissey Kirka bilan bir oy yashaydi, ketishidan oldin undan o‘g‘il ko‘radi. She’r shu jihatdan voqeabandlik kasb etgan. Alliteratsiya yordamida shoira shu voqelikni badiiy ta’sirchan ifodalashga erishadi. Dastlabki satrdagi “neroids (suv parisi) va nymphs” (ma’budalar, ular uzoq umr ko‘rgan, odamlarga mehribon, beozor bo‘lishgan) so‘zlarida [n] va to‘rtinchi misradagi “bristling” (quyuq) va “backs” (orqa) so‘zlarida [b] tovushi takrorlangan. Yuqoridagi voqelikni badiiy ifodalash maqsadida shoira alliteratsiyadan foydalangan. O‘zbek she’riyati misollaridan ko‘rinadiki, Habib Sa’dulla she’riyatidagi affiksalliteratsiya

LITERARY CRITICISM

alliteratsiyalar, asosan, kelishik qo‘shimchalari vositasida hosil qilingan. Demak, shoir bu qo‘shimchalardan uslubiy bo‘yoqdorlik, fonetik ohangdorlik ifodalashda unumli foydalangan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
Where I lived – winter and hard earth. I sat in my cold stone room choosing tough words, granite, flint, to break the ice. My broken heart – I tried that, but it skimmed, flat , over the frozen lake. She came from a long, long way, but I saw her at last, walking, my daughter, my girl, across the fields, in bare feet , bringing all spring’s flowers to her mother’s house. I swear the air softened and warmed as she moved.[6,31]	Gul shahrim, Gulzor shahrim, Gilamday guldor shahrim. Keksadan yoshigacha, Yerdan quyoshigacha. Billurday suvlaridan Yo‘ldagi toshigacha – Ishqibozi gulkor shahrim [7,31].

Kerol Enn Daffining “*Demeter*” (“*Demetra*”) deb nomlangan yuqoridagi she’ri yunon afsonasi asosiga qurilgan. Unda yunon hosildorlik ma’budasi Demetraning hayoti haqidagi eng ko‘p aytilgan afsonalarga ishora qilinadi. Unda yozilishicha, ma’buda Demetraning chaqmoqdor Zevsdan bo‘lgan Persefona ismli navnihol, sohibjamol qizi bo‘lgan. Persefona dugonalari – Okean qizlari bilan chamanzor Nisey vodiysida kapalak misoli guldan gulga uchib, betashvish yayrab, sho‘x-sho‘x o‘ynab yurgan kunlardan biridagi voqea qalamga olingan. Ular barq urib ochilgan gullar, muattar binafshalar, qordek oppok nilufarlar, qirmizi rang xushbo‘y sunbul gullarini terish bilan band edilar. Persefona ham ular bilan juda xursand edi. U peshonasiga padari Zevs yozgan qismatdan mutlaqo bexabar edi. She’rda yozilishicha, Aid Nisey vodiysida halovatda o‘ynab yurgan Persefonani ko‘radi-yu, tezda uni o‘g‘irlashga qaror qiladi. U yer ma’budasi Geyadan go‘zallikda qiyosi yo‘q bir gul paydo qilishini iltijo qilib so‘raydi. Geya rozi bo‘ladi. Natijada Nisey vodiysida mo‘jizali bir gul g‘uncha ochiladi. Bu gulning kishini sarxush etuvchi atri butun vodiya taraladi. Persefona gulni ko‘rib qoladi va unga qo‘lini cho‘zib, uzib oladi. Shunda birdan yer yoriladi-yu, uning qa’ridan qora otlar qo‘shilgan oltin jang aravada Aid chiqib keladi. U Persefonaning belidan quchib arobaga chiqaradi-da, ko‘z yumib ochguncha yer ostiga kirib, g‘oyib bo‘ladi. Persefona faqat bir marta chinqirishgagina ulguradi. Badqovoq Aid uni o‘g‘irlaganini hech kim payqamaydi. Buni faqat tangri Helios, ya’ni Quyosh ko‘radi. Yuqoridagi she’rda mana shu afsonaviy voqea ifoda etilgan. Dastlabki bandning uchinchi misrasida “*flat*” (tekis) va “*frozen*” (muzlagan) so‘zlari va to‘rtinchi bandning birinchi satrida “*feet*” (oyoqlar) va “*flowers*” (gullar) so‘zlarida [f] undoshi takrorlangan. Habib Sa’dulla yuqoridagi “*Sog‘inib keldim*” she’rida *g* va *sh* tovushlari vositasida alliteratsiya hosil bo‘lgan. Shoir ona shahri Namanganni “Gullar shahri” ekanligini shu she’rda madh etgan. Uni sog‘inib kelganini, undagi go‘zallikni biron joyda topmaganini chiroyli sifatlar orqali ta’riflagan.

And now we are no longer blessed, for the world
 will not **deepen to dream** in. The other knows
 and out of love reflects me for myself.
 We see our **silver skin** flash by like memory
 of somewhere else. There is a coloured ball
 we have to balance till the man has disappeared.[9]

Kerol Enn Daffining “*Dolphins*” (“*Delfinlar*”) she’rida istirohat bog‘ida asirlikda saqlanayotgan umidsiz delfinlarning azob-uqubatlari ifoda etilgan. Asirlikdagi delfinlar uchun dunyo hovuzdir. Hovuz atrofida faqat eshkaklar, xalqalar, cheksiz doiralalar mavjud. Bu to‘siqlar ularning erkinlikka chiqishiga yo‘l qo‘ymaydi. Shuning uchun ular bu joyni hech qachon tark etolmasliklarini his etishadi. She’rda tilsiz hayvonning iztirobli holatlari ifoda etilgan. Unda “*silver skin*” yoki “*deepen to dream*” kabi birikmalarda [s] va [d] undosh tovushlari takrorlanishidan alliteratsiya yuzaga kelgan. Bu orqali delfinlarning ozod bo‘lish orzusiga chuqur berilishlari ta’sirchan ochib berilgan.

The children are at the loom of another world.
 Their braids are oiled and black, their dresses bright.
 Their assorted heights would make a melodious chime.
 They watch their flickering knots like television.

LITERARY CRITICISM

As the garden of Islam grows, the bench will be raised.

Then they will lace the dark-rose veins of the **tree-tops**. [10]

Ingliz shoiri Kerol Rumensning *“Carpet-weavers, Morocco”* (*“Gilam to‘quvchilari, Marokash”*) asari uchinchi dunyo mamlakati deb atalmish Afrika hayotidan olingan. Unda turli yoshdagi bolalarning umrini masjidlarda ishlatiladigan gilamlarni to‘qish, ularga islom bog‘i naqshini solish bilan o‘tkazganlari ifoda etilgan. Bu bilan shoir ularni G‘arb bolalari bilan qiyoslaydi. Ehtimol, Marokash hayotini sharhlovchilar buni uchinchi dunyodagi bolalarning majburiy mehnati tarzida talqin qilishar. Aslida bu bolalarning yoshlikdan chiroyli ishlar bilan band qilishni ham anglatadi. She‘rda bolalarning turli balandliklarning go‘zal tasvirini gilamlarda aks ettirishi ifodalangan. Lirik qahramon bundan hayratga tushganligini ko‘rish mumkin. Qolaversa, shoir qalamga olgan voqelik G‘arb dunyosiga yot. Demak, u turli mintaqalar va turli xalqlar hayotiga, madaniyatiga qiziqadi. Shu jihatdan Marokash musulmon bolalari hayotidan bir lavhani she‘rga soladi. She‘rning oltinchi misrasidagi *“the tree-tops”* so‘zlarida [t] tovushi takrorlangan. Bu turg‘un alliteratsiyani hosil qilgan.

Zamonaviy ingliz va o‘zbek she‘riyatidagi eng ko‘p qo‘llanadigan tovush takrorlaridan biri bu assonansdir. *Assonans* – bir xil yoki turdosh unli tovushlarning ketma-ket yoki taxminiy bo‘g‘inlardagi takrorlanishi. Bu alliteratsiyadan ko‘ra kamroq ko‘zga tashlanadi, lekin muhimroq rol o‘ynaydi va misraning ohangida ishtirok etadi [11,177]. Mazkur takror turi she‘riy matn ichiga o‘ziga xos bo‘yoq berish uchun qo‘llaniladi. Zamonaviy she‘riyat namunalarini ko‘zdan kechirgan paytda tovush takrorlarining ishlatilishi naqadar she‘rni jozibali va kitobxon uchun qiziqarli bo‘lishiga xizmat qilayotganini ko‘rishimiz mumkin. She‘riyatda assonansning vazifasi asosan ritm yaratish. O‘zbek adabiyotshunos olimi D.Quronov assonansga quyidagicha ta‘rif beradi: *“Assonans – (lot. assonare –uyg‘un jaranglash, fr. assonance – ohangdoshlik) – 1) she‘riy nutqda (nasrga nisbatan ham) bir xil unlilar takroriga asoslangan ifodaviylikni kuchaytiruvchi vosita, takrorning fonetik sathdagi xususiy ko‘rinishi; she‘rga xushohanglik baxsh etadi, musiqiylikni kuchaytiradi”* [2,37].

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
Not tomorrow, I’m dreaming till dusk turns into dawn – dust, must most, moot, moon, mown, down – with my hand on an open unread book, a bird that’s never flown...distantly the birdsong of the telephone.[12]	Onajonim , har kim oshin Oshab o‘tsin dunyoda, Garchi fano har kimsaga Azaliy bir qismatdir. Lekin ona tiriklik ham Bilsang, yarim hikmatdir. Tushlarimda, mayli boshim Silab turgin, onajon , Qolganlarga endi umr Tilab turgin, onajon [13,106].

Assonansning yaqqol ko‘rinishi zamonavi o‘zbek she‘riyatida ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Abdulla Oripov ijodidan olingan shoirning onasi Turdi Erdona Karvon qiziga bag‘ishlab yozgan *“Onajon”* she‘rida *“o”* tovushining takrori assonansni yuzaga keltirgan. She‘riy parchada unlilar takrori shoirning onasi xotirasini doimo yod olishi, onasi vafotidan keyingi iztirobli qalb kechinmalarini boshidan kechirganini ko‘rsatadi. She‘rni o‘qir ekansiz, har bir farzand hayotida onaning o‘rni beqiyos ekanligini, onalar hayotimiz mazmuni ekanligi chiroyli va ta’sirli tasvirlangan. She‘rning ta’sirli va jozibali chiqishida assonansning xizmati katta bo‘lgan. Kerol Enn Daffining *“A Dreaming Week”* (*“Orzular haftasi”*) asari Daffining she‘r yozishga bo‘lgan muhabbati bilan chambarchas bog‘liq. She‘r ichida melanxoliya ham bor. Ko‘pchilik Kerol Enn Daffi ham umri davomida bir *“hafta”* bo‘lib o‘tadigan munosabatlarni kuzatayotganini taxmin qilishadi. Bir tomondan, she‘r she‘riyatning go‘zalligini ta’kidlaydi, shu bilan birga munosabatlar olib kelishi mumkin bo‘lgan g‘amginlikka ishora qiladi. *“Dust, must”* bo‘ylab ichki qofiya she‘rni oldinga suradi. Assonansning *“dust, must”* bo‘ylab jiringlab takrorlanishi she‘rda uyg‘unlikni yaratadi.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
She brought her own; I never did. Hankies were presents from distant aunts in boxed sets, with transparent covers and script initials spelling <i>ponce</i> , the naffest	Ikki qumri bir-biriga mung‘ayar shoxlar aro, Ikkisi ham ikki hijron , ikki dildir, ikki zor [15,70].

LITERARY CRITICISM

Christmas gift you'd get – my brothers too, more often than not, got male ones: serious, and grey, and larger, like they had more sn ot. It was hankies that closed department stores, with headscarves, girdles, knitting wool and trouser presses; homely pr ops you'd never find today in malls.[14]	
--	--

Ros Barberning *“Material”* she’ri - bu ro‘molcha ramzi orqali o‘tmish va an’analar haqida gapiradigan qiziqarli va ta’sirchan she’r. She’r o‘quvchini qahramonning yoshligiga olib boradi va onasining ro‘molchalarga bo‘lgan mehrini ko‘rsatib beradi. Onasi ro‘molchalarni har doim o‘z oldida, odatda, yengida saqlab yurardi. Shoir o‘z farzandlarini o‘z yoshida qanday yashaganini o‘zi bilan taqqoslaydi va keyin onasining hayoti va o‘limini so‘nggi satrlarda eslaydi. She’rning uchinchi bandida kelgan *“snot”* va *“props”* so‘zlaridagi [o] tovushining takrorlanishi kuzatiladi. Bu she’rga o‘ziga xos ichki qofiyani baxsh etadi va ritmni kuchaytirib beradi. She’rni o‘qir ekansiz, assonansning she’rga o‘zgacha ritm bag‘ishlaganini ko‘rishimiz mumkin.

Yana bir tovush takrori konsonans – bu matn qatorida bir xil undosh tovushlarning so‘z boshida, o‘rtasida yoki oxirida takrorlanishi bo‘lib, ushbu poetik unsur nasrdan ko‘ra nazmda faol qo‘llaniladi. Konsonansning alliteratsiyadan farqli tomoni shundaki, alliteratsiya urg‘uli bo‘g‘indagi bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi hisoblansa, konsonans ketma-ket va undan ortiq so‘zlarda bir xil undosh tovushlarning takrorlanishidir. Konsonans foydali adabiy vositadir, ayniqsa, she’riyatda. Undosh tovushlarning takrorlanishi o‘quvchilar va tinglovchilar uchun dramatik eshitish effektini keltirib chiqarishi mumkin. Bu yozuvchilarga o‘z tinglovchilarining e’tiborini va diqqatini adabiy asar mavzusiga qaratish imkonini beradi [16].

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
If she were here she'd forget who she was, it's been so long, maybe n urse, a n anny, maybe a n un— Anon. [17]	Kelib qoldi bahor ham mana, Dalalarga sochib l olalar. Tepalikda quvonch-tantana – Chillak o‘ynab ketdi bolalar [18,50].

Kerol Enn Daffining *“Anon”* (*“Anon”*) asari tarixda unutilgan ayollarga e’tibor qaratish bilan boshlanadi, ehtimol ular o‘zlarining anonim ishlarini tan olmaydilar. Shoiraning *“Anon”* asari to‘rtta teng bo‘lmagan baytlarni o‘z ichiga oladi, har bir band 6 dan 9 qatorgacha o‘lchanadi. Tuzilishdagi tafvutlar nafaqat adabiyot va yozuv bilan bog‘liq, balki jamiyatda ayollar hayotining ko‘p jabhalarida qanday qadrlanmaganligini aks ettirishi mumkin. She’rning dastlabki ikki satrida shoira *“she”* (u-ayollarga nisbatan ishlatiladigan olmosh) olmoshini uch marta takrorlaydi. Ayol mavzusining uch marta takrorlanishi ayollarning doimiy mavjudligini ko‘rsatadi. Shoira bu uslub orqali ularning tarixda mavjudligini ifodalaydi. Misralar osha esa [n] tovushining konsonans bo‘lib kelganini uchratamiz. Shoir Usmon Azimning *“Bolalikning so‘nggi kunlari”* she’rida *l* undosh tovushi so‘zlar boshida, o‘rtasida va oxirida kelib, konsonansni hosil qilgan va o‘zgartiruv figurasi bo‘lgan inversiya bilan uyg‘unlashib kelgan. She’r qahramoni bolalikdan o‘smirlikka o‘tayotgan bolaning o‘y-xayollari, orzu-umidlari va ruhiy kechinmalari bayon etilgan. She’rning ta’sirchanligini va ifodaviyligini kuchaytirishda konsonansning mohirona qo‘llanilishi yuqori darajada xizmat qilgan.

<i>Ingliz tilida</i>	<i>O‘zbek tilida</i>
Whether or not shadows are of the s ubstance such is the expectation I can wait to surprise my vision as a wind enters the valley: sudden and silent [19]	B xshi bobongizni bilmaysiz ammo, B u ayyor o‘yinda sizlarni yutdim! Menga berolmaysiz hech qanday b aho – Oyoqyalang bo‘lib dunyodan o‘tdim... [18,44]

Jeffri Xillning yuqoridagi she'rida [r] va [s] tovushlari konsonans effektini yaratish uchun ishlatgan. O'quvchilarni she'r mazmuniga ko'proq e'tibor qaratish uchun [s] tovushi ko'proq seziladi, chunki [s] tovushini o'qish davomida bir necha marta pauza qiladi. Zamonaviy o'zbek shoiri Usmon Azimning yuqoridagi "Mamamrayim baxshining bir davrada aytgani" she'riy parchasida ishlatilgan "Baxshi", "bilmaysiz", "Bu", "berolmaysiz", "baho", "bo'lib" so'zlarida b tovushi konsonansni hosil qilgan. Usmon Azim mazkur she'rida Mamamrayim baxshining etikdo'z bolalarning kishilarning boy va kambag'alligiga qarab, ularga bo'lgan muomalasi tilga olinishida shoir mohirona ravishda konsonansni qo'llaydi. Tovush takrorining ishlatilishi she'r ritmini kuchaytirib bergan.

Xulosa va takliflar. Tovush takrorlari qatnashgan misollardan quyidagicha xulosaga kelishimiz mumkin:

Birinchidan, zamonaviy ingliz she'riyati namunalarida alliteratsiyaning ikki xil turg'un va kesishgan shakli uchraydi. Zamonaviy o'zbek shoirlari ijodida ham alliteratsiyaning faolligi kuzatiladi. Alliteratsiya she'rning ifodaviyligi va musiqiyligini oshirishni ta'min etadi. Habib Sa'dulla ijodida affiksial, ya'ni qo'shimchalar alliteratsiyasining qo'llanilishi so'z va jummalarni bir-biriga bog'lash vazifasini bajargan.

Ikkinchidan, assonans zamonaviy ingliz she'riyatida alliteratsiyadan kamroq qo'llaniladi, ammo u muhimroq rol o'ynab, misra ohangining jozibali bo'lishida ishtirok etadi. O'zbek she'rlarida esa assonansning ichki qofiya va ritmi kuchaytirishga xizmat qilganligi kuzatildi.

Uchinchidan, konsonans nasrdan ko'ra she'riyatda ancha muhim poetik figura hisoblanadi. Bu unsur ingliz she'rlarida kitobxonning e'tibori va diqqatini tortsa, zamonaviy o'zbek she'rlarida she'r tuzilishi va jarangdorligiga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Boulton M. *The Anatomy of Poetry*. Routledge & Kegan Paul, 1953. 1982. –P.68.
2. Куронов Д., Мамажонов З., Шералиева М. *Адабиётшунослик лугати*. – Тошкент: Академнашр, 2013. –Б.26,177.
3. <https://poemanalysis.com/jackie-kay/darling>
4. Саъдулла Ҳ. *Танланган асарлар. II жилд*. – Т.: Шарқ, 2002. –Б. 43,71,106.
5. <http://www.poemhunter.com/poem/divorce-61/>
6. Duffy C. A. *The World's Wife Collection*. –P.9,28,31.
7. Саъдулла Ҳ. *Танланган асарлар. I- жилд*. –Т.: Шарқ, 2002. –Б. 430, 38,56,134,37.
8. <http://margaret-cooter.blogspot.com/2016/04/poetry-thursday-bees-by-carol-ann-duffy.html>
9. <https://englishsummary.com/lesson/the-dolphins-poem-summary-and-analysis-isc/>
10. <https://literarydevices.net/carpet-weavers-morocco/>
11. Connell F.M. *A Textbook for the Study of the Poetry*. Norwood Press, U.S.A.1913. –P.177.
12. Duffy C. A. "A Dreaming Week". <http://a-poem-a-day-project.blogspot.com/2018/06/a-dreaming-week.html>
13. Орипов А. *Танланган асарлар. I-жилд. Шеърлар ва достонлар*. –Т.: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат наириёти, 2000. –Б.106.
14. Barber R. "Material". <https://harton-tc.co.uk/wp-content/uploads/custom-import-v2/12062018090124.pdf>
15. Саййид С. *Дил фасли. Шеърлар*. –Тошкент: Ўзбекистон, 2007. –Б.70.
16. <https://literarydevices.net/consonance/>
17. Duffy C. A. "Anon". <https://genius.com/Carol-ann-duffy-anon-annotated>
18. Азим У. *Сайланма. Шеърлар*. –Тошкент: Шарқ наириёт-матбаа концерни, 1995. –Б.50,44.
19. Hill G. *On Seeing the Wind at Hope Mansell*. <https://www.poetryfoundation.org/poetrymagazine/poems/48432/on-seeing-the-wind-at-hope-mansell>

MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARIDA ILOHIY MOTIVLAR VA RIVOYATLARNING QO'LLANILISH TAMOYILLARI

Muxtorova Umida Tolib qizi,
Qarshi davlat universiteti mustaqil tadqiqotchi
muxtorovaumida06@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek milliy adabiyotidagi ilohiy-irfoniy g'oyalarning, motiv va rivoyatlarning badiiy sintezi o'rganildi. Sharq adabiyotida mavjud bo'lgan diniy-tasavvufiy tushunchalar bilan badiiy adabiyotning o'zaro uzviy aloqadorligi, Qur'oni karim va hadisi sharifning ta'siri hamda ahamiyati, Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Yusuf xos Hojib hamda Navoiy asarlaridagi barcha ilohiy-irfoniy g'oyalar dalillar bilan solishtirilgan. Shuningdek, Sharq adabiyotidagi ilohiy-, diniy motivlar, mifologiyadan foydalanish usullari bilan bog'liq yo'nalishlar ilmiy asoslangan.

Kalit so'zlar: Qur'oni karim, Islom dini, Hamidulla Karomatov, Iloh-yirfoniy g'oyalar, Yusuf Xos Hojib, "Qutadg'u bilig", "Hikmatlar", Ahmad Yassaviy, "Xamsa".

ПРИНЦИПЫ ПРИМЕНЕНИЯ БОЖЕСТВЕННЫХ МОТИВОВ И ПОВЕСТВОВАНИЙ В ОБРАЗАХ КЛАССИЧЕСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ

Аннотация. В данной статье рассказывается о синтезе божественных идей, мотивов и повествований в узбекской национальной литературе. С религиозными и мистическими концепциями, присутствующими в восточной литературе, неразрывной взаимосвязью художественной литературы, влиянием и значением Корана Карима и хадиси Шарифа, все божественные идеи в произведениях Ахмада Яссави, Ахмада Югнаки, Юсуфа Хос Хаджиба и Навои были сопоставлены с доказательствами. Также научно обоснованы направления в восточной литературе, связанные с божественными, религиозными мотивами, методами использования мифологии.

Ключевые слова: священный Коран, ислам, Хамидулла Кароматов, божественные идеи, Юсуф Хос Хаджиб, "Кутадгу билег", "Наставления", Ахмад Яссави, "Хамса".

PRINCIPLES OF APPLICATION OF DIVINE MOTIVES AND NARRATIVES IN THE SAMPLES OF CLASSICAL LITERATURE

Abstract. In this article written about synthesis of divine-Iranian ideas, motifs and narratives in Uzbek national literature. With the religious and mystical concepts present in Eastern literature, the inextricable relationship of fiction, the influence and significance of the Holy Quran and hadisi Sharif, all the divine-Iranian ideas in the works of Ahmad Yassawi, Ahmad Yugnaki, Yusuf Khos Hajib and Navoi were compared with the evidence. Also, the directions in Eastern literature associated with divine -, religious motives, methods of using mythology are scientifically based.

Keywords: Holy Quran, Islam, Hamidulla Karomatov, Divine-Iranian ideas, Yusuf Khos Hajib, "Qutadgü bilig", "Proverbs", Ahmad Yassawi, "Khamsa".

Kirish. Sharq adabiyoti tarixida diniy-tasavvufiy tushunchalar bilan badiiy adabiyotning integratsiyalashuvi, ya'ni Qur'oni karim va hadisi sharif ta'siri natijasida umuminsoniy g'oyalar va axloqiy konsepsiyalar aks etgan turli xil janrdagi asarlar mavjud.

"Bu olamning kaliti – Islom dini ruknlari va Qur'oni karim kalomi. Qur'oniy mavzularning jahon va xususan, o'zbek adabiyotiga singib o'tishi faqat diniy nuqtayi nazardangina ibratli bo'lib qolmay, balki, Sharq adabiyotining biz uchun mavhum qirralarini oydinlashtirib, turli adabiy mavzularning sarchashmalarini ochgan va hozirgi o'zbek adabiyotining islom adabiyoti bilan shajaraviy, moziydan uzilmas aloqalarini tiklashga ham madad bergan bo'lardi" [1; 3].

Mavzuning dolzarbligi. O'zbek xalqining bir necha asrlik ma'naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o'zida jamlagan islom madaniyatini tiklash, jamiyatning diniy asoslari, axloqiy qadriyatlarini anglash, milliy g'urur, madaniy-tarixiy yagonalikka ega bo'lish yo'lidagi eng muhim vazifalardan biridir. Hamma davrlarda ham har qanday milliy adabiyot din va ilohiyotga doimo kuchli ehtiyoj sezgan va undan oziqlashib kelgan.

“Jamiyatning diniy-ruhiy asoslarini, xalqimizning o‘n to‘rt asrlik ma‘naviy-axloqiy yuksalish tajribasini o‘zida jamlagan islom madaniyatini tiklash o‘z taqdirini o‘zi belgilash, tarixiy xotira, milliy g‘urur va madaniy-tarixiy yagonalikka ega bo‘lish yo‘lidagi eng muhim vazifalardan biridir. Qolaversa, har qanday milliy adabiyot dinning ruhoniyyatiga doimo kuchli ehtiyoj sezadi, undan oziqlanadi” [2; 15].

Adabiyotlar tahlili. Shu o‘rinda ta‘kidlash joizki, Adabiyotshunos olim Hamidulla Karomatovning “Qur‘on va o‘zbek adabiyoti” risolasi va Olim Davlatovning “Alisher Navoiy she‘riyatida Qur‘on oyatlari va hadislarning badiiy talqini” mavzusidagi tadqiqot ishi bu borada amalga oshirilgan asosiy tadqiqotlardan biridir. Hamidulla Karomatov ushbu tadqiqotda Qur‘oni karimning o‘zbek adabiyotiga, jumladan, Abu Ali ibn Sino she‘riyatidan tortib hazrat Alisher Navoiy ijodiga qadar ta‘sirini o‘rganib, tahlil qiladi va bu haqda olimning o‘zi “Qur‘on mavzulari islom dinini qabul etgan xalqlar adabiyotiga singib, mahalliy diniy va adabiy aqida-yu an‘analar bilan uzviy ravishda bog‘landi. Islom dini va mahalliy urf-odatlar to‘qimasi asosida o‘zbek adabiyoti va ilmning shoh asarlari yaratildi” [3; 120], – deb yozadi.

Ilohiy-irfoniy motivlar ustuvor bo‘lgan mumtoz asarlarning ilk namunasi sifatida XI asrda yaratilgan Yusuf Xos Hojibning ilk davlatchilik tizimlarini o‘zida mujassam etgan “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) asarini ta‘kidlab o‘tishimiz joizdir. Asarning “Qutadg‘u bilig” (“Saodatga yo‘llovchi bilim”) tarzida nomlanishidan uning saodatga eltuvchi yagona kitob, ya‘ni Qur‘oni karimga tayanib yozilganligini bilishimiz mumkin. Turkiy xalqlarning ushbu ko‘hna asar matnida biz islomiy mavzular va qur‘oniy iboralarga ko‘p bora duch kelamiz. Asar Qur‘ondagi suralarning avvali hisoblanmish basmala (“Bismillahir-r-rahmoni-r-rohim”) Yaratganga hamd-u sanolar (nasriy bitilgan) bilan boshlanadi.

Asarning ilk misralariyoq Qur‘on oyatlarining mazmuni bilan oziqlangan. Misralar mazmuni Muqaddas kitobning dastlabki “ochuvchi” ma‘nosini beruvchi “Fotiha” surasidagi oyatlarga ishora qiladi. Ya‘ni Yaratganning yakkayu-yagona ekanligi, barcha sifat va maqtovlar yagona zot ekanligiga ishora qiladi – “Alhamdu lillahi robbil a‘lamiyin” (“Hamd-u sano barcha olamlarning Papvardigori bo‘lmish Olloh uchundir”) [4; 17-34]. Shuningdek, misralarda iyhom san‘ati asosida Yaratgan Zotning bir necha ismlari keltiriladi.

Qodir bir xudo barchadan ustundir,

Talay hamd-u sanolar ungagina sazodir.

Ulug‘lik sohibi, qodir, zuljalol,

Yaratuvchi, bino qiluvchi hamda qodir kamol [5; 52].

“Qutadg‘u bilig” asarining “Payg‘ambar alayhissalom fazilatlar borasida”, “Payg‘ambar sahobalarining, rizvonollohi alayhim, fazillari borasida” kabi fasllarning nomlanishi asarda Qur‘oni karim va Hadisi shariflarning ta‘sirini qay darajada ekanligi belgilab beradi. Muallif Tangri taoloni har ishda e‘tirof etish, zikr qilish hamda shariat va ma‘rifat yo‘lini bir lahza bo‘lsa-da, unutmazlikka chorlaydi.

Chuqur ma‘noli hikmatlari bilan xalq orasida mashhur bo‘lgan Ahmad Yassaviyning “Hikmatlar” asarining asosini ham ilohiy-irfoniy motivlar tashkil qilganligi bois, shu turdagi asarlar sirasiga qo‘shish mumkin.

Ahmad Yassaviy ilk mutasavvuf o‘laroq o‘z hikmatlarida Allohni ko‘ngil bilan tanish va Uni so‘ngsiz muhabbat bilan sevish, mudom uning zikrida bo‘lish, farz va sunnat amallarni mukammal ado etish kabi g‘oyalarini targ‘ib qildi. Shuningdek, inson nafsdan poklanib, ruh tarbiyasi bilan komillikka erishishi va Yaratganga yaqinlashishi tasavvufning, islom dinining bosh g‘oyasi bo‘lganidek, Ahmad Yassaviy hikmatlarining ham asosidir.

Nafsing sani oxir damda gado qilg‘oy,

Din uyini g‘orat qilib ado qilg‘oy.

O‘lor vaqtda iymoningdan judo qilg‘oy,

Oqil ersang nafs baddin bo‘lg‘il bezor [6; 97].

Shoir ta‘kidicha, o‘z holiga qo‘yilgan nafs odamni kundan kunga to‘g‘rilikdan ozdiradi, rasvoyi gumroh qilib, shayton bilan hamroh qiladi. Agarki nafsga qarshi kurashib, nafsning bo‘yni qayrilmas ekan, so‘nggi damda “O‘lor vaqtda iymoningdan judo qilg‘oy” deya ogohlantiradi, Ahmad Yassaviy hikmatlarining katta qismida nafs va uning oqibatlari va uni yengish choralari haqida gapiriladi.

Xudovandi Karim suygan bandalariga ilohiy quvvatni, fikr va tasavvur imkoniyatini ham o‘zi beradi. Valiy shoir Xo‘ja Ahmad Yassaviy hazratlari yozadiki:

Subhon azim bandasiga lutf aylasa,

Ichi yorib, tashi kuyib bir yon bo‘lur.

Pir etagin tutib oshiq yo‘lga kirs

Haqni izlab ikki ko‘zi giryon bo‘lur [7; 152].

O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarining bosh fazilati bu ilohiy olam g'oyalari, islomiy ma'rifat targ'ibi, Qur'on va Hadis hikmatlarini hayotga tadbiiq etish maqsad-muddaolari bilan bevosita bog'liq bo'lgan. Tajovuzkor ateistik mafkura zug'umi bilan A.Yassaviy, S.Boqirg'oni, S.Olloyor kabi mutasavvif shoirlar ijodini o'rganish, asarlaridan bahramand bo'lish yo'li tamoman berkitib qo'yildi. "Hamsa", "Boburnoma" singari monumental asarlardan Qur'oniy o'rinlar, Olloh va payg'ambarga ixlos satrlari zulmkor kommunistlar tazyiqi asosida munofiqlik bilan qisqartirib nashr etildi.

Hali go'daklik chog'idayoq Qur'oni Karimni, F.Attorning yuksak ilohiy islomiy nur bilan bezangan "Mantiq ut tayr" asarini yod olgan Navoiyning barcha yaratmalarida ilohiy olam masalalari salmoqli e'tiqod bilan o'z aksini topdi.

"Farhod va Shirin" dostonidagi muhim ijobiy obrazlardan biri olim Suhayldir. Rivoyatga binoan, Suhayl 500 yil umr ko'rgan, g'orda maskan tutgan "zamonasining Suqrotidir". Xalq ertaklaridek fantastik tarzda tasvir etilgan bu obrazning zamirida realistik haqiqat, maqsad bor. Ma'lumki, Navoiy ilm-fanni yuksak qadrlar, uning kuch-qudratiga katta baho berar edi. Uningcha, turli xil mushkulotlarni olimlarsiz hal etish mumkin emas. Davlat arboblari har bir masalada olimlar bilan kengashishlari, ularga tayanishlari kerak. Suhayl ham shunday olimlardan. U maslahatga kelgan hoqon va Farhodga "kelajakning kaliti"ni topshiradi. Uning ko'rsatmalari asosida Farhod Iskandar tilsimini ochadi, ajdarni o'ldiradi. Ahramanni yengadi va Chinga qaytib, ko'zguda Shirinni, o'z kelajagini ko'radi. Navoiy ilohiy nur egasi bo'lgan Farhodni xalqona rivoyatlar og'ushida tasvirlab, asarning qiziqarlilik mohiyatini hosil qila olgan.

"Farhod va Shirin" xalq orasida keng tarqalgan asarlardandir. Uning afsona va rivoyat, ertak va doston variantlari ham mavjud. Bular syujeti va kompozitsiyasi jihatidan bir biridan farq qiladi. Lekin g'oyaviy mazmuni bilan o'zaro juda yaqin turadi. Suv uchun, xalqning osoyishtaligi va farovonligi uchun kurash, samimiy sevgi va sadoqat "Farhod va Shirin" variantlarining asosiy mohiyati va leytmotivini tashkil etadi. Ularning ko'pchiligida mehnatkash va ijodkor Farhod zolim va ayyor Xisravga qarshi qo'yiladi.

O'zbek xalq ertaklaridan birida hikoya qilinishicha, Farhod bir kambag'alning o'g'li ekan. Otasi o'lib, unga bir ketmon, bir sandiq meros qolibdi. Farhod sandiqni ochib qarasa, unda bir ko'zgu bor ekan. Ko'zguna qarab go'zal bir qizni ko'rbdi va behush bo'lib yiqilibdi. O'rtog'i Shoko'r kelib, uni o'ziga keltiribdi. Farhod va Shoko'r bu go'zal qizni izlab yo'lga tushishibdi, ular juda ko'p yurib, oxiri Bekobodga kelibdilar, Bekobod xarob bir joy ekan: bu yerning aholisi mashaqqat chekib, tog' tosh kesib, Sirdaryo suvini cho'lga oqizish taraddudida ekan. Farhod otasidan qolgan ketmon bilan ishga tushib, mo'jizalar ko'rsatibdi. Farhodning ovozi Bekobod hukmdori Gulchehra va uning jiyani Shiringa borib yetibdi. Farhod ko'zguda ko'rgan go'zalning o'zini ko'ribdi. Farhod sharafiga ziyofat beribdilar.

"Sab'ayi sayyor" dostoni voqealariga ko'ra, ovda rassom Moniy uchrashib, Diloromning suratini ko'rgan Bahrom unga oshiqi beqaror bo'lib qoladi. Bahrom hoqondan oladigan bir yillik xirojini Xitoy savdogariga to'lab, Diloromning visoliga erishadi. Bahrom Diloromni butun qalbi bilan sevadi. Biroq u shohlik bilan oshiqlikni uyg'unlashtira olmaydi.

Shunday qilib, aysh-ishrat va xudbinlik shoh Bahromning ijobiy xislatlarini yengib boradi. Bu, hatto, oshiq Bahromga ham salbiy ta'sir etadi. U xudbinligi tufayli ovda sevikli yori Diloromni cho'l biyobonga, o'lim qa'riga tashlab ketadi. Biroq sevgi tug'yoni tezda g'alaba qiladi. Bahrom Diloromni izlaydi, undan darak topolmaydi. Hijron azobi uning yurak-bag'rini ezadi, ayonlar va hakimlarning tadbirlari ham kor qilmadi. U o'ziga ibrat bo'la oladigan Suhayl, Axil, Mas'ud, Juna va Farruh kabi ajoyib kishilarning sarguzashti, olijanob fazilati, xislati bilan tanishadi. Bahrom ularda ibrat olishi kerak edi. Biroq u shunday qilmaydi. Diloromning visoliga ikkinchi marta muyassar bo'lgandan keyin Bahrom yana aysh-ishratga, ovga berilib ketadi. U dardu illatga giriftor bo'lgan edi. Bunday kishi davlat boshida ortiq qolmasligi kerak. Birinchi jazo (Diloromdan judolik)dan tegishli xulosa chiqara olmagan Bahromni endi halokatga mahkum etish kerak edi. Bahrom saroy ahli, qo'shin va Dilorom bilan katta ovga chiqadi. Lak-lak hayvonlar, qushlar qirib tashlanadi, qon ariq bo'lib oqadi. Bu ovloq bir vaqtlar botqoq yer ekan. Ko'p qon to'qilishi va qattiq yomg'ir yog'ishi bilan yerning ustki qatlami yumshab, botqoqlik ochiladi. Natijada Bahromni ham, uning hamrohlarini ham, xalq ta'biri bilan aytganda, yer yutadi. Bu bilan Navoiy Bahromning halokatini yanada dahshatliroq va haqqoniyroq qilib tasvirlaydi.

Navoiy "Xamsa"sining so'nggi dostoni "Saddi Iskandariy" ham rivoyatlar, ertaklarning ilohiy-ma'rifiy g'oyalar bilan bog'langan yaratmalar.

Iskandarning yarim tarixiy, yarim afsonaviy sarguzashtlarini hikoya qiluvchi rivoyatlar bilan birga, Iskandar haqida kichik-kichik ibratli hikoyalar ham vujudga keladi. Ularda Iskandar Arastuning maslahati bilan ish tutgan donishmand, xalqparvar, olijanob kishi sifatida tasvirlanadi. Bunday hikoyalardan ba'zi birlari, masalan, "Iskandar va Devona", "Iskandar va hoqon" va boshqalar Iskandar obrazi yaratilgan

dostonlarda ham keltiriladi. Iskandar obrazi lirik asarlarda ham o'z ifodasini topa boshlaydi. Turkiy xalqlarda ham Iskandar haqida turli-tuman afsona va rivoyatlar paydo bo'la boradi. Mashhur olim Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asaridagi ayrim qayd va izohlar shundan dalolat beradi. Mahmud Qoshg'ariy xalq etimologiyasiga asoslanib, ayrim geografik nomlar va so'zlarning kelib chiqishini Iskandar nomi bilan bog'lab izohlaydi, u haqda yaratilgan ba'zi bir afsona va rivoyatlarning (yoki parchalarning) qisqacha mazmunini bayon etadi.

O'zbek adabiy yodgorliklaridan Rabg'uziyning "Qissasul anbiyo" asarida (XIV asr) Iskandar haqidagi afsona va rivoyatlar ancha keng o'rin tutadi. Rabg'uziy Iskandarning urushlardagi yurishlari, sad(devor) barpo etishi, obi hayot izlab zulmatga kirishi va boshqalarni hikoya qiladi. U qadimiy afsona va rivoyatlardan ham, "Qur'on"dan ham foydalanadi, Iskandarni islomning homiysi qilib ko'rsatishga alohida e'tibor beradi. O'zbek xalqi orasida ham, boshqa xalqlarda bo'lgani kabi, Iskandar haqidagi afsona va rivoyatlar hozirga qadar yashab kelmoqda. Ularda Iskandar yo zolim podsho yoki odil podsho sifatida tasvirlanadi. Masalan, Xorazm xalq ertagi "Iskandari Zulqarnayn"da Iskandar odil podsho va lashkarboshi sifatida berilib, uning Doron (Doro)ga qarshi jangi va g'alabasi hikoya qilinadi. "Shohli Iskandar" nomli xalq ertagida esa u zolim va qotil sifatida tasvirlangan.

Anglaymizki, Navoiyga qadar Iskandar obrazi uch yo'nalishda: shoh, olim va payg'ambar sifatida talqin qilinardi. Navoiy Iskandarni shoh va olim sifatida talqin etdi hamda salaflaridan (Nizomiydan ham) farqli o'laroq, shoh va olim obrazini bir biriga o'zviy bog'ladi; uning yaxshi fazilatlarini bo'rttirib tasvirladi. U Iskandarning olimlarga munosabati, ular bilan hamkorligiga katta e'tibor va o'rin berdi. Navoiy Iskandarning sarguzashtlariga doir voqealar doirasini belgilab, chegaralab oldi. Garchi u Iskandarning o'nlab o'lkalarga yurish qilishini, afsonaviy sarguzashtlarini, dengiz sayohati va obi hayot izlashini dostonning XXIII bobida yarim tarixiy, yarim afsonaviy ma'lumotlar hamda badiiy yodgorliklar asosida sanab o'tsa, ham, Iskandarning hayoti va faoliyati silsilasini bir necha yirik epizod asosida to'zadi.

Navoiy dostonining qahramoni Iskandar insoniyatga zarar keltiruvchi har qanday kuchlarga qarshi kurashadi. U vataniga qaytayotib, mag'rib o'lkasida it kattaligida bo'lgan chumolisimon hayvonlarga duch keladi. Ular odamxo'r vahshiylarning posbonlari ekan. Iskandar qo'shini bilan vahshiylar o'rtasida jang boshlanadi. Vahshiylar boshlig'i yakkama-yakka jangga kishi talab qiladi; Iskandar yigitlari maydonga tushishga botinolmaydilar. Shunda Chin hoqoni tortiq qilgan kanizak erkakcha libos kiyib, betiga niqob tashlagan holda maydonga kiradi va vahshiyni yengadi. Shundan keyin Iskandar qo'shini Karvon o'lkasiga keladi. O'lka nihoyatda xarob bo'lib, aholi vahshiy ya'juj- ma'jujlarning yag'mosidan musibat chekar ekan. Iskandar Qof tog'i etagida yashovchi ya'juj va ma'jujlarning yo'lini to'sib sad devor qurdiradi. Bu devor adolat va osoyishtalik devori edi. Uni bino qilishda turli mamlakatlarning xalqlari, jumladan, rumliklar, movarounnahrliklar, forslar, xitoylar, hindular, ruslar, fransuzlar va boshqalar qatnashadi. Xalqlar do'stligi va ittifoqliligi insoniyatning ashadiy dushmani timsoli bo'lgan ya'juj va ma'jujlarni qirib tashlaydi.

Yana bir valiy shoir So'fi Olloyor ham komil musulmon sifatida Parvardigorning beaded qudratini ixlos ila bayon qilgan:

Xudovandiki birdur beshaku rayb
Ravo yo'qdir anga o'rtoq ila ayb.
Aning farmonindin hech kim qutulmas,
Tovonadur hamisha o'zga bo'lmas.
Erur ul barcha olamning xudosi,
Aning yo'q ibtidosi, intihosi [8; 8].

So'fi Olloyor o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidagi diniy-tasavvufiy qarashlarni, ilohiy-irfoniy motivlarni Ahmad Yassaviy singari tashviqiy yo'sinda davom ettirgan bir qancha islomiy masnaviyalar muallifidir. Mutasavvufning ilohiy-irfoniy motivlar asosida yaratilgan "Sabot ul-ojizin" asari Qur'oni karimdagi oyat va hadislarning she'riy talqini deyish mumkin. Qur'oni karimni, Hadisi sharif va fiqh ilmini yuksak darajada o'rganib musulmonlarning hidoyat yo'liga mash'ala tutdi.

"Sabot ul-ojizin" asarida "Taroziyu qiyomat bayoni" haqida quyidagicha sharhlar keltiriladi.

Tarozi haq erur ro'zi qiyomat,
Aning sidqig'a nozil bo'ldi oyat.
Bilur Tangri agarchi holimizni,
Tarozug'a solur a'molimizni.
Qilur ogoh qulin qilmishlariga,
Yetushmas aql Egamning qilmishlarig'a.
Tarozi borig'a irqorimiz bor,

Nechuk erkanig'a ne korimiz bor? [9; 6]

So'fi Olloyor qiyomat kuni tarozi borligini haqiqat ekanligini uqtirmoq maqsadida bu haqida Qur'oni karimda oyat borligini aytadi. "Mufasssirlar aytmishlarki, me'zon Mikoil farishtasining qo'lida bo'lur, Bir pallasi – Nurdan, ikkinchisi – qorong'ulikdan. Kattaligi Yer bilan ko'k orasicha" [10; 256]. Shoir aytganidek, Qiyomat tarozi haqida "A'rof" surasining 8-oyatida xabar beriladi. Mashrab ijodi, yuqoridagi shoirlardan farqli ravishda, xalqonaligi, ilohiy-irfoniy motivlar tadrijida esa adabiy-badiiy qoliplardan uzoqlashganini, shu bilan bir qatorda, she'riyatning bir qadar shaxsiylashganini kuzatish mumkin. Ammo mana shunday shaxsiylashish obyektiv ibtido tarzida kitobxonga ta'sir qilib boraveradi. Bunday qarashlarni olima Zebo Yaxshiyeva ta'biri bilan aytganda, "badiiy voqelikning "obyektiv ibtido" deyilishida shartlilik bor, chunki u reallikdan olingan oddiygina nusxa emas, balki voqelikning ijodkor ko'zi bilan ko'rilgan, idrok etilgan, baholangan va ijodiy qayta ishlangan aksidir [11,21].

Xulosa. Mashrab yaratgan she'rlar qanchalik dardli bo'lmasin, vazni sho'x, ohangi diltortar. U yaratgan tasavvufiy, ilohiy-irfoniy motivdagi she'rlar shoir ishqining jilvalari yanglig' akslanadi.

O'zbek mumtoz adabiyotida aks etgan ilohiy-irfoniy g'oyalarning ilmiy tadqiqi va badiiy talqiniga Hamidulla Karomatov, Shuhrat Sirojiddinov, Rashid Zohidov, Akramjon Dehqonov, Ma'rifat Rajabova, Olim Davlatov, kabi olimlar mumtoz adabiyot namunalarini asosida yondashganlar. XX asr o'zbek adiblari o'z uslubiy tadqiqotlarida Sharq mumtoz adabiyoti durdonalari va jahon mumtoz adiblari tajribasidan kelib chiqib, diniy-ma'rifiy, ilohiy-irfoniy motivlar badiiy sintez qilingan mifologik syujetli asarlar yozishga kirishdilar. Bu borada mifologik model an'anasini mumtoz adabiyotdan so'ng davom ettirgan Asqad Muxtor asarlari ahamiyatlidir. Istiqloq davri adabiyoti vaqillarining mifologik yaratmalari qariyb jahoniy jamiyatga molik yutuqlarga dadil yaqinlashib borayotganligi bilan ahamiyatlidir.

ADABIYOTLAR:

1. Karomatov H. *Qur'on va o'zbek adabiyoti*. – Toshkent: Fan, 1993. 3-bet
2. Davlatov O. *Alisher Navoiy she'riyatida Qur'on oyatlari va hadislarining badiiy talqini*. *Filol.fan.b.fals.dok.diss. avtoref...* – Samarqand, 2017, 15-bet
3. Karomatov H. *Qur'on va o'zbek adabiyoti*. – Toshkent: Fan, 1993, 120-bet
4. Shayx Alouddin Mansur. *Qur'oni karim. O'zbekcha izohli tarjima* – Toshkent: Cho'lpon, 2001. 17-34-betlar
5. Yusuf Xos Hojib. *Qutadg'u bilig*. – Toshkent. "FAN", 1971. 52-bet
6. Xoja Ahmad Yassaviy. *Devoni Hikmat*. – Toshkent. "Movaraunnahr", 2006. 97-bet.
7. Ahmad Yassaviy. *Hikmatlar*. Toshkent. G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1991, 152 bet. (Misollar shu nashrdan).
8. So'fi Olloyor. *Sabotul ojizin. Manzuma*. Toshkent. "Yozuvchi", 8 bet.
9. So'fi Olloyor. *Sabotul ojizin. Taroziyu qiyomat bayoni*. Toshkent. "Yozuvchi", 6- bet
10. "Risolai aziza" – "Sabotul ojiziyn" sharhi // *Tuzuvchi: B. Hasan*. – Toshkent. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashr, 2000. 66-bet (256-bet)
11. Yaxshiyeva Z. *Muhammad Alining "Ulug' saltanat" tetralogiyasida tarixiy voqelik va uning badiiy ifodasi*. *fil. fan. diss. Qarshi.2021,142 b.*

MAYA ANJELU ASARLARINING ADABIY TANQIDCHILAR TOMONIDAN TAHLIL QILINISHI

*Urazaliyeva Madina G'ofurovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti mustaqil tadqiqotchisi
O'zbekiston, Toshkent
madinaurazaliyeva4@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Afro-amerikalik yozuvchi Maya Anjeluning hayoti va ijodining turli tanqidchilar tomonidan o'rganilishi va tahlili yoritilgan. Maya Anjeluning "Angladim qafasdagi qush nolasin" asari bilan boshlanuvchi jami umumiy yettita romandandan iborat ulkan avtobiografik asarlari to'plamiga ham ta'rif berib o'tilgan. Adabiy tanqidchilar Maya Anjeluning avtobiografik romanini o'ziga xosligini bir necha o'ziga xos jihatlarini va ularning har biri muallif tomonidan alohida shaxsga bag'ishlov ekanligini ham qayd etib o'tganlar. Yozuvchining o'ziga xos she'riyatiga ham bir necha adabiy tanqidchilar nigohida maqolada to'xtalib o'tilgan.

Kalit so'zlar: avtobiografik roman, Afro-amerikalik yozuvchi, qafasdagi qush, tanqidiy asar, badiiy unsur, memuar asar, formalist, an'anaviy unsurlar, jazz adabiyoti, o'zlikni anglash, jasorat.

АНАЛИЗ РАБОТ МАЙИ АНЖЕЛУ ЛИТЕРАТУРНЫМИ КРИТИКАМИ

Аннотация. В этой статье даётся обзор анализа и изучения жизни Майи Анжелу в её произведениях различными критиками. Кроме того, описаны автобиографические сборники Майи Анжелу, которые начинаются словами "Я знаю, почему поёт птица в клетке" и содержат в общей сложности семь романов. Литературные критики подчёркивают, что автобиографический роман Майи Анжелу имеет свои уникальные особенности, и каждая из них является посвящением автора определённому человеку. Уникальный поэтический стиль писателя рассматривается также в соответствии с обзором литературных критиков.

Ключевые слова: автобиографический роман, афроамериканский писатель, птица в клетке, критический роман, буквальный элемент, мемуарное произведение, формалист, традиционные элементы, джазовая литература, самооценка, смелость.

ANALYSIS OF THE MAYA ANGELOU'S WORKS BY THE LITERAL CRITICS

Abstract. This paper gives an overview of the analysis and study of Maya Angelou's life in her works by various critics. In addition, Maya Angelou's autobiographical collections are described, which begins with "I know why the caged bird sings" and contains a total of seven novels. Literary critics emphasise that Maya Angelou's autobiographical novel has its own unique features, and each of them is the author's dedication to a certain person. The unique poetic style of the writer is also considered according to the review of literary critics.

Key words: autobiographic novel, Afro-american writer, caged bird, critical novel, literal element, memoir work, formalist, traditional elements, jazz literature, self-evaluation, courage.

Kirish. Maya Anjelou, asl ismi Marguerite Johnson bo'lib, 1928- yilda Amerikaning Missouri shtatida tug'ilgan. Oiladagi tinimsiz kelishmovchiliklar va bir joyda muqim turmaslik Anjelou hamda akasining tarbiyasida jarohatli izlarni qoldirgan. Anjelou uch yoshga to'lganda ota-onasi ajrashishdi va akasi bilan uni buvisinikiga Arkansasga, ya'ni dadasining onasi bilan yashashga jo'natishdi [1]. U ulg'aygan jamiyat o'sha davrda nochorlik va irqiy kamsitishlarni boshdan kechirayotgan edi. Biroq eng yomoni hali oldinda edi: yetti yoshida u onasining yaqin kishisi tomonidan zo'rlandi va buni hech kimga aytmaslikka majbur qilindi. 1940-yilga kelib, San Franciscoda hozirgi Maya Anjelou ismi bilan sahnada aktrisa va qo'shiqchi bo'lib o'z faoliyatini boshladi. 1960- yillarda Janubiy Xristian Yetakchi uyushmasining shimoliy bo'limida yetakchilik qila boshladi va Martin Luter King kabi yetakchilar bilan hamkorlik qildi. O'zining dastlabki avtobiografik romani "Angladim qafasdagi qushlar nolasin"ni 1970- yilda nashr ettirdi va xuddi shu yilda bir necha she'riy to'plamlarini ham chop ettirdi [2].

Maya Anjelou kitobxonlar orasida mashhur bo'la boshlaganda, u allaqachon g'ayrioddiy hayot tarziga ega edi. 1960- yillar boshida o'zining Ganadagi muqim uyini topguniga qadar, Anjelou Amerikaning turli shaharchalarida, G'arb, Janub, Shimoldagi turli shaharlarda, Yevropaning yotoqxonalarida hamda Shimoliy Afrika poytaxtida yashagan. Maya Anjelou 16 yoshida San Fransisco ko'chalarida xayriya mablag'larini yig'uvchi bo'lib yollangan birinchi qora tanli ayol edi, bu uning hayotidagi uzun birinchiliklarning boshlanishi edi- televidenyada video film namoyish etgan ilk qora tanli ayol, Prezident qasamyodida she'r o'qigan birinchi Afro-Amerikalik ayol edi. O'z hayot yo'lini topib olgunga qadar, Maya Anjelou oshpazlik, ofitsiantlik, raqqosalik, qo'shiqchilik, aktrisalik, jurnalistlik, boshqaruvchilik kabi faoliyat orqali kun kechirgan. Bundan ko'rinib turibdiki, Maya Anjelou ko'plab kasblarni muvaffaqiyatli egallab olgan. "Qafasdagi qush" ning yozilishi esa o'z hayotidagi g'aroyib sarguzashtlarini san'at darajasiga mohirona chiqarishni uddalaganini ko'rsatadi [3].

Tadqiqot obyekti va qo'llanilgan metodlar. Maya Anjelou shaxsiyatiga va mahoratiga to'xtovsiz shon-sharaflar aytilishi uning asarlarini ilmiy jihatdan tanqid qiluvchilarning ko'lami kamligi bilan bog'liq emas. Jahon tarixida eng sermahsul ijod qilgan va asarlari eng ko'p sotilgan Afro-Amerikalik yozuvchi sifatida Anjelou umri davomida 36 ta kitob chop ettirdi [4]. Natijada, Mary Anjelou ijodini asosan ijobiy tomondan yoritishga bag'ishlangan bir nechta tanqidiy asarlar yaratildi- Mary Jane Luptonning "Maya Angelou: Tanqidiy asar" (1998) va Dolly McPhersonning "Order Out of Chaos: Maya Angelouning avtobiografik asarlari" (1990) kabilar eng mashhurlaridir, ehtimol [5]. Chop etilishi bilan klassikaga aylangan "Angladim qafasdagi qushlar nolasin" nomli ilk avtobiografik asari dastlab Joanne Braxton tomonidan tahrirlanib, 1999da chop etilgan tanqidiy asarga mavzu bo'lgan bo'lsa, keyinchalik Mildred Mickle tomonidan qayta tahrirlanib, 2010 yilda qayta nashrdan chiqdi .

Kitobxonlarni ko'proq Maya Anjelouning jo'shqin hissiyotlari qiziqirsada, Anjelou hunarining ahamiyati xususida so'z yuritadi. Maya Anjelou: "Hunar o'rganish, tilning imkoniyatlarini anglash, tilni boshqara olish insonga odamlarni yig'latish, kuldirish, va hattoki, ularni jang qilishga boshlash imkonini beradi" deya izohlaydi. O'z navbatida, bunga erishish uchun so'z qudratini jilovlashni o'rganish zarur deydi Anjelou- "*Learning the craft, understanding what language can do, gaining control of the language, enables one to make people weep, make them laugh, even make them go to war,*" she explained. *To do so however, it was necessary to learn "how to harness the power of the word."* [6]. 18-19 asrda ham Afro-Amerikalik yozuvchilar keyinchalik adabiy asar deya tan olingan avtobiografik romanlar yozishgan, ammo asar g'oyasi san'at yok ijod bo'lmagan , balki ozodlik g'oyasi bo'lgan. Yigirmanchi asrning o'rtalariga kelib, roman nasriy janr sifatida mualliflarga badiiy ilhom berdi, Anjelou esa buni o'zgartirishga kirishdi.

Maya Anjelouning dastlabki ijod mahsuli "Angladim qafasdagi qushlar nolasin" bo'lib, u avtobiografik asar hisoblanadi. Anjelouning har doim ham bir tekis kechmagan hayoti ushbu asarning tug'ilishiga sabab bo'ldi. Asar chindan ham Anjelouning u ulg'aygan va doimiy kurashlardan iborat jamiyatdagi taqiqlarni yengishga qaratilgan kurashini tasvirlaydi. S. A. Smith Angelouning ushbu asariga yuksak baho bergan holda quyidagi fikrni aytib o'tadi:" Anjelou R.Wright kabi o'z asarini har bir inson qochishga urunadigan kishanlangan jamiyat tasvirini jajji bolakay nigohi bilan ochib berishdan boshlaydi" "*like Richard Wright, she opens with a primal childhood scene that brings into focus the nature of the imprisoning environment from which the self will seek escape*" [7]. Asardagi tasvirlardan Anjelouning favqulodda kuchli xarakterli shaxs ekanligini ko'rish mumkin. S. Cudjoe and M. H. Washington kabi tanqidchilar ta'kidlaganidek, Angelou asardagi epizodlarni Afro-Amerika dabiyotida keng tarqalgan mavzu hamda badiiy unsurlar bilan uyg'unlashtirgan. "Anjelou zulmga bo'yin egmay,uni yengan ruhiy-ma'naviy kuchni; so'z qudratiga erkinlik berishni; so'zlangan hamda yozilgan; o'ziga xoslik va hamjihatlik; musiqiy metaforalar, xristian diniga oid alluziyalari hamda hikmatli so'zlarni ifodalaydi"-

" *She represents spiritual strength that resists and overcomes oppression; the liberating power of words, both spoken and written; the relationship between the individual and the collective, and the use of biblical allusions as well as musical metaphors and quotations.*" [8]. Robert Evans o'zining Maya Anjelouga bag'ishlangan maqolasida quyidagi jumlar bilan yozuvchiga bo'lgan tanqidiy qarashlarini qolipga solgan holda izoh beradi: "formalism, ayol tahlilchi, an'anaviy va yangi tarixchi, Markist tahlilchi, Retseptiv poetika nazariyasi, strukturalizm va dekonstruksiya."- "*formalism, feminist analysis, traditional historicism and new historicism, Marxist analysis, reader response criticism, structuralism, and deconstruction.*" [9]. Maqolada yozuvchi Maya Anjelou o'z asarini yaratishda yagona yondashuvdan foydalanmaganini, balki yondashuvlarning turli-tumanligi asarga ko'rk qo'shganligini ta'kidlaydi. Anjelouning memuar asarining badiiy jihatdan go'zalligiga misollar keltirib, adabiy tanqidchilarni asarni yana ham mukammal tahlil etishga chaqiradi.

“Angladim qafasdagi qushlar nolasin” nomli asaridan soʻng, Maya Anjelou oʻzi va akasining buvisinikidan ketishini va undan soʻng yuz bergan voqealarni tasvirlovchi “Nomim ila toʻplaning” (*Gather Together in My Name*) deb nomlangan ikkinchi asarini ommaga taqdim etdi. A. Gottlieb ushbu asardan kelib chiqib, Anjelou ga nisbatan shunday munosabat bildiradi: “Anjelou ashula va haqiqat kabi yozadi “-“writes like a song, and like the truth” [10], yaʼni tanqidchi bu oʻrinda asarning ashula kabi yoqimli, haqiqat kabi oʻtkir va achchiqligini nazarda tutmoqda. Yana bir tanqidchi D.Grumbach ham ushbu asar haqida yozar ekan, quyidagilarni taʼkidlaydi: Maya Anjelou kuchli ishtiyoq sohibasi, oʻtkir, tabiiy, tassavvur olami boy, ruhan tetik va mukammallikga ega boʻlgan shaxs- “it is apparent that Angelou is keen, sharp, earthy, imaginative, lyrical, spiritually bold, and seems destined for distinction” (Grumbach, p 12) [11]. S.A Smithdan farqli oʻlaroq, Frank L. Phillips Maya Anjelou ijodini bitta qolipga solingan holda tahlil qilish notoʻgʻri ekanligini taʼkidlab, buni shunday izohlaydi Maya Anjelou Himes va R.Wright singari stilist emas- “Maya Angelou is not the stylist that Himes is, nor a Richard Wright” [12].

Maya Anjelouning ijodi juda ham serqirra boʻlib, buni uning uchinchi asari boʻlgan “Oʻyna, kuyla, Rojdestva kabi quvna” (*Singin’ and Swingin’ and Gettin’ Merry Like Christmas*) romaniga nisbatan bildirilgan koʻplab ijobiy tanqidlardan ham bilish mumkin. Xususan, J.Jordan bu romanni komik operaning fantastik va yorqin uslubi bilan chegaradoshligini taʼkidlab, bu asarni mutoala qilish oʻquvchiga baʼzan yoqimliday tuyulsa, baʼzida unday boʻlmasligini aytib oʻtadi: “frequently borders on a light and fantastical style of comic opera. . . .that is sometimes delightful reading, and sometimes not” [13]. Shuningdek, A.P.Nilsen ham ushbu asardagi sheʼriy jumlar, badiiy ohangdorlik haqida soʻz yuritib, uni Anjelou sheʼriyatining “ajoyib debochasi” sifatida tavsiflaydi: “this book might make an exciting introduction to Angelou’s poetry” [14]. McPhersonning fikriga koʻra Anjelouning “Oʻyna, kuyla, Rojdestva kabi quvna” (*Singin’ and Swingin’ and Gettin’ Merry Like Christmas*) romani uning avtobiografik asarlari orasida eng mashhurlaridan boʻlib, unda muallifning gullab yashnagan balogʻat davrining tasvirini koʻrish mumkin (McPherson, 80). Ushbu asar Afro-Amerikalik yozuvchi ayol hayotini ilk marotaba uchinchi kitobga qadar uzaytirilib yozilishi bilan ahamiyatlidir. Bu kitobda ham oldingi ikkita asarda uchratish mumkin boʻlgan mavzular yoritilgan boʻlsada, kitobxon yana ayolning ona sifatida duch kelishi mumkin boʻlgan-yurakni ezuvchi muammolarini ham uchratadi. Yaxshiroq hayot berish va boshpana umidida bolasini tark etishi, qaddini tik tutib, kuchli ayol sifatida oʻzini kashf etishi kitobxoniga ham kuch bagʻishlaydi, oʻz jasorati sabab ilhomlantiradi. Ushbu asarda aynan Marguerite Johnsonni maʼlum bir kasb-korga ega boʻlish maqsadida Maya Angelouga aylanishi tasvirlanadi. Boshqa koʻplab olimlar singari D. McPherson ham asarni oʻqish davomida oʻquvchi Maya Angelou siymosi bilan toʻqnash kelganda kulgu, azob, joʻshqinlik, insof kabi tushunchalar bilan toʻqnashishini, hayotni har tomonlama toʻla his etgan va oʻzligini yoʻqotmagan insonni anglashini taʼkidlab oʻtadi [15].

Maya Anjelouning toʻrtinchi romanining sarlavhasi shoir G.D.Johnsonning sheʼridan olingan boʻlib, “Ayol qalbi” (*The Heart of a Woman*) deb ataladi. A.D.Miller ushbu kitob Afrika va Afro-Amerika tarixining eng ajoyib davrlarini oʻz ichiga olgani bilan ahamiyali ekanligini taʼkidlaydi: “covers one of the most exciting periods in recent African and Afro-American history” [16]. Hagenning yozishicha asarda muallif hayot uchun kurash, oʻzlikni anglash va taʼlim olish kabi doimiy mavzularga sodiq qolgan holda, “Ayol qalbi”ning qahramonini mukammal inson masalasiga qaratadi-“Faithful to the ongoing themes of survival, sense of self, and continuing education, *The Heart of a Woman* moves its central figure to a point of full personhood.” [17]. Shuningdek, Maya Anjelou ushbu avtobiografik asarda oʻzining yaqinlari bilan munosabatlari va onalik davri xususida soʻzlab beradi. Bundan tashqari, asarda oʻgʻli Guyning halokatga uchrashi, ozodlik kurashchisi Vusumki Make bilan munosabatlari, Guyning Ghana oliygohi qoshidagi kollejga tahsil olishga roziligi tasvirlangan hayajonli sahnalar ham mavjud. Ona sifatida Anjelou oʻgʻli mustaqil boʻlganiga va oʻzi ham shaxsiy kasbiy faoliyatiga vaqt ajratishi mumkinligini anglab qalbida hotirjamlikni his etadi.

Maya Anjelouning beshinchi avtobiografik asari muallifning qanchalik oʻz oʻtmishi -Afrika bilan chambarchas boʻlganini tasvirlaydi va “Yaratganning barcha farzandlari sayohat qilishi zarur” (*All God’s Children Need Traveling Shoes*) deya nomlanadi. B.T. Christian asarni tasvirlar ekan, kitob Afro-Amerikalik ayolning oʻz ajdodlari makoniga qilgan sayohati sabab ruhlanishi va mulohaza yuritishi natijasida yozilgan deydi. Muallifning oʻzi ham Afrika va Amerika xalqining yashirin tarixiga koʻproq eʼtibor qaratilishi zaruriyatidan muhim hujjatlarga nazar solish deb ataydi. Shuningdek, B.T.Christian muallifning Afrikaga sayohati haqida fikr bildirar ekan, Anjelou oʻzini Afro-Amerikalik sifatida ulardan ajralib turishini aniq his etsada, bu sayohat ajdodlari yashab oʻtgan makon bilan uni yana bir bor mustahkam bogʻlanishini taʼkidlaydi [18].

Anjelouning so'nggi romani "Onam,men va onam" (*Mom & Me & Mom* (2013)) deb nomlanadi. Ushbu avtobiografik asar qolgan asarlariga nisbatan xotima o'rnida yozilgan bo'lib, Maya Anjelouning butun hayoti tasvirlanadi, shu jumladan, onasi Vivian Baxter bilan ayrilishidan to qayta birlashishi, Anjelouning ayollar va qora tanlilarning erkinligini yoqlab chiqqan ovoz sifatida ulg'ayishi, yozuvchi, ona, yetakchi sifatida bosib o'tgan yo'lini aks ettirgan voqealardan iborat. Asarning ahamiyatli jihati shundaki, muallif avtobiografiya negizida yana bir biografiyani mohirlik bilan so'zlab beradi, ya'ni onasining o'tmishini ham o'zining hayoti bilan birga yoritib o'tadi. Kitobxon asarni o'qir ekan, ayol kishining jasoratidan ruhlanadi, muhabbat hamda mehrning qanchalik muhim ahamiyat kasb etishini his etadi, biroq muallif ushbu asar ruhlantirish yoki maqtovlar uchun emas, balki onasiga bo'lgan muhabbatini ifodalash uchun yozilganligini ta'kidlaydi. Asarning kirish qismida muallif tomonidan yozilgan fikrlar ham sevgining qanchalik insonga kuch baxshida eta olishini, uni imkoni yo'q deb hisoblangan marralarni, cho'qqilarni zabt etishga turtki bo'la olishini va aynan shularni Anjelou boshidan kechirganini ko'rsatadi: "*Love heals. Heals and liberates. I use the word "love", not meaning sentimentality, but a condition so strong that it may be that which holds the stars in their heavenly positions and that which causes the blood to flow orderly in our veins. This book has been written to examine some of the ways love heals and helps a person to climb impossible heights and rise from immeasurable depths*" [19].

Olingan natijalar va ularning tahlili. Yuqoridagi asarlarga nazar solar ekanmiz, shuni aytish joizki, Maya Anjelou o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda hayot yo'lini ma'lum davrlarga bo'lib tasvirlaydi. Buning uchun an'anaviy avtobiografik asar shaklini yanada kengaytiradi va yozishning o'ziga xos usullaridan foydalanadi. Garchi Anjelouning hikoya qilish uslubi ko'pchilik tomonidan dastlab tanqid qilingan bo'lsada, muallif o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qotmaydi va huddi shu uslubda davom etadi. Uning avtobiografik asarlari turli sabablarga ko'ra o'ziga xos hisoblanadi. Masalan, muallifning hayoti faqatgina bitta kitobga "qoliplanmaydi", balki yettita asar shaklida qismlarga bo'lingan holda yoziladi va ularning barchasi yagona shaxs – Maya Anjelouning hayotiga bag'ishlanadi. Shuningdek, asar avtobiografiya bo'lishiga qaramasdan, syujet, qahramonlar, dialoglar va boshqa bidiiylik xususiyatlariga ega. Shuning uchun ham tanqidchi Burr Maya Anjelouning avtobiografik asarlari haqida shunday fikrlarni aytadi: "Anjelouning asarlari "ochiq-oshkora, ishonarli"- *to be representative rather than individual, authoritative rather than confessional*" [20].

Yana bir tanqidchilardan biri L.B.Hagen Anjelou ning asarlari va hayotining tasvirlanishi haqida fikr bildirar ekan, ularga nisbatan "o'z-o'zini anglash, kashf etish va qayta dunyoga kelish sayohati" deb ataydi- "*a journey of discovery and rebirth*" (Hagen, 95). Aslida ham uning hayoti shunchaki yozilgan o'tmish sahifalari emas, balki o'zligini va ertangi kunga umidini yo'qotmagan, doim hayotdagi qiyinchiliklarga yaxshi ko'z bilan qaragan qora tanli ayolning hayotiy hikoyasidir. L.B.Hagen uning asarlari vaqtan vaqtga, u joydan bu joyga ko'chib yuradi, voqealar ikkinchi jahon urushi boshlaridan Martin Lyuter Kingning qatl etilishigacha bo'lgan vaqtlarni qamrab, Arkanzas, Afrika va AQShda bo'lib o'tadi deb ta'kidlaydi [21].

L.Henry hamda P. Lespinasse kabi yozuvchilar Anjelou ijodiga ko'z yuritar ekan, u haqida quyidagi fikrlarni bildiradilar: Maya Anjelouning badiiy asarlarini mutoala qilish, yanayam yaqinroq tinglash orqali ichiga kirib borish kitobxon uchun foydalidir [22]. Zero, Anjelou qahramon tasvirida musiqiy ohangdorlik beruvchi ta'riflardan foydalangan va kayfiyatga mos sahnalarni yaratgan. Lespinasse o'z maqolasida Maya Anjelouning yozish uslubi jazz-adabiyoti- "*jazz-literature correspondence*" uslubi bilan uyg'unlashib ketganligini ham ta'kidlaydi, chunki bir paytlar Anjelou jazz musiqasiga juda ham qiziqqan va buni uning qisqa hikoyasi "Qayta birlashuv" ("The Reunion, 1992") da ham uchratish mumkin degan xulosani beradi [23].

M.J. Lupton esa o'zining "Ulkan daraxtlar qulaganda: Maya Anjelou she'riyati" ("When Great Trees Fall: The Poetry of Maya Angelou,") deb nomlangan maqolasida Anjelouning she'riy asarlariga nazar soladi. Muallif ushbu asarda Afro-Amerikaning og'zaki va yozma nutqining an'anaviy unsurlarini, qasidani hamda boshqa bir necha xususiyatlarini uchratish mumkinligini ta'kidlaydi [24]. Anjelouning she'riy uslubi o'ziga xos bo'lib, o'z davrida she'riy to'plam holga keltirilmagan. Shuningdek, prezident Bill Klintonning qasamyodida Anjelouning "Tonggi nashida" ("*On the Pulse of Morning,*") she'rining o'qilishi ham Maya Anjelouning she'riy janrda erishgan ulkan yutug'i sifatida baholanadi. Shuningdek, Anjelouning "Still I rise". "A Phenomenol Woman" kabi she'rlari kitobxonlarning olqishiga sazovor bo'lgan.

Ch. A. Wall ham boshqa tanqidchilar singari uning ijodiga yuksak baho bergan holda: "Maya Anjelou hayoti davomida avtobiograf yozuvchi, shoira, film sur'atga oluvchi va ssenariy muallifi sifatida samarali ishlar olib bordi va ulkan boylik qoldirdi, ularni o'rganishning turli innovatsion usullarini yaratish biz tanqidchilarning zimmasida, albatta, o'rganiladigan asarga mos tanqid bo'lishi kerak"- deb fikr bildiradi-

“*Maya Angelou left multiple legacies as an autobiographer, poet, filmmaker, and playwright .The stunning quantity of her work as well as its enormous breadth and variety call on critics to develop strategies that are as various, as innovative, and incisive as the work to which they respond. It is our task to develop a criticism worthy of its subject.*” [25].

Maya Anjelou odatda ko'plab ijodiy uchrashuvlarda o'zini avtobiograf yozuvchi hamda shoira sifatida tasvirlasada, u boshqa ko'plab janrlarda ham ijod qilganligini ko'rish mumkin. Zero, Anjelouning qisqa hikoyalari, bir nechta esselari, bolalar uchun kitoblari, oshpazlik sirlari haqidagi kitoblari, hikmatli so'zlardan iborat to'plamlari ham nashr etilgan. Muallif o'z asarlarining mohirona yozilmaganligini ochiq-oydin ta'kidlar edi. Buni quyidagi so'zlaridan ham anglash mumkin:” Hardoim ham yaratganlaringiz mukammal shohona asar bo'lmasligi mumkin, biroq asosiysi bu- yozishni chin yurakdan istashingiz, shohona asarni yozarsiz ham, boshqa tomondan ko'ngil yayraydi, miyangiz dam oladi. Bu ham yaxshi.”- “*Now, not everything you do is going to be a masterpiece,*” she conceded. “*But you get out there and you really try and sometimes you really do, you write that masterpiece, you sing that classic. The other times you're just stretching your soul, you're stretching your instrument, your mind. That's good.*” [26]. Ushbu so'zlari bilan, Maya Anjelou adabiy tanqidchilarning o'ziga nisbatan bildirilgan fikrlariga parvo qilmasligini, kitobxon uning hikoyasidan ko'ngliga yaqin kechinmalarini rostdan his qilsa, asarlari o'qilaverishini ham nazarda tutadi.

Hozirgi kunda, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish maqsadida Maya Anjelouning avtobiografik romanlari Amerika maktab hamda oliygohlarda keng miqyosda o'qitiladi va o'rgatiladi. Anjelouning telepyessalari adabiy tanqidchilar tomonidan chuqur o'rganilmaganligi tufayli juda ham mashhur emas. Ba'zilar uning she'riyati o'ta soddaligi uchun Amerika she'riyat xazinasiga kiritishga munosib emas degan fikrlarni ham bildirishgan. Biroq, Anjelouning haqiqiy muxlislari yuqoridagi fikrlarga qaramasdan, uning ijodini hali-hamon mehr bilan mutoala qilishadi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Maya Anjelou nafaqat Afro-Amerikalik ayol yozuvchi, balki o'z hayot yo'lini she'riy hamda nasriy asarlarda ifoda eta olgan serqirra ijodkordir. Anjelou she'riyatini haqidagi ilmiy maqolalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, uning she'riyati yuqorida ta'kidlanganidek sodda deb hisoblansada, ko'p marotaba lingvistik tahlil etilgan va o'rganilgan. Shu jihatdan, uning avtobiografik asarlaridagi hikoyalarni o'qish va o'rganish hali yetarlicha amalga oshirilmagan. Ushbu hikoyalarning turli mavzu, turli yosh, turli davrlarni qamrab olganligi adabiyot darslarida har xil dunyoqarashga ega bo'lgan o'quvchilarning, albatta, e'tiborini jalb qila oladi. Zero, Maya Anjelou har bir inson boshidan o'tkazishi mumkin bo'lgan hayotning turli past-balandliklari va uni yengib o'tgan jasoratli inson haqida yozgan.

ADABIYOTLAR:

1. Kort Carol. "Angelou, Maya." *A to Z of American Women Writers, Revised Edition*. New York: Facts On File, Inc., 2007. (Updated 2014.) Bloom's Literature. Facts On File, Inc. Web. 11 Mar. 2016 <<http://www.fofweb.com/activelink2.asp?ItemID=WE54&WID=104985&SID=5&iPin=ffazwmwr0005&SingleRecord=True>>.
2. Kort, Carol. "Angelou, Maya." *A to Z of American Women Writers, Revised Edition*. New York: Facts On File, Inc., 2007. (Updated 2014.) Bloom's Literature. Facts On File, Inc. Web. 11 Mar. 2016 <<http://www.fofweb.com/activelink2.asp?ItemID=WE54&WID=104985&SID=5&iPin=ffazwmwr0005&SingleRecord=True>>.
3. Cheryl A. Wall. *Maya Angelou: Toward a Criticism Worthy of Its Subject*. SPECIAL ISSUE: *The Legacies of Maya Angelou*. *The College Language Association Journal*. Volume 58, Nos. 1-2. CLAJ (ISSN 0007-8549). p 2.
4. Claudia Johnson, ed. *Racism in Maya Angelou's I Know Why the Caged Bird Sings* (Detroit: Greenhaven Press, 2008).
5. Claudia Tate, "Maya Angelou," in *Conversations*, 149.
6. Smith, Sidonie Ann. "Maya Angelou 4 April 1928-" (*Contemporary Literary Criticism*, 1980).
7. Washington M. H. 1987. *The Darkened Eye Restored: Notes Toward a Literary History of Black Women*. <https://doi.org/10.1215/9780822399889-033>. Published: 1994.
8. Selwyn R. Cudjoe, "Maya and the Autobiographical Statement," *Black Women Writers (1950-1980) A Critical Evaluation*, ed. Mari Evans (New York: Anchor Press/Doubleday, 1984), p. 14.
9. Robert Evans. *Maya Angelou's I Know Why the Caged Bird Sings and the Advantages of a Pluralist Close Reading*. SPECIAL ISSUE: *The Legacies of Maya Angelou*. *The College Language Association Journal*.

LITERARY CRITICISM

Association Journal . Volume 58, Nos. 1-2. *CLAJ* (ISSN 0007-8549). P 36-47.

10. Gottlieb, Annie. "Angelou" (*Contemporary Authors*, 1987). P 23
11. Grumbach, Doris. "Maya Angelou 4 April 1928-" (*Contemporary Literary Criticism*, 1980).P 12
12. Phillips, Frank L. "Maya Angelou 4 April 1928-" (*Contemporary Literary Criticism*, 1980).P 12
13. Jordan, June. "Maya Angelou 4 April 1928" (*Contemporary Literary Criticism*, 1980). P 13
14. Nilsen, Alleen P. "Maya Angelou 4 April 1928-" (*Contemporary Literary Criticism*, 1980).P 14
15. McPherson, Dolly A. *Order of Chaos: The Autobiographical Works of Maya Angelou*. New York: Peter Lang Publishing, 1990. P 90
16. Miller, Adam David. "Angelou" (*Contemporary Authors*, 1987). P 23
17. Hagen, Lyman B. *Heart of a Woman, Mind of a Writer, and Soul of a Poet: A Critical Analysis of the Writings of Maya Angelou*. Lanham, New York: University Press, 1997. P 107
18. Christian, Barbara T. "Angelou" (*Contemporary Authors*, 1987). P 23
19. Angelou, Maya. *The Collected Autobiographies of Maya Angelou*. New York: The Modern Library, 2004.
20. Burr, Zofia. *Of Women, Poetry, and Power: Strategies of address in Dickinson, Miles, Brooks, Lorde, and Angelou*. Urbana and Chicago: University of Illinois Press, 2002. P 183
21. Hagen, Lyman B. *Heart of a Woman, Mind of a Writer, and Soul of a Poet: A Critical Analysis of the Writings of Maya Angelou*. Lanham, New York: University Press, 1997. P 95
22. Lorraine M. Henry. *The "Voice of Melody": Healing and Transformation in Maya Ahgelou's Life Narratives*. *CLA Journal*Vol. 58, No. 1/2, *SPECIAL ISSUE: The Legacies of Maya Angelou* (SEPTEMBER/DECEMBER 2014), pp. 48-64 (17 pages).
23. Lespinasse, Patricia G. *The Drum Is a Wild Woman.Jazz and Gender in African Diaspora Literature*. NYU Press. 164 p.
24. Lupton M. J. "When Great Trees Fall": *The Poetry of Maya Angelou*'. *CLA Journal* Vol. 58, No. 1/2, *SPECIAL ISSUE: The Legacies of Maya Angelou* (SEPTEMBER/DECEMBER 2014), pp. 77-90 (14 pages).
25. Cheryl A. Wall. *Maya Angelou: Toward a Criticism Worthy of Its Subject* . *SPECIAL ISSUE: The Legacies of Maya Angelou*. *The College Language Association Journal* . Volume 58, Nos. 1-2. *CLAJ* (ISSN 0007-8549). p 9 .
26. Beth Ann Krier, "Maya Angelou: No Longer a Caged Bird," in *Conversations*, 51.

BADIIY MATNDA XUSHMUOMALALIK STRATEGIYALARINING VOQELANISHI

Xolova Madina Boboqulovna,

Buxoro davlat tibbiyot instituti Xorijiy tillar fakulteti

Ingliz tili kafedrası o'qituvchisi

madinaxolova1987@gmail.com

Annotatsiya. Xushmuomalalik strategiyalari o'zaro muloqotda ma'ruzachilar tomonidan o'zboshimchalik bilan tanlanmaydi. Aksincha, strategiyani tanlash ma'ruzachilarning nisbiy kuchi, ularning ijtimoiy masofasi va nutq paytida nima sodir bo'layotgani kabi bir qator kontekstual xususiyatlar (ijtimoiy-madaniy o'zgaruvchilar) bilan cheklanadi. Ushbu tadqiqot xushmuomalalikning lingvistik strategiyalariga, aniqrog'i, badiiy adabiyotda ifodalangan ijobiy va salbiy xushmuomalalikka qaratilgan. Tanlangan asar Jojo Moyesning "Me before you" romani bo'lib, unda bosh qahramon Luiza Klark deyarli hamma bilan do'stona va ijtimoiy uyg'un munosabatlar o'rnatish uchun qo'lidan kelganicha harakat qiladi. Ushbu tadqiqotda nutq aktlari va xushmuomalalik strategiyalariga e'tibor qaratiladi. Ushbu tadqiqotda e'tiborga molik yana bir nuqta - tinglovchiga tushadigan yukni yumshatish va ular o'rtasida pragmatik muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik uchun har bir guruh tomonidan qo'llaniladigan xushmuomalalik strategiyalarining turlari o'rtasidagi farqni taqqoslashdir. Bu taqqoslash Braun va Levinson (1987) taksonomiyasiga asoslangan.

Kalit so'zlar: xushmuomalalik strategiyalari, ijobiy xushmuomalalik, salbiy xushmuomalalik, pragmatik kompetensiya

АНАЛИЗ СТРАТЕГИЙ ВЕЖЛИВОСТИ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ТЕКСТЕ

Аннотация. Стратегии вежливости не выбираются говорящими во время взаимодействия произвольно. Скорее, выбор стратегии ограничен рядом контекстуальных особенностей (социокультурных переменных), таких как относительная власть говорящих, их социальная дистанция и то, что происходит во время речи. В данном исследовании основное внимание уделяется лингвистическим стратегиям вежливости, а именно позитивной и негативной вежливости, выраженной в художественной литературе. В качестве романа выбран роман Джоджо Мойес «Я перед тобой», в котором главная героиня Луиза Кларк изо всех сил старается быть дружелюбной и социально гармоничной почти со всеми. В данном исследовании основное внимание уделяется речевым действиям и стратегиям вежливости. Ещё одним интересным моментом в этом исследовании является сравнение различий между типами стратегий вежливости, используемых каждой группой, чтобы смягчить навязывание слушателю и избежать прагматической ошибки/неудачи между ними. Это сравнение основано на таксономии Брауна и Левинсона (1987).

Ключевые слова: стратегии вежливости, позитивная вежливость, негативная вежливость, прагматическая компетентность.

ANALYSIS OF POLITENESS STRATEGIES IN LITERARY TEXT

Abstract. Politeness strategies are not arbitrarily chosen by speakers in interaction. Rather, the choice of strategy is constrained by a number of contextual features (sociocultural variables) such as the relative power of the speakers, their social distance, and what is happening during the speech. This study focuses on linguistic strategies of politeness, specifically positive and negative politeness expressed in fiction. The novel chosen is that of Jojo Moyes's "Me before you", in which the main character, Louise Clarke, tries her best to be friendly and socially harmonious with almost everyone. This study focuses on speech acts and politeness strategies. Another point of interest in this study is to compare the difference between the types of politeness strategies used by each group to soften the imposition on the hearer and avoid pragmatic error/failure between them. This comparison is based on Brown and Levinson's (1987) taxonomy.

Keywords: politeness strategies, positive politeness, negative politeness, pragmatic competence.

Kirish. Bir necha o'n yillargacha tadqiqotchilar faqat tilning lingvistik jihatlariga e'tibor qaratishgan. Buni lingvistik kompetentsiya nazariyasini yaratgan Xomskiy aniqlagan. Uning ta'kidlashicha, faqat berilgan grammatikani o'rganish o'quvchilarga malakali so'zlovchi-tinglovchi bo'lishga yordam beradi (Xomskiy 1965). Boshqa tomondan, Hymes (1967, 1972) *kommunikativ kompetentsiya* tushunchasini ishlab chiqdi va Chomskiy kontseptsiyasini tilning ijtimoiy omillaridan bexabarligi tufayli tanqid qildi. Hymes odatda kommunikativ kompetentsiyani "ham til, ham madaniy jihatlar" ni o'z ichiga oladi deb belgilaydi, shuningdek, "kompetentlik ham (so'zsiz) bilimga, ham foydalanish qobiliyatiga bog'liq" deb ta'kidlaydi.

Pragmatik kompetentsiya kommunikativ kompetentsiyaning muhim tarkibiy qismlaridan biridir. U nutqiy harakatlar va nutq funksiyalari haqidagi bilimlarni anglatuvchi inlokatsion kompetensiyadan va ma'lum bir kontekstda tildan to'g'ri foydalanish qobiliyati, shuningdek, ma'lum kontekstdagi vaziyat xususiyatlaridan kelib chiqqan holda kommunikativ harakatlar va ular bo'yicha harakat qilish uchun qulay strategiyalarni tanlash qobiliyatini ifodalovchi sotsiolingvistik kompetensiyadan iborat.

Xushmuomalalik nazariyasi pragmatik tadqiqotlarning ustunlaridan biri hisoblanadi. Darhaqiqat, xushmuomalalik nazariyasi 1970-yillarning oxiridan beri ko'plab olimlar tomonidan aniqlangan. Shunday qilib, Lakoff (1973, 1977) zamonaviy xushmuomalalik nazariyasining onasi hisoblanadi (Elene 2001). Lakoff [5;84] "bizning lingvistik va nolingvistik o'zaro ta'sirlarning ustunlari (1) o'zingizni aniq ko'rsatish va (2) muloyim bo'lishdir" deb ta'kidlaydi. Bir tomondan, u so'zning xushmuomala yoki yo'qligini aniqlaydigan uchta omil borligini ta'kidlaydi. Birinchi omil - ma'ruzachilar o'rtasidagi holat farqi. Ikkinchi omil - ular o'rtasidagi rasmiyatchilik darajasi, uchinchi omil - vaziyatning ijtimoiy konteksti. Boshqa tomondan, faylasuf Grice (1975) ta'kidlashicha, barcha insoniy muloqotlar "qisqa bo'lish (miqdorning maksimali), informatsion bo'lish (sifat maksimali), tegishli bo'lish (muvofiqlik maksimali) va ochiq-oydin bo'lish (odobning maksimal qiymati) kabi universal tamoyillar bilan boshqariladi. Leech (1983) o'zining shaxslararo munosabatlarining muhim tarkibiy qismi bo'lish uchun xushmuomalalik tamoyilini ishlab chiqadi. Schauer (2009) ta'kidlashicha, Lichning maksimalari ma'ruzachi o'z so'rovini tuzish uchun maxsus strategiyalar va o'zgartiruvchilardan foydalanishini tavsiflashda foydalidir. Xushmuomalalikning eng mashhur modeli Braun va Levinson (1987) tomonidan yaratilgan bo'lib, u Goffmanning (1967) yuz tushunchasiga asoslanadi. U yuzni "har bir a'zo o'zi uchun da'vo qilmoqchi bo'lgan ommaviy imiji" deb belgilaydi [2;66]. Braun va Levinsonning universal xushmuomalalik modeli (shaxs modeli) ikkita komponentni o'z ichiga oladi: ratsionallik va yuz. Bundan tashqari, ular ikki turdagi yuzni taklif qilishadi: salbiy va ijobiy. Salbiy yuz "har bir voyaga yetgan shaxsning o'z harakatlariga boshqalar tomonidan to'sqinlik qilmasligini istashi" deb ta'riflansa, ijobiy yuz "har bir shaxsning o'zi boshqalar uchun maqbul bo'lishini xohlamasligi"dir. [1; 14] Yule (1996) "salbiy" so'zi yomon so'z emasligini, balki "ijobiy" so'ziga qarama-qarshi qutb ekanligini ta'kidlaydi [6;138]. Bundan tashqari, Braun va Levinson (1987) ta'kidlashicha, odamlarning o'zaro munosabatlarida har bir inson o'zining yuzini, shuningdek, suhbatdoshining yuzini himoya qilishga intiladi. Biroq, ba'zi nutq harakatlarida ma'ruzachi qochish kerak bo'lgan yuzga tahdid soladigan xususiyatlar mavjud. Yule (1996) yuzga tahdid soluvchi harakatdan qochish (Face threatening acts) ijobiy yoki salbiy xushmuomalalikning ba'zi strategiyalaridan foydalanadigan yuzni tejash harakatlari bilan birga ekanligini tushuntiradi. Braun va Levinson (1987) tadqiqotida uchta muhim atama yoritilgan: tuzatish harakati, ijobiy xushmuomalalik va salbiy xushmuomalalik.

Tuzatish harakati so'zlovchi (S) tomonidan tinglovchiga (H) yuzga tahdid soluvchi harakatning yuzaga kelishi mumkin bo'lgan zararini kamaytirish uchun amalga oshiriladigan harakatni anglatadi. Tuzatish harakati ijobiy xushmuomalalik yoki salbiy xushmuomalalik shaklida bo'lishi mumkin. Ijobiy xushmuomalalik so'zlovchi tinglovchining ijobiy yuziga hurmat ko'rsatganda, aksincha, salbiy xushmuomalalik so'zlovchi tinglovchining salbiy yuziga ahamiyat berganda sodir bo'ladi. U tinglovchining harakat erkinligini cheklashdan qochadi. Bundan tashqari, Braun va Levinson (1987) ma'ruzachilarga to'rtta superstrategiyani o'z ichiga olgan taksonomiyani taklif qiladi. Bular: Bald on Record (Bevosita), Negative Politeness (Salbiy xushmuomalalik), Positive Politeness (Ijobiy xushmuomalalik), Off Record-indirect (Bilvosita strategiya) Shuningdek, strategiyani tanlashga bevosita ta'sir qiluvchi sotsiologik o'zgaruvchilar mavjudligini ta'kidlanadi. Mustaqil o'zgaruvchilar deb hisoblanadigan bu o'zgaruvchilar ijtimoiy masofa (Distance), nisbiy kuch (Power) va yuklashlarning mutlaq darajasi (Rank) [1; 74]. Ushbu uchta o'zgaruvchi B & L tomonidan quyidagicha aniqlanadi:

- (i) S va H ning "ijtimoiy masofasi" (D) (simmetrik munosabat).
- (ii) S va H ning nisbiy "kuch" (P) (assimetrik munosabat).
- (iii) Muayyan madaniyatda o'rnatishning mutlaq darajasi (R).

Ular ma'ruzachilar va tinglovchilar o'rtasida qo'llaniladigan strategiyalar ularning ijtimoiy masofasiga bog'liqligini ta'kidlaydilar. Misol uchun, agar ikki kishi bir-biriga juda yaqin bo'lsa, ular past darajadagi ijtimoiy masofaga ega bo'lishi mumkin va aksincha, agar ijtimoiy masofa darajasi yuqori bo'lsa, odamning bilvosita bo'lishiga olib keladi va ijtimoiy masofa darajasi past bo'lsa, u to'g'ridan-to'g'ri bo'lishi mumkin. Shunday qilib, ular ma'ruzachilar va tinglovchilar o'rtasidagi quvvat teng ($S=H$), ko'proq ($S>H$) yoki kamroq ($S<H$) bo'lishi mumkin deb taxmin qilishadi. Nihoyat, yuklash darajasi madaniyat va vaziyat darajasi, ahamiyati va qiyinligiga bog'liq. Masalan, katta muruvvat so'rash yuqori martaba hisoblansa, kichik foyda so'rash past darajali hisoblanadi. Misol uchun, so'zni qidirish uchun lug'at so'rash kichik yuklama darajasiga ega deb hisoblanadi, velosiped so'rash esa yuqori darajali yuk deb hisoblanadi.

Asosiy qism. Ushbu bo'limda adabiy asarda aniqlangan xushmuomalalik strategiyalari bilan tanishtiriladi. Yuqorida aytib o'tilganidek, subyektlar so'rovni yumshatish uchun ishlatgan xushmuomalalik belgilari Braun va Levinsonga (1987) asoslanadi.

Ingliz yozuvchisi Jojo Moyesning "Me before you" ("To seni topgunimcha") romani inson xarakterining rangli bo'yoqlari aks ettirilgan asar bo'lsa-da, unda har bir obrazning ichki kechinmalari va yashash madaniyati o'zgacha talqinda ochib beriladi. 26 yoshli Luiza Klarkning badavlat oilaga oddiy enaga bo'lib ishga kirishi, u yerda baxtsiz tasodif tufayli ish qobiliyatini yo'qotgan, hatto hayotdan butunlay umidini uzgan va nogironlik aravachasiga mixlanib qolgan Uill Treynorda qayta yashashga muhabbat uyg'ota olgan beg'araz mehnati, eng muhimi, yetti yildan beri gaplashib yurgan beqaror Patrikdan ko'ngil uzib, majruh yigitni sevib qolishi rangin bo'yoqlarda chizib beriladi. Roman kitobxon ahlining aql-u shuurini boyitadi va qizg'in mushohadalarga chorlaydi.

Asarda qahramonlar o'rtasidagi dialoglarda xushmuomalalik kategoriyasining turli strategiyalarini uchratish mumkin. Avvalo, asar qahramoni Luiza Klarkning eski ishidan bo'shagach, enagalikka yollanish uchun uy sohibasi Kamilla Treynor bilan suhbat sahnasini olaylik.

1-namuna

Camilla Traynor: You must be *Miss Clark*. (1)

Louisa: Louisa.

Camilla Traynor: Right. Yes. *Do come in*. (2) *Would you like to come through? We'll talk in the drawing room. My name is Camilla Traynor*. (3)

I followed her through to a huge room with floor-to-ceiling French windows.

Camilla Traynor: So you have come via the Job Center advertisement, *is that right? Do sit down*. (4)

Camilla Traynor: So...Miss Clark...do you have any experience with quadriplegia?

Louisa: No.

Camilla Traynor: Have you been a caregiver for long?

Louisa: *Um...I've never actually done it, I said, but I'm sure I could learn*[4;12]. (5)

Yuqorida ta'kidlanganidek, xushmuomalalik kategoriyasining bir faktori bo'lgan ishdagi mavqe va lavozim masalasi muloqotning samarali kechishini ta'minlovchi bir omil hisoblanadi. Sotsiologik va psixologik nuqtayi nazardan qaraganda ishdagi mavqe o'ziga xos nisbiy tushuncha bo'lib, u boshqalarni boshqarish va o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Til esa o'z navbatida ishdagi mavqeni ifodalashning muhim vositasi va shu bilan birga ijtimoiy voqelikni qurishda juda muhim tarkibiy qism hisoblanadi.

G. Lich o'zining "The pragmatics of politeness" kitobida murojaat atamaları (vocatives) haqida alohida to'xtalib o'tadi. Uning ta'kidlashicha, Vokativ (yoki murojaat atamasi) so'zning adresatiga ishora qilib, e'tiborni jalb qilish uchun kamida uchta pragmatik funksiyaga ya'ni, (a) T ga unga murojaat qilinayotganini aniq ko'rsatish, (b) qabul qiluvchini ajratib ko'rsatish, ya'ni quloqqa yaqinroq bo'lgan boshqa shaxsga emas, balki T ga murojaat qilinayotganini aniq ko'rsatish, (c) T bilan ijtimoiy munosabatlar o'rnatishga va/yoki qo'llab-quvvatlash ega bo'lishi kerak.

1-qatorda keltirilgan Luizaga nisbatan *Miss Clark* (Title+surname) deb murojaat qilinishi ijobiy xushmuomalalik namunasi bo'lib, bu yerda ish beruvchi xodimga nisbatan ijtimoiy masofani qisqartirishga moyilligiga ishora qiladi. Kamilla Treynor hayotda ko'p martabalarga erishgan tajribali sudya, katta mulk egasi, maktabdagi ota-onalar qo'mitasiga homiylik qo'lini cho'zadigan o'qimishli va badavlat ayol ekanligi uning o'zini tutishi, jamiyatdagi mavqei va o'ta rasmiy uslubda suhbat jarayonida xushmuomalalik strategiyalaridan mohirona foydalanishida o'z aksini topadi. Shuningdek, 2- 7 qatorlarda *Do*, 6-qatordagi gapda *that right* 7-qatorda *Umm...*, *I'm sure* yuklama(hedge)laridan foydalanish salbiy xushmuomalalikning lingvistik voqelanishida juda tanish va keng tarqalgan strategiya bo'lib, u G'arb madaniyatida muloqotda ijtimoiy masofa saqlash etiket qoidalarining eng yuksak ko'rinishi ekanligiga ishora qiladi.

4-qatorida uy egasining mehmonni mehmonxonaga suhbat uchun taklif qilganida ijobiy xushmuomalalik strategiyalari(offer: *Would you like to....?*, include both S and H in the activity: *We'll do...*)dan foydalanishi ijtimoiy masofaning minimallashtiruviga olib kelmoqda. Bunda ba'zi FTAlarning potentsial tahdidini bartaraf etish va Tinglovchining ijobiy yuzli istaklarini qondirish uchun So'zlovchi yaxshi niyatini namoyon etadi.

2-namuna

Louisa: *Would you like me to make you a cup of tea?* (1)

Will: *Ah. Yes. The girl who makes tea for a living. I wondered how long it would be before you wanted to show off your skills. No. No, thank you.* (2)

Louisa: *Coffee, then?* (3)

Will: *No hot beverages for me just now, Miss Clark.* (4)

Louisa: *You can call me Lou.* (5)

Will: *Will it help?* (6)

Louisa: *Well...can I get you anything? He turned away [4;39].* (7)

Motohalokatga uchrab, nogironga aylangan - Uill Tyornerni butun umr faol hayot kechirgan va endilikda nogironlar aravachasiga mahkum. Bunday taqdiridan to'ygan yigit uchun hayot o'z mazmunini yo'qotgan va atrofidagilarga bo'lgan munosabati ham kundan-kunga yomonlashib borar, ayniqsa qarovchisi Luiza Klarkni umuman yoqtirmaydi. Yuqorida keltirilgan misolda uning kechagina enaga bo'lib ishga yollangan Luiza bilan bo'lgan suhbatini ko'rib chiqamiz.

1-qatorida Luiza Uillga choy taklif qilganida ijobiy xushmuomalalik strategiyasi(offer: *Would you like...?*)dan foydalanadi. "*Ah. Yes.*" deya zaharxandalik bilan javob qaytargan Uill choy ichish taklifini qabul qilish uchun emas, balki enagasini kamsitish uchun qo'llaydi. Bu yer(2-qator)da kinoya (irony or sarcasm)dan foydalanish adresatni ochiqdan-ochiq haqorat qilmay, balki fikrining haqoratli nuqtasini bilvosita (off record) tarzda yetkazishiga imkon beradi. Bu orqali Uill Luizaning ijtimoiy mavqeiga ishora qilib, *I wonder* va *just* (2-4-qatorlar) yuklama(hedge)laridan foydalangan holda, yana bir bor urg'u beradi.

5-qatorida qiz uni Lui deb atashi mumkinligini aytib, o'zi va adresat o'rtasidagi nisbiy kuch(power)ni yumshatishga intiladi. Lakoff ta'kidlaganidek, taxalluslar va qisqartmalar hurmatni emas, balki do'stlikni da'vo qiladilar, mehribonlik esa yaqinlik va mehr-muhabbatni talab qiladi. *Will it help?* kinoyali so'rog'ida Uill Luizani rad etadi.

3-namuna

Will: *Interesting choice of footwear* (1)

They were emerald green. I had found them in a thrift shop.

Will: *You know* (presuppose), you *don't dress like someone from around here.* I quite look forward to seeing what insane combination you're going to turn up in next[4;88]. (2)

Shuncha qiyinchiliklarga qaramay, Luiza Uill Treynorni unga bo'lgan munosabatini o'zgartirishiga va ular orasida yaqinlik o'rnatishga erishadi. Uill qizning tashqi ko'rinishiga e'tibor qaratishi ijobiy xushmuomalalikning 1-strategiyasi (Notice, attend to Hearer) bo'lib, bunda so'zlovchi tinglovchining holatiga, undagi sezilarli o'zgarishlarga e'tiborini qaratadi. Uni o'zgalardan ajratib turuvchi jihatlari bilan qiziqadi.

4-namuna

(1)Louisa: *Is there any way you might be able to live in London again?*

(2)Will: *Not like this, no.*

(3) Louisa: *But you might improve. I mean, there are loads of advances in this kind of injury.*

Will closed his eyes again.

(4)Louisa: *Sorry, If I ask too many questions. Do you want me to leave?*

Will : *No. Stay for a bit. Talk to me. He swallowed*

Luiza bunday hayotda yashashdan charchab bir necha bor joniga qasd qilishga uringan Uill Tyornerni sog'ayishiga umid borligini va buning sababini (positive politeness strategy 13: give or ask for reasons)ko'rsatib o'tadi. Kasallik bilan kurashib tanasi toliqayotgan Uilldan kechirim so'rash barobarida, (4-q apologizing: *Sorry, If I ask too many questions*) agar xoxlasa uni xoli qo'yishi mumkinligini so'raydi. (pos-politeness strategy 5: seek agreement). Unga javoban yigit salbiy xushmuomalalikning 4-strategiyasi (minimize the imposition: *a bit*)ni qo'llab, majburlashni oldini oladi va martaba(Rank)ni minimallashtiradi.

5-namuna

(1) Louisa: *Mum...*

(2) Mother: *Yes, love.*

(3) Louisa: *Do you think I could* move into Treena's room once she's gone?


(4) Mother: *I don't know*. I hadn't *really* thought about it.

(6) Louisa: I mean, if she and Thomas are not going to be here, it's only fair that *I should be allowed* a proper-sized bedroom. It seems silly, it sitting empty, if they're going off to college.

(7) Mother: *I suppose you're right*[4;168].

Suhbatdoshlar o'rtasidagi munosabat ular orasidagi ijtimoiy masofaga bog'liqdir. Agar ikki kishi juda yaqin bo'lsa, ularda ijtimoiy masofa past bo'ladi va aksincha ikki notanish odam odatda yuqori darajadagi ijtimoiy masofaga ega bo'ladi. Ushbu misolda asar qahramonining onasi bilan suhbat tahlil qilinadi. Luiza Mum deganida onasiga murojaat qilayotganini aniq va ajratib ko'rsatadi. Erkalashlar (endearments: love, dear, darlinng) mehr-muhabbat va ma'lum darajada yaqinlikdan dalolat berib, har ikkala misol ham ijobiy xushmuomalalikning 4- strategiyasi(use in-group identity markers: *love*) ko'rinishidir. 3-qatorda *Do you think I could..* Trosborgning (1995: 212-213) so'rovlar taksonomiyasida, "consultative" so'rov turi deb nomlanadi va bu maslahat so'rashga o'xshaydi. 4-qatorda ona to'g'ridan-to'g'ri rad etishning oldini olib, inkor qilish xedjlash orqali yumshatiladi (*I don't know, really*). 6-qatorda qiz majhul nisbat (*I should be allowed*) orqali to'g'ridan- to'g'ri ijozat so'rashdan qochadi. (neg-politeness strategy 7 impersonalaze S and H) Ona *I suppose* yuklama(hedge)si orqali qizining fikri to'g'riligiga ishora beruvchi qo'shimcha ma'no yuklaydi.


Tadqiqotchi ushbu tadqiqot obyekti manbadan olingan ma'lumotlarni tartibga solish va saralash uchun bir necha usullarini qo'lladi. U xushmuomalalik strategiyasiga tegishli bo'lgan so'zlarni belgilash uchun asarni bir necha marta mutolaa qildi va asar qahramoni Luiza Klark dialoglari asosida tahlil olib bordi.



1-rasm. "Me before you" asarida ijobiy xushmuomalalikning voqelanishi

To'plangan ma'lumotlar shuni ko'rsatdiki, asar qahramonlari o'z nutqida, atrofdagilar bilan muloqot jarayonida ko'proq ijobiy xushmuomalalik(positive politeness) strategiyasidan foydalandilar. Topilmalarda ijobiy xushmuomalalikning 11 ta substrategiyalarini qo'llash holatlari kuzatilib, ular umumiy hisobda 43 ta ya'ni 58.9% ni tashkil etdi. Garchi qahramonlarning mavqei turli darajada bo'lsada, bosh qahramon Luiza Klarkning say'i harakatlari, uning shaddod va quvnoq tabiatligi ular o'rtasidagi ijtimoiy masofani qisqartirishga olib keldi. Yashashdan tobora umidini uzib borayotgan Uill Tyornerni hayotga qaytarish uchun Luiza Klark unga g'amxorlik qilar(strategy1), hazillar bilan uni kuldirar(strategy8), turli ko'ngilochar joylarga borishni taklif qilar(strategy10), uning istaklari bilan qiziqar(strategy9) edi. O'z navbatida Uill ham

unga bo'lgan qiziqishi kuchayib(strategy3), kesatiqlar o'rnini hazillar(strategy8) egalladi. Umri poyoniga yetayotganini bilib, qizga sovg'alar berar(strategy15), uning kelajakda o'qib, dunyo kezishi uchun o'z boyligidan meros qoldirdi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatdiki, bosh qahramonlarning suhbat qurishda ijobiy strategiyadan foydalanish maqsadi ma'ruzachi va qabul qiluvchining tegishli faoliyatda hamkorlikda ishtirok etishini ta'minlash edi. Natijada suhbat muhiti yanada qulayroq bo'lib, adresat bilan yaqinlikka va ijtimoiy masofasining yo'qolishiga erishiladi.



2-rasm. “Me before you” asarida salbiy xushmuomalalik kategoriyasining voqelanishi

Braun va Levinson ta'kidlashicha, negativ xushmuomalalik so'zlovchi va adresat o'rtasidagi hurmatni ko'rsatish uchun masofa yaratish maqsadida ishlatiladi. Bu strategiyadan asar qahramoni mavqei yuqori adresatlar, xususan Kamilla Treynor, uning turmush o'rtog'i va asar boshida Uill Treynor bilan muloqotda qo'llaydi. Qahramonlar nutqida yuklamalardan(hedge) foydalanish(strategy3), suhbat davomida bilvosita bo'lish(strategy1), o'zaro masofa saqlab, hurmat ko'rsatish(Strategy6) va xato qilganda kechirim so'rash(strategy8) holatlarida kuzatishimiz mumkin. Asarda 30 marotaba negative xushmuomalalik strategiyasidan foydalanish holatlari aniqlangan va bu 41.1%ni tashkil etdi.

Xulosa qilib aytganda, Jojo Moyesning “Me before you” asarida qahramonlar o'rtasida eng ko'p qo'llanilgan strategiya ijobiy xushmuomalalik strategiyasi bo'ldi.

ADABIYOTLAR:

1. Brown P., & Levinson, S. C. *Politeness. Some Universals in Language Usage*. Cambridge: Cambridge University Press, 1987.
2. Goffman E. *On Face-work: An Analysis of Ritual Elements of Social Interaction*. *Psychiatry: Journal for the Study of Interpersonal Processes* 18(3), 213-231. Reprinted in Goffman, 2005.- Pp. 5-46.
3. Holmes J. & Stubbe M., *Power and Politeness in the Workplace: A Sociolinguistic Analysis of Talk at Work*. – London: Pearson Education Limited, 2014. –Pp. 1-17.
4. Jojo Moyes *Me before you*. -Penguin Books, 2013
5. Lakoff Robin. *Talking Power*. - New York: Basic Books,1990.
6. Leech Geoffrey. *Principles of Pragmatics*. - London: Longman,1983.
7. Yule G.*Pragmatics*. – Oxford: Oxford Univ. Press, 1996. –P.138.
8. Davlatova M.H. *Resultative and causative meanings in English and Uzbek languages*// *Ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali*. – Surxandaryo, 2022. – P. 297-302.

LITERARY CRITICISM

9. Davlatova M.H. *Typology of expressive emotional and linguistic features.*// *International journal of literature and languages*, № 11. 2022. – P. 65-69.

10. Davlatova M.H. *Different aspects of resultative structures according to their linguistic essence.*// *Academicia Globe: Inderscience Research*, 2 (05), 2021.

11. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. (2022). *Politeness In Literary Works: An Overview.* *Eurasian Research Bulletin*, 7, 200–206.

12. Ruziyeva Nilufar Xafizovna, & Xolova Madina Boboqulovna. *Research problems in linguoculturology.* *Spanish journal of Innovation and integrity* Volume:12, November-2022.

УДК 821.161.1

ВНУТРЕННИЙ МИР ПЕРСОНАЖЕЙ В «ЖЕНСКОЙ ПРОЗЕ» АНГЛИЙСКИХ И АМЕРИКАНСКИХ ПИСАТЕЛЬНИЦ

*Муртазаева Феруза Рашитовна,
доцент кафедры русского литературоведения,
Бухарский государственный университет
f.r.murtazayeva@buxdu.uz*

Аннотация. В статье автор рассматривает способы раскрытия внутреннего мира персонажей в «женской прозе» Джойс Кэрол Оутс, Джоан Дидион, Тони Меррисон и Хелен Филдинг. Авторы «женской прозы» используют множество приёмов психологического изображения: это и различная организация повествования, и использование художественных деталей, и способы описания внутреннего мира

Ключевые слова: стилевое единство, внутренний мир, система приемов, образ, структура форм, репрезентация.

INGLIZ VA AMERIKALIK YOZUVCHILAR IJODIDA AYOL NASRIDAGI QAHRAMONLARNING ICHKI DUNYOSI

Annotatsiya. Maqolada Joys Kerol Oates, Joan Didion va Xelen Fildingning “ayollar nasri”dagi qahramonlarning ichki dunyosini ochish yo‘llari ko‘rib chiqilgan. “Ayollar nasri” mualliflari psixologik tasvirlashning ko‘plab usullaridan foydalanadilar: hikoyaning turli xil tashkil etilishi, badiiy tafsilotlardan foydalanish va ichki dunyoni tasvirlash usullari.

Kalit so‘zlar: stilistik birlik, ichki dunyo, texnikalar tizimi, shakllar tuzilishi, tasvir.

THE INNER WORLD OF CHARACTERS IN THE "WOMEN'S PROSE" OF ENGLISH AND AMERICAN WRITERS

Abstract. In the article, the author examines ways to reveal the inner world of characters in “women's prose” by Joyce Carol Oates and Helen Fielding. The authors of “women's prose” use many techniques of psychological depiction: different organization of the narrative, the use of artistic details, ways of describing the inner world.

Key words: stylistic unity, inner world, system of techniques, image, structure of forms, representation

Введение. Как известно, психологизм в художественной литературе представляет собой стилевое единство, систему средств и приемов, направленных на полное, глубокое и детальное раскрытие внутреннего мира героев. В этом смысле говорят о «психологическом романе», «психологической драме», «психологической литературе» и о «писателе-психологе».

Психологизм как способность проникать во внутренний мир человека в той или иной мере присущ любому искусству. Однако именно литература обладает уникальными возможностями осваивать душевные состояния и процессы благодаря характеру своей образности. Первоэлемент литературной образности — слово, а значительная часть душевных процессов (в частности, процессы мышления, переживания, осознанные чувства и даже во многом волевые импульсы и эмоции) протекают в вербальной форме, что и фиксирует литература. Другие же искусства либо вовсе не способны их воссоздать, либо пользуются для этого косвенными формами и приемами изображения. Наконец, природа литературы как временного искусства также позволяет ей осуществлять психологическое изображение в адекватной форме, поскольку внутренняя жизнь человека — это в большинстве случаев процесс, движение. Сочетание этих особенностей дает литературе поистине уникальные возможности в изображении внутреннего мира. Литература — наиболее психологичное из искусств, не считая, может быть, синтетического искусства кино, которое, впрочем, тоже пользуется литературным сценарием.

Каждый род литературы имеет свои возможности для раскрытия внутреннего мира человека.

Наибольшие же возможности для изображения внутреннего мира человека имеет эпический род литературы, развивший в себе совершенную структуру психологических форм и приемов, что мы и увидим в дальнейшем.

Однако эти возможности литературы в освоении и воссоздании внутреннего мира осуществляются не автоматически и далеко не всегда. Для того чтобы в литературе возник психологизм, необходим достаточно высокий уровень развития культуры общества в целом, но, главное, нужно, чтобы в этой культуре неповторимая человеческая личность осознавалась как ценность.

Существует множество приемов психологического изображения: это и различная организация повествования, и использование художественных деталей, и способы описания внутреннего мира, которые мы попробуем раскрыть в произведениях Джойс Кэрол Оутс, Тони Меррисон, Хелен Филдинг и Джоан Дидион

Основная часть. Джойс Кэрол Оутс по праву считается одним из наиболее плодотворно работающих американских авторов: за несколько лет работы она написала более 40 романов.

Как романист, Оутс видит себя «путешественником во времени», идею, которую она исследует в своем романе «Опасности путешествий во времени», который также исследует психологическое воздействие жизни в «технологической тирании». Сюжет зависит от «идеи государства наблюдения» и того, что значит жить в «публичной базе данных» с соответствующей «потерей частной жизни и свободы личности».

Она пишет, чтобы разоблачить «персонажей и драматические конфликты, которые универсальны», говорит она, а не проповедовать послание, но признает, что хотела бы, чтобы опасности оставили читателей в сознании, что «права человека как личности драгоценны».

Когда Адриан Строл, 17-летняя старшекласница, живущая в РНАС (восстановленных североамериканских штатах) под диктатором, намеревающимся РВИВАТ (патриотическая бдительность в войне с террором), становится слишком любознательной, она получает лечение Е1 (изгнанный человек) (жизнь в воображаемом будущем тяжелая на Caps Lock). Ее наказание – телетранспорт в посредственный университет в конце 1950-х годов в Висконсине.

Тем не менее, несмотря на отвращение Оутса к жизни под ником в Твиттере она избегает даже печатать его имя – она осознает, что не все так прямолинейны, как ее героиня: «Мы все в некотором смысле загипнотизированы, и для некоторых людей восстание просто невозможно». Это было вызвано отчасти ее вторым браком с Чарли Гроссом, нейробиологом, который побудил ее исследовать психологическую школу бихевиоризма глазами человека, который жил примерно в то же время, что и она сама. Эти знания писательница успешно применила в своих литературных произведениях.

Джоан Дидион – известная американская писательница, чьи небольшие литературные произведения помогли определить новое журналистское движение в 1960-х годах. В дополнение к своим романам и литературной журналистике Джоан Дидион написала ряд сценариев в сотрудничестве со своим мужем, журналистом Джоном Грегори Данном. Ее острые наблюдения за американской жизнью во времена кризиса и дислокации также сыграли свою роль в ее романах. За свою деятельность Дидион получила Национальную гуманитарную награду в 2012 году из рук президента США Барака Обамы. В релизе Белого дома, освещающего данное мероприятие, отмечалось, что Дидион осветила, казалось бы, второстепенные детали, которые занимают центральное место в нашей жизни – именно посредством второстепенных деталей Джоан Дидион удавалось передать психологизм в строках своих произведений, что получило признание у широкой публики и даже было отмечено на государственном уровне [1, с.113-116].

Тяготение к второстепенным деталям у Джоан Дидион могло сформироваться еще в детстве, ведь оно выпало на Вторую мировую войну. Война разразилась через несколько дней после того, как Дидион исполнилось семь лет, и когда ее отец поступил на военную службу, семья начала переезжать по стране. Жизнь на различных военных базах в детстве лишила Дидион друзей, но наделила пронизательностью и умение созерцать. После войны семья вернулась в Сакраменто, где Дидион закончила среднюю школу.

Она надеялась поступить в Стэнфордский университет, но эта попытка провалилась. После периода разочарования и депрессии она поступила в Калифорнийский университет в Беркли. Во время учебы в колледже она проявляла большой интерес к писательству и участвовала в конкурсе студенческих журналистов, спонсируемом журналом «Vogue». Стажировка в этом журнале стала

призом за победу Дидион в конкурсе. Для работы молодая писательница отправилась в Нью-Йорк. Стажировка Дидион в «Vogue» переросла в постоянную работу, которая длилась восемь лет. Она стала редактором и высокопрофессиональным писателем в мире глянцевого журналов. Она редактировала копии, писала статьи и обзоры фильмов и приобрела навыки, которые служили ей до конца ее карьеры.

В конце 1950-х годов она познакомилась с Джоном Грегори Данном, молодым журналистом, выросшим в Хартфорде, штат Коннектикут. Романтические отношения между ними не помешали стать редакционными партнерами. Когда Дидион писала свой первый роман «Ривер Ран» в начале 1960-х годов, Данн помог ей отредактировать его. В 1965 году Дидион и Данн переехали из Нью-Йорка в Лос-Анджелес, чтобы продолжить карьеру на телевидении, но не бросили писать для журналов [2, с.195-216].

Аннотация. Рауф Парфи, один из великих представителей узбекской литературы, был поэтом, покоровшим сердца читателей своей поэзией, запечатлённой на вечность. Его вступление в литературу также считалось уникальным событием, поэт, воспевавший свободу личности, независимость Родины и единство тюркского мира, был замечен литературной публикой и читателями с первых шагов его творчества. У всех была разная реакция на исследования поэта, и были даже те, кто не понимал его стихов и возражал. При этом поэзия поэта, обладающая неповторимым стилем, получила высокую оценку критиков и любителей поэзии. В данной статье речь идёт об изучении творчества Рауфа Парфи, обсуждении и спорах о творчестве поэта.

Ключевые слова: поэзия, поэт, литературная критика, критик, пафос в лирике, модернизм, дискуссия, критическое отношение.

CONTROVERSIES ABOUT THE WORK OF RAUF PARFI

Abstract. Rauf Parfi, one of the great representatives of Uzbek literature, was a poet who conquered the hearts of readers with his poetry that was sealed for eternity. His entry into literature was also considered a unique event, the poet who sang about individual freedom, the independence of the Motherland and the unity of the Turkish world was noticed by the literary public and readers from the first steps of his work. Everyone had a different reaction to the poet's research, and there were even those who did not understand his poems and objected. At the same time, the poet's poetry, which has a unique style, was highly appreciated by critics and fans of poetry. This article deals with the study of Rauf Parfi's creativity, the discussion and debates about the poet's works.

Key words: poetry, poet, literary criticism, critic, pathos in lyrics, modernism, debate, critical attitude.

Кириш. Жаҳон адабиётшунослигида адабий танқид жанрлари, уларнинг генезиси, тараққиёти, таркиби, ички шакллари, фольклор, мумтоз адабиёт билан боғлиқлиги, ўзига хос поэтик хусусиятларини тадқиқ этишга эътибор кучаймоқда. Баҳс ҳаётда, илмда, давлат ва жамоат ишларида катта аҳамиятга эга. Айниқса, адабиёт, адабий асар ва унинг яратилиши, хусусиятларини тадқиқ этувчи баҳс жанрининг табиати, муаллиф позициясида туганган ўрнини асослаш, структурал хусусиятларини очиқ бериш танқид тарихининг тараққиёт босқичларини белгилашда муҳимдир.

Дунё адабиётшунослигида адабий ҳаётда адабий танқид жанрларининг роли, аҳамияти, бадий дидни тарбиялашда яққол кўриниши, бадий асарни таҳлил қилиш, баҳолашга эътибор қаратилаётганлиги ижобий ҳодисалардандир. Жумладан, баҳсининг табиати ва ички турларини белгилаш ҳамда таснифлаш, адабиётни ривожлантиришда туганган ўрнини асослаш, композицион, структурал хусусиятларини тадқиқ этиш зарурати яққол кўринмоқда.

Ўзбек танқидчилигида баҳс адабиётнинг юксалиши, адабий жараён, ёзувчи ёки шоир ижодининг такомиллиги, китобхоннинг эстетик дидини тарбиялашда муҳим аҳамиятга эгаллигини илмий-назарий жиҳатдан тадқиқ этиш бугунги замонавий адабиётшуносликнинг долзарб мавзуларидан бири ҳисобланади. Шу боис “Адабиёт халқнинг юраги, элнинг маънавияти кўзгуси. Бугунги мураккаб замонда одамлар қалбига йўл топиш, уларни эзгу мақсадларга илҳомлантиришда адабиётнинг таъсирчан кучидан фойдаланиш керак”.

Адабий танқиднинг адабий жараён ва омма орасида шуҳрат қозонишига жанрларнинг ривожига ҳам ўз таъсирини кўрсатмоқда. Шу жиҳатдан қарайдиган бўлсак, баҳс жанрида кўпинча, бадиий асар ёки аниқ бир мавзу объект қилиб олинади ва бошқа мақолалардан фарқли равишда баҳс давомида қарашлар кенгайтирилади, фикрлар хилма-хиллиги ошиб боради, баъзан рад этилади, баъзан қўллаб-қувватланади. Адабий танқид адабий жараёндаги янгиликларни таҳлил қилар экан, янгиликни йўналишда яратилаётган бадиий адабиёт намуналари адабий ҳаётга ўзининг янгиликни концепция ва эстетик тамойилларини олиб қираётганлигини асослашга ҳаракат қилмоқда. Баҳснинг мақсади адабиёт майдонида пайдо бўлган бирор бир янги асар ёки ёзувчи, шоирнинг ҳаёти, ижоди билан боғлиқ баҳсли масалаларни ўртага ташлаб, ҳал этишдан иборат.

Асосий қисм. XX аср ўзбек адабиётининг ёрқин вакилларида бири Рауф Парфи шоир, носир, таржимон сифатида китобхонларга ўнлаб шеърлар, тўпламлар, таржима асарларини тақдим этган, ўзига хос мактаб яратган ижодкордир. Унинг асарларига Асқад Мухтор, Шукрулло, Миразиз Аъзам, Мирзо Кенжабек, Чори Аваз каби шоирлар юксак баҳо берганлар. О.Шарафиддинов, Иброҳим Ғафуров, Н.Раҳимжонов, Иброҳим Ҳаққул, Ботирхон Акрам, Улуғбек Ҳамдам, И.Ғаниев, О.Тўлабоев каби олимлар шоир ижоди ҳақида тадқиқотлар яратдилар, мақолалар, эсселар ёздилар. Масалан, Ўзбекистон Қаҳрамони, йирик мунаққид О.Шарафиддинов шундай ёзади: “Шундай шоирлар бўладикки, уларнинг ютуғи ҳам, камчилиги ҳам китобхон ва мутахассислар томонидан бир маромда баҳоланиб боради. Шундай шоирлар ҳам бўладикки, уларнинг асарлари жамоатчилик ўртасида ҳам, танқидчилар орасида ҳам кескин баҳсларга, мунозара ва тортишувларга сабаб бўлади. Ана шундай шоирлардан бири Рауф Парфидир” [Назаров, 1985, 153]. Ҳақиқатан ҳам, XX асрнинг 60-70-йилларида адабий танқидчилик Рауф Парфи шеърининг турлича талқин қилдики, бу борада баҳсу мунозаралар кучайиб кетганлиги кўринади. Аммо шунча баҳсу мунозаралардан кейин ҳам шоир ўз услубига, дунёни ўзича кўриши ва кўрсатишига содиқ қолган. Инсоннинг руҳий эркинлигини қуйлаш Рауф Парфи шеърининг меҳварини ташкил этади. Шунинг учун шоир шеърини туйғулар суратини, кечинмалар манзарасини, кайфият, ҳолатнинг тимсолларини яратиш алоҳида ўрин тутди. Бежизга шоирни туйғу-кечинмалар мусаввири деб аташмаган. Айнан шу жиҳатни тушунмаган китобхонлардан баъзилари “Бу шеър эмас, шоирнинг алаҳсирашлари, бизки, олимлар уларни тушуниб етмасак, оддий китобхон қандоқ тушунсин!” каби фикрларни айтишган.

Шоир ижодининг, шеърларининг йўналиши ва ўзига хослиги ҳақида, камчилиги ютуқлари ҳақида жиддий баҳслар бўлиб ўтган, уларда турли-туман, ҳатто, баъзан бир-бирига зид ва қарама-қарши фикрлар айтилган, шунга қарамай, шоир ижодини жиддий танқид қилувчилар ҳам унинг ўзига хос талант ва иқтидор эгаси эканлигини эътироф этганлар. Бу баҳсларда шоир ва ёзувчи А.Мухторнинг шоирни ҳимоя қилиб чиққани, (“*Мухтарам Асқад Мухтор шоирнинг ижоди ҳақида гапириб, бу шоир ҳис-туйғуларнинг суратини чиза билади, деган эди. Бу орада Рауф бирмунча тўпламларини шеърхонларга тақдим этди. Айниқса, унинг улуг Нозим Ҳикматнинг машҳур “Инсон манзаралари” асарини ўзбекчалаштиргани диққатга сазовор бир ҳолдир*”). А.Орипов) йиллар давомида унинг мулоҳазалари ҳақ эканлигини адабий танқид ҳам тан олгани ва шоир ижоди ҳақидаги баҳсларга муносабат билдириб, адабиётшунос Б.Назаров шундай ёзади: “Рауф ижоди ҳақида фикр юритувчи айрим танқидчилар унинг шеърларида баъзан лаҳзалик тушкун кайфиятлар қуйланишини, баъзан замондош қиёфасининг нотўғри талқин этилишини сўзлайдилар. Аслида шундайми? Мутлак йўқ дейиш менимча, нотўғри бўлур эди. Чунки Рауфнинг ҳазин руҳли шеърлари йўқ эмас ва оз ҳам эмас. Лекин энг асосийси, уларнинг моҳиятини тўғри аниқлай олишда, улардан тўғри хулоса чиқара билишда. Чунки Рауфнинг аксар шеърларидаги ҳазин кайфиятлар ҳазинликни мадҳ этиш учун эмас, аксинча, ундан қутулиш учун, нурли ҳолат, туйғу, кечинмаларни излаш, уларга интилиш мақсадида ва уларни ботинан тараннум этиш ниятида қаламга олинади” [Назаров, 1985, 154].

Рауф Парфи ижоди ҳақидаги баҳслар кейинги йилларда - Мустақиллик йилларида ҳам ҳам давом этди. Чунки ҳаёт ҳақиқатини бадиий ҳақиқатга айлантириш, ҳақ сўзни қуйлаш ўзбек шеърини таракқиётининг барча даврлари учун бош тамойил бўлиб келган. Лекин мақсадга эришиш йўллари, усуллари жуда турли-туман ва кўп. Масалан, мажозий образчилик ҳақиқатни айтишнинг, воқеликни,

хаётни реалистик идрок этишнинг шаклларида бири бўлиб, Р.Парфи ижодининг асосий йўналишини ташкил этади. Бу ҳақда адабиётшунос олим Н.Раҳимжонов шундай ёзади: “Ўтган асрнинг 80-йиллари ўзбек танқидчилигида бадиий тафаккурнинг ушбу кўриниши моҳиятини тушунмасликданми ёки тушунишни истамаганликданми, “Шеърингизни тушунтириб берсангиз”, “Шоир нима демоқчи, шеър нима деяпти” қабилдаги мақолалар юзага келди. Уларда Рауф Парфи шеърларидаги мажозий образларни, рамзларни Ғарбга тақлидчиликда, ўта мураккаблик ва мавҳумликда айблаш расм бўлди. Тимсолли образлар сарбастдаги изланишларида ёрқинроқ тажассум топгани боисиданми, уларни Ғарб шеърлятига тақлидда айблашди. Ваҳоланки, шеърнинг бу шакли аввалги минг йилликда мўсафид Шарқнинг қадимий битикларидаёқ мавжуд экан. Ушбу ходиса, айрим танқидчилар айтгандек, Ғарб ва Лотин Америкаси адабиётига тақлидан эмас, аксинча, эстетик таъсир самараси ўлароқ юзага келди. Шу боисдан ҳам шоир: ўзимизнинг қадимий ёзувларимизда ўзимизни қайтадан топдик, -дейди” [Раҳимжонов, 2007, 98].

Н.Раҳимжоновнинг “Бадиий дид ва эстетик савия” баҳс-мақоласи матбуотдаги баҳсларга, аниқроғи, ҳаваскор қаламкаш М.Йўлдошевнинг “Шоир нима демоқчи, шеър нима деяпти?” мақоласига жавобан ёзилган. “Куни кеча “Шеърингизни тушунтириб берсангиз” деган савол пайдо бўлган эди. “Шоир нима демоқчи, шеър нима деяпти” дея саволга тугилаяпти” деб ёзар экан, мунаққид М.Йўлдошевнинг фикри аниқ мақсадга йўналтирилмаганлиги, шеърнинг маъносини уқмаган ўқувчи уни ёзган шоирни ҳам англаши қийинлигини таъкидлайди. Ҳақли равишда мунаққид бугун Рауф Парфи шеърлярига шу тариқа саволларни қўяётган ўқувчи Алишер Навоий асарларини қўлига олса нима дер экан деган муаммоли масалаларни ўртага ташлайди ва бундай саволлар бўлишининг туб сабабларини излашга киришади. “Ҳамма айб шеърят ҳақидаги тасаввур ва тушунчаларнинг, эстетик мезонларнинг жўнлашиб кетганида. Бадиият мезонларининг ниҳоятда сийқалаштириб юборилганида...

Шўро мафкурасининг шеърлятни халққа яқинлаштириш, оммавийлаштириш учун олиб борган сиёсати салбий оқибатларга олиб келди. Унинг савияси тушириб юборилди” [Раҳимжонов, 2007, 109]. Классик адабиёт, Алишер Навоий асарларини таҳлил қилиб, олим энг муҳими, китобхоннинг дидини мумтоз шеърлятимиз савиясига кўтариш кераклигини уқтиради. Мунаққид шеърхон китобхоннинг шоир шеърлятига қўйган даъволарининг асоссиз эканлигини чуқур таҳлиллар орқали ёритади. Айниқса, “Она тилим” шеъри мисолида шоирнинг сўз танлаши ва “уларга заргарона сайқал бериши чинакам буюк бир меҳнат, бетимсол санъат намунаси” эканлигини очиб беради.

“Она тилининг нуроний тарихи ҳақида бундан ҳам дардчил, бундан ҳам образли сўзлаш мумкинми?

Шоир “Она тилим” шеърининг фикрий қурилишини тубдан ўзгартириб, уни учта сонетга айлантирган. Айтиш зарурки, ҳар бир сонет бадиий тафаккур кўламининг миқёслари, ҳиссий истеъдоди ва маъно мустақиллигига кўра тамомила янги, оригинал шеърлар” [Раҳимжонов, 2007, 108].

Жавоб тарзида ёзилган баҳс-мақола, энг аввало, ўзбек шеърлятида ўзига хос воқеа саналган шоир ижодини турли, асоссиз хуружлардан ҳимоя қилиши, иккинчидан, ижодкор шеърлярининг ўзига хос талқинларга бойлиги билан муҳим аҳамиятга эгадир.

Кўринадик, Рауф Парфи Ўзтурк ижоди, шеърляти ҳақидаги баҳслар шоирнинг ўзигва хос услубини янада ёрқинроқ кўрсатишга хизмат қилади. “Ҳақиқат баҳсларда туғилади” деганларидек, шоир ижоди чуқур мазмун-моҳиятга эгаллиги, оригиналлиги баҳсларда янада батафсил очиб берилганлиги кўрилади.

Хулоса қилиб шуни айтиш мумкинки, ўтган асрнинг 80-йиллари ва мустақиллик даврида адабий танқид янгиланиш йўлидан борди. Бу янгиланиш, аввало, танқидчи тафаккуридаги ўзгаришлар билан боғлиқ ҳолда намоён бўлди. Таназзулга юз тутган ва синфийликка асосланган марксча-ленинча дунёқараш ўрнига эркин фикрлайдиган, бадиий асарнинг моҳиятини матндан келиб чиқиб талқин этадиган янгича танқид тафаккури шакллана борди. У ўзининг ёндашув ва усулларини, эстетик тамойилларини вужудга келтира бошладики, яратилган баҳсларда бу жиҳат яққол кўрилади.

Ўзбек адабиётшунослигида адабиётнинг тараққиёти учун хизмат қиладиган баҳсларни ўрганиш маълум бир давр адабий жараёни, унда кечган адабий тортишувлар ва бунда танқидчи, ижодкорларнинг роли ва ўрни масаласига ойдинлик киритиш имконини бериши яққол намоён бўлмоқда. Мунаққид қайси жанрда бўлмасин, асарни таҳлил қилар экан, унинг ичидагина қолиб кетолмайди, асардаги бадиий воқелик билан реал воқеликни киёслайди, асардаги бадиий ҳақиқат ҳаёт ҳақиқатига қанчалик тўғри келишини аниқлашга, асарда қўйилган муаммоларнинг ҳаётий

илдизларини очишга интилади. Шу билан бирга адабий жараёндаги баҳсларга муносабат билдириш орқали ўзининг позициясини ҳам аниқ кўрсатади. Ҳар бир мунаққиднинг адабий-тарихий жараёндаги мавқеи долзарб, илмий муаммоли масалаларни кўя олиш, уларга муносабат билдириши, ҳал қилишга киришиши билан белгиланади. Ҳақиқий олим далиллар моҳиятини ёритади, уларни куруқдан-куруқ санаб ўтиш билан чекланмайди. Танқидда объективлик, холислик тамойилларига амал қилишга ҳаракат қиладики, бунда билим даражаси, дунёқарашнинг кенглиги ҳам муҳим роль ўйнайди.

Адабий танқиднинг бошқа жанрлари сингари баҳс ҳам бугун шаклий изланишларда. Шунинг ўзиёқ бу жанрнинг тараққиёт йўлида эканлигини кўрсатади. Шу жиҳатдан баҳслар ҳам адабиётнинг ривожланиши ва ўсишига алоҳида замин яратмоқда. Унда бутун масъулият муаллиф зиммасига юкланган. Шахс ва ижод мутаносиб бўлгандагина етук асар яратилади эмас, балки аксинча, етук асарларни етук шахслар яратадилар. Бу тарихда исботланган ҳодиса ва ҳеч қачон ундан кўз юмиб бўлмайди.

Баҳснинг бошқа танқид жанрларидан фарқи шундаки, унда кўтарилган муаммога бирдан ортиқ ёки бир неча ўнлаб адабиётшунос, олимлар фикр билдириши мумкин. Уларнинг баъзи бирлари, табиийки, бир позицияда туриб, бир фикрни, бошқалари ундан фарқли фикрни ҳимоя қилиши мумкин. Китобхонда қандайдир даражада мулоҳаза уйғотишининг ўзи баҳс характеридаги асарларнинг маълум аҳамиятга эга эканлигини кўрсатади. Адабий баҳслар кўйилган муаммони ечиш нуқтаи назаридан ҳам, поэтик, композицион қурилиши томонидан ҳам жанр талабларига жавоб бера олиши билан диққатга сазовор.

Мустақиллик йилларидаги баҳслар мунаққидларнинг фаоллиги ошганлиги, илмий таҳлиллар кучайганлиги, фикрлар “жанги”нинг миқёси кенгайиб бораётганлиги, мунозаралар одат тусига кириб бораётганлигини адабий танқидчиликдаги устувор тамойиллардан бири деб ҳисоблаш мумкин. Шу билан бирга талабчанлик, мавжуд нуқсонларни йўқотишга интилиш, ҳали адабиётни юксалтириш борасида амалга оширилиши лозим бўлган вазифалар кўплиги ҳам аён бўлмоқда. Адабий-бадиий танқид савиясини кўтариш учун турли хил баҳслар уюштирилиши лозим ва бу баҳслар ҳақиқатни кашф этишга, китобхоннинг эстетик дидини тарбиялашга қаратилиши зарур. Бу жаҳҳада адабий танқид жанрларидан бири адабий-танқидий баҳснинг ўрни ва роли муҳимдир.

Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, адабий танқидчиликда мунаққидлар томонидан ўзбек шеърятининг йирик вакиллари ижодини, жумладан, Рауф Парфи ижодини ўрганиш, турли қирраларини ёритиш бугунги кунда ҳам давом этмоқда.

АДАБИЁТЛАР:

1. Назаров Б. *Ҳаётийлик безавол-мезон. Тошкент. “Ёш гвардия”. 1985. – Б.153.*
2. Рауф Парфи. *Сабр дарахти. Тошкент. 1986.*
3. Рауф Парфи. *Сукунат. Тошкент. 1991.*
4. Раҳимжонов Н. *Мустақиллик даври ўзбек шеърятини. Тошкент. Фан, 2007. 98-бет.*
5. Раҳимжонов Н. *Бадиий дид ва эстетик савия. Китобда: Мустақиллик даври ўзбек шеърятини. Тошкент. Фан, 2007. 108-бет.*

KO'NGIL TIMSOLINING RAMZIY MOHIYATI

*Qahharova Dilafro'z Abdug'afforovna,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Jahon adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi*

Annotatsiya. Maqolada mumtoz adabiyotda ramz tushunchasi uning mazmun-mohiyati va lirikada keng qo'llanishi xususida so'z boradi. Shuningdek aynan ko'ngil timsolining ramziy mohiyati haqida fikr-mulohazalar keltirib o'tilgan. Bobur lirikasida qo'llanilishi qanday ma'nolarda aks etib kelganligi shoir g'azal va ruboiylaridan misollar keltirish orqali tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: ko'ngil, timsol, obraz, ramz, majoz, mohiyat, qalb, ishq, muhabbat, yor, ma'shuqa, do'st, tasavvuf, ilohiy ishq.

СИМВОЛИЧЕСКАЯ СУТЬ ИЗОБРАЖЕНИЯ СЕРДЦА

Аннотация. В статье говорится о значении понятия символа в классической литературе и его широком использовании в лирике. Существуют также мнения о символическом характере изображения сердца. На примере газелей и рубаи поэта анализируются смыслы его употребления в лирике Бабура.

Ключевые слова: сердце, символ, образ, символ, метафора, сущность, сердце, любовь, возлюбленный, друг, мистика, божественная любовь.

SYMBOLIC ESSENCE OF HEART

Abstract. The article talks about the meaning of the concept of symbol in classical literature and its wide use in lyrics. There are also opinions about the symbolic nature of the image of the heart. The meanings of its use in Babur's lyrics are analyzed by giving examples from the poet's ghazals and rubai.

Keywords: heart, symbol, image, symbol, metaphor, essence, love, lover, friend, mysticism, divine love.

Kirish. Adabiyotda biror bir asar yoki she'ning yaralishi ijodkordan katta mahorat talab qiladi. U muallifning tinimsiz mehnatlari, izlanishlari, uyqusiz tunlari, halovatsiz hayoti, buyuk iste'dodining samarasi o'laroq maydonga keladi. Ayniqsa u ijodkor ham nasrda ham nazmda ijod qilsa bu holat badiiy ijoddagi eng nodir va ulkan hodisa sifatida baholanadi. Mumtoz ijodkorlar ko'ngil satrlarini so'z orqali qog'ozga tushirishgan. Bundan ham hayratlanarlisi shundaki so'zni so'zlatish asnosida uning ramziy ma'nosini qo'llash orqali yana ham jozibali qilishgan. Mumtoz adabiyotda shoirlar qalb kechinmasini biror bir timsolning ramziy mohiyatini keng yoritish orqali namoyish etishadi. To'g'rirog'i biror bir so'zning ramziy ma'nosini qo'llash Zardushtiylik davridan meros qolgan desak xato bo'lmaydi. Aynan ramz tushunchasi "Avesto"da qo'llanilgan. Ramz – badiiy adabiyotda voqelikni badiiy aks ettirishning shartli usuli, badiiy shartlilik shakllaridandir. Ramz ma'jodan farq qilib mazmuni obrazli qurilishi bilan bog'liq bo'ladi va ko'p ma'noliligi bilan ajralib turadi. Ramz barcha xalqlar folklori va adabiyotida qadimdan mavjud. Ramziy obrazlar muayyan tizimni tashkil etadi va ayrim hollarda ko'pchilik xalqlar adabiyoti va san'atida mushtarak mazmuni ifodalaydi.

Mumtoz adabiyotimizning durdona asarlarida ramz va majoz bilan so'zlash an'ana bo'lgan. Hozirgi davrning adabiyot shaydolari hisoblangan kitobxonlar, mumtoz adabiyotni yaxshiroq anglab yetishi o'sha vaqtdagi ijodkorning asl maqsadini tushunishi uchun ramz va majoz haqida batafsil ma'lumotga ega bo'lishi kerak. Shu o'rinda ramz va majoz istilohlarining qisqacha izohini keltirib o'tishni joiz deb bildik.

Ассоний қисм. Ramz – simvol; ko'chim turlaridan biri, faqat shartli ravishda va shu matn doirasida ko'chma ma'no kasb etuvchi so'z yoki so'z birikmasi;

Majoz – mumtoz adabiyotshunoslikda so'zni o'z ma'nosida emas, boshqa bir ko'chma ma'noda ishlatish, ko'chinning umumiy nomi.[1] Adabiyot tarixida asrlar davomida ishlatilib kelinayotgan ramziy obrazlar tizimi ham mavjud. Masalan, "gul" – go'zallik, ma'shuqa; "bulbul" – oshiq; "sariq rang" – mahzunlik; "qora rang" motam ramzi va hokazo. Hozirgi zamon adabiyot ixlosmandlari mumtoz adabiyot namunalari yaxshiroq tushinish, o'sha davrdagi muallifning asl maqsadini anglash uchun ramz tilini

bilishimiz kerak. Xalq ogʻzaki ijodiyoti va mumtoz adabiyotda keng koʻlamda ishlatilgan ramziy tasvir usuli hozirgi adabiyotda ham muvaffaqiyatli qoʻllanilmoqda.

Bizga maʼlumki koʻzgu yoki oyna insonlar oʻz aksini koʻrishi uchun moʻljallangan bir matoh hisoblanadi. Ammo, mana shu oddiy roʻzgʻor buyumi adabiyot va sanʼatda maʼlum bir oʻringa ega. “Xalq udumlarida ham oynaga alohida maʼno yuklanadi. Kelin-kuyovni chimildiqda oynaga teng qaratish, chaqaloq yostigʻi tagiga kichkina koʻzgu qoʻyish kabi udumlar ota-bobolarimizning yomon ruhlar oynadan qoʻrqib qochadi degan ishonchlari zamirida paydo boʻlgan. Koʻzgu yorugʻlik, porloq iqbol, yorqin kelajak ramzi hisoblangan.

Islom dini va tasavvuf taʼsiridagi mumtoz adabiyotda ushbu obraz inson koʻnglini ifodalaydi. Toza tutilgan koʻngil oynasida esa Alloh jamoli zohir boʻladi”[2]. Sharq shoirlari qalb va koʻngilni inson maʼnaviy hayotining bosh markazi va mahzani deb bilishgan. Koʻngilni poklash va uni ishq, goʻzallik oynasiga tenglashtirish kamolot yoʻlidagi asosiy vazifalardan hisoblangan. Chunki oshiqlik, oriflik, komillik – bularning barchasining istiqboli koʻngilga bogʻliqdir. Zero, Alloh vujudagi qalbdan boshqa biror aʼzoga maʼrifat mushohadasiga, gʻaybiy sirlarni kashf etmoq salohiyatini nasib etmagan*.

Tuygʻu, fikr-mushohada va tasvir — bularning barisi Sharq adabiyotida, avvalo, mazmun va mohiyatga asoslanadi. Eski adabiy matnlar bilan tanishganda soʻzning baʼzan oʻnlab maʼno-mazmuni bilan qiziqishga toʻgʻri keladi. Agar shunday qilinmasa, ayni bir ijodkor ulardan qanday maqsadlarda foydalangani ham, matndan matnga koʻchgan sayin soʻzdagi maʼno oʻzgarishi yoki yangilanish sabablari ham ochilmasdan qolaveradi. Bobur ham oʻz lirikasida bir necha oʻrinlarda “koʻngil” timsolidan keng foydalangan. Ishqiy va hasbi hol mavzusida ijod qilgan shoir lirikasining deyarli barchasida koʻngil timsoliga murojaatni sezamiz. Shuningdek, shoirning lirikasida aql, jon, yor, zulf, qosh, soch, koʻz, visol, borliq, Alloh va koʻngil munosabati aks etgan. Sheʼrlarda Haq taoloning tengsiz xazinasi, nazargohi hisoblangan maʼrifatga toʻla orif koʻngil, ishq-muhabbat shiddatidan mast-u behud, parishon junun sifatiga sohib oshiq koʻngilning holatlari oʻz aksini topgan. Zahiriddin Muhammad Bobur koʻngilni anʼanaviy tarzda goh gulga, goh esa gʻunchaga, goh paykonga oʻxshatadi.

Shoir koʻngil timsoliga eng ishonchli doʻst sifatida qaraydi va murojaat qiladi. Ana shu qarashi va murojaati zamirida shoirning koʻngil toʻgʻrisidagi oʻziga xos qarashlari va badiiy talqinlari yuzaga chiqadi desak xato boʻlmaydi. Haqiqatdan ham xoh yurtni sogʻinish boʻlsin, xoh hijron boʻlsin yoki ishq- muhabbat mavzusi boʻlsin hammasida Bobur Mirzoning koʻngil holati qalbining dard-u hasrati aks etadi. Aynan shu sababli ham shoir sheʼrlari kitobxon qalbiga yaqin. Bobur oʻz lirikasida koʻngil timsolining ramziy mohiyatini ham oʻzgacha tasvir-u tavsiflaydi desak xato boʻlmaydi. Bobur lirikasining talay qismi koʻngil timsoli bilan bogʻliq. Koʻngil soʻzini shoir qaysi maʼnoda ishlatgan? Koʻp hollarda bu soʻzlarning birgina — paykon yoki boʻlmasam gʻuncha maʼnosiga urgʻu berib kelingan. Vaholanki, mumtoz adabiyotda ayniqsa lirikada bu istilohning maʼnosi ancha keng va turlichadir.

“Bobur oshiqona mavzudagi sheʼrlarida faqat ishqiy kechinmalar-iztiroblar, vasl ayyomidan shodumonliklarni kuylash bilangina cheklanmaydi. Ularning zamiriga hayotiy tajribalaridan anglagan, murakkab qismat zarbalaridan his qilgan falsafalarni, xulosalarni ham singdiradi:

Ey koʻngul, yuzin koʻrib zulfiparishonin sogʻin,
Shomi hijrondin tavahhum ayla vasl ayyomida.

Hayot ziddiyatlarga toʻla. Oʻz taqdirida buning guvohi boʻlgan Bobur yuqoridagi baytda qarama-qarshiliklarga yoʻgʻirilgan inson umri sahifalarini tazod sanʼati vositasida yoritishga harakat qiladi. Shoir koʻngilga murojaat etib, diydorga erishganda, yuzni toʻsuvchi zulfi, visol ayyomida esa hijron tunini unutmashlikni uqtiradi. Bundan shoirning maqsadi, birinchidan, bu ikki - shodmonlik va qaygʻu holati har daqiqada oʻrin almashishi mumkinligini eslatish boʻlsa, ikkinchidan, masrur damlar gʻanimatligini, uni qadrlashni anglashga daʼvat, uchinchidan esa, har qanday vaziyatda ham insonni oʻz muvozanatini saqlashga chorlovdur. Bu kabi chuqur hayotiy mulohazalar shoir sheʼriyatining ijtimoiy mohiyatini oshiradi”[4].

Hayot hamma narsani oʻzgartiradi, oʻzgarib odamlar nazaridan oʻtib eskirganlarini tarixga aylantiradi. Barcha holat va hodislarni tarix toʻlaligicha yashira olmaganidek, oxirigacha oshkor ham etolmaydi. Shu boisdan ham nimalardir hamisha yashirin qoladi. Ana oʻsha yashirin qolgan narsalar esa hamisha insonga katta qiziqish tugʻdiradi uni anglashga nimaligini his etishga turtki beradi. Oʻsha vaziyatda koʻngil holatini bir maromda ushlab va vaziyatga qarab qaror qabul qilishga undaydi. Toʻgʻri bu holatda aql asosiy oʻrinda turadiku deysish mumkin, ammo insondagi barcha his-tuygʻularni koʻngil boshqaradi. Aytaylik, maʼnaviy komillik sari odim qadam tashlagan solih bir inson komillikning sir-sanoatini kashf etgach, muhtasham bir “koʻngil osoyishtaligiga” yuzlashadi. “Qalb koʻzi”, “koʻngil oynasi” sifat eʼtibori bilan uning ichki dunyosini oʻzgartirar ekan, ayni paytda uni ragʻbatlantiradi. Shunda u moddiy dunyoning qoʻpollik,

yomonlik, chirkinliklaridan chetlashish bilan kifoyalanmasdan, hatto o'zining bashariy xususiyatlaridan qutilishni o'ylay boshlaydi. Oshiq holati ham xuddi shunday oshiqlik shavqi, erk va farahi uni oriflik maqomiga ko'taradi. Zohidmi, oshiqmi, g'arib yoki miskinmi – endi unga nomning, maqomning ahamiyati qolmaydi. Boisi u “ko'ngil oromi”ga, “ko'ngil osoyishi”ga ega uning ruhiyatidagi evrilish, chinakam Ma'rufiy zavq solihni Allohning eng sodiq, eng xokisor quli holiga yetkazadi. Ammo, shohlikdan ham oliy ubudiyat (qullik) darajasini qo'lga kiritish o'z-o'zicha va osonlik bilan bo'lmaydi, albatta. Ko'rib turganimizdek barcha holat va vaziyatda ham ko'ngilga murojaat qilinadi. Ko'ngil osoyishtaligi insonni har qanday mushkuloti, muammo oldida o'zni erkin tutishga undaydi. Bobur lirikasida yuqorida ta'kidlaganimizdek ko'ngil gul, paykon, g'uncha, bog'bon, zulfga o'xshatilgan she'rlar juda ko'p. Bu tashbehlar ichida ko'ngilni zulfga qiyos etilishi mazmun-mohiyatiga ko'ra ayniqsa e'tiborlidir. Bobur she'rlarining aksariyatida lirik qahramon uning o'zidir. Shoirning bir ruboysida lirik qahramon ko'ngilni yorning zulfiga o'xshatib:

Mayxonasi sari guzar, ey jon, qilma,
Ishrat uyini kulbayi ahzon qilma,
Zulfung kibi ko'nglumni parishon aylab,
La'ling kibi bag'rimni to'la qon qilma.

Ruboiyda keltirilgan ko'ngil zulf timsoliga mazmunan mujassamlashtirilgan. Shoir bu yerda yorning zulfiga o'xshatgan ko'ngilni parishonligini ta'kidlaydi.

Umuman olganda mumtoz adabiyotda ko'ngilga shaxs maqomi berilgan. U oshiq, orif, ishonchli do'st, lirik qahramonga rahnamolik qiluvchi inson sifatida gavdalanadi. Ko'ngilga bunday yuksak qaralishi va bunday yuksak maqomning berilishi uning poklik mazhari ekanligidadir. Shunday qilib Bobur lirikasida ko'ngil timsolining o'rni, ahamiyati, ma'no va mundariyasi, hissiy-emotsional ta'sir shakllarini tadqiq etish jihatidan quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Birinchi, ular shoir she'riyatining botiniy xususiyatlari va sir-asrorlarini ochishga xizmat qiladi;

Ikkinchi, Boburning san'atkorlik mahoratini yanada keng va chuqur yoritishga yaqindan yordam beradi;

Uchinchi, shoir she'riyatidagi ko'ngil timsoli bilan bog'liq jihatlarni so'zning yuksak qudrati bilan jonlantiradi;

To'rtinchi, lirik qahramon misolida qalblarga kirib boradi va junbushga keltiradi;

Zero ko'ngil timsoli tasvirlaridan ulug'shoh va shoir Boburning qalb kechinmalari, dard va iztiroblarini qanchalik mukammal his qilganligini bilishimiz mumkin. Bobur she'riyatida ko'ngilni turfa holatda uchratamiz xususan:

1. Vatandan ayriliqdagi sog'inchga to'la ko'ngil;
2. Yaqinlardan xiyonat ko'rgan iztirob va dardga to'la ko'ngil;
3. Ishq va muhabbatdan masrur ko'ngil;
4. Sadoqat va vafodan mamnun ko'ngil;
5. Ma'shuqasining ozori sitamlaridan jabr chekkan ko'ngil;
6. Jang-u jadallarda g'alaba qozongan g'olib ko'ngil;

Alisher Navoiyning e'tirofi bo'yicha olamni yaratishdan maqsad odam bo'lsa, odamdan maqsad esa ko'ngil edi. Navoiy ko'ngilni “lahmi porai sanubari (go'sht parchasi) deb emas “badan mulkining sultoni, ma'rifat bog'idan vahdat rayohinining esgan nasimi ruhoniya gulistonidan oshnolig' gullarining samimi”[5] deb bilgan. Alisher Navoiy she'riyatida Boburnikidan farqli o'laroq ko'ngil shahar, mamlakat, uy, kishvar, xaroba, mayxonaga o'xshatilgan baytlar juda ko'p. Bu tashbehlar ichida ko'ngilning Ka'baga qiyos etilishi mazmun- mohiyatiga ko'ra ayniqsa e'tiborlidir. Yassaviy tariqatining davomchisi va tariqat asoschisi alloma Hoja Bektoshi Valiy “Olamda Baytul Ma'mur bor, Ka'ba ham bor. Biroq ko'ngil ikkovidan ham qimmatlidir. Chunki Baytul Ma'mur Karrubiya nomi berilgan (buyuk malaklar tavof etadigan bayti sharif) ko'kdadir. Karrubiylar (buyuk malaklar) tavof qiladilar. Ammo, ko'ngil Podshohi Olam Tangri nazargohidir”[6], - deb yozadi. Bobur ijodida ham ushbu an'anani guvohi bo'lishimiz mumkin. Shoir turkiy she'riyatda Alisher Navoiydan keyin Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlarida uchraydigan ko'ngil parvozi, ilohiy sayr haqidagi fikrlarni rivojlantirdi.

Misol uchun:

Kabutar, eltasen xattim, ne bo'lg'ay gar qabul etsang,
Ko'ngulni bog'lasam ul noma yanglig' parru bolingga.

Xususan, yuqoridagi baytda shoir o'z ko'ngilni yorsiz bir joyda qaror topmasligini, shu sababli ham ko'ngilni nomaga qo'shib kabutar bilan yor tomon uchirmoq niyatida ekanligini bayon qilgan. Bobur ajoyib

va serqirra ijodkor shu boisdan ham uning lirikasi mazmun va ma'no jihatidan juda yuksak mahorat bilan yaratilgan.

Ma'lumki, ko'ngil holatini anglashda va anglaganini tasvirlab berishda qiyinchiliklarni ko'rish, firoy azobini tortish, musofirlikdagi hayotni kechirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu holatda adabiyotda, she'riyatda ijod qilgan shoir o'zini yuksaklikda ko'ra oladi. Bobur ham ana shunday ijodkor. Taqdirning o'zi uni turfa sinovlar girdobiga tashladi, Vatandan, yordan, farzand-u jigarlardan ayirdi, musofirlikning iztiroblarini his ettirdi. Mana shularning barchasi yig'ilib shoir ijodida ko'ngilning nozik kechinmalarini tarannum etdi. Ko'ngil timsoli aks etgan she'rlar esa o'zini anglash, ilgarilash va komillikni istovchi ko'ngil uchun go'zal fursat bo'lib xizmat qildi. Boburni ko'ngil kechinmalarini chuqur his etib ularni kitobxonga maromiga yetkazib bera olgan shoirlar sirasiga kiritsa bo'ladi. Yana ham aniqroq qilib aytadigan bo'lsak Bobur – ko'ngil kuychisi. Butun boshli Boburiylar saltanati asoschisi bo'lishiga qaramasdan mol-dunyoga hirs qo'ymagan. Butun fikri-zikri ortida qolgan Vatanida bo'lgan shoir lirikasida ham o'ziga o'xshagan oqil insonlarni aks ettiradi.

Xulosa. Shoirning lirikasi va ulardagi fikr-qarashlari doim va har joyda e'tiborga loyiqdir. Hattoki bazi she'rlarining tarbiyaviy jihati shunchalar yuqoriki, undan ma'naviyat darslarida foydalansa bo'ladi. Zero, she'rlarda asosan, ishq, muhabbat bilan bir qatorda yaxshilik, axloq bosh g'oya sifatida kuylangan. Bobur she'riyati har davrdagidek, bugun ham turkiy xalqlar uchun yaxshi bir ta'lim-tarbiya vositasidir.

ADABIYOTLAR:

1. *Adabiyot nazariyasi. 1-jild. – T.: 1978, 59-b*
2. *Mamadaliyeva. Z yoshlik jurnali. Nasrda falsafiylik va ramziylik – T.: 2017-yil, 9-son.*
3. *Imom G'azzoliy. Ihyon ulumid-din. 4-jild. Istanbul, 1993. 14-b.*
4. *Jumaxo'ja N., Adizova I. O'zbek adabiyoti tarixi. T.: Innovatsiya-Ziyo. 2020. 79-b*
5. *Alisher Navoiy. MAT. 14-jild. (Mahbub ul-qulub) Toshkent, 1998. 92-b*
6. *Xoja Bektoshi Valiy. Maqolot. – T., 2000. 39-b.*
7. *Bozorova. N, Navoiyning ijod olami maqolalar to'plami. //ko'ngil timsoli va tasvir san'ati// T.: "Fan". 144-b*
8. *Bekmirzayeva. X. Bobur she'riyatida poetic obraz. – T.: Muharrir, 2013. 22-b*
9. *Isxoqov. Y. Alisher Navoiyning ilk lirikasi, T.: 1965. 76-b*
10. *Bobur. Z.M. Bobur she'riyatidan. – T.: 1982. 42-b*
11. *Alisher Navoiy. Hayratul abror. MAT. 20 jildlik. – T.: Fan, 1991. 7-jild*
12. *Zahiriddin Muhammad Bobur ensiklopediyasi, T.: 2017. 282-283 b.*

УДК 82

СОВРЕМЕННАЯ УЗБЕКСКАЯ ПРОЗА: СОХРАНЕНИЕ МИРОВЫХ ЛИТЕРАТУРНЫХ ТРАДИЦИЙ

*Саидова Нилуфар Зарифовна,
преподаватель кафедры русского языка и литературы,
Каршинский государственный университет*

Аннотация. В статье отражено влияние мировой литературы на современную узбекскую прозу. Авторы анализируют различные аспекты взаимодействия между узбекскими писателями и мировыми литературными традициями, исследуя способы, которыми узбекская проза усваивает и переосмысливает международные литературные влияния. В статье рассматриваются темы, мотивы и стилистические приемы, которые проявляются в современной узбекской прозе под влиянием различных литературных школ и направлений. Исследование вносит важный вклад в понимание эволюции узбекской литературы и ее места в мировом литературном контексте.

Ключевые слова: узбекская проза, мировые литературные традиции, влияние, анализ, писатели, взаимодействие, усвоение, переосмысление, темы, стилистические приемы.

ZAMONAVIY O‘ZBEK NASRI: JAHON ADABIY AN’ANALARINI SAQLAB QOLISH

Annotatsiya. Maqolada jahon adabiyotining zamonaviy o'zbek nasriga ta'siri yoritilgan. Mualliflar o'zbek yozuvchilari va jahon adabiy an'analari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning turli jihatlarini tahlil qilib, o'zbek nasrining xalqaro adabiy ta'sirlarni o'zlashtirish va qayta ko'rib chiqish usullarini o'rganadilar. Maqolada zamonaviy o'zbek nasrida turli adabiy maktablar va yo'nalishlar ta'siri ostida namoyon bo'ladigan mavzular, motivlar va uslublar muhokama qilinadi. Tadqiqot o'zbek adabiyoti evolyutsiyasi va uning jahon adabiy kontekstidagi o'rnini tushunishga muhim hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: o'zbek nasri, jahon adabiy an'analari, adabiy ta'siri, tahlil, yozuvchi, o'zaro ta'siri, o'zlashtirilish, qayta ko'rib chiqilishi, mavzular, uslubiy texnika.

MODERN UZBEK PROSE: PRESERVATION OF WORLD LITERARY TRADITIONS

Abstract. The article is the influence of world literature on modern Uzbek prose. The authors analyze various aspects of the interaction between Uzbek writers and world literary traditions, exploring the ways in which Uzbek prose assimilates and rethinks international literary influences. The article examines the themes, motives and stylistic techniques that manifest themselves in modern Uzbek prose under the influence of various literary schools and trends. The study makes an important contribution to understanding the evolution of Uzbek literature and its place in the world literary context.

Keywords: Uzbek prose, world literary traditions, influence, analysis, writers, interaction, assimilation, reinterpretation, themes, stylistic techniques.

Введение. Узбекистан, с богатой историей и культурным наследием, является местом, где современная литература процветает и развивается. В последние десятилетия узбекская проза привлекает все большее внимание как внутри страны, так и за ее пределами. Современные узбекские писатели активно экспериментируют с различными стилями и формами, создавая произведения, которые касаются глубинных философских и эмоциональных аспектов человеческого существования.

В этой статье мы рассмотрим особенности узбекской прозы и ее влияние на современную литературу. Мы исследуем модернистские элементы, которые нашли свое место в узбекской прозе, а также связь с реализмом и национальными традициями. Будет рассмотрено, какие методы и приемы использовали узбекские писатели для выражения своих идей и эмоций, и какие темы и проблемы они освещают в своих произведениях.

Также будет рассмотрено влияние западной и восточной литературных традиций на узбекскую прозу. Мы обратимся к примерам современных узбекских писателей, которые смело переосмысливают и адаптируют различные литературные подходы, чтобы создать оригинальные и многогранные произведения.

Исследование узбекской прозы поможет нам лучше понять развитие современной литературы в Узбекистане, а также ее вклад в мировое литературное наследие. Мы увидим, как узбекская проза отражает современные социальные и культурные реалии, а также как писатели используют язык и стиль для создания уникальных произведений и выражения своей индивидуальности.

Таким образом, данная статья предоставит обзор современной узбекской прозы, ее особенностей и влияния на литературное искусство. Мы будем исследовать множество тематик, стилей и подходов, которые делают узбекскую прозу интересной и значимой для читателей. Особенности художественной литературы всегда характеризовались обновлением как формы, так и содержания. Это указывает на необходимость новых идей и героев для каждого исторического периода литературы, что свидетельствует о социально-эстетической потребности каждого общества и национальности. Художественная литература играет ключевую роль в удовлетворении этих потребностей.

Материалы и методы. Для написания данной статьи был проведен обзор современной узбекской прозы, основанный на доступной литературе, критических исследованиях и литературных произведениях. Были использованы как печатные, так и электронные источники, включая книги, статьи, журналы и академические публикации.

Для определения особенностей узбекской прозы и ее влияния на современную литературу был проведен анализ различных произведений узбекских писателей, включая романы, рассказы и сборники рассказов. Были выделены модернистские элементы, стилистические особенности и тематические направления, которые характеризуют узбекскую прозу.

Также был проведен обзор влияния западной и восточной литературных традиций на узбекскую прозу. Были рассмотрены примеры известных писателей и их произведений, где было выявлено влияние различных литературных школ и стилей на узбекскую литературу.

В процессе написания статьи использовались методы литературного анализа и сравнительного анализа. Были выделены общие тенденции и особенности узбекской прозы, а также сделаны выводы о вкладе узбекской литературы в мировое литературное наследие.

Важно отметить, что данная статья основана на информации, доступной к моменту ее написания в 2023 году. Дальнейшие исследования и публикации могут привести к новым открытиям и выводам в области узбекской прозы и ее влияния на современную литературу.

Результаты и обсуждение. Современные тенденции обновления в литературе независимой эпохи и ее особенности отражаются в разнообразных способах описания, которые отражают влияние передовых творческих опытов мировой литературы и принципов изображения современной узбекской прозы. Особенно заметный прогресс обновления можно наблюдать в опыте авторов, которые начали свой творческий путь во второй половине XX века, в период сильного давления советской идеологии, а также в творчестве писателей в годы независимости.

Например, Ульмас Умарбеков, который хорошо ознакомлен с европейской литературой, создал цикл рассказов, посвященных гайдукам - отважным борцам за освобождение Родины из болгарской истории. Пиримкул Кадыров в своем романе "Уч илдиш" ("Три поколения") и Ульмас Умарбеков в повести "Севгим, севгилим" ("Любовь моя, любимая") внесли в узбекскую литературу реалистическое изображение трагической участи просветителей, которые несправедливо стали жертвами репрессий в 1937 году.

Шукур Холмирзаев, хорошо знакомый с творчеством Эрнеста Хемингуэя и Михаила Шолохова, в своих произведениях подражал им. Его рассказы внушают веру большинству читателей и вызывают интерес тем, что речь его героев близка к живому народному языку. В его изображении "маленькие" и "бедные" люди не теряют своего человеческого достоинства во взаимоотношениях с высокопоставленными руководителями райкомов и колхозов. В повести "18 кирмаган ким бор" ("Кому не было 18 лет") писатель изображает юношу, который сбил с пути своего старшего брата жену. В своих произведениях писатель объективно и естественно описывает как положительные качества, так и низкие поступки своих героев, что усиливает реалистическую сущность узбекского жанра рассказа, аналогично европейскому.

Действительно, в произведениях Шукура Холмирзаева можно найти реминисценции и отсылки к великим писателям мировой литературы, таким как Лев Толстой. Это свидетельствует о влиянии западной литературы на творчество узбекского писателя.

В рассказе "Осенью весенний воздух" Холмирзаев описывает боярышник, который растет в сложных горных условиях. Метафорические сравнения и детали, которые он использует, напоминают

описания природы в произведениях Льва Толстого. Холмирзаев также упоминает шиповник, что может быть ассоциацией с романом Толстого "Анна Каренина", в котором шиповник символизирует неприятности и несчастья.

Кроме того, в рассказе "Солнце-то плывет по небосводу" Холмирзаев описывает переживания молодого парня, который встречает загадочную женщину. Здесь можно увидеть отголоски тематики любовных историй и взаимоотношений, которые присутствуют в произведениях Льва Толстого и Ивана Бунина.

Такие отсылки и реминисценции к классической литературе являются характерными чертами многих современных писателей. Они обогащают тексты и добавляют глубину и сложность восприятию произведений. В узбекском литературоведении произведения Шукура Холмирзаева признаются в качестве образцов, сопоставимых с произведениями мировой литературы, благодаря их художественной ценности и умению использовать литературные приемы и мотивы.

Рассказ "Писатель" Эркина Агзама действительно является выражением мыслей и духовного наследия автора. Он посвящен Шукуру Холмирзаеву, наставнику и вдохновителю самого Агзама, и в нем автор изображает образ честного труженика, который оставляет свой след в мире.

В рассказе Агзам сравнивает Шукура Холмирзаева с садовником, который заботится о своем саду и создает красоту вокруг себя. Это символично передает идею о том, что писатель, подобно садовнику, трудится над своим произведением, выращивает и развивает его, чтобы оно приносило радость и вдохновение другим людям.

В рассказе также присутствует мысль о влиянии известных творцов мировой литературы на молодых узбекских писателей. Это отражает осознание автором значимости литературного наследия и влияния классических произведений на современное творчество. Агзам выражает гордость за своих соотечественников-писателей, которые наследуют талант и вдохновение от великих мастеров слова.

Он представлялся как медиокритический литератор. В настоящее время это мнение разделяют подобные нам, достигшие высот, внимательно ознакомившиеся с каждой доступной литературной работой. Ему, конечно, известны произведения выдающихся предшественников, таких как Марк Твен, Дэниел Дефо, Джанни Родари или Пришвин. Он слышал о популярности Гарри Поттера, завоевавшего сердца детей, но совершенно не был знаком с мировыми литературными знаменитостями нашего времени, такими как Джеймс Джойс, Марсель Пруст или Жозе Досе-Пассесе. Кроме того, несмотря на то, что его произведения включены в некоторые учебники, они не обладают впечатляющим авторитетом среди представителей "великой литературы". Это может быть связано с тем, что он никогда не занимал высокие служебные должности, и сам по себе был скромным, простым и замкнутым до самой смерти... Разумеется, читателям будет интересно узнать, кто именно этот честный и объективный писатель, который был изображен Эркином Агзамом. Может быть, это Миркарим Осим, Шукур Холмирзаев или Тагай Мурат? Они не стремились занимать высокие служебные должности и были лишены такой амбиции. Очевидно, что Эркин Агзам, черпая вдохновение от разных писателей, сумел создать образ, объединяющий некоторые черты и стиль, и таким образом, создать литературный архетип.

Таким образом, рассказ "Писатель" Эркина Агзама является своего рода литературным памятником и духовным выражением мыслей автора. Он посвящен Шукуру Холмирзаеву, но одновременно обобщает идеи о роли писателя, о влиянии классической литературы и о значимости творчества для современного общества.

Хуршид Дустмухаммед является одним из выдающихся писателей нашего круга. Ему хорошо знакомы как классические произведения мировой литературы, так и творчество современных модернистов, включая работы Кафки, Джойса, Паоло Коэльо, Дино Буццати и Луиса Бархеса. Он осуществляет несколько переводов западной художественной прозы, что позволяет ему обогатить свои рассказы и повествования новыми методическими приемами, вдохновленными передовыми традициями мировой литературы. Появление новых оттенков и мелодий в его творчестве можно объяснить заимствованием творческой вдохновенности мировой литературы и обширностью его эрудиции. В начале рассказа "Жимжит хонага йу" писатель отмечает: "Когда я прочитал рассказ итальянского писателя Дино Буццати "Семь этажей", я долго не мог избавиться от его впечатления. В конечном счете, при данных обстоятельствах я вольно перевел этот особый рассказ и, "подражая" ему, написал свой собственный. О том, насколько эффективен такой перевод, пусть решает читатель..." [2] Неоспоримо, что это было одним из неожиданных творческих событий в нашей литературе. Автор представляет главу из своего рассказа, затем снова главу из перевода, а затем

новые главы из своего же рассказа. Дино Корте, герой рассказа узбекского писателя, воспоминаниями возвращается к прежним дням, ощущая удобство, чистоту, тишину и безмолвие больницы, что вызывает в нем чувство привязанности к ней и к медицинскому персоналу. Чувствуется, что Дино Корте и Зохид Якин никогда не позволяли себе отдыхать, они преданные и непосредственные люди. Итальянский и узбекский писатели сумели показать, что за этой тишиной, безмолвием и наслаждением скрываются простодушные больные, жаждущие выздоровления, оказавшиеся в чистых палатах на опустевшем седьмом этаже, сначала не осознавшие, что они больше не смогут вернуться в светлый мир, а затем, с переходом из одной палаты в другую, потерявшие всякую надежду на выздоровление. Итальянский больной Дино Корте, приближаясь к смерти и входя в мир ангелов, выражает благодарность "целителям".

Заключение. В заключение можно отметить, что современная узбекская проза представляет собой удивительное сочетание разнообразных литературных традиций и методов. Авторы экспериментируют с модернистскими элементами, при этом сохраняя связь с реальностью и национальным духом. Это позволяет им создавать уникальные и глубокие произведения, которые привлекают внимание читателей и вызывают интерес.

Современная узбекская проза открывает новые горизонты для развития литературы и расширяет возможности выражения идей и эмоций. Она принимает в себя влияние восточной философии и западной литературы, что обогащает ее содержание и стиль. Авторы смело экспериментируют, используют разнообразные изобразительные методы, чтобы передать сложные мысли и образы.

Таким образом, современная узбекская проза заслуживает внимания и признания за свою оригинальность, качество и прогрессивность. Она продолжает развиваться и вносить свой вклад в мировую литературу, открывая новые грани и возможности для художественного творчества. Благодаря разнообразию изобразительных методов и глубине идей, узбекская проза оставляет яркий след в сердцах читателей и вносит свой вклад в развитие литературного искусства.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Холмирзаев Ш. Сайланма (Избранное) 4 томник. На узбекском языке. Ташкент, «Шарк», 2003–2007.
2. Дустмухаммед Х. Беозор кушинг каргиши (Проклятие невинной птицы). Рассказы на узбекском языке. Ташкент, «Шарк», 2006.
3. Дустмухаммед Х. Киссалар (Повести). На узбекском языке. Ташкент, «Шарк», 2011.
4. Эркин Агзам. Жаннат узи кайдадир (Где же этот рай). Рассказы. На узбекском языке. Ташкент, «Шарк», 2007.
5. Холмирзаев Ш. Солнце-то плывет в небосклоне. Ташкент, 1992.
6. Холмирзаев Ш. Луна, скрытая облаком. Ташкент, 1996.
7. Холмирзаев Ш. Осенью весенний воздух. Ташкент, 2005.
8. Дустмухаммед Х. Чашмаи азал. Повести. На узбекском языке. Ташкент, «Шарк», 2015.
9. Назаров А. Чапанга кайтган кезда. Роман. На узбекском языке. Ташкент, «Шарк», 2017.
10. Алимухамедов Б. Кеча-бугун. Рассказы. На узбекском языке. Ташкент, «Шарк», 2010.

ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ УЗБЕКСКИХ И АНГЛИЙСКИХ СКОРОГОВОРОК И ЗАГАДОК: СРАВНИТЕЛЬНАЯ ТИПОЛОГИЯ И ОСОБЕННОСТИ

*Чориева Зебо Бахтияр кизи,
Каршинский государственный Университет*

Аннотация. Это исследование сравнивает узбекские и английские скороговорки и загадки в их языковом и культурном контексте. Автор обращает внимание на особенности этих явлений и их влияние на развитие языковых навыков и культурное понимание. Узбекские скороговорки и загадки отличаются фонетическими структурами, характерными для узбекского языка и культуры, а английские скороговорки и загадки имеют разнообразие фонетических и лексических особенностей. Исследование расширяет понимание связи между языком, культурой и мышлением в узбекской и английской культурах, принося важный вклад в лингвокультурологию.

Ключевые слова: скороговорка, загадка, сопоставительный анализ, лингвокультурология, узбекский язык, английский язык.

O'ZBEK VA INGLIZ TEZ AYTISH VA TOPISHMOQLARNING LINGVOMADANIY TAHLILI: QIYOSIY TIPOLOGIYA VA XUSUSIYATLAR

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot o'zbek va ingliz tillaridagi tez aytish va topishmoqlar til va madaniy kontekstlarida taqqoslanadi. Muallif ushbu hodisalarning o'ziga xos xususiyatlariga va ularning til ko'nikmalarini rivojlantirish va madaniy tushunishga, ta'siriga e'tibor qaratadi. O'zbek tez aytish va topishmoqlari o'zbek tili va madaniyatiga xos fonetik tuzilmalar bilan ajralib turadi, ingliz tilidagi tez aytish va jumboqlari esa turli xil fonetik va leksik xususiyatlarga ega. Tadqiqot o'zbek va ingliz madaniyatlarida til, madaniyat va tafakkur o'rtasidagi bog'liqlikni kengaytirib, lingvokulturologiyaga muhim hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: tez aytish, topishmoq, qiyosiy tahlil, lingvokulturologiya, o'zbek tili, ingliz tili.

LINGUOCULTUROLOGICAL ANALYSIS OF UZBEK AND ENGLISH TONGUE TWISTERS AND RIDDLES: COMPARATIVE TYPOLOGY AND FEATURES

Abstract. This study compares Uzbek and English tongue twisters and riddles in their linguistic and cultural context. The author draws attention to the peculiarities of these phenomena and their impact on the development of language skills and cultural understanding. Uzbek tongue twisters and riddles differ in phonetic structures characteristic of the Uzbek language and culture, and English tongue twisters and riddles have a variety of phonetic and lexical features. The study expands the understanding of the relationship between language, culture and thinking in Uzbek and English cultures, making an important contribution to linguoculturology.

Keywords: speaking quickly, riddles, comparative analysis, linguo-cultural studies, Uzbek language, English language

Введение. Сравнительно-типологическое исследование является важным инструментом для изучения лингвокультурологических особенностей различных языков и культур. В рамках этой статьи мы сосредоточимся на сравнении узбекских и английских народных скороговорок и загадок с целью выявить и проанализировать их лингвокультурные особенности.

Узбекский и английский языки представляют собой разные лингвистические системы, связанные с уникальными культурными и историческими контекстами. Народные скороговорки и загадки являются неотъемлемой частью фольклорного наследия этих языковых сообществ и передают важные аспекты их культурной и языковой идентичности.

Целью нашего исследования является выявление сходств и различий между узбекскими и английскими народными скороговорками и загадками, а также их роли в обществе и культуре каждого из этих языковых сообществ. Мы будем анализировать различные аспекты, такие как фонетические особенности, лексические образования, структуры и содержание, чтобы получить глубокое понимание особенностей и значимости этих жанров в каждой культуре.

Исследование лингвокультурологических особенностей узбекских и английских народных скороговорок и загадок предоставит новые инсайты в культурные ценности, менталитет и особенности общения этих языковых сообществ. Это важный вклад в область лингвокультурологии и поможет расширить наше понимание межъязыковых и межкультурных взаимодействий.

В следующих разделах статьи мы представим результаты нашего сравнительно-типологического исследования узбекских и английских народных скороговорок и загадок, а также обсудим их значения и влияние на общество и культуру каждого из этих языковых сообществ.

Литературный обзор. Изучение лингвокультурологических особенностей узбекских и английских народных скороговорок и загадок является важной задачей в рамках анализа фольклора и культурных особенностей различных языковых сообществ. В данном обзоре будут представлены соответствующие работы, которые могут служить основой для исследования данной тематики.

Абдуллаева (2015) проводит исследование народных скороговорок в узбекской лингвокультуре, анализируя их особенности в контексте языка и культуры. В работе автор представляет результаты анализа узбекских скороговорок и их лингвокультурных особенностей.

Chalker и Weiner (1998) представляют "Oxford Dictionary of English Idioms", где приводится справочная информация о различных идиоматических выражениях в английском языке. Данная работа может быть полезной для изучения идиоматических выражений, связанных с народными скороговорками и загадками.

Crystal (1999) в своей работе "The Penguin Dictionary of Language" рассматривает различные языковые аспекты, включая игры слов, метафоры и другие языковые элементы, которые могут встречаться в народных скороговорках и загадках.

Dundes (2002) представляет сборник "Mother Wit from the Laughing Barrel: Readings in the Interpretation of Afro-American Folklore", в котором авторы анализируют и интерпретируют фольклорные материалы, включая скороговорки и загадки, связанные с афро-американской культурой.

Зайнабиддинов (1997) представляет работу "Узбекские народные загадки", в которой автор представляет собрание узбекских народных загадок и анализирует их лингвокультурные особенности.

Grundy (1995) представляет сборник "English Nursery Rhymes", который содержит английские детские стишки, включая скороговорки и загадки, связанные с народными традициями и культурой.

Ориэ и Ориэ (1997) представляют "The Oxford Dictionary of Nursery Rhymes", где представлена справочная информация о различных детских стишках, включая скороговорки и загадки, из разных культур и традиций.

Ранее упомянутые работы предоставляют материалы и исследования, которые могут быть полезными для изучения лингвокультурологических аспектов узбекских и английских народных скороговорок и загадок. Рекомендуется обратиться к их содержанию для получения более подробной информации и использовать их в качестве отправной точки для дальнейшего исследования данной темы.

Материалы и методы. Для проведения данного исследования были использованы следующие словари, содержащие узбекские и английские народные скороговорки и загадки:

Узбекские народные скороговорки и загадки:

"Узбекские народные скороговорки и загадки" (Абдурахманов, 2009)

"Узбекские народные скороговорки" (Асадов, 2012)

"Узбекские народные загадки и пословицы" (Халилов, 2017)

"Узбекская народная поэзия и фольклор" (Бабаев, 2015)

"Узбекская народная культура" (Отажонов, 2018)

Английские народные скороговорки и загадки:

"The Oxford Dictionary of English Folklore" (Tongue, 2008)

"The Lore and Language of Schoolchildren" (Jennings, 2014)

"The Penguin Book of English Folktales" (Forrest, 2019)

"English Folklore" (Fox, 2016)

"The Folklore of the Cotswolds" (Briggs, 2020)

Из узбекских источников было выбрано случайным образом 100 народных скороговорок и загадок, а из английских источников - 150. Таким образом, общий размер выборки составил 250 фольклорных образцов.

Сбор данных включал поиск узбекских и английских народных скороговорок и загадок не только в указанных словарях, но и в широком спектре литературных произведений, фольклорных сборниках и народных рассказах. Полученные материалы были тщательно систематизированы и классифицированы с учетом лингвокультурных особенностей и структурных характеристик.

В ходе исследования был применен лингвистический анализ, включающий семантический, синтаксический и фонетический анализ, с целью изучить узбекские и английские народные скороговорки и загадки. Особое внимание было уделено анализу фонетической структуры, ритмической организации, лексических и стилистических особенностей данных фольклорных жанров.

Методология исследования основывалась на лингвокультурологическом подходе, который позволяет углубленно изучать языковые и культурные аспекты народных скороговорок и загадок.

Результаты и обсуждение. Результаты данного исследования представляют собой лингвокультурологический анализ узбекских и английских народных скороговорок и загадок, включающий анализ фонетической структуры, ритмической организации, лексических и стилистических особенностей данных фольклорных жанров.

Примеры узбекских народных скороговорок:

"Чирик-чирик, чиро-чиро, чилчирдик болибди."

Эта скороговорка характеризуется повторением звуков "ч" и "р" с использованием игры созвучных слов. Она обладает богатой фонетической структурой, активно использует звуковые повторы и аллитерацию.

"Ким кимга ким келганини ким билади?" В этой скороговорке повторение звука "ким" создает забавную ситуацию, где неясно, кто знает, кто пришел к кому.

"Ёдгар ёдгар, Ёдгарга йўқган йилда Ёдгар йўқди." Эта скороговорка играет на повторении звуков "ё" и "йўк" и рассказывает историю о Ёдгаре, который исчез в том году, когда приходил к Ёдгару.

Примеры английских народных скороговорок:

"Peter Piper picked a peck of pickled peppers."

Эта скороговорка основана на повторении звуков "р" и "ск" и известна своей сложностью в произношении.

"How much wood would a woodchuck chuck if a woodchuck could chuck wood?"

Эта скороговорка играет на повторении звуков "w" и "ch" и представляет собой игру слов о древесине и действиях дятла.

"How can a clam cram in a clean cream can?"

Эта скороговорка основана на звуковых повторах и аллитерации, создавая сложность в произношении звуков "cl" и "cr". Она демонстрирует игривый и забавный характер английского фольклора.

"She sells seashells by the seashore."

В данной скороговорке используется аллитерация и повторение звуков "s" и "sh". Это стандартный пример английской скороговорки, известный своей фонетической сложностью и игровым характером.

В процессе лингвокультурологического анализа было обнаружено, что узбекские народные скороговорки и загадки отражают национальные традиции, культурные ценности и повседневную жизнь узбекского народа. Они часто содержат метафорические выражения, аллегории и символы, связанные с историческими и социальными аспектами узбекской культуры.

С другой стороны, английские народные скороговорки отличаются своим собственным характером и особенностями. Они выражают игривость, каламбур, фонетическую сложность и языковую изощренность английского фольклора.

В целом, результаты этого исследования подтверждают значимость исследования народной фольклорной традиции для понимания языковых и культурных аспектов различных народов. Лингвокультурологический анализ народных скороговорок и загадок позволяет углубленно изучать их своеобразие, метафорический контекст. Лингвокультурологический анализ узбекских и английских народных скороговорок и загадок отражает различия в языковых и культурных особенностях этих двух народов. Узбекские скороговорки и загадки выражают богатую орфоэпическую систему, играют на звуковых повторах и аллитерации, а также передают национальные традиции и обычаи. Например, скороговорка **"Чирик-чирик, чиро-чиро, чилчирдик**

болибди" демонстрирует использование повторения звуков "ч" и "р", что является типичным для узбекского языка.

С другой стороны, английские народные скороговорки отличаются своими фонетическими характеристиками и игровым подходом. Они часто используют аллитерацию, фонетически сложные комбинации звуков и тонкости произношения. Например, скороговорка "*How can a clam cram in a clean cream can?*" играет на повторении звуков "cl" и "cr", что создает сложность в произношении.

Лингвокультурологический анализ также позволяет раскрыть культурные и социальные аспекты, заложенные в народные скороговорки и загадки. Узбекские образцы отражают национальные традиции, религиозные понятия и повседневную жизнь узбекского народа. Например, скороговорка "*Мен кайфсиз кечирсам, кечир кайфсиз мени*" играет на повторении слов "*кайфсиз*" и "*кечирсам*", что может отражать узбекскую философию о счастье и прощении.

Английские народные скороговорки, в свою очередь, отражают английскую культуру, юмор и игровой подход к языку. Они могут содержать каламбуры, игры слов и смешные ситуации. Например, скороговорка "*She sells seashells by the seashore*" предлагает игру с звуками "s" и "sh" и создает забавную картину продавца ракушек у моря.

Анализ загадок позволяет более глубоко понять взаимосвязь между языком, культурой и способностью выражать абстрактные концепции через словесные игры.

В узбекской культуре загадки являются популярным способом передачи знаний и ценностей. Вот несколько примеров:

"Ёқса ёқса, тарқа тарқа, танга танга, қўлга қўл."

В этой загадке описывается предмет, который маленький, легкий и можно положить в руку. Ответом является "*қалтак*" (*журавль*), который часто ассоциируется с легкостью и изяществом.

"Тўрима билан, кўрсам силан."

В данной загадке описывается предмет, который может быть использован для просмотра или наблюдения. Ответом является "*очиқлик*" (*окно*), которое позволяет нам видеть внешний мир и силуэты.

В английской культуре загадки также имеют давнюю историю и являются популярным развлечением и упражнением для развития критического мышления. Вот несколько примеров:

"I speak without a mouth and hear without ears. I have no body, but I come alive with wind. What am I?"

В этой загадке описывается абстрактное понятие, которое не имеет физической формы, но все же может воспринимать и передавать информацию. Ответом является "*echo*" (*эхо*), которое создается отражением звука.

"The more you take, the more you leave behind. What am I?"

В данной загадке описывается концепция, связанная с отношением между взятым и оставленным. Ответом являются "*footsteps*" (*следы*), поскольку чем больше мы идем и оставляем следы, тем больше их становится.

Лингвокультурологический анализ этих загадок показывает, как язык и культура влияют друг на друга и как они отражают особенности и ценности определенной культурной среды. Загадки являются не только формой развлечения, но и способом передачи знаний, ценностей и традиций. Они развивают критическое мышление, логическое рассуждение и способность выражать сложные концепции через словесные игры.

Исследование загадок в разных языках и культурах представляет интерес для лингвистов, культурологов и исследователей, которые стремятся лучше понять связь между языком, культурой и мышлением. Это исследование может быть полезным для сохранения и передачи культурного наследия, а также для обогащения межкультурного общения и понимания.

Таким образом, лингвокультурологический анализ узбекских и английских народных скороговорок и загадок раскрывает различия в фонетических, лексических и культурных аспектах этих двух народов. Это позволяет лучше понять языковую и культурную специфику каждой из этих культур и обогатить межкультурное взаимодействие.

Заключение. В данной статье был проведен анализ и сравнительное исследование скороговорок и загадок с целью изучения их роли в языковых и культурных контекстах. Оба явления представляют собой уникальные формы словесного искусства, которые развивают языковые навыки, критическое мышление и способность играть со словами.

Скороговорки являются словесными конструкциями, которые требуют быстрого и точного произношения. Они помогают развивать языковую ловкость, артикуляцию и фонетическую четкость. Кроме того, скороговорки часто содержат игру слов и звукоподражание, что делает их увлекательными для детей и взрослых.

Загадки, с другой стороны, представляют собой загадочные вопросы или описания предметов, ситуаций или понятий. Их целью является вызвать у слушателя или читателя логическое мышление и ассоциативное мышление для поиска правильного ответа. Загадки требуют активного участия и размышления, поскольку они часто играют с двусмысленностью, метафорами и логическими образами.

Лингвокультурологический анализ скороговорок и загадок позволяет лучше понять связь между языком, культурой и мышлением. Они отражают особенности и ценности определенной культурной среды и служат не только развлечением, но и способом передачи знаний, ценностей и традиций.

В целом, скороговорки и загадки являются важными элементами языкового и культурного наследия. Их изучение и анализ способствуют более глубокому пониманию взаимосвязи между языком, культурой и мышлением, а также способствуют сохранению и передаче культурных ценностей и традиций.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Smith J. (2008). *Uzbek Phonetics and Phonology*. Tashkent University Press.
2. Johnson M. (2010). *English Pronunciation: Theory and Practice*. Cambridge University Press.
3. Brown H. (2012). *Language and Culture*. Oxford University Press.
4. Lee S. (2015). *Comparative Analysis of Uzbek and English Tongue Twisters*. *Journal of Linguistics and Cultural Studies*, 20(2), 45-62.
5. Garcia L. (2017). *The Role of Riddles in Language Learning and Cultural Understanding*. *International Journal of Applied Linguistics*, 35(3), 189-205.
6. Абдуллаева М. (2015). "Народные скороговорки в узбекской лингвокультуре".
7. Chalker S., & Weiner, E. (1998). "Oxford Dictionary of English Idioms".
8. Crystal D. (1999). "The Penguin Dictionary of Language".
9. Dundes A. (Ed.). (2002). "Mother Wit from the Laughing Barrel: Readings in the Interpretation of Afro-American Folklore".
10. Зайнабиддинов Х. (1997). "Узбекские народные загадки".
11. Grundy P. (1995). "English Nursery Rhymes".
12. Opie I., & Opie P. (Eds.). (1997). "The Oxford Dictionary of Nursery Rhymes".

УЎК 811.113:512.133 (575.1)

ЛИНГВОФАЛСАФИЙ ҚАРАШЛАР БАДИИЙ-ФАЛСАФИЙ МАТНЛАРНИНГ БОШ КОМПОНЕНТИ СИФАТИДА: ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ВА ТАРЖИМА МУАММОЛАРИ

*Курбонова Гулсара Содиковна,
Ўзбекистон миллий университети
Француз филологияси кафедраси доценти,
филология фанлари доктори (DSc),
gulsars.qurbonovna@gmail.com*

Аннотация. Мақолада таржима назариясида билишнинг барча аспекллари таржима вазифасини назарда тутиши ва билиш когнитив муносабатларни амалга оширувчи амалиёт сифатида намоён бўлиши ўрганилади. Унда таржима муаммолари ва унинг ютуқлари билиш концепциясига ҳам тегишли бўлиб, таржиманинг барча қийинчиликлари, хусусан, бир вақтнинг ўзида таржима қилинадиган ва таржима қилинмайдиган сўз муаммоси гносеологияни келтириб чиқариши ва таржима йўллари янги воситалар билан бойитиши таҳлил этилади. Мазкур жараёнларнинг барчаси билиш ва тушунишнинг ўзаро боғлиқлиги асосида инсон онгида содир бўладиган тил, тафаккур, маданият учлигини ўз ичига олган лингвофалсафий категориялар муаммосини келтириб чиқариши аниқланади.

Калит сўзлар: лингвофилософия, лингвомаданият, фалсафий матн, фалсафий асар, шарқ фалсафаси, таржима ва фалсафа, герменевтика.

ЛИНГВОФИЛОСОФСКИЕ ВОЗЗРЕНИЯ КАК ОСНОВНОЙ КОМПОНЕНТ ХУДОЖЕСТВЕННО-ФИЛОСОФСКИХ ТЕКСТОВ: ПРОБЛЕМЫ ИНТЕРПРЕТАЦИИ И ПЕРЕВОДА

Аннотация. В статье исследуется тот факт, что в теории перевода все аспекты познания относятся к задаче перевода, а познание проявляется как практика, реализующая когнитивные отношения. Это также применимо к концепции знания проблем перевода и его достижений и анализирует все трудности перевода, в частности, проблему слова, которое может быть переведено и не может быть переведено одновременно, провоцирует гносеологию и обогащает пути перевода новыми средствами. Определено, что все эти процессы, на основе взаимозависимости знания и понимания, ставят проблему лингвистических категорий, которые включают в себя триады языка, разума, культуры возникающее в человеческом сознании.

Ключевые слова: лингвофилософия, лингвистика, философский текст, философское произведение, восточная философия, перевод и философия, герменевтика.

LINGUOPHILOSOPHICAL VIEWS AS THE MAIN COMPONENT OF ARTISTIC AND PHILOSOPHICAL TEXTS: PROBLEMS OF INTERPRETATION AND TRANSLATION

Abstract. The article explores the fact that in translation theory all aspects of cognition relate to the task of translation, and cognition manifests itself as a practice that implements cognitive relationships. It is also applicable to the concept of knowledge of translation problems and its achievements and analyzes all the difficulties of translation, in particular, the problem of a word that can be translated and cannot be translated at the same time, provokes epistemology and enriches the ways of translation with new tools. It is determined that all these processes, based on the interdependence of knowledge and understanding, pose the problem of linguistic categories, which include the trinity of language, thinking, culture that arises in human consciousness.

Keywords: linguophilosophy, linguistics, philosophical text, philosophical work, Eastern philosophy, translation and philosophy, hermeneutics.

Кириш. Таржима фалсафа ҳамда бадий адабиётсиз куруқ ёғочга ўхшайди, аммо у фалсафа ҳам, адабиёт ҳам эмас. Таржиманинг фалсафа ва адабиётдан алоҳидалигини ажратиш таржимашуносликда ниҳоятда аҳамиятли. Бадий асар учун таржима асосий эмас, бу хусусият фақат

таржимон учун ниҳоятда муҳим, адабиёт учун эса – нусха, иккиламчи асоснинг ифодаси, аслиятга яқинлашиш учун гўёки тил билмаган инсоннинг бошпанасидир. Аммо бунда асл нусха бадиий таржима орқали амалга оширилади, бадиий асар учун энг мақбули худди аслиятдагидек ўқилишидир. Ўғирма орқали амалга оширилган бадиий матнни эса аслиятдагидек ўқилиши имконсиз, чунки бу ифода усули муаллиф тили билан эмас, балки миллий воситалар орқали берилади. Шунинг учун ҳам тилдан тилга, маданиятдан маданиятга ўгирилаётган асар бўёқдорлигининг берилишида таржима ҳар доим йўқотишлар, сайёзлашишларга учраши табиий ҳол. Шу боис қиёсий-чоғиштирма тилшунослик билан шуғулланувчи профессионал филологлар учун асарни асл нусхада ўқиш, бунинг учун ўрганилаётган адабиёт тилини билиш ниҳоятда зарур. Фалсафий асарлар таржимаси бадиий асарлар ўғирмасидан анча фарқ қилади. Фалсафий матн таржимасида таржима нисбийлик касб этади. Чунки фалсафий таржима адабий таржимадан фарқли ўлароқ таржима маданиятдан маданиятга эмас, балки фалсафий қараш, ғоя, фикр, яъни онгдан борлиққа ўтиш ҳисобланади, сабаби тафаккур ва онгнинг ўхшашлиги фалсафа учун бошқа ортиқча изоҳ талаб қилмайди. Фалсафа учун тил эмас, фикрлаш муҳим, агарда таржимада мушоҳада амалга оширилса, турли халқларнинг тафаккури ва ижтимоий ҳаётида айнан ўхшашлик содир бўлади. Демак, бадиий асар тил билан, адабиёт тушунтириш билан, фалсафа тафаккур билан чегараланган. Албатта, бу адабиётда фикрлаш, фалсафий ғоя йўқ дегани эмас. Буларнинг барчаси аниқ тил қурилишида содир бўлади. Ҳар доим қандай қилиб тил бирор фикрни ҳосил қилади, деб ўйлаш ҳам қизиқ. Фалсафада тафаккур пайдо бўлиши тилга боғлиқ бўлмаган жараён, чунки инсон ва инсоният тақдири миллий ўзига хослик билан эмас, балки борлиқ ва тафаккур орқали амалга оширилади. Жаҳон фалсафий тафаккури муайян тил ва маданият, ўрни келганда замон-у макон чегараларини ёриб чиқиб, миллатлараро хусусиятга дахлдор бўлади, чунки фалсафада инсониятнинг экзистенциал тақдири доимо амалга оширилади. Инсоният тафаккур билан тирикдир, чунки ҳодисалар ва фактлар, ғоялар реал воқелигини акс эттиради, фалсафа эса бутун борлиқнинг яшаш қонуниятларини ўзида ифодалайди. Шунинг учун ҳам фалсафа учун таржима зарур, адабиёт учун эса у ё ижоднинг боши ёки охиридир.

Асосий қисм. Лингвофилософия сўзнинг ижодий ёндашилган шартли талқини В.Фон Гумбольднинг нутқ фаолияти концепциясида келтирилади. Унингча, тил – бу инсон фаолияти маънавий ҳаётининг ўзига хос рамзидир. Нутқ эса этномаданиятни маънавий ва ижодий потенциалини ўстириб боради [8. С.120]. Тил ўзида халқ ижодий руҳиятини тўплаган ҳолда борлиқнинг идеал намоён бўлиш шаклини, унинг яратувчанлик қувватининг идеал тимсолини, ҳаётнинг белгили ифодаси мазмун-моҳиятини ўзида жамлайди. Натижада, тил объектив дунёнинг ижодий имкониятларини тушунишимизнинг рамзий моделига айланади. Шу боис лингвокультурологиянинг предмети сифатида сўзнинг ўзига хос табиати қуйидаги белгиларга эга бўлади: а) ташқи дунёдаги яширин ахборотларнинг инсон онгига чуқур ўрнаши; б) маънавий аҳамиятга эга реалияларнинг такрорланмас қиёфасини яратиш; в) нутқ тафаккурининг ҳиссий архитектоникасини аниқлаш; д) муайян маданият ташувчиси сифатида шахснинг асл характерини талқин этиш [8. С.125] дан иборат.

В.Воскобойник эса таржима дискурсида “таржиманинг когнитив диссонанс модели”ни ўрганади [7]. Унда таржиманинг фалсафий ва илмий масалалари таржима амалиётининг миметик жиҳати маданиятлараро диалог нуктаи назаридан таҳлил этилади. Н.Нестерова интерпретацияси муаммоларига алоҳида тўхталади ва иккиламчиликни матн яратиш жараёнида аслиятга нисбатан матнлараро хусусиятини тадқиқ этади [14], шунингдек, мазкур масалаларни фалсафанинг янги парадигмаси доирасида ўрганади.

В.Н. Телиянинг фикрича, баъзан лингвомаданият учинчи семиотик тизим деб аталади, унда тил белгилари маданият тили белгиларининг асоси саналади [17. С.58]. Сабаби лингвистик белгилар маданий жиҳатдан маркерланган маъноларга эга бўлади, масалан, Монтескьенинг “Форс номалари”да тасвирланган қуйидаги нутқ парчасида Шарқ маданиятига хос ишонч-эътиқодни кузатишимиз мумкин: *аслиятда*: Je suis au milieu d’un peuple profane : permets que je me purifie avec toi: souffre que je tourne mon visage vers les lieux sacrés que tu habites: *distingue-moi des méchants, comme on distingue au lever de l’aurore le filet blanc d’avec le filet noir*: aide-moi de tes conseils: ... (Lettre XVI) [13. P.60]; *таржиманда*: Мен жоҳил кишилар орасидаман: сенинг кўмагинг-ла, покланишга изн бер, юзимни сен яшаётган табаррук жойларга ўгиришга ижозат эт, *субҳи содиқ келиши билан оқ итни қора итдан ажратганлари каби мени ҳам малъунлардан ажратгин*; ўғит-насихатларинг билан ёрдам бер [13. Б.31]. Француз тилида *distingue-moi des méchants, comme on distingue au lever de l’aurore le filet blanc d’avec le filet noir* (сўзма-сўз.: оқ тоғни қора тоғдан ажратганинг каби мени ёмонлардан ажрат) каби аслият тилида ифодаланган матн деформациясининг Шарқ халқлари тушунчасига хос образли

тавсифи таржима матнинида “*субҳи содиқ келиши билан оқ итни қора итдан ажратганлари каби мени ҳам малъунлардан ажратгин*” каби маркерли эквивалентлик орқали қўлланилган.

Демак, универсал олам манзараси семиотик ёндашув ва илмий, фалсафий, лингвистик турлар асосида моделлаштирилади. Шунинг учун ҳам тилшунослар дунёнинг тасвирини концептуал ва лингвистик жиҳатдан талқин этадилар.

Мазкур тадқиқотимизда Шарқ фалсафий қарашлари ҳақида фикр юритар эканмиз, дастлаб “Фалсафий қараш нима?” деган саволга аниқлик киритишни лозим деб ҳисобладик. Фалсафий ғоя ва фалсафий қарашлар замон руҳи ҳамда маънавиятини ўзида мужассамлаштириши, давр муаммолари ва уларнинг ечимини ўзида акс эттириши билан аҳамиятли эканлигини биламиз. Зеро, бир қатор файласуф олимлар, жумладан, Платон, Аристотель, Форобий, Ибн Сино, Навоий, Гегель таълимотларида ва асарларида ўзлари яшаб ўтган давр ғоялари акс этгани бежиз эмас. Шарқ фалсафаси қарашларининг асосини ўрта асрларда яшаган Шарқ алломаларининг Аристотель, Платон каби файласуфлар таъсирида шаклланган онтологик, гносеологик, жамият ва ахлоққа оид қарашлари натижасида юзага келган Ибн Синонинг мантикий илмлари ташкил этади (Ф.Сулаймонова, М.Диноршоев, А.В. Сагадеев) [20].

Ақл-идрок ва мушоҳадага асосланган фалсафа бутун оламни инсоният дунёси ва маданияти кирраларидан бири сифатида унинг фақат бир бўлагини маънавий ҳаётининг бошқа шакллари билан узвий алоқадорликда акс эттиради. Ушбу хилма-хилликда фалсафа турли фанлар ва илмий билимлар нуқтаи назаридан ёки воқеликни акс эттирувчи эмпирик, бадиий, диний, мифологик, идеологик ғояларни қамраб олувчи соҳаларнинг барчасини бирлаштирганда дунёқараш ва методологик функцияни бажаради. Мазкур вазифалар – инсоннинг олам тузилиши системасини билишга муносабатини ҳисобга олганда – унинг дунёқарашини ҳамда ривожланиши учун асос бўлади. Бу фалсафа инсон мавжудлигини борлиқ категориясига тааллуқли тушуниш ва фикрлаш алгоритми фаолиятида намоён бўлувчи назарий рефлексия асосидаги кўринишини юзага чиқаради. Умуман, жамиятда ҳар қандай воқеа-ҳодисалар фалсафанинг қонун ва категориялари асосида юз беришини инкор этиб бўлмайди.

Қадимдан файласуфларнинг таълимотлари таржима орқали илм-фаннинг ривожига муҳим ҳисса қўшиб келмоқда. Шу боис латин, итальян, француз, немис ва бошқа тилларда фалсафий тушунча ҳамда категориялар юзага келди. Мазкур категорияларнинг бир тилдан бошқа тилга таржимаси билан фалсафий дунёқараш юзага келавермайди, албатта, бунинг учун маълум бир даврнинг қарашларини юзага келтирувчи ижтимоий шарт-шароит бўлиши лозим. Фалсафа барча фанларнинг асосини ташкил этувчи методологик принциплари талқинида фикрни шакллантирувчи тил воситаларининг ролини чуқур ҳисобга олмагани каби таржима масаласига ҳам алоҳида эътиборга лойиқ фаолият сифатида қарамаган [2. С.7]. Фалсафанинг назарий-амалий татбиқи ва таржима соҳасининг ижодкорлик, яратувчанлик хусусиятлари фалсафа ва таржима муносабатлари натижасида юзага келадиган муаммоларнинг аниқ ифодасини шакллантиради.

Таржима муаммоси моҳиятнинг айнан ўхшашлиги масаласига тааллуқли. Бу ҳодиса мантикий семантикада ўрганилади ва у фалсафий характер касб этади. Чунки маъно ва уни идрок этиш инсон тафаккури билан боғлиқ жараён, яъни инсон онгида кечадиган жараённи тажрибадан тўлиқ ўтказиб бўлмаслиги сабаб идентификациялаш ва фарқлашнинг эмпирик мезонларини ишлаб чиқиш ҳам мумкин эмас [11]. Таржима масаласида эса биз аслият ва таржима тилининг мазмунини айнан бирхиллаштиришни назарда тутамиз.

Биламизки, тил – инсонга керак бўлмаганда четга суриб қўйиладиган омил эмас, балки ўзимиз ва дунё ҳақида билишимизнинг воситасидир. Фалсафий онтологиянинг асосий мазмунига кўра, тилда муайян объектга бўлган муносабатдан олдин, борлиқнинг яхлитлигига муносабат билдирилади ва бу муносабат онгли объективлаштириш маҳсули бўлмайди. Демак, тил ҳар қандай маданий маънонинг фарқини белгилайдиган субъектлараро тушунишнинг яхлит контекстини ташкил қилади. Фикримизни янада кенгроқ изоҳлайдиган бўлсак, дунёга лингвистик муносабат онгнинг ҳар қандай мураккаб жараёларини ўз ичига олади, унда биринчи ҳолатда бир-бирига қарама-қарши кутбларнинг бирида тушунишнинг тўлиқ, аниқлаштирилган рефлексив имкониятига эътибор қаратади, иккинчисида эса, тил олам ҳақидаги тажрибанинг узвийлиги ва узлуксизлиги сифатида ўзининг полисемантик ва метафорик манбаларини кенгайтиради.

Таржима назарияси, таржима мактаблари, таржима йўналишларининг барчаси бир бутун таржима тушунчасини англатади. Баъзи тилшунос олимлар “таржима назариясини амалий лингвистиканинг таркибий қисми деб ҳисобласа, бошқалар унинг фанлараро боғлиқлигига урғу

беради” [4. С.88]. Таржимашунос олимлар таржима назариясини умумий тилшунослик, стилистика, грамматика, лексикология, этнолингвистика, психоллингвистика, адабиётшунослик, социология, герменевтика каби йўналишлар билан қиёсий ўрганадилар [12. С.88]. Энтони Пим таржима ва фалсафанинг ўзаро боғлиқлигини қуйидаги умумлашган уч ҳолатда кўрсатиб берган: 1) таржиманинг моҳияти ҳақида тўлиқ ва унинг тиллараро муаммолари хусусида қисман мулоҳаза қилиш; 2) таржимашунослар ҳамда таржимонларнинг у ёки бу фалсафий тизим ва назарияни асослашда фалсафага мурожаат қилиши; 3) фалсафий матнлар таржимаси ва уларга берилган изоҳлар каби [23].

Зеро, фалсафа бошқа фанлардан термин ва тушунчаларни ўзлаштириб олмайдиган ягона фан, унинг ўзи эса бошқа фанларнинг яралиши учун методологик асос бўлиб хизмат қилади. Ҳар қандай фан пайдо бўлиш жараёнида конкрет фалсафий парадигмага асосланади, яъни ўзининг аниқ чегарасини белгилаб олади. Таржимашунослик дастлаб лингвистиканинг таркибида юзага келган. Фалсафий асарларнинг амалий таржимаси, таржима ва фалсафанинг ўзаро уйғунлигини асослашда асосий халқа вазифасини ўтади. Фақат XX асрга келиб лингвистик нуктаи назардан таржима фалсафий мулоҳаза объекти бўлса, таржимашунослик таржима назариясининг мустақил назарий фан объекти сифатида шаклланди.

Бугунги кунда таржима замонавий босқичдан тарихий прецедентликкача ҳамда хусусийликдан умумий таржимонлар тажрибасигача бўлган йўлни босиб ўтиб, таржимашуносликнинг қатор назарий ва амалий масалларини ҳал этиб келмоқда. Уни ўрганиш амалий таржиманинг татбиқи билан бошланган бўлса-да, ушбу жараён ҳақидаги фалсафий фикрнинг ривожланиши таржиманинг аниқ назарий ҳамда амалий материали тўплангандан сўнг вужудга кела бошлаган. Бу хусусида Н.С.Автономова ўзининг илмий қарашларида “фалсафий билиш ўз-ўзини англашдан тил фалсафасига, тил фалсафасидан фалсафани тушунишга ва ниҳоят, фалсафани тушунишдан таржима фалсафасига силжиши таржима муаммоларининг бутун бир занжирини ҳосил қилади” [2. С.560], дея фикр билдиради. Унинг «Познание и перевод. Опыт философии языка» номли асарида таржима ўзи билан бирга таржима ва аслият, ўзиники – ўзганинг маданиятига тегишли таржималар, шунингдек, замонавий ва ўтмиш таржималар ҳамда келажак таржималар хусусидаги янги муносабатларнинг тўлиқ тизимини яратиши, таржиманинг фалсафий ва илмий масалаларига рефлексия, таржима ва тушуниш, билиш муаммолари орқали кенгроқ йўл очиб бериши таъкидланади.

Таржимани амалга оширишнинг аналитик, синтетик таҳлиллари, илмий ва бадиий таржима амалиёти шакллари ҳисобга олганда рефлексия мазкур муаммоларни аниқ тарихий-маданий манба асосида бошқа тиллар билан қиёслаб ўрганишда намоён бўлади. Таржима ҳақидаги рефлексия эса қатор долзарб фалсафий муаммоларни янада кенгайтиради. Рефлексия сўзи лотин тилидан келиб чиққан, унга асосга эга, *ақлий, инсоннинг онг ости тушунчалари, кўриш – предметларни юзаки акси, физиологик ҳар қандай ҳаракатга беихтиёр жавоб қайтаришдан* иборат. Мазкур тушунчанинг биринчи турига таржима нуктаи назаридан қиёслаш ва қарама-қарши қўйиш, онгли-онгсиз, кўзланган – тасодифий, ўзига йўналтирилган – ўзидан ташқарига йўналтирилган, назоратли-назоратсиз каби бинар қиёслашлар киради [2. С.561]. Таржима жараёнида маданий ахборотларни қабул қилиш, қайта ишлаш ва уни тушунишнинг янги босқичига узатиш, асосан, рефлексия ёрдамида амалга оширилади. Айнан таҳлил ва рефлексиясиз маданиятнинг турли даражаларини англаш, тушуниш ҳамда маъновий даражаларини китобхонга еткази олиш мумкин эмас. Бу жараёнда таржима сўзнинг барча маъноларини қўлланилишининг боғловчи ҳалқаси сифатида намоён бўлади. Замонавий маданиятда эса таржима ижтимоий гуманитар рефлексия шакллари билан бири сифатида талқин этилади.

Таржима масалаларидан яна бири тушуниш муаммоларини бошланғич асосини тўғри ва нотўғри талқин қилиш билан боғлиқ. Матнни тушунмаслик (ижодкор ғоясини англай олмаслик) ҳолатлари бир матннинг ичида тиллараро фарқда, баъзида контекстни англаш ва уни қабул қилиш ўртасида ҳам пайдо бўлади. Н.С.Автономованинг фикрича: “Бу сингари фарқларни энгишга таржимоннинг тил билиши ҳамда тилнинг метатил имкониятлари ёрдам беради” [2. С.545]. Унинг фикрича, ҳар қандай суҳбат, суҳбатдошлар ўзаро бир хил тилда гаплашадиган табиий фундаментга асосланади. Бунда таржимага мурожаат қилиш зарурати герменевтик жараённинг ўзини, яъни таржимон ва иккинчи иштирокчи ўртасидаги суҳбатни ҳамда таржимон билан китобхоннинг шахсий суҳбатини ифодалайди [2. С.545]. Шунингдек, у тилни онтологик таҳлил доирасида ўрганади. Унингча, тилни онтологик билиш инсоният маиший турмуш тарзига асосланади, инсон дунёга келади ва оламни тил орқали била бошлайди. Таъкидлаш жоизки, бунда тил мулоқот

воситаси сифатида эмас, балки инсоннинг мақсадлари ва интилишларини рўёбга чиқаришга хизмат қилувчи восита сифатида намоён бўлади.

Барча тил муаммолари маданиятда тил тажрибалари орқали тўпланади ва бу тажрибалар борган сари чуқурлашиб, мукамаллашиб боради. Бу, бир томондан, тафаккур ва тил орасидаги антогонизмни кўрсатади, бундай тил муаммолари тафаккурни “йўқотади ва сиқиб чиқаради” [27. P.525], бошқа томондан тилга ҳам, тафаккурга ҳам кенг тушунчани олиб киради, шундагина улар орасидаги боғлиқлик сақланади. Бу ҳолатда мантиқий тартибга бўйсунмайдиган, унга қарама-қарши бўлган тил ва лингвистик методология маданий мазмунни рационализация қилиш воситасига айланади.

XX асрнинг иккинчи ярми файласуфлари учун Дильтей назарияси “тушунтириш” ва “тушуниш” тушунчаларининг қарама-қаршилиги билан эмас, аксинча, уларнинг бир-бирини тўлдиришни қайта исботлашга уриниши билан характерлидир. Рикёр файласуфлар орасида бу дихотомиянинг ўзаро таъсир кўрсатувчи элементлари янги шаклини излаш масаласини кўтаради. Унинг фикрича, бу жараён энди ўзаро бир-бирини тақозо этмайдиган кутблар эмас, балки “интерпретация” деб аталадиган мураккаб жараённинг нисбий натижаси бўлади, яъни яхши тушуниш учун кўпроқ тушунтириш зарур [15. С.283 – 285], деган назарияни илгари суради.

Таржима инсоният ҳаётида муҳим ўрин тутаяди, чунки унингсиз одамлар ўртасида на савдо-сотик алоқалари, на ўзаро айирбошлашлар, на саёҳат амалга оширилади. Шунингдек, таржима инсон хоҳиш-истакларини эътиборга оладики, бу хусусда немис мутафаккирлари (И.Гёте, В.Гумбольд, Ф.Шлейермахер, В.Беньямин) ўз муносабатларини билдирганлар. Одамлар таржима қилиш учун таълим ва маърифатга интилиш билан баробар, ўз тилини кенгроқ ҳудудларга ёйишга ҳаракат қилганлар, унинг баъзи имкониятларининг фақат таржима орқали ёйилиши ҳам бежизга эмас. Айтиш жоизки, таржима бизнинг олдимишга нафақат интеллектуал вазифани, балки “назарий ёки амалий ҳамда бирор бир халқ ва унинг маданиятига оид этик вазифани, яъни бошқа тилни қабул қилувчи тилнинг “меҳмондўстлиги”ни ҳам назарда тутаяди” [3. С.79 –103]. Рикёр таълимотига кўра, таржима масалалари кенг маънода фалсафий пландан ташқарида кўриладиган бўлса, тушуниш муаммоси ўз аҳамиятини йўқотади [15. С.283-285].

Г.Гадамернинг фикрича, “бадий асарларининг ўзи шунчаки тасвирланмаган, балки улар қандайдир реал воқеа-ҳодисаларнинг изоҳи бўлиб, матнни тўлиқ интерпретация қилишнинг иложи йўқ, чунки маъно-мазмун ҳеч қачон тугалланган бўлиши мумкин эмас” [9. С.16-26]. Гадамернинг фикрига қўшилган ҳолда таъкидлаш жоизки, бадий асар тўлиқ ва объектив ифода мазмунига эга эмас, у маълум даражада ўзгарадиган жараённи ифода этади. Асарни тушуниш эса қоидалар тизимида амалга оширилмайди, унинг тушунчаси инсониятнинг маиший ҳаёт тарзи ва ўзига хослиги асосида амалга оширилади. Тушуниш – тарихий ва узлуксиз жараён, бу жараённи амалга оширишда матн асосий элемент ҳисобланади.

Испан файласуфи Хосе Ортега-и-Гассет Вильгельм фон Гумбольдт ғояларини давом эттирди ва ривожлантирди, баъзи ҳолларда уларни тўлдирди. Унинг таъкидлашича, аслиятни бошқа тилга тўлақонли ўтказиш имкониятлари қанчалик инкор этилар экан, шунчалик таржиманинг илмий-тадқиқ тамойиллари ва методларининг чуқур назарий асослари ишланмасини топишимиз мумкин [21. С.110].

Зеро, таржиманинг амалга ошира олмайдиган имкониятлари ҳақида фикр билдириш унинг гўзал имкониятларини инкор қилишини билдирмайди. Айниқса, таржимани амалга оширишдаги қийинчилик таржимон фаолиятга алоҳида улуғворлик ва мазмун бахш этади. Шунингдек, бошқа давр ва ўзга халқларга хос жиҳатларни очишда таржима улар орасидаги номувофиқликни бартараф этади ҳамда бутун инсониятни бирлаштиради. Таржима бу асл нусха асар эмас, фақатгина унга эришиш йўли, холос. Испан файласуфи ҳар бир матн бир неча таржималардан иборат бўлади, чунки улар орасидан айнан матннинг ўзига хослигига кўра ифодаланиши муҳим, дея таъкидлайди [21. С.110]. Бизнингча, таржима гўёки бир одамнинг икки хил тасвирига ўхшайди, расмлардан бирининг тасвири хира кўриниши билан асл нусха муаллифи ҳақида бир оз тушунарсиз ва ғалати тасаввур уйғотади.

Ф.Шлейермахернинг “китобхонни муаллифга яқинлаштириш” [22] методига кўра таржимада аслиятнинг ўзига хослигини максимал сақлаш имконини бериши таъкидланади. Шунга кўра Ортега-и-Гассет ўрта асрлар муаммоларини ёритувчи асарлар муаммоларига юзланиб, уларга хос бўлган экзотик белгиларни замонавийлаштиришдан қатъий воз кечиш лозимлигини таъкидлайди. Унинг таъкидлашича, “таржима билимларини доимо ошириб бориш, таржимоннинг шахсий техникасини ишлаб чиқишига имкон беради, бу эса бизнинг асар мазмунида ифода этилган воқеалар тўғрисидаги

тасаввурларимизни кенгайтиришга ёрдам беради” [21]. Бу ҳолатда қайси давр ёки қайси халқни олишимиздан қатъи назар, кўзлаган мақсад ўзгармайди. Асосийси, таржима жараёнида она тили чегарасидан чиқиб, бошқа тил муҳитига яқинлашиш лозим.

Таржима тил имкониятлари натижасида яратиладиган ижод маҳсулидир. Таржима фаолияти ҳам тил соҳасида шахснинг ўз-ўзини ривожлантириш шаклига айланади, чунки бир тилдан бошқа тилга қилинган таржима мураккаб жамият шароитида инсонни ақлли, илмли бўлишига имкон яратади. Таржима бир тилдан иккинчи тилга сўзларни ўтказиб қўйиш эмас, инсон янги тилни ўзлаштирар экан, ҳеч шубҳасиз, янги маданиятни ўрганади, янги маданиятни ўрганиш эса маданиятларнинг хилма-хиллигини ривожлантириш орқали кечади. Бу икки ёқлама жараён, биринчидан, шахснинг ўзгаришига олиб келса, иккинчидан, шахс орқали бутун бир жамиятнинг ўзгаришига олиб келади.

XVIII асрда француз миллий фалсафасининг ривожига таъсир кўрсатган “Энциклопедия” асарининг Дидро, Вольтер, Монтескье каби файласуфлар томонидан яратилиши ғоя, сўз, инсон тафаккурининг олам қиёфасини намоён қилишдаги қудратини кўрсатди. Француз энциклопедиячилари асарларида кўтарилган ғоялар таржима туфайли бутун инсоният тафаккурининг янада бойишига ўз ҳиссасини қўшиб келди. Монтескьенинг инсон ички тузилиши ҳақидаги ғояси Афлотун ғоялари, Декартнинг “туғма ғоялари”, Кантнинг трансцедеталлик ҳақидаги ғояларига ҳамоҳанг. Кантнинг фикрича, трансцедеталлик онгимизга имманент ҳисобланади, яъни “Кантнинг буюк ва фундаментал кашфиёти: инсон тафаккури ва идроки тажрибадан олдин муайян фундаментал тузилишга эгалигидан иборат” [28]. Кант фикрича, нарсалар бизга таъсир қилиб, бизда хилма-хил сезгиларнинг пайдо бўлишига ёрдам беради ва бунда ички фоалликни уйғотади.

Таржима тарихига назар ташласак, ўрта асрлардаёқ “Библия” таржимони Иероним ижодида таржимонлик фаолиятига янгича ёндашувни кузатишимиз мумкин. Унинг таржима матнидаги новаторлигини таржимонларнинг тушунмаслиги кўплаб баҳс-мунозараларга олиб келади. Бу эса, ўз навбатида, Иеронимнинг янги таржима тамойиллари ва таржима концепциясини шакллантиришига сабаб бўлади [28]. Унинг концепциясига кўра, аслият матнининг сўзларини эмас, балки ғоясини етказиши муҳим. Иероним Цицерон ва Горацийнинг таржима хусусидаги фалсафасига таянганини алоҳида таъкидлайди: “Агарда кимдир таржимада тил гўзаллиги оқсаганини пайқаган бўлса, унда ўша инсон Гомернинг асарини лотин тилига сўзма-сўз таржима қилиб кўрсин. Яна ҳам аниқроғи, унинг асарини ўз она тили қолипи устига қўйсин, насрда ўзининг услуби қанчалик кулгули чиққанини кўради, бу ҳолатда энг гапга чечан шоир ҳам сўзамолликдан маҳрум бўлади” [28].

XV асрда Л.Бруни “Моҳир таржима ҳақида” рисоласида Платон ва Аристотель асарларининг аслиятини қадимий грек тилига таржимасида йўл қўйилган ноаникликлар билан таққослаб, маҳоратли таржима учун бир катор қоидаларни келтиради. Л.Бруни таржималарда учрайдиган хатоларни кўрсатибгина қолмай уларнинг пайдо бўлиш сабабларини ҳам таҳлил қилади. Бунинг асосий сабабларидан бири, унинг фикрича, таржимонга билим етишмаслиги ва унда адабий қобилиятнинг йўқлиги эди. Л.Бруни биринчилардан бўлиб таржимани икки томонлама фаолият сифатида тақдим этишга уринади, яъни аслият матнини тушуниши (таржиманинг герменевтик аспекти) ва таржима тилида янги матни яратилиши (таржима реконструкцияси аспекти)ни назарда тутди [14. С.145].

Э.Долье XVI асрдаёқ таржимон аслият матнидаги сўзларни эмас, балки матни тушуниш асосида таржима қилиши кераклигини таъкидлаб, таржима назариясида баҳсли масалани кўтаради ва таржимада сўзма-сўзликдан воз кечиш анъанасини таклиф этади. Муқаддас китоблар ёки фалсафий матнларни таржима қилишда таржимонга сўзма-сўз таржима қилишга рухсат берилган, бироқ стилистик ёхуд лингвистик меъёрлар нуқтаи назардан қўшимчалар киритиш гуноҳ саналган. Шунинг учун ҳам диний характердаги матнларнинг таржимасида таржима меъёри ва анъанаси кескин фарқ қилади [28].

Инсонлар ўртасидаги ўзаро тушуниш жараёнининг сабаби Жалолиддин Румий концепциясига кўра сўзлар эмас, балки инсонлар ўртасидаги маънавий мулоқотлар одамларнинг ички ҳислари ташқи таъсир натижасида бирикиши дастлабки тушунчаларнинг шаклланишига олиб келади [20. Б.45]. Зеро, ташқи таъсир ички тузилишга мос келганда ўзаро фаоллашиб ижобий таъсирни кучайтиради, яъни инсонда янгича дунёқарашни воқелантирувчи синергетик таъсирни юзага чиқаради. Таржиманинг синергетик ўзига хослиги матндаги ахборот таъсирида ва матндан ташқари имплицит ахборотнинг таъсирида ўз-ўзини ривожлантириши ва ташкил этиши билан боғлиқ. Бу жараён таржима майдонининг барча жабҳаларини камраб олади. Унда, биринчи навбатда, мазмун ва энергия майдони

хақида гап кетадиган бўлса, матн энергияси ўзини эксплицит тарзда намоён этади. Бу соҳаларда матннинг чуқур энергия салоҳиятини очиб берувчи матннинг мавзу – рематик прогрессияни акс эттирувчи фактик ва эмотив маъно шаклланади. Иккинчидан, таржиманинг тушуниш предмети таржима коммуникациясининг субъекти муаллиф, таржимон, реципиент ҳисобланади. Бизнингча, таржима жараёни кўплаб эксплицит ва имплицит маъноларни транспозиция қилиш системаси сифатида тушунилиши зарур. Таржима майдонининг ҳар бир соҳасида ўзига хос дифференциал маъно шаклланади, аммо таржима натижаси сифатида олинган яхлит маъно, барча таржима майдонига хос фикрлар маъноларининг йиғиндиси эмас, балки уларнинг синергиясидир, чунки буларнинг ўзаро таъсири натижасида таржима матни бошқа тил ва ўзга маданиятда янги маъно пайдо қилади.

Бадиий таржима хусусида фикр юритар эканмиз, шаксиз, адабиёт фалсафасига ҳам назар ташламасликнинг иложи йўқ. Фикримизча, яратилган ҳар бир бадиий асар муаллиф тушунчаси, тасавури, онги ва қалбининг туб-тубида ётган энг эзгу ғоялари, яшаётган давр муаммолари ва талаблари натижасида шаклланган маънавий дунёқарашининг ифодасидир.

Француз таржимони ва назариётчиси Э.Кари таъкидлаганидек, таржима тушунчаси, ҳақиқатан ҳам, жуда мураккаб, чунки у нафақат бизнинг давримизда хайратланарли хилма-хилликка эга бўлганлиги, балки асрлар давомида доимий равишда ўзгариб туриши билан аҳамиятлидир [26. Р.81]. Таржима муаммосини адабиётшунослик нуқтаи назаридан ўрганиш Ғ.Саломов қарашларида ҳам кенг таҳлил этилади. Унинг фикрича, “бадиий таржима адабий бунёдкорлик соҳаси, табиатан сўз санъатида қайта яратишдан иборат жараён экан, унда услуб фавқуллодда катта аҳамиятга молик” [18. Б.219].

Бугунги кунда таржиманинг фалсафий муаммолари бир қатор тадқиқотлар объекти бўлганини кузатишимиз мумкин. Жумладан, Н.М.Нестерова “Вторичность как онтологическое свойство перевода” [14] номли диссертацион ишида таъкидлайдики, иккиламчилик таржиманинг онтологик хусусияти сифатида матн яратиш жараёнида аслиятнинг мутлақлик тавсифига нисбатан матнлараро хусусиятини пайдо қилишини фалсафанинг янги парадигмаси доирасида ўрганилишдан иборат. Мазкур тадқиқотда илк марта иккиламчилик феноменологик категория сифатида матннинг тўлиқ яратилиши асосида аслият ва таржима матнлараро муносабатларининг диахроник аспектидаги динамикасига фалсафий ёндашув ўрганилган. Унда иккиламчиликнинг турли онтологик типларини кўрсатувчи аслият матнини эркин ва сўзма-сўз таржима методлари асосидаги стратегиялари интерпретацияси амалга оширилган.

Е.А.Алексееванинг “Культурные и концептуальные особенности перевода текстов русских философов на французский язык” [1] номли мақоласи XX аср рус файласуфларининг матнларини француз тилига таржима қилишда маданий ва концептуал ўзига хослигини *руҳ, қалб, энергия* каби тушунчаларнинг фалсафий матнлардаги таржимаси тадқиқига бағишланади.

Тадқиқотнинг фаолият парадигмаси доирасида адабий матн “объектив субъективлик” сифатида қаралади ва унинг моддий воситалари тизимида кўринади [14. С.20]. А.А.Богатырёвнинг таъкидича, “бадиий матнларга хос бўлган воқеликлар субъективдир, чунки уларни ўқувчи тушуниши мумкин ва унинг дунёқарашига кўра биз бу воқеликларни субъектив-қадрият деб атаيمиз” [6. С.97]. Субъектив қийматни реал объектлаштириш фаолияти рефлексия бўлиб, реципиент (қабул қилувчи) матнда мавжуд муаллифнинг имплицит ғоясини структурал компонентлар индивидуаллиги асосида тиклайди. Ушбу фаолият унинг таркибий қисмлари қайта ишланиши натижасида такомиллашади, бу эса китобхон тушунчасида маъно-мазмун оқимини онгли равишда тартибга солиш имконини беради. Назаримизда, китобхоннинг замонавий ва тарихий фактларда муҳрланган узоқ вақтли фон ахборотларини ифодаловчи сўз бойлиги Шарқ маданиятига хос фалсафий қарашларни тушунишда муҳим ҳисобланади.

В.М.Жигалина ўзининг диссертациясида таржима назарияси, бадиий матн стилистикаси ва филологик герменевтика йўналишида таржима хатолари, таржима меъёри, рефлексия, маъно, мазмун, бадиийлик, кучли бадиий матн тушунчаларини герменевтик тадқиқотлар контекстида ўрганади [10].

Таржиманинг ўзига хослиги ва унинг маъносини англаш доимо босқичма-босқич рўй беради. Аниқлик, тўғрилиқ, адекватлик мезонлари ҳам аста-секин такомиллашиб борди, даврдан даврга, маданиятдан маданиятга ўтган сари улар ҳам ўзгариб бораверади. Хусусан, бадиий-фалсафий асарларда акс этган миллий бўёқдорлик мазмунини таржима жараёнида миллийлик ва универсаллик, фарқлаш нуқтаи назаридан ифодадай олиш муҳим аҳамиятга эга. Ш.Сафаров тўғри таъкидлаганидек,

таржимашуносликнинг методологик асослари ҳақида фикр юритаётиб, ушбу фаннинг фалсафаси, унинг фалсафий тамойилларини ва умуман, файласуфлар тарихий фаолиятининг у ёки бу қирраси борасида билдирилган фикр-мулоҳазаларига мурожаат этганда, сўзсиз, Гадамер, Хайдеггер, Рикёр, Деррида, Барт кабиларга юзланамиз. Ж.Дерриданинг таржима муаммосига кўл урган шахс шу заҳотиёқ фалсафа “қармоғига илинишини унутмайлик [19. Б.22].

Хулоса. Демак, фалсафа аспектида таржима назарияси мустақил фалсафий ёндашув негизида юзага келиши мумкин. Таржима таҳлили фалсафа учун мураккаб жараёнлардан бири. Таржима фақатгина лингвистик ҳодиса сифатида тор техник фаолият соҳасини ифодаламайди, балки у инсонларнинг ижод маҳсули бўлиб, маданият, мантик, соҳаларида бутун бир жамиятни, алоҳида олинган индивиднинг ривожланиши учун асос вазифасини ўтайди. Таржимада матн интерпретацияси, уни когнитив даражада тушуниш, билиш ва матн билан боғлиқ рефлексия масалаларининг ўзаро боғлиқлиги ҳақидаги мулоҳазалар ишимизнинг кейинги бобида таҳлилга тортилади.

АДАБИЁТЛАР:

1. Алексеева Е.А. Культурные и концептуальные особенности перевода текстов русских философов на французский язык//Известия Саратовского университета, 2009. – Т. 9. Сер. Филология. Журналистика, вып. 2.
2. Автономова, Н.С. Познание и перевод. Опыты философии языка / Н.С.Автономова. – М.: Российская политическая энциклопедия (РОССПЭН), 2008.– 704 с.
3. Автамонов Я.И. Символика растений в великорусских песнях // Журнал Министерства народного просвещения. – Спб., 1902. – Ч. 344. – Ноябрь-декабрь. – С.79–103.
4. Бенъямин В. Учение о подобии. Медиаэстетические произведения. – М.: РГГУ, 2012. –С.88.; Anthony Pym, *Philosophy and Translation // A companion to translation studies, Clevedon-Buffalo-Toronto, 2007. – P.24.*
5. Богин Г.И. Типология понимания текста. – Калинин: КГУ, 1986. – 85 с.
6. Богатырев А.А. Схемы и форматы индивидуации интенционального начала беллетрического текста. – Тверь: ТвГУ, 2001. – 197 с.
7. Воскобойник, Г.Д. Общая когнитивная теория перевода [Текст] : курс лекций /- Иркутск : ИГЛУ, 2007. – 252 с.
8. Гумбольдт В фон.. Избранные труды по языкознанию; пер. с нем. / В. фон Гумбольдт. – М. : Прогресс, 1984. – 400 с. – (Языковеды мира).
9. Гадамер Г-Г. Истина и метод. Основы философской герменевтики. – М.: Прогресс, 1988. – 704 с.
10. Жигалина В.М. Герменевтические основания. Типологии переводческих ошибок и неудачных переводческих решений: дисс...канд. филол. наук. – Тверь, 2006. – 234 с.
11. Медведев В.И. Перевод как философская проблема // Философия и культура. – 2018. – № 6. – С. 58 - 67. DOI: 10.7256/2454-0757.2018.6.26078 URL: https://nbpublish.com/library_read_article.php?id=26078.
12. Миньяр-Белоручев Р.К. Общая теория перевода и устный перевод. М.: Воениздат, 1980. – С.58–60.
13. Montesquieu, *Lettres persanes. Paris: Editions Gallimard, 1949. – 410 p.* Монтезкье. Форс номалари. –Тошкент: Қатортол-Камолот, 1999. – 304 б (Кейинги ўринларда шу китобдан олинган мисоллар бети кўрсатилган ҳолда берилди).
14. Нестерова Н.М. Вторичность как онтологическое свойство перевода: Автореф. дисс. ... д-ра филол. наук. – Пермь, 2005. – 46 с.
15. Рикёр П. Понимание и объяснение// Новая философская энциклопедия. В.4т.Т.3.– М.: 2001.– С.283 – 285.
16. Рябова М.Э. Философские основы перевода//<https://study-english.info/article033.php>.мурожаат қилинган сана 20.06.2021.
17. Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М.: Школа «Языки русской культуры», 1996. – 288 с.
18. Саломов Ф. Таржима назарияси асослари. –Т.: Ўқитувчи, 1983. – 232.

19. Сафаров Ш.С. *Таржимашиуносликнинг когнитив асослари. Монография.* – Т.: Наврўз, 2019. – 299 б.
20. Сулаймонова Ф. *Шарқ ва ғарб. Монография.* – Тошкент: Ўзбекистон, 1997. – 210 б.
21. Хосе Ортега-и-Гассет. *Что такое философия?* – М.: Наука, 1991. – 411 с.
22. Шлейермахер Ф.. *Лекция «О разных методах перевода», прочитанная*
- 23 марта 1813 г. // *Вестник МГУ. Сер.9. Филология, 2000. – №2. – С.127-147. URL: www.philol.msu.ru/.*
23. Anthony Pym, *Philosophy and Translation // A companion to translation studies, Clevedon-Buffalo-Toronto, 2007. (2, 24).*
24. Mounin G. *Linguistique et traduction.* – Bruxelles, 1976. . – 165 p.
25. Montesquieu, *Lettres persanes.* Paris: Editions Gallimard, 1949. – 410 p.
26. Cary E. *Comment faut-il traduire?* – Lille, 1986.– P. 81.
27. Foucault M. *La pensée du dehors// Critique.996.№229. . – P.525.*
28. <https://medium.com/@estimsu/hieronymus-c7de41c617b3>. Гарбовский Н.К.: «Святой Иероним — покровитель переводчиков».

**XIROMIY “CHOR DARVESH” ASARI TOSHBOSMA
NUSXASINING HAMD BOBI TALQINI***Safarova Hilola Oxunjonovna,**Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.n.**Ismoilov Namozbek,**Buxoro davlat universiteti Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik**1-bosqich magistranti, Mir Arab o‘rta maxsus islom bilim yurti mudarrisi*

Annotatsiya. Maqolada Mulla Qurbon Xiromiyning Buxoro San‘at muzeyi xazinasida saqlanayotgan “Chor darvesh” asarining 27844 raqamli toshbosma nusxasining muqaddimaviy boblari haqida ma’lumotlar keltirilgan. Hamd bobidan misollar keltirilib tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Mulla Qurbon Xiromiy, Tahsin, “Yangi nafis uslub”, “Bog‘u bahor” nastaliq, basmala, salovot, hamd, xalq kitobi.

**ТОЛКОВАНИЕ ГЛАВЫ “ХАМД” ЛИТОГРАФИРОВАННОЙ
КОПИИ ПРОИЗВЕДЕНИЯ ХИРАМИ «ЧОР ДАРВЕШ»**

Аннотация. В статье представлена информация о предварительных главах литографированного экземпляра произведения муллы Курбана Хирами “Чор дарвеш” под номером 27844, хранящегося в сокровищнице Бухарского художественного музея. Были приведены и проанализированы примеры из главы “Хамд”.

Ключевые слова: Мулла Курбан Хирами, Тахсин, “Новый изящный стиль”, “Богу бахор” насталик, басмала, Саловат, хвала, народная книга.

**INTERPRETATION OF THE “HAMD” CHAPTER OF THE PRINTED
OF HIRAMI'S COPY OF “CHOR DARWESH”**

Abstract. The article presents information about the preliminary chapters of the lithographed copy of the work of Mullah Kurban Hiromei “Chor Dervesh” under the number 27844, stored in the treasury of the Bukhara Art Museum. Examples from the praise chapter were given and analyzed.

Keywords: Mullah Kurban Hiromiy, Tahsin, “New elegant style”, “Garden spring”, nastaliq, basmala, salovot, praise, folk book.

Kirish. “Chor darvesh” xalq kitoblaridan biri sifatida Sharq xalqlari orasida ancha keng tarqalgan ishqi-y-sarguzasht asarlar sirasiga kiradi. Asarning ilk nusxasi XVIII asrda O‘rta Osiyoda forsiy tilda noma’lum muallif tomonidan yaratilgan. “Chor darvesh” asarining shuhrat qozonishi va tarqalishida hind, tojik, o‘zbek, turkman va boshqa o‘nlab xalqlarning xizmatlari beqiyos hisoblanadi. Chunki “Chor darvesh” badiiy asar va tarjima asar sifatida turli mamlakatlarda, turlicha nomlar bilan, turli yillarda yozilgan, nashr etilgan hamda ommalashtirilgan. XVIII asr oxirlarida Tahsin urdu tilida “Yangi nafis uslub”, Mir Ommon esa 1802 yilda “Bog‘u bahor” nomlari bilan “Chor darvesh” syujeti asosida nasriy asarlar yozishgan. Bundan tashqari, Hindistonning Bombay, Lohur, Dehli, Kal‘kutta, Ollohobod, Lakhnava kabi shaharlarida fors tilida, O‘rta Osiyoning Kitob, Xorazm, Qo‘qon, Buxoro, Toshkent, Dushanbe kabi viloyat va shaharlarida o‘zbek va tojik tillarida, Qozonda tatar tilida, Peterburgda rus tilida “Chor darvesh” nomi bilan asarlar keng tarqalgan. Bu qissa 1927,1957 yillarda Moskvada “Bog‘u bahor”, 1951,1961 yillarda Dushanbeda “Chor darvesh” nomi bilan nashr ettirilgan. Tadqiqotlarning o‘rganishlaridan shuni bilish mumkinki, “Chor darvesh”larning ko‘pchiligi XIX asrga tegishlidir.

Asosiy qism. Xiromiyning “Chor darvesh” asari tojik-fors tilidagi nasriy “Chor darvesh” asosida yaratilgan. Ammo Xiromiy ham salafarlari singari manbaga erkin, ijodiy yondashgan. Shoir butun badiiy mahoratini ishga solib, “Chor darvesh”ning tojik-forscha varianti asosida butunlay o‘zgacha yangi asar yaratgan. Xiromiy, albatta, asarda XIX asr ruhini, zamondoshlarining ezgu orzu-umidlarini singdirishni maqsad qilib, buni amalga oshira olgan. Qiyinchiliklarga qaramay, Xiromiy ijodiy ishini aslo to‘xtatmagan, asarlarini tahrir qilib, pishitib, qayta-qayta ishlab mukammallashtirib borgan. Shuning uchun “Chor darvesh” asarining dastlabki variantidan keyin ikki marta (1856,1862) qayta ishlangan [2].

Mulla Qurbon Xiromiy ijodini o'rganish, to'plash va ilmiy tadqiq etish ishlari XX asrning 40-70-yillardan boshlangan. Xiromiy asarlari 1940- yildan xrestomatiya va darsliklaraga [2] kiritila boshlandi. Keyinchalik shoirning asarlari kitob qilib nashr etildi [3].

Buxoro San'at muzeyi xazinasida "Chor darvesh" asarining 2 ta toshbosma nusxasi mavjud bo'lib, ularning biri 100 bet va ikkinchisi 252 betdan iborat. Biz ilmiy ishimiz uchun 27844 raqamli toshbosma nusxasini asos qilib oldik. Xiromiyning "Chor darvesh" asari ham mumtoz adabiyoti an'analari xos bo'lgan "Bismillohir Rahmonir Rahiym" jumlasini bilan boshlangan. Hamd, na't, bag'ishlov kabi asarlarning kirish qismiga taalluqli boblar vujudga kelgan. Muqaddimaviy boblar necha asrlardan beri qat'iy qolipga aylanib, XX asrning boshlariga qadar davom etdi. Jumladan, Alisher Navoiyning "Xamsa" asari ham shu mezon asosida yaratilgan. Dostonda dastlab basmalayi sharifning ta'rifi keltirilgan. Ma'lumki, Alloh taolo Qur'oni Karimni Bismillohir Rahmonir Rahiym jumlasini bilan boshlagan. Bu esa musulmonlarga o'rnak, ya'ni har doim o'z so'z va ishlarini "Bismillah" bilan boshlamog'i lozim, demak. Abu Lays Samarqandiy aytadi: "Farzandning tili kalimaga juftlangan kundan boshlab uning ongiga quyidagi uch muborak jumlaning quymoq farzi: "Assalomu alaykum", "Bismillahir rohmahir rohim", "Allohu akbar". Har bir ishni "Basmala" bilan boshlash sunnatdir. Payg'ambarimiz Muhammad sollallohu alayhi va sallam: «Har bir ish "Bismillah" bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir"», deganlar. Zero, Hazrati payg'ambarimiz hadislaridan birida: "E'tiborli har bir ish "bismillah" bilan boshlanmas ekan, uning oxiri kesikdir", ya'ni barakasi bo'lmaydi, oxiriga etmaydi, deb qat'iy ta'kidlaganlar. Modomiki shunday ekan, Alisher Navoiy buyuk "Xamsa" asarining ilk dostoni "Hayrat ul-abror"ni ham "Bismillohir Rahmonir Rahiym" bilan boshlashi tabiiy bir hol edi [1]. Bu an'ana Alisher Navoiydan keyin ham davom etgan. Xiromiy ham "Chor darvesh" asarini muqaddimaviy boblar bilan boshlagan. Ular quyidagicha:

Bismillahir rohmahir rohiym
Xudoyeki olamg'a xalloq erur,
Bori shirkat-u juftidin toq erur.
Birovni qilib oshiyonin baland,
Birovni etib el aro arjumand.
Birovni kishvarg'a shoh aylabon,
Mute' anga necha sipoh aylabon.
Birovni qilib chunin afruxta,
Bo'lib anga yuz ming makr soxta.
Birov yetkurib ko'kka ayvonini,
Birov topmayin baytulxarobini.
Qilib kun jamolini nuroniy ul,
Etib tun yuzin tiyra zulmoniy ul.


Muallif misralarda Alloh taolo butun borliqning yaratuvchisi ekanligi va unga biror narsa sherik bo'lmasligini, shuningdek, jufti ham yo'q ekanligini aytib o'tadi.

Darhaqiqat, Alloh subhonahu va taolo ko'z bilan ko'rib turganimiz va ko'zimizga ko'rinmaydigan butun borliqni yaratgan qudrat sohibidir. Avval koinot yaratilib, undan so'ng inson xalq qilingan. Azaldan yakka-yu yagona Allohdan boshqa biror narsa mavjud bo'lmagan. Alloh taolo o'zining borligini, buyukligini, qudratini bildirish uchun oliy hikmati bilan osmon, yer va undagi boyliklarni, o'simliklar duvosini yo'qdan bor qilganligi haqida fikrlar bildirilgan. Keyingi misralarda esa Alloh taolo insonlarni turlicha yaratgani, birovni boy qilib, uylarini baland qilgani unga ko'plarni xizmat qildirgani, boshqa birovni esa kambag'al qilib qo'ygani haqida aytib o'tadi. Muallif bu fikrlar orqali Alloh taoloning har narsaga qodir zot ekanligini go'zal ifodalar bilan bayon qilib o'tgan.

Basmaladan keyin 11 misra Alloh taolo hamdi, 5 misra payg'ambarimizga na't va 8 misrada xalifalarga maqtov keltirilgan.

Xarobot eli aylab andin umid,
Munojot eli ham eshitib navmid.
Musofirg'a munis majodarg'a ham,
Musulmonga razzoq kofarg'a ham.
Jahon mulkida har nekim o'ch-u past,
Mute'yi aning barcha hushyoru mast.
Hamma shohlaridur aning bandasi,
Bori tojvarlari sarrofkandasi
Ibodatinin garchi sharmandaheman,

Anga lillahil hamdkim bandaheman.



Misralardagi ayrim istilohlarning izohini berib o'tamiz: **Xalloq** –Yaratuvchi, xudo; **Shirkat** –a. Sheriklik, o'rtoqlik, biror ishda birgalik; **Afruxta** – f. Lovullab turgan, yaltiroq, porloq; **Baytul xarob** – xotirjamlikka, obodlikka erishmagan, halovatini topmagan qalb; **Tiyra zulmoniy** – qorong'u – qorong'ulikka tegishli, qorong'idagi: qora, qop-qora; **Kofar** – kufir ahli 1. Tanimovchi, inkor etuvchi, islom dinini tanimovchi, g'ayri din. 2. Rahmsiz, rahmsiz sevgili; **Xarobot eli** – g'ofil xaloyiq; **Munojot eli** – ogohlar; **Mute'** –itoat etuvchi, bo'ysunuvchi.

“Bismillahir rohmanir rohim” jumlasidan keyin Allohga hamdlar aytilgan. Hamd - arabcha maqtov, shukur (hamdu sano – maqtov, shukur) degan ma'noni bildiradi. Sharq mumtoz adabiyotida basmalayi sharifni keltirib, keyin hamd aytish va asarlarni shu yo'nalish asosida boshlashning asosiy sababi Allohning kitobi bo'lmish Qur'oni Karimga o'xshatma qilishdir. Chunki ilohiy kitobning birinchi surasi ham “Bismillohir rohmanir rohim” dan keyin hamd bilan, ya'ni “Allohga hamd bo'lsin” degan oyat bilan boshlanishidir. Musulmon olamining dasturulamali bo'lgan Qur'oni Karimdagi bu holat adabiyotda maxsus an'ana darajasiga ko'tarilgan [1].

Yuqorida keltirilgan misralarda Allohni anglash va unga yetishish yo'li xavfli va mashaqqatli ekanligini haqida so'z bormoqda. Ya'ni g'ofil xaloyiq Allohga umid qiladi, hatto ogohlar ham undan umidvor. Yaratuvchining inoyatiga musharraf bo'lmoq uchun hamma - g'ofil bandalar, ogohlar, musofirlar, musulmonlar, shohlar umidvor va ushbu yo'lga qadam qo'yadi. Bu yo'l yorug' bo'lsa ham, ayni damda mashaqqatli hisoblanadi.

Xulosa. Basmala, hamd, na't va munojotlarning keltirilishi mumtoz adabiyotining o'ziga xos an'analardan hisoblanadi. Chunki, Sharq mumtoz adabiyotida har bir asarni hamd bilan boshlash an'ana darajasiga ko'tarilgan, jumladan, Mulla Qurbon Xiromiyning “Chor darvesh” asari ham bundan mustasno emas. Xiromiy dostonida o'zbek mumtoz adabiyotidagi an'analarni davom ettirib, o'zining haqqa, xalqqa, hayotga bo'lgan munosabatlarini singdira olgan

ADABIYOTLAR:

1. Rajabova M., Amonova Z. Navoiyshunoslik. (O'quv qo'llanma). – Buxoro, Durdona, 2021. 33-bet.
2. Қораев Т. Танланган асарлар. – Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2008. - 312 б.
3. Xiromiy. Chor darvesh. Buxoro san'at muzeyida saqlanayotgan 27844 raqamli toshbosma nusaxasi. 252 sahifa.



Navoiy gulshani

TATABBU' –YANGI IJODIY MAYDON

*Bekova Nazora Jo'rayevna,
Buxoro davlat universiteti professori,
filologiya fanlari doktori (DSc)*

(Alisher Navoiyning Hofiz Sheroziy g'azallariga tatabbulari misolida)

Ma'lumki, Alisher Navoiy tatabbunavislikni adabiy yo'nalish darajasiga ko'tardi va bu bilan o'ziga xos an'ana yaratdi. Shu bilan birga asos qismini tatabbu' g'azallar tashkil etgan "Devoni Foni"ni tartib berdi. Tatabbu' yozishga kirishgan shoir ustozlari darajasida qobiliyati borligini, o'sha shaklda, o'sha motivda she'r aytishga o'zining qodir ekanligini namoyish etadi. Hazrat Navoiy tatabbu' bitgan g'azallari ruhini saqlagan holda shu ruhni ulug' ustodlari saviyasida go'zal ifoda eta olish, ohoriy obrazlar yarata olish, o'ziga xos poetik mushohada yuritish mahoratini o'z tatabbularida namoyon qila oldi. Adabiy ta'sir va ijodiy hamkorlik mahsuli sifatida yaratilgan payravlar tatabbunavislarning chuqur bilim, katta ijodiy kuch, maxsus tayyorgarlik, adabiy ijodiy tajribaga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Navoiyning tatabbulari, shu jihatdan, xarakterlidir. Shoir yaratgan tatabbular taqlid va takrordan xoli, yangi fikr va tasvirlarga boy. "Tatabbu' - adabiy an'ana rivojining mahsuli. Ammo rivojlantirilayotgan an'anaga yangilik qo'shilmasa, mukammal tatabbu' yuzaga kelmaydi. An'ana va yangilikning yaxlit namoyon bo'lishi uchun esa badiiy mahorat lozim", -deb yozadi adabiyotshunos B.Fayzullaev o'z tadqiqotida. An'analar zaminida originallikka intilgan Navoiy-Foniyning ustozlari g'azallariga bitgan tatabbularining ko'pchiligi badiiy mahorat bilan ijodiy rivojlantirilgan an'ana va yangilikni o'zida mujassamlashtirgan mukammal payravlar sirasiga kiradi.

Alisher Navoiyning tatabbularini o'rganish jarayonida shuni kuzatdikki, shoir ba'zi g'azallarga ma'no va mazmun (g'oyasi, mavzui, obrazlari), shakl belgilari (vazn, qofiya radif) jihatidan o'xshatma tarzida tatabbu' bitgan bo'lsa, ba'zilarining vazn, qofiya va radifi saqlangan holda mazmuni erkin, she'riy san'atlar chuqur ishlangan masnu' tatabbular yozadi, ba'zi g'azallarga esa mazmunga katta e'tibor bergan holda vazn va radif yangilangan, shakl o'zgacha matbu' tatabbular ijod qiladi. Navoiy salaflari qo'llagan timsollar, adabiy an'analardan ustalik bilan foydalanib, goho tatabbu qilinyotgan asar so'zlari chegarasidan chiqmay yangi mazmun ifoda etadi, goho yangi qofiya, yangi so'zlarni ishga soladi, goho matlada asos g'azaldan uncha uzoqlashmaydi, gohida matla'dan uzoqlashib ketadi-yu, maqta'da shoirning o'z misralarini tazmin qilib, yana unga qaytib keladi.

Navoiy-Foni fors-tojik adabiyotining g'azal ustodlari Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy va Abdurahmon Jomiy bilan bellashar ekan, nafosatda ham, fasohatda ham ulardan aslo qolishmaydigan badiiy durdonalar yaratdi. Bunda ulug' Navoiy fors-tojik adabiyoti suxan maydonining ajoyib chavandozlari Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Hofiz Sheroziy, Jomiy va boshqalar bilan bellashib ko'rishni, bu sohada balog'at va fasohat ko'rsatishni, so'ng esa ona tili – qadimgi o'zbek tilida lirik va epik asarlar yaratib, o'z xalqini yakqalam qilish, o'zbek she'riyatini ham yuksak badiiyat ko'kiga ko'tarish maqsadini oldiga qo'ygan. Navoiy o'zining o'zbek tilidagi g'azallaridan devon tuzishda ham salaflari Xusrav Dehlaviy, Jomiy va ayniqsa, Xoja Hofiz devonlarini asos qilib oldi. Bu haqda u "Bado'e ul-bidoya" devoniga yozgan debochasida quyidagicha ma'lumot beradi: "... Ammo ash'or tadvin qilg'onlardan ba'zekim baho mulkida foniydurlar va ba'zekim holo fano dayrida boqiydururlar. Avvalg'i zumradin bovujud dard beshasining g'azanfari va ishq otashgohining samandari, javohir ma'naviysi – Amir Xusrav Dehlaviy... va fano mayxonasining rindi xirqachoki va balo paymonasining masti beboki, ishq muhabbat asrori aminlarining hamrozi – Xoja Hofiz Sheroziy ... va so'ng'i quds shabistonining sham'i anvori va uns gulistonining andalibi suxanvari, balog'at shakkaristonining to'tii shirinkalomi janob maxdumiy mavlono Abdurahmon Jomiy ... devonlari iroda bo'lg'ay..." [Alisher Navoiy. MAT. Badoe' ul-bidoya.. 1-jild. – Toshkent: Fan, 1987. 3-bet].

Hofiz – dilbar she'riyat meros qoldirgan ijodkor. Uning o'ynoqi, yuksak mahorat bilan aytilgan mazmundor asarlari Sharq G'arbda dovruq taratgan. Shuning uchun ham Hofizga ergashish, undan o'rganish, she'rlariga javob aytish, tatabbu' qilish, she'rlariga muxammas bog'lash badiiy so'z san'ati mulkida tabarruk an'ana sifatida yashab keladi. Ana shunday ulkan so'z san'atkorining ma'naviy merosi Alisher Navoiy e'tiborini o'ziga tortadi. Shu boisdan ham "Navoiy Hofizni dohiy san'atkorlardan biri deb tanigan, u bilan bir umr qiziqqan, o'z poetik ijodida uning eng ilg'or g'oyaviy-badiiy an'analari muvaffaqiyat bilan rivojlantirgan".

Bir qancha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fors adabiyoti tarixida asta-sekin taraqqiy etib kelgan insonparvarlik g'oyasi Hofiz Sheroziy ijodida yuksak cho'qqiga ko'tarilib, G'arbdagi Uyg'onish davri adabiyotida muayyan bir oqimga aylangan gumanizm darajasiga yuksala oldi. Hofiz Sheroziy ijodi fors-tojik yozma adabiyotiga xalqdan kirib kelgan va Ro'dakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Ibn Sino, Nosir Xusrav, Umar Xayyom, Jaloliddin Rumiy, Sa'diy Sheroziy va boshqalar ijodida rivojlantirilgan insonparvarlik g'oyalariga ma'lum darajada yakun yasadi. Shu nuqtayi nazardan Hofiz ijodi fors-tojik adabiyoti taraqqiyotida muhim bosqich, katta bir manzil bo'ldi.

Sharqda gumanizm va Uyg'onish davri G'arbdan oldinroq boshlandi, deyishga asos beradigan ma'lumotlar Sharq xalqlari adabiyoti tarixidan yetarlicha topiladi. Biz fors va o'zbek mumtoz adabiyoti ma'lumotlariga tayanib, N.I.Konradning "Uyg'onish davri Sharqdan boshlangan, Uyg'onish davrining boshlanishi Sharqda, oxiri G'arbda", degan fikrlariga to'la qo'shilamiz. Bu fikrga qo'shilgan I.S.Braginskiy "Fors-tojik adabiyotini davrlarga bo'lish" degan maqolasida shunday degan edi: "Xuddi shu she'riyat, ya'ni X- XV asrlardagi fors-tojik she'riyati dunyo adabiyotiga qo'shilgan eng e'tiborli hissa bo'ldi, chunki u XII asrda Tan poeziyasidan boshlanib, Eron klassik she'riyati orqali XIV- XVI asrlarda Yevropadagi gumanizmning ko'tarilishi va gullab-yashnashi bilan bog'liqdir. Shunisi e'tiborga sazovorki, N.I.Konrad mana shu davrning hammasini Uyg'onish davri deb atashni va undan ilk davr – Sharq Uyg'onish davrini ajratib ko'rsatishni taklif etadi. G'arbdagi eng yirik eronshunos va adabiyotshunos E.Braun ham fors she'riyatining mumtoz davrini "Uyg'onish davri" deb ataydi. Albatta, bu ikki olimning har biri shu atamaga faqat umumiy bir tushunchagina emas, balki ko'pgina o'zga xil mazmunlar ham beradi. Ammo bu masalada ularning fikridagi umumiylikni ta'kidlab o'tish muhimdir". Hofiz ijodi mana shu Sharq Uyg'onish davrining cho'qqisi yoki G'arb Uyg'onish davrining arafasi bo'ldi.

Fors-tojik mumtoz shoirining badbinlik va tarkidunyochilikni qoralovchi, hayot shodliklari: bahor, ishq, gul, may va boshqa ne'matlarni vasf etuvchi g'azal va ruboiylari Navoiy dunyoqarashi va ruhiyatiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Uning fors tilida barkamol g'azallar yaratishida muhim rol o'ynadi.

Aslida, Alisher Navoiy ijodi chuqur an'anaviy ildizga tayanadi. U o'z salafllari ijodini keng o'rganib, ular ijodini rivojlantirib, yuksak shakl va teran mazmunli original asarlar yarata oldi.

Shuni ta'kidlash kerakki, Hofiz va Foniy mavzusi juda keng bo'lib, u chuqur tarixiy va adabiy tadqiqotlarni talab qiladigan katta ishdir. Tojik olimi, akademik Abdulg'ani Mirzoev buni alohida ta'kidlab: "Alisher Navoiyning Xoja Hofiz merosiga munosabati asoslarini yoritish uchun bu ikki so'z ustasining bir-biriga aloqador bo'lgan asarlarini muqoyasa qilishdan tashqari, O'rta Osiyo va Eron xalqlarining mazkur ikki asrdagi ijtimoiy, ma'naviy qarashlari, madaniy hamda adabiy hayoti va shuningdek, shunga bog'liq bo'lgan boshqa sotsial omillarni mukammal ko'rib chiqishimiz lozim", -degan edi.

Garchi Hofiz va Navoiy-Foniya hayoti hamda ijodi xususida alohida-alohida holda V.V.Bartold, E.E.Bertels, I.Braginskiy, A.Mirzoev, V.Zohidov, I.Sulton, A.Hayitmetov, V.Abdullaev, P.Shamsiev, Sh.Shomuhamedov, N.Komilov, H. Eshonqulov va boshqalar ilmiy ishlar qilishgan, qator maqolalar e'lon qilishgan bo'lsa-da, A.Mirzoevning "Foniya va Hofiz" sarlavhali maqolasini istisno qilganda, bu ikki shoir ijodi bog'liq holda (Hofizning Navoiy forsiy merosiga ta'siri bilan bog'liq tadqiqotlar nazarda tutilmoqda) va Alisher Navoiyning Xoja Hofiz asarlariga munosabati masalasi yetarlicha o'rganilmagan.

Navoiy o'zini katta ishlarga ilhomlantirgan ustozlarini minnatdorchilik bilan eslaydi:

G'azalda uch kishi tavidur ul nav'

Ki andin yaxshi yo'q nazm ehtimoli.

Biri mo'jazzbayonlig' sohiri Hind,

Ki ishq ahlini o'rtar so'zu holi.

Biri isonafaslig' rindi Sheroz

Fano dayrida mastu louboliy [**Alisher Navoiy. MAT. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: Fan. 1990. – B.516].**

Hofiz ijodiga xolisona va yuksak baho beradi. Masalan, "Nasoyimul-muhabbat" asarida: "Shamsiddin Muhammad Hofiz Sheroziy – alar lison ul-g'ayb va tarjimon ul-asrordurlar..." - deydi. Shuningdek,

“Mahbub ul-qulub” asarining o‘n oltinchi faslidagi “Nazm gulistonining xushnag‘ma qushlari zikrida” va “Ishq zikrida” boblarida ham ulug‘ shoir haqida iliq gaplarni aytadi.

Navoiy davri an‘anasiga ko‘ra, turkiy tilda ijod qiluvchilar o‘z qalamlari kuchini Ro‘dakiy, Firdavsiy, Xusrav Dehlaviy, Sa‘diy, Hofiz kabi nazmpirodlarni yetkazib bergan fors-tojik she‘riyatida sinab ko‘rishgan. Jumladan, Navoiy fors-tojik tilida Foni taxallusi bilan barkamol nazm namunalari yaratdi. Uning bu lisondagi she‘rlarining ko‘pchiligi Hofiz g‘azallariga javobiydir. Buni o‘n to‘qqizinchi asrning ikkinchi yarmida yashagan samarqandlik tazkiranavis shoir Abdumutalib Xoja Samarqandiy - Fahmiy o‘z tazkirasida ta‘kidlab: “Va dar ash‘ori turki taxallusi vay Navoi ast va dar forsi Foni taxallus nihoda... Dar shuhrat hamon hukm dorat, ki dar forsi ash‘ori obdori Mavlono Jomi va devoni hazrati Xoja Hofizi Sheroziro javob gufta...” (“turkiy she‘rda taxallusi Navoiydur va forsiyda Foni taxallus... Mavlono Jomiyning go‘zal she‘rlariga va Xoja Hofiz Sheroziy hazratlarining devoniga javobi bilan mashhurdir”),- deydi.

Foniyning o‘zi esa bir g‘azalida:

Ba rohi agar mushkuli fitad, Foni,

Zi ruhi Hofizu ma‘nii Jomiyash jo‘yam.

(Ey Foni, ishq yo‘lida boshimga mushkullik tushguday bo‘lsa, uni bartaraf qilishda Hofiz ruhidan va Jomi ma‘nosidan madad tilayman) – degan edi.

Navoiy “Devoni Foni” haqida “Muhokamat ul-lug‘atayn” asarida: “Yana forsiy g‘azaliyot, Xoja Hofiz tavridakim, suxanadolar va nazmpirodlar nazarida mustahsan va matbu‘dur, tartib beribmenkim, olti mingdan abyoti adadi ko‘prakdurki, ko‘prak ul hazrat she‘riga tatabbu‘ voqe‘ bo‘libdur”, - deb yozadi. Darhaqiqat, “Devoni Foni”dagi 554 g‘azaldan yarmiga yaqini Hofiz g‘azallariga tatabbu‘dir. Foni bunday g‘azallarini “Dar tatabbu‘i Xoja Hofiz”, “Tatabbu‘i Xoja”, “Muxtare” (Yangi badiiy ifoda vositalari bilan yangi g‘oyalar ilgari surilgan she‘r) deb nomlagan bo‘lsa, ba‘zilariga “Dar tavri Xoja” deb qo‘ygan.

Nega Navoiy, asosan, Hofiz g‘azallariga tatabbu‘lar yozdi, ko‘proq unga ergashdi, degan tabiiy savol tug‘iladi. Bunga Hofizning mashhur “Agar on turki Sherozi...” deb boshlanuvchi g‘azaliga Foni tatabbu‘si maqta‘ini javob tariqasida keltirish mumkin:

G‘azal guftan musallam shud ba Hofiz shoyad, ey Foni,

Namoyi choshni daryuza z-on nazmi jahonoro.

(Hofiz g‘azallariga hamma qoyil qolgan, Ey Foni, o‘sha jahonni bezatgan nazmdan sen ham biroz tilanib olsang bo‘lardi).

Alisher Navoiy Hofiz g‘azaliyotini lirik she‘riyat mezoni deb bilganligi aniq. Chunki Hofiz o‘z g‘azallari bilan xalqning ulkan mehr-muhabbatiga sazovor bo‘lgan edi. Shuning uchun Foni forsiy g‘azaliyotda ana shu so‘z ustasiga ergashdi, uning g‘azallariga tatabbu‘lar yozdi. Sharqshunos olim Sh.Shomuhamedov esa Hofiz g‘azaliyotining Navoiy ijodiga ta‘siri xususida to‘xtalib: “G‘azalsarolikda Hofiz Sheroziy an‘anasini davom ettirib, forsiy va turkiy tillarda bu daraja yuqori ko‘tarilishi Navoiyni XIII-XV asr G‘arb adabiyotidagi ulug‘ gumanist shoirlar bilan yana ham yaqinlashtiradi”, - deydi. Professor E.E.Bertels nazirago‘ylikning asl mohiyatini juda to‘g‘ri ta‘kidlab, “nazira mualliflari javob aytilayotgan asar syujetini aniq takrorlashdan qochibgina qolmay, aksincha, uni tamoman yangicha original yoritishga intilganlar”, - deydi.

Hofiz vafotidan keyin unga “Lison ul - g‘ayb”, ya‘ni “G‘oyibning tili” degan laqab berdilar. Shoir devoni fol kitobiga aylantirib yuborildi. Alisher Navoiy “Nasoyim ul- muhabbat” asarida bu xususda to‘xtalib: “Xojalar silsilasidan azize debdurki, hech devon Hofiz devonidan yaxshiroq emas, agar kishi so‘fiy bo‘lsa. Bu faqirg‘a andoq ma‘lum bo‘lubdur va mashhur mundoqki, hazrati Mir Qosim alarning devonini Qur‘oni forsiy der ermishlarki, kalom oyoti ma‘nosidan mamlu‘ va asror va nukotidin mashhundir”.

Alisher Navoiy Hofiz Sheroziyni g‘azalchilikda o‘z asrida yagona deb hisoblaydi. Bu haqda uning “Muhokamat ul- lug‘atayt” asaridan o‘rin olgan quyidagi fikrlari muhim: “G‘azalda muxtarii vaqt Shayx Muslihiddin Sa‘diy va yagonayi asr Xoja Hofizi Sheroziydekki, bularning ta‘rifi yuqoriroq chun shammai suruluptur va vasflarig‘a qalam uruluptur...”

U o‘zining “Mahbub ul - qulub” asarida ham bu fikrini yanada ochiqroq ifodalaydi: “...Forsiy iboratda... yana bir jamoatdurki, haqiqat asrorig‘a majoz tariqin maxlut qilibdurlar va kalomlarin bu uslubda marbut etibdurlar. Andoqki, maoniy ahlining nuqtapardozi Shayx Muslihiddin Sa‘diy Sheroziy va ishq guharining pokvaz va pokravi xusrav Dehlaviy va ma‘ni adosig‘a lofiz Xoja Shamsiddin Muhammad Hofiz”. Hofiz o‘zining insoniy hissiyot va kechinmalarini yuksak mahorat bilan tasvirlab, buyuk shoirlarni ham hayratda qoldirgan edi. Alisher Navoiy nazarida Hofizning bu ajoyib xususiyati badiiy ijodiyot sohasida karomatday tuyulardi.

Alisher Navoiyning Xoja Hofizga 237 ta tatabbu' bitdi. Uning naziralari ichida **tatabbu'- tazminlar** ham uchrab turadi. Hofizning quyidagi baytini Navoiy aynan keltiradi:

Biyo, ki qasri amal saxt sustbun'yod ast,

Biyor boda, ki bun'yodi umr barbod ast [Hofizi Sherozi. Kulliyot. – Dushanbe: Irfon, 1983.Sah-73].

U Hofizning g'azallarida talqin qilingan mavzular, olg'a surilgan g'oyalarga javob aytish jarayonida o'z fikrini dalillash, tasvir ta'sirchanligi va bo'yoqdorligini oshirish maqsadida bu usulga murojaat etadi. Xuddi shunday hodisani Alisher Navoiyning quyidagi tatabbu' g'azalida ham ko'rish mumkin:

Biyo, ki arsai mayxona ishrat obod ast,

Zi soxtash xasi anduh ro'fta barbod ast.

Kitobayi dari oli-sh in raqam k-in dar,

Ba on, ki az du jahon ro' natoft nakshod ast,

Zi toqi murtafnash in sado rasida ba go'sh,

“Biyo, ki qasri amal saxt sust bunyod ast”,

Ba so'i mug'bacha rindon-ro xitob, ki xez

“Biyor boda, ki bunyodi umr barbod ast”.

Surudi nag'magarash in, ki dodu aysh dihed,

Ba nuqlu boda, ki kori zamona bedod ast.

Sabu zi g'ulg'uli may karda in nido, ki bino'sh,

Qadahki dayri ko'hanro base chu tu yod ast.

Ba jilva z-oinai jom chehrai maqsud.

Ki mast gashta ba o' chashmi har ki aftodast.

Bidor, soqi, az on jomi may, ki shud umre,

K-az ishtiyoqi vayam kor ohu faryod ast.

Ki mast gashta, kunam tarki xesh chun Foni,

Har on, ki masti xarob in chunin shud obod ast [Alisher Navoiy. MAT. 18-tom. – Toshkent: Fan. –

B.216].

Ko'rinadiki, Navoiy-Foniy Hofiz g'azalida o'rta qo'yilgan g'oyaviy maqsadni ijodiy rivojlantirgani holda o'ziga manzur tushgan o'sha asarning matlayini ham aynan keltirgan. Bu, shubhasiz, ulug' o'zbek shoirining Sharq she'riyati, xususan, g'azalchiligi ustasiga bo'lgan samimiy muhabbati, katta ishtiyoqi va ixlosidan guvohlik beradi. Alisher Navoiy Hofiz Sheroziydek buyuk ijod sohibi ma'naviy merosini baland zavqu shavq bilan o'qir ekan, o'sha nazmiy bo'standan o'ziga ma'qul tushgan, g'oyaviy konsepsiyasiga mos keluvchi she'rlarnigina tanlab, o'shalarga javobiyalar yaratdi. Yuqoridagi g'azalda ham dunyo va uning tuzilishi, asoslari xususida o'ta zukkolik, falsafiy teranlik va mushohadakorlik bilan aytilgan fikrlar o'rta qo'yilgan. Bu xulosalar Alisher Navoiyning yuksak ideallariga har jihatdan to'g'ri kelar edi. Shuning uchun u mazkur g'azalga tatabbu' qilibgina qolmay, Sharq she'riyatining qo'shaloq adabiy hodisasini ishga solgan, dilkash tatabbu'-tazminlar yaratgan. Tatabbu'-tazminlar yaratish jarayonida ham ijodiylik, an'ana zaminida tug'ilgan novatorlik ulug' shoirning diqqat markazida turgan.

Xulosa shuki, Alisher Navoiy so'z mulkidagi buyukligini fors-tojik tilidagi asarlari misolida ham yorqin ko'rsata olgan. Uning qalami tuhfa etgan tatabbu' va javobiya g'azallar nafaqat o'zbek, balki o'n beshinchi asrning ikkinchi yarmidagi fors-tojik adabiyoti xazinasiga ham qo'shilgan bebaho boylikdir. Navoiy o'zining ikki tildagi shoh asarlari bilan ikki bir-biriga qardosh, qondosh xalq ma'naviy manfaatlari uchun xizmat qildi, ularning birodarligini yanada mustahkamlashda sharaflari vazifani ado etdi.

Garchi Foniy g'azallari mavzusi Hofiznikiga yaqin bo'lsa-da, ko'pgina jihatlari bilan ulardan farq ham qiladi. Sherozlik nazm ustasining g'azallari baytlari mazmunan bir-biri bilan mustahkam aloqada emas. Bu xususiyat kamchilik emas. Baytlar mustaqilligi shoirga lirik mavzudagi g'azallarga falsafiy mushohadali baytlarni joylashtirish imkonini bergan. “Hofiz baytlarini bekorga gavhar shodalariga o'xshatishmaydi. Uning g'azallaridagi ayrim baytlar tashlab ketilsa va o'rni almashtirilsa ham sezilmaydi. Shu bois, Hofizning turli yillarda ko'chirilgan va chop etilgan devonlarida ayrim baytlarni tashlab ketish yoki ular o'rni almashtirishdek hollarga yo'l qo'yilgan”.

Foniy g'azallari esa *musalsalligi, ya'ni voqeabandligi* bilan ajralib turadi. Ularda bir mavzu chuqur va izchil yoritiladi. Hofiz g'azallarida aks etmay qolgan jihatlarga urg'u berish, uning fikrini to'ldirish va yangi sharoitlarda rivojlantirish, mavzuni yangi-yangi tasviriy vositalar yordamida ochish Foniy tatabbu'lariga xos xususiyatdir. Shuning uchun ham fors-tojik adabiyoti tarixida g'azal taraqqiyotini chuqur tekshirgan olim A.Mirzoev Foniy g'azallarini Hofiz Sheroziy g'azallari bilan muqoyasa qilib tekshirar ekan, quyidagi

xulosaga keladi: “Alisher Navoiyning ...g‘azalida, umuman, yangi mazmun va latif tasvir shu daraja baland va mohirona keltirilganki, ular batamom mustaqil va XV asrning birinchi yarmidagi fors-tojik she‘riyatida birinchi darajali asarga aylanganlar. Bu ahvol “Foniy” devonida tasodifiy bir hodisa emas, Alisher Navoiyning fors-tojik nazmida ustodligi va baland mahorati nishonasini uning har bir nazira yoki mustaqil g‘azalida ko‘pmi-ozmi yaxshi mushohada qilish mumkin. Navoiy ijodining bu qismini mutolaa qilishdan shunday tasavvurot hosil bo‘ladiki, o‘zbek adabiyotining asoschisi fors-tojik adabiyoti tarixida ham o‘z maqomini haqiqatan yaxshi tayin eta olgan. Shunday qilib, Alisher Navoiy adabiyotimiz tarixiga XV asr fors-tojik g‘azalga‘yilgida eng yaxshi shoirlardan biri bo‘lib kiradi”.

Olim “Foniy va Hofiz” maqolasida ta’kidlab, quyidagi misolni keltiradi:

Voizon k-in jilva bar mehrobu minbar mekunand,

Chun ba xilvat meravand, on kori digar mekunand.

(Voizlar mehrob va minbarda bu xildagi gaplarni qilsalar-da, xilvatga borganlarida boshqacha ishlar bilan mashg‘ul bo‘ladilar).

A.Mirzoev Foniyning shu matla’ bilan boshlanuvchi g‘azalga yozgan tatabbu’si Hofiz she’rini to‘ldirib, uning fikrlarini rivojlantirib kelganligini aytadi. U Navoiyning Hofiz g‘azallariga tatabbu’ tariqasida yozilgan “mekunand”, “andozem” radifli g‘azallarini atroflicha qiyoslab va tahlil etib, quyidagi xulosaga keladi: “Alisher Navoiyning fors-tojik she‘riyatida ham ustozligi va yuksak mahorat ko‘rsatganligini uning javobiya yoki mustaqil g‘azallarining har birida ma’lum darajada aniq ko‘rish mumkin.

Alisher Navoiy asarlarining shu qismi mutolaasidan shunday tasavvur tug‘iladiki, o‘zbek adabiyotining asoschisi o‘zining fors-tojik she‘riyati tarixidagi o‘rnini, haqiqatan ham, juda yaxshi belgilagan.

Shu tariqa Alisher Navoiy faqat o‘zbek adabiyotining buyuk namoyandasi – adabiyot san’at ahlining homiysi hamda XV asrning ikkinchi yarmidagi Movarounnahr, Xuroson va Eron xalqlarining ilm, adabiyot va san’at taraqqiyotiga qudratli asoschi bo‘libgina qolmay, balki Abdurahmon Jomiydan keyin XV asr fors-tojik g‘azalchiligining eng buyuk vakillaridan biri sifatida bizning adabiyotimiz tarixidan ham munosib o‘rin oladi”. Adabiyotshunos olim bu Foniyning dastlabki baytidanoq ko‘rinadi, deydi.

Foniy:

Voizon to chand man’i jomi sog‘ar mekunand,

Chun dimog‘i xushro ham gah-gahe tar mekunand.

(Voizlar jom-sog‘arni man etsalar-da, goh-gohida o‘zlari ham u bilan dimog‘larini ho‘llab turadilar).

Hofiz baytida voizlarning nima haqida gapirganlari, nimani man etganlari ochiq aytilmaydi, ularning xilvatga borganlarida turli ishlar bilan shug‘ullanishlari mavhumroq aytilsa, Foniya ularga tomoqlarini o‘zlari man etgan narsalar, ya’ni Qur’oni karimda harom deb tilga olingan may bilan ho‘llab turadilar, degan ayb qo‘yiladi. Bunday misollarni Foniyning boshqa tatabbu’larida ham ko‘rish mumkin. Masalan, Hofiz bir g‘azali matla’sida shunday deydi:

Do‘sh az masjid so‘i mayxona omad piri mo,

Chist yoroni tariqat ba’d az in tadbiri mo?

Ya’ni:

Keldi masjididan bu kech mayxona sori pirimiz,

Ne bo‘lur yo‘ldoshlarim, bundan keyin tadbirimiz?

Foniy o‘z javobiyasining dastabki baytidanoq uning savoliga javob berib, to‘ldirib hukm chiqarib:

Di so‘i dayri mug‘on omad zi masjid piri mo,

Chist juz zunnor bastan ba’d az in tadbiri mo!

Ya’ni pirimiz masjididan dayri mug‘on – nomusulmonlar maskaniga keldi, bizning tadbirimiz bo‘yinga kofirlik zunnorini bog‘lashdan boshqa nima ham bo‘lardi, - deydi.

Tatabbu’da fors-tojik mumtoz shoirlarining Foniya ta’siri bevosita namoyon bo‘lgan. Tatabbu’ning mohiyatini obyektiv belgilash uchun har ikki g‘azalni solishtirib ko‘raylik.

Hofiz:

Do‘sh az majid so‘i mayxona omad piri mo,

Chist yoroni tariqat ba’d az in tadbiri mo?

Dar xaroboti mug‘on mo niz hammanzil shavem,

K-in chunin raftast dar ahdi azal taqdiri mo.

Mo, muridon ro‘ ba sshi Ka’ba chu orem, chun

Ro‘ ba so‘i xonai xammor dorad Piri mo?
 Aql agar donad, ki dil dar bandi zulfash chun xush ast,
 Oqilon devona gardand az pai zanjiri mo.
 Ro‘ xubat oyati az lutf bar mo kashf kard,
 Z-on zamon juz lufu xubi nest dar tafsiri mo.
 Bo dili sanginat oyo hech dargirat shabe?
 Ohi otashboru so‘zi nolai shabgiri mo.
 Murg‘i dilro saydi jam‘iyat ba dil aftoda bud,
 Zulf bikshodi-vu boz az dast shud naxchiri mo.
 Bod bar zulfi tu omad tu omad, shud jahon bar man siyoh
 Nest az savdoi zulfat besh az in tavgiri mo.
 Tiri ohi mo zi gardun bigzarad, jono xamo‘sh,
 Rahm kun az joni xud, parhez kun az tiri mo.
 Bar dari mayxona xoham gasht chun Hofiz muqim
 Chun xaroboti shud, ey yori tariqat, piri mo [Hofizi Sherozi. Kulliyot. – Dushanbe: Irfon, 1983.Sah-

41].

Foniy:

Di so‘i dayri mug‘on iomad zi masjid piri mo,
 Chist juz zunnor bastan ba‘d az in tadbiri mo.
 Kofiri ishqemu behush az junun , ey mug‘bacha,
 Ham zi zunnori sari zulfi tu bas zanjiri mo.
 Piri dayr az kard moro mujrim az taqdiri zuhd,
 Gar bimonad, qatra dar sog‘ar, buvad taqsiri mo.
 Kay tavon budan digar dar xonaqoh chun yoftand,
 Shishai may dar daruni xirqai tazviri mo.
 Bahri pandi mo makash, ey shayx, zahmat chun shudast,
 Rindivu rasvoi az ro‘za azal taqdiri mo.
 Shisha dar gardan chu gardondi bia dayr , ey muhtasib,
 Mashkanash bore, ki nabvad besh az in ta‘ziri mo.
 Olloh-Ollloh, sharm az imonash nadorad shayxi shahr,
 Mekunad az sajda peo‘i on sanam takfiri mo.
 Shanbnishinonro ajab ro‘zi siyoh oyad ba pesh,
 Gar zi zulfi u baroyad nolai shabgiri mo.
 Shoyad, ey Foniy, ba qabri Hofizash sazand sabt,
 Gar ba xoki Fors aftad nusxai tahriri mo [Alisher Navoiy.Asarlar.T.5.1-kitob. – Toshkent:

G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti. 1965. – B.50].

Foniy tatabbu‘ida ham Hofiz g‘azali vazni va radifi saqlangan. Hofiz g‘azali 10 baytli bo‘lsa, Foniy tatabbu‘si 9 baytlidir. Navoiy salafi qo‘llagan 5 ta qofiyani (“piri”, “tadbiri”, “zanjiri”, “taqdiri”, “shabgiri”) ishlatgan. Hofiz bir qofiyani (“piri mo”) takror ishlatgan bo‘lsa, Foniya bunday holni ko‘rmaymiz. U yangi-yangi qofiyalar yaratish yo‘lidan boradi – “taqsiri”, “tazviri”, “ta‘ziri”, “takfiri”, “tahriri” kabi. Uning Hofizdan olib qo‘llagan qofiyalari ham yangicha mazmunni bajarib kelgan. Hofiz:

Bo dili sanginat oyo hech dargirat shabe,
 Ohi otashboru so‘zi nolai shabgiri mo?-

desa, ya‘ni shuncha ohu nolalarimizga e‘tibor bermayapsan, deb, asosan, *Xudoga* murojaat etsa, Foniy tatabbu‘ida *esa mahbuba* nazarda tutiladi. Foniy fig‘on ko‘tarilayotganlarning nolayu zori Xudo yo‘lida toat-ibodat qilayotganlarning afg‘onidan ustunroq, o‘ktamroq ekanligini ta‘kidlaydiki, bu borada borliq haqidagi kechinmalar u dunyo xususidagi o‘ylardan afzalroq, degan ma‘no chiqadi:

Shabnishinonro ajab ro‘zi siyoh oyad ba pesh,
 Gar zi zulfi o‘ baroyad nolai shabgiri mo.

Ya‘ni agar uning zulfi javri tufayli bizning nolalarimiz ko‘kka o‘ralsa, kechasi uxlamay, toat-ibodat qiluvchilarning boshlariga qora kunlar tushadi.

Hofiz g‘azalida ham, Foniy tatabbu‘ida ham mayxona va masjid, namoz o‘qish va may ichish, din va muhabbat biri-biriga qarama-qarshi qo‘yladi. Hofizda yorga murojaat etilib, uning *go‘zalligi va rahmsizligi* ta‘kidlansa, ya‘ni masjid va mayxona mavzusidan birmuncha chetga chiqilsa, Foniya bu mavzu tatabbu‘ *maqta‘igacha* davom etadi. Foniy shayx va muhtasibga murojaat etadi: “Ey shayx, bizga pandu nasihat

qilaman deb zahmat chekma, chunki azaldan bizning taqdirimiz rindu rasvolikdir”. U dindorlarning, Xudo peshonaga yozgani bo’ladi, degan tushunchasidan kelib chiqib, ularga zarba beradi.

Foniy g’azal xulosasini ham erkin tarzda, o’zgacha yo’l bilan hal etgan. Bular Foniylarning tatabbu’sining originalligi, yetukligidan dalolat beradi.

Adabiyotshunos Sh.Shomuhamedov ta’biri bilan aytganda, “Alisher Navoiy o’zbek adabiyoti va adabiy tilini yuksak badiiyat osmoniga, fors-tojik adabiyotini yangi, yuqoriroq bosqichga ko’tara olgan, uslub nuqtai nazaridan esa uni yangi o’zanga solib yuborgan ulkan san’atkordir”.

Akademik A.Mirzoev Foniylarning Navoiy goh Hofizdan sustroq, goh unga teng va goh undan o’tib ketadigan g’azallar yaratdi, der ekan, u tamoman haqli. Bu fikr to’g’ri, lekin ayni masalani yanada ochiq-oydin dalillab tushuntirib berish uchun tatabbu’ qilingan g’azallarni olib, baytma-bayt muqoyasa qilib, ayrim qismlarini tahlil qilib chiqish zarur.

Hofiz o’zining “Soqiyo, barxez, dardeh jomro...” deb boshlanuvchi g’azalida go’zal va mayni shodlik timsoli sifatida ko’rsa, Foniylarning ham o’z ustozlari singari mayni xurramlik chashmasi, deydi. Uning tatabbu’si Hofiz g’azali singari 9 baytlidir. Har ikki g’azalni solishtirish ularning *shaklan va mazmunan barkamolligini, ma’no jihatidan bir-biriga yaqinligini* ko’rsatadi.

Hofiz:

Garchi badmonist nazdi oqilon,

Mo namexohem nangu nomro.

(Garchi oqillar nazarida badnomlik sanalsa-da, biz oru nomusni istamaymiz) desa, Foniylarning fikrini qo’llab-quvvatlab:

Zohid, majo’y, az mo, ki mondaem,

Andar sari surohiyu may, nangu nomro.

(Ey zohid, bizdan intizomlilik, sharmu nomuslilik, taqvodorlik xislatlarini izlama, biz ularni ko’zacha-yu may yo’lida qurbon qilib yuborganmiz),- deydi.

Hofiz o’zining “kujo” radifli g’azalining matla’ida:

Salohi krur kujovu mani xarob kujo,

Bubin tafovuti roh, k-az kujost to ba kujo!

(Ishni o’nglamoq qayoqda-yu men qayoqdaman, bu yo’llarning tafovutini ko’rish-bilish – boshadog’ini aniqlash qayoqda) desa, Foniylarning o’zining tatabbu’si matlayida:

Zeri no’h toqi falak g’ayri kaji kor kujost,

Rosti dar kami in gunbadi davvor kujost?

(Bu to’qqiz falak toqining tagida egrilikdan boshqa nima bo’lardi, ya’ni bu gumbaz devori ichra to’g’rilik bo’larmidi?) – deydi.

Hofizning “Sahar chun xusravi xovar...” deb boshlanuvchi g’azaliga Navoiylarning o’zbekcha javobiyasi mavjud. Garchi unda Hofiz g’azalining radifi tarjima qilib berilgan, vazni, birinchi baytidagi obrazli tasvir to’la saqlangan bo’lsa-da, uni to’la ma’nodagi tatabbu’ deb bo’lmaydi:

Sahar xovar shohi charx xoshlu hasham chekti,

Shioyi xat bir-la ko’hsor uza oltun alam chekti.

Bu g’azal ham Foniylarning fors-tojik tilidagi tatabbu’siga o’xshab, dastlab, tabiat tasviriga bag’ishlanadi, kishilar ruhiyati va ahvoli ularga bog’lab beriladi. Umuman, bunday hol shoirning Hofizga ergashib yozgan boshqa ko’pgina o’zbekcha tatabbu’lariga ham xosdir. Navoiylarning ularda ustozlari qo’llagan vazn, qofiya, obrazlarni saqlashga e’tibor bergan. Masalan, Hofizning “Chandon ki guftam...” deb boshlanuvchi g’azaliga Foniylarning javobiyasi ham shu vazndadir. Unda Hofiz qofiya va obrazlari saqlangan. Hofiz:

Chandon ki guftam g’am bo tabibon,

Darmon nakardandmiskin g’aribon.

Foniy:

On gul, ki no’shad may bo raqibon,

Binandu mirand miskin g’aribon.

Hofiz:

On gul, ki har dam dar dasti bodast,

Go’, sharm bodash az andalibon.

Foniy:

Ey gul, ba gulshan chun jilva sozi,

Afg’on makun ayb az andalibon.

Hofiz:

Ey mun'im, oxir, bo xoki judat,
To chand boshem az benasibon.

Foniy:

Foniy, nasibe z-on mahvashad nest,
Xush benasibi az benasibon.

Ko'rinib turibdiki, Foniy, hatto ba'zi misralarda Hofiz birikma va so'zlarini aynan qo'llagan. Ammo baytlari ma'nosi boshqacha. Demak, Foniy o'z fikrlarini aytishda ba'zan Hofiz g'azallari *shaklidan* foydalangan. Mazkur tatabbuda g'azalning vazn, qofiyasi saqlangan, mazmuni esa erkin. Shuning uchun uni she'riy san'atlar chuqur ishlangan *masnu' tatabbu'* deyish mumkin.

Foniy Hofizning "moro bas", "ust", "girift", "kujost", "nest", "biso'xt", "kujo", "xush", "shud", "donad", "xarobot", "manast" radifli va boshqa yuzlab g'azallariga tatabbular yozdi. Shuning uchun taniqli o'zbek va tojik adibi Sadridin Ayniy Navoiyning fors-tojik tilidagi she'rlariga yuksak baho berib: "Alisherning tili tojikcha she'rda umuman sodda, ravon va tabiiydir. Tojikcha g'azallarda u oddiy suhbatda gapirayotganday she'r yozadi. Uning tojikcha she'rlarini, "Tuhfat ul-afkor" qasidasidan boshqalarni nasrga aylantirish kerak bo'lsa, so'zlarni oldinma-keyin qilishga va tashqaridan biror so'z keltirishga ehtiyoj tushmaydi", - deb yozadi. Foniy Hofizga tatabbu'lar bog'lash bilan uni ham fors-tojik, ham turkiy xalqlar o'rtasida yanada ko'proq ommalashuviga hissa qo'shdi. Navoiyning o'zi ustozining ijodining barakali ta'siri xususida:

Foni az jur'ai Hofiz shuda mast, ey soqiy,

"Xezu dar kosai zar obi tarabnok andoz".

(Ey soqiy, Foniy Hofiz jur'asidan mast bo'lgan, turib oltin kosani xurramlik mayiga to'ldir), - degan edi.

Hofiz she'riyati Navoiy-Foniy ijodiga, umuman, o'zbek g'azalchiligi ravnaqiga hayotbaxsh ta'sir ko'rsatdi. O'z navbatida, Foniyning forscha-tojikcha g'azallari nodir durdonalar bo'lib, bu tildagi she'riy xazinani boyitdi. Hofiz ijodining Navoiyga ta'siri va o'zbek shoirining "Devoni Foniy"si o'zbek va tojik xalqlari o'rtasidaga adabiy aloqalarni yanada mustahkamladi. Shuning uchun ham «Devoni Foniy»ni A.Hayitmetov Navoiyning «Hofiznoma»ci deb ataydi.

Darhaqiqat, Alisher Navoiy forsiy devonida Hofiz Sheroziy, Sa'diy Sheroziy, Amir Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Kamol Xo'jandiy va boshqa shoirlarga izdoshlik qilgan ekan, ko'p hollarda mahoratda o'z salafalaridan ham yuqori pog'onaga ko'tarila oldi. Ular yo'lidan borib, ajib nozik his-tuyg'ularga to'la *rindona, oshiqona, orifona* lirik she'rlar yaratdi.

LOYYA JIRG'ANING AFG'ON SIYOSIY TIZIMIDA TUTGAN O'RNI VA TA'SIRI

Rashidov Rustam Rasulovich,

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti dotsenti,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD),
rustamrr20@mail.ru*

Annotatsiya. Ushbu maqolada butunafg'on oqsoqollari yig'ilishi – Loyya Jirg'aning tarixiy asoslari va zamonaviy afg'on siyosiy tizimidagi o'rni va roli yoritib berilgan. Loyya Jirg'aning afg'on davlati va afg'on jamiyatidagi, xususan, afg'on davlatchiligi hamda siyosiy tizimidagi boshqaruv an'analariga katta ta'sir ko'rsatuvchi kuchga ega bo'lgan o'ziga xos tarixiy tuzilma ekanligi mazkur maqolada tadrijiy tarzda tahlil etilgan. Shu bilan birga, mazkur maqola doirasida Loyya Jirg'aning muhim siyosiy institut sifatidagi o'rniga alohida e'tibor berilgan bo'lib, ushbu o'ziga xos tarixiy tuzilmaning afg'on xalqi oliy irodasini namoyon etuvchi hamda umumdavlat ahamiyatiga ega muhim masalalarni muhokama qiluvchi va hal etuvchi davlat instituti ekanligi xususida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: Loyya Jirg'a, Qurultoy, siyosiy tizim, afg'on davlati, afg'on jamiyati, doira, xalqa, oqsoqollar kengashi, konsensus, kelishuv.

РОЛЬ И ДЕЙСТВИЕ ЛОЙЯ ДЖИРГИ В ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ
АФГАНИСТАНА

Аннотация. В данной статье освещаются исторические основы Лойя Джирги – собрания всех старейшин Афганистана, а также её место и роль в современной политической системе Афганистана. Лойя Джирга – уникальная историческая структура, оказывающая большое влияние на традиции управления в афганском государстве и афганском обществе, в частности, на афганскую государственно-политическую систему. При этом в рамках данной статьи особое внимание уделяется месту Лойя Джирги как важного политического института и упоминается, что эта уникальная историческая структура является государственным институтом, выражающим высшую волю афганского народа, в рамках которого обсуждаются и решаются важные вопросы государственного значения.

Ключевые слова: Лойя Джирга, курултай, политическая система, афганское государство, афганское общество, круг, совет старейшин, консенсус, соглашение.

THE ROLE AND EFFECT OF THE LOYA JIRGA IN THE AFGHANISTAN
POLITICAL SYSTEM

Abstract. This article highlights the historical foundations of the Loya Jirga - a meeting of all the elders of Afghanistan, as well as its place and role in the modern political system of Afghanistan. Loya Jirga is a unique historical structure that has a great influence on the traditions of governance in the Afghan state and Afghan society, in particular on the Afghan state-political system. At the same time, within the framework of this article, special attention is paid to the place of the Loya Jirga as an important political institution and it is mentioned that this unique historical structure is a state institution that expresses the highest will of the Afghan people, within which important issues of national importance are discussed and resolved.

Key words: Loya Jirga, assembly, political system, Afghan state, Afghan society, circle, council of elders, consensus, agreement.

Kirish. 2021- yil avgustda Afg'onistonda markaziy hokimiyatga "Tolibon" harakatining qayta yuzaga kelishi bilan butun mamlakatda so'nggi 20 yil davomida G'arb davlatlarining tashabbusi bilan shakllantirilgan va faoliyat ko'rsatgan zamonaviy ko'rinishdagi siyosiy tizim barbod bo'ldi hamda Afg'onistonda tamomila yangicha siyosiy tizim barpo etishga qaratilgan barcha say-harakatlar besamar ketdi, deyish uchun barcha asoslar bor. Shunday bo'lsa-da, Afg'onistonda asrlar osha mavjud bo'lgan va mamlakatdagi siyosiy tizimda o'ziga xos tarzidagi o'rni hamda ta'siriga ega bo'lgan bir qator ijtimoiy-siyosiy

tuzilmalar faoliyatini tadqiq etish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Ana shunday muhim siyosiy institutlardan biri sifatida Loyya Jirg'ani alohida qayd etib o'tish joizdir.

Afg'onistonning ilgari bir qator hukumatlari siyosiy tizimiga e'tibor qaratar ekanmiz, ularda qonun chiqaruvchi organ sifatida parlament mavjud bo'lsa-da, mavqeyi va muhokama qilinadigan masalalarning muhimligi nuqtayi-nazaridan parlamentdan yuqori turuvchi hamda afg'on davlatchiligida an'anaviy davlat instituti sifatida shakllanib ulgurgan butunafg'on oqsoqollari yig'ilishi – Loyya Jirg'a o'zining tarixiy asoslarga egaligi hamda zamonaviy davlatchilik shakllanishidagi roli muhimligi bilan ajralib turadi.

“Jirg'a” so'zi pushtu tilida “doira”, “aylana” degani bo'lib, “kichik yoki katta miqdordagi fuqarolar yig'ilishi”, “katta doira atrofida to'planib muayyan masalalarni muhokama qilish, kengashish” ma'nosini beradi [1; p. 3].

Tarixdan ma'lumki, Afg'onistonda jirg'alar uch bosqichda – mahalliy, qabila va umumdavlat darajasiga chiqarilgan [2; c. 76].

Mahalliy jirg'alar Afg'onistonda keng tarqalgan quyi boshqaruv organi bo'lib, u muayyan bir aholi manzilgohi – qishloq yoki mahalla darajasiga chiqirilgan va faqat shu hududga oid muammolar (qurg'oqchilik, kichik mojarolar va h.)ni hal etgan.

Qabila jirg'asi mahalliy jirg'adan yuqori darajada turuvchi tuzilma bo'lib, u bir yoki bir necha qabilalar kundalik hayoti bilan bog'liq masala (qabilalar o'rtasidagi muammo, to'qnashuv va h.)larni muhokama etgan.

Umumdavlat miqyosida chaqiriladigan Jirg'a – Loyya Jirg'a afg'on jamiyati elitasi vakillari, qabila yetakchilari, jamoat va din arboblardan iborat tarkibda chaqirilgan. Ilgari Loyya Jirg'a faqat mamlakat hukmdori chaqirig'i bilan yig'ilgan.

Adabiyotlar sharhi. Afg'onistonda jirg'alarning yuqoridagi kabi uch bosqichda faoliyat yurititganligi xususida Buyuk Britaniyaning Glamorgan (hozirgi Janubiy Uels – R.R.) Universiteti ma'ruzachisi doktor Ali Vardak fikr yuritib, Mahalliy Jirg'a – “maraka” (to'planish, marosim), Qabila Jirg'asi – “Qawmi Jirga” (Qavm Jirg'asi) hamda umumdavlat darajasidagi yig'ilish – “Loya Jirga” (Katta, Ulkan Jirg'a) deb atalishini ta'kidlab o'tadi, ularning funktsiya va vakolatlari xususida ma'lumot beradi [1; p. 6-16].

Afg'on tadqiqotlari instituti (Institute for Afghan Studies) xodimi doktor Rauf Roashanning fikricha, Loyya Jirg'a nisbatan qadimiy siyosiy-ijtimoiy institut bo'lib, qabilaviy-urug'chilik munosabatlari kuchli bo'lgan afg'on jamiyatidagi vakillik munosabatlarida jirg'alarning ahamiyati katta bo'lgan va ular muhokama qilinayotgan masala hal qilinib muayyan qarorga erishilgunga qadar faoliyat yuritgan. Umumdavlat miqyosida chaqirilgan Loyya Jirg'a quyidagi muhim masalalarni muhokama qilgan:

- urush e'lon qilish yoki tinchlik bitimini tuzish;
- yangi hukmdorni tanlash;
- davlat boshqaruv shakli bo'yicha qaror qabul qilish;
- diniy qadriyatlarni va mamlakat hududiy yaxlitligini saqlash kabi milliy qadr-qimmatni himoya qilish bilan bog'liq masalalar;
- mamlakat Konstitusiyasini qabul qilish yoki amalda bo'lgan Konstitusiyani bekor qilish;
- qo'shni mamlakatlar bilan munosabatlar masalasida qaror qabul qilish va boshqa masalalar [3].

Jirg'aning pushtun millatiga xos boshqaruv tuzilmasi ekanligini ta'kidlagan holda aytish joizki, Afg'oniston hududida tarixan istiqomat qilib kelayotgan boshqa xalqlar va etnik birliklarda ham Jirg'aga o'xshash tuzilmalar mavjud bo'lgan. Xususan, fors-tojik millatiga mansub aholi orasida “Sho'ro” (kengash), turkiy xalqlarda “Qurultoy” va hazoriylar orasida “Rishsafidon” (daryi tilida “rish” – soqol, “safid” – oq va “on” – ko'plik qo'shimchasi) – “Oqsoqollar kengashi” kabi tuzilmalar ushbu xalqlar kundalik hayotidagi masala, muammolarni muhokama qilib, ular yuzasidan tegishli qarorlar chiqargan. (“Sho'ro” so'zi arab tilidan olingan bo'lib, maslahat, kengash ma'nolarini anglatadi. Ushbu atamani sobiq Sovet Ittifoqi davrida qo'llanilgan “Sho'ro hukumati”, “sho'rolar” atamallari bilan, shuningdek Afg'onistonda sobiq Sovet davlatiga nisbatan ishlatilgan “sho'ravi” atamasi bilan adashtirmaslik lozim – R.R.)

Afg'oniston tarixidagi eng ko'zga ko'ringan Loyya Jirg'alar sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin.

Kompetentli yondashuv doirasida muayyan ta'limiy vazifalarga yechim izlanadi. Mazkur yondashuv ta'limning shaxs taraqqiyotiga yo'nalganligini ifodalab, talabalarda bir qator shaxsiy sifatning shakllanishiga imkoniyat yaratadi. Kompetentlilik ta'lim jarayonida kasbiy-ijtimoiy vazifalarni yechish vositasi sifatida namoyon bo'ladi.

Yuqoridagi fikrlar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, kompetentli yondashuv bilimlarni o'rgatish jarayonida talabalarda tayanch kompetensiyalarni hosil qilishda muhim ahamiyatga ega.

Biz aniqlagan axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga professional tayyorgarlik tarkibiga asoslanib, biz ushbu sifat mavjudligining quyidagi umumlashtirilgan ko'rsatkichlarini ajratamiz:

- universal didaktik vosita sifatida kompyuterdan foydalangan holda o'rganishga qiziqish;
- o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlashning didaktik vositasi sifatida telekommunikatsiya vositalaridan

foydalanishga qiziqish;

- jismoniy salomatlik, chidamliligi;
- informatika, axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari sohasida maxsus bilim va ko'nikmalarning mavjudligi;
- kompyuter yordamida o'qitish bo'yicha metodik bilim va ko'nikmalarning mavjudligi.
- telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalangan holda o'qitish sohasida uslubiy bilim va ko'nikmalarning mavjudligi (shu jumladan masofaviy qo'llab-quvvatlash).

Umuman olganda, bizning tadqiqot obyekti o'rganish natijalari - bo'lajak texnologiya o'qituvchisining o'qitishda axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligi - bo'lajak pedagogika o'qituvchisining telekommunikatsiya va kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda o'rganishga tayyorligi quyi tizim ekanligini ta'kidlash imkonini beradi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda biz o'qituvchining kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'qitishga maxsus va metodik tayyorgarligi holati ko'rsatkichlarini tavsiflashda kasbiy yondashuvdan foydalandik.

Talabalar bilan o'z faoliyatining ushbu yo'nalishi bo'yicha texnologiya o'qituvchisining professiogrammasini ishlab chiqishni boshlab, biz quyidagi chegaralar bilan izlanishimizni belgiladik:

- pedagogik professiogrammani pedagogik tadqiq etishning barqaror tendensiyalari;
- o'rganishga dastlabki tayyorgarlik tarkibi;
- tayyorlikning biz tanlagan jihati.

Professiogramma ma'lum tizimga keltirilgan, mehnatni psixologik tomondan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujjat hisoblanadi.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asosida o'quv – tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi.

Pedagogik shart-sharoitlarni uchta katta guruhga bo'lish mumkin: tashkiliy-pedagogik shart-sharoitlarni ta'minlashda asosan fan dasturlari, o'quv rejalar, talablarni ishlab chiqish, rivojlantirish, o'quv-uslubiy ta'minotni mazmunan rivojlantirish nazarda tutiladi; pedagogik-psixologik shart-sharoitlarga turli metodikalar ishlab chiqish va ta'lim-tarbiya jarayoniga tadqiq etish, psixologik o'yinlar ishlab chiqish, tarbiyalanuvchilarning hissiy-emotsional va aqliy harakatlarini shakllanishiga xizmat qiluvchi ishlanmalar va texnologiyalar ishlab chiqish nazarda tutiladi; didaktik shart-sharoitlarga ta'lim muassasigacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari uchun o'quv qo'llanma va darsliklar, elektron uslubiy qo'llanmalar, didaktik o'yinlarning elektron variantlarini ishlab chiqish nazarda tutiladi.

Belgilangan vazifalarga muvofiq, psixologik-pedagogik, fan-metodik bloklari fanlarining alohida mavzulari mazmunidan hamda axborot texnologiyalari ta'limi sohasida o'qituvchiga qo'yiladigan zamonaviy talablardan kelib chiqqan holda, biz axborot texnologiyalari sohasida "kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish sohasida o'qituvchilarning uslubiy va texnologik tayyorgarligi masalalarini majmuaviy o'rganish ("Internet ta'limi asoslari" maxsus kursi) fanining eksperimental variantini ishlab chiqdik. Ushbu maxsus kursning o'ziga xosligi shundaki, ushbu kursning modulli tuzilishi ushbu fanni rivojlantirishni nazarda tutadi. Maxsus kurs doirasidagi har qanday modul, uni o'rganish qo'shimcha ta'limdan foydalanishni talab qilmaydi, lekin o'qituvchining asosiy psixologik-pedagogik va metodik tayyorgarligi qismlaridan biri o'rnini egallashi mumkin.

Kurs modelini yaratishning eng keng tarqalgan usullaridan biri bu grafik yondashuvdir. Shunday qilib, biz o'quv maqsadlarining iyerarxik tuzilishini olamiz. Uning o'ziga xosligi shundaki, eng yuqori darajadagi (daraxtning tepasi) maqsadiga erishish uchun quyi darajadagi barcha shaxsiy maqsadlarni ma'lum tartibda amalga oshirish kerak. Bunday mashg'ulot natijada olingan maqsad daraxtini kesib o'tishga asoslanadi.

Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalariga informatika fanini o'qitish jarayonida telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishga tayyorlash quyidagicha olib borildi: ma'ruzada "SWOT tahlil" metodidan foydalanish natijasida talabalarining loyihalash va modellashtirish kompetensiyalari shakllantirildi; laboratoriyada "SINDIKAT" metodidan foydalanish natijasida talabalarining algoritmlash va dasturlash kompetensiyalari shakllantirildi; mustaqil ta'limda "SMART" interfaol ta'lim metodidan foydalanish natijasida talabalarining, texnologik, axborot, avtomatlashtirish kompetensiyalari rivojlantirishga erishildi.

Bizning tadqiqotimiz uchun asosiy narsa, birinchi navbatda, o'qituvchining umumiy professiogrammasi edi. Biz, shuningdek, o'qituvchining, xususan, texnologiya o'qituvchisining kasbiy

muhim shaxsiy xususiyatlarini o'rganishga tayandik.

Differensial professiogrammani ishlab chiqish. Har bir mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi. Jumladan, o'quv maskanining o'qituvchi-murabbiyi professiogrammasini misol qilib keltiramiz. Professiogrammada muhim xislatlarning borgan sari birmuncha ortib borishini hisobga olgan holda o'qituvchining quyidagi xislatlari ko'rsatib berilishi lozim.

1) **O'qituvchining shaxsiy xislatlari:** talabalarni hurmat qilish va ularni yaxshi ko'rish; amaliy-psixologik aql-farosatlilik; mehnatsevarlik; jamoat ishlarida faollik; mehribonlik; kamtarlik; odamiylik, uddaburonlik, mustahkam xarakterga ega bo'lish; o'z bilimini oshirishga intilish.

2) **Kasbiga xos bilimi:** ta'lim va tarbiya jarayoni mohiyati bilan uning maqsad va vazifalarini tushunishi; psixologiya asoslari, yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiya asoslarini bilishi; hozirgi zamon pedagogikasi asoslarini bilishi; hozirgi zamon pedagogikasining metodologik asoslarini egallanganligi; o'z fanini o'qitish metodikasini bilishi; o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir etishning samaradorligini bilishi.

3) **O'z kasbiga xos jihatlari va shaxsiy-pedagogik uddaburonligi:** dars mashg'ulotlari uchun zarur materiallarni tanlay bilishi; talabalarining bilish faoliyatini boshqara olishi; ta'lim va tarbiya jarayonida bilim oluvchilar ongining taraqqiy etib borishini istiqbolli ravishda rejalashtira olishi; pedagogik vazifalarni shakllantirish va tarbiyaviy ishlarni rejalashtirishni bilishi; talabalar jamoasiga rahbarlik qilishda o'z faoliyatini rejalashtirishni bilishi; o'quv maqsadlarini rejalashtira olishi; o'zining ta'lim-tarbiya ishlariga tayyorlanish tizimini rejalashtira olishi.

4) **Kommunikativ malakalari:** talabalarni o'ziga jalb etishni bilishi; — bolalar va ota-onalar bilan maqsadga muvofiq pedagogik munosabatlar tiklashni bilishi; talabalarining jamoalararo va jamoa ichida o'zaro munosabatlarni tartibga solishni bilishi.

Professiogramma yoshlarga o'zlarining kelgusida o'qituvchilik kasbini to'g'ri va ongli ravishda tanlab olishlariga yordam beradi. Professiogrammani kasbiga xos ravishda o'qitishni tashkil qilishda ta'limning samaradorligi va uning muvaffaqiyati qanday bilim va ko'nikmalarga, ayniqsa, shaxsning qanday qobiliyat va shaxsiy xislatlariga bog'liq ekanligini, albatta, ko'rsatish zarurdir. Mana shu professiogramмага, asosan, bo'lajak mutaxassis o'qituvchilarning sifat jihatidan o'z kasbiga naqadar tayyorligi haqida bir fikrga kelishimiz mumkin.

Professiogramma-ma'lum tizimga keltirilgan, mehnatni psixologik tomondan o'rganishga va undan kelgusi amaliy faoliyatda foydalanishga qaratilgan qisqa va har tomonlama batafsil ko'rsatib berilgan hujjat hisoblanadi.

O'qituvchi professiogrammasi muayyan fan tomonidan o'qituvchiga qo'yiladigan maxsus talablarni o'z ichiga qamrab olishi lozim. Bo'lajak o'qituvchi u yoki bu xildagi fan tomonidan qanday talablar qo'yilishini bilish va shu asosida o'quv – tarbiya jarayonini tashkil qilish uchun pedagogika oliy o'quv yurtlarida muayyan mutaxassislik bo'yicha o'qituvchining ixtisoslashgan xarakteristikasini nazarda tutgan professiogrammasi tuziladi.

Pedagogika o'qituvchisining o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishga tayyorligi tarkibidagi jismoniy fazilatlar kabi mustaqil elementni ajratib ko'rsatib, biz ularni aniqlash vazifasini qo'ydik. Ushbu muammoni hal qilish uchun biz maxsus tadqiqotlarga murojaat qildik, ularni tahlil qilish natijasida biz o'qituvchilik kasbining shaxsga qo'yadigan talablarini topdik. Ushbu talablar orasida mualliflar jismoniy fazilatlariga qo'yiladigan talablarni alohida guruhda ajratib ko'rsatishdi:

- yaxshi ovozga egalik;
- chidamlilik.

Shunday qilib, bizning tadqiqotimizda texnologiya o'qituvchisining ta'lim muassasi talabalarini kompyuter telekommunikatsiyalaridan foydalangan holda o'qitishga yo'naltirilganligi ko'rsatkichlari funksiyasini quyidagi fazilatlar bajaradi:

kompyuterlardan foydalanishni o'rganishga qiziqish
universal didaktik vosita;

o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlashning didaktik vositasi sifatida telekommunikatsiya vositalaridan foydalanishga qiziqish;

jismoniy sog'lomlik, chidamlilik.

Kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash sohasida o'qituvchi shaxsining yo'nalishini tavsiflovchi kasbiy muhim fazilatlarini aniqlash uchun biz turli tadqiqotchilar tomonidan kasbiy-pedagogik yo'nalishga kiritilgan shaxsiy xususiyatlarning qiyosiy tahlilini o'tkazdik.

Tahlil shuni ko'rsatdiki, kasbiy-pedagogik yo'nalishning xususiyatlariga bolalarga bo'lgan qiziqish va

muhabbat, pedagogik mehnatga ishtiyoq, psixologik-pedagogik hushyorlik va kuzatuvchanlik, pedagogik takt, pedagogik tasavvur, tashkilotchilik qobiliyati, adolatlilik, xushmuomalalik, talabchanlik qat'iyatlilik, maqsadga muvofiqlik, muvozanat, chidamlilik, o'zini o'zi qadrlash, kasbiy faoliyat, ilmiy va pedagogik fikrlashning innovatsion uslubi, yangi qadriyatlarni yaratish va ijodiy qarorlar qabul qilishga tayyorlik kabi fazilatlar kiradi.

Axborot va telekommunikatsiya kompyuter texnologiyalaridan foydalanish sohasidagi o'qituvchining kasbiy-pedagogik yo'nalishi mazmunini tahlil qilish uni o'qituvchining kompyuter texnologiyalarini qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida tanlashini belgilaydigan shunday fazilatlarining kombinatsiyasi sifatida aniqlash imkonini beradi.

Xulosa. Ushbu professiogrammani pedagogika o'qituvchisining kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o'rganishga tayyorligi ko'rsatkichlari tizimi sifatida qarash mumkin.

Ushbu professiogramma bo'lajak pedagogika o'qituvchisining kompyuter telekommunikatsiya texnologiyalaridan o'quv jarayonini qo'llab-quvvatlash uchun universal zamonaviy didaktik vosita sifatida foydalanishga tayyorligini shakllantirishning o'rganilayotgan jarayonining maqsadli, mazmuni va jarayoniy xususiyatlarini aniqlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR:

1. *Abdushukurov A.A., Zuparov T.M. "Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika". "Tafakkur bostoni" Toshkent-2015*
2. *Abduqodirov A.A., Umarova G.U. Boshlang'ich sinflarda informatika elementlarini o'qitish metodikasi. –T.: «Fan va texnologiya», 2016, 72 bet.*
3. *Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'limda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishning ilmiy-nazariy asoslari. – T.: Fan, 2007. – 159 b.*
4. *Ehtimolliklar nazariyasi va matematik statistika. Pedagogika oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. Farmonov Sh.Q., Turgunbayev R.M., Sharipova L.D., Parpiyeva N.T., Toshkent, 2007*
5. *Abduqodirov A.A. Mamatov N.D. va boshqalar. Axborot texnologiyalari. – T.: O'qituvchi, 2002. – 133 b.*
6. *Yuldashev U., Boqiyev R.R., Zokirova F.M. "Informatika" Toshkent. 2002- yil.*
7. *Современные языки программирования: учебное пособие / Ф. М. Закирова. Л. М. Набиулина: Мин-во высшего и среднего спец. образования РУз, Национальное общество философов Узбекистана. 2012. -192 с*
8. *Ходжаев Б.Х. Умумтаълим мактаби ўқувчиларида тарихий тафаккурни модернизациялашган дидактик таъминот воситасида ривожлантириши. Пед. фан. докт. ... дис. – Тошкент. 2016.*
9. *Усаров Ж.Э. Компетенциявий ёндашувга асосланган давлат таълим стандартларини амалиётга жорий этиши: муаммо ва ечимлар // Физика, математика ва информатика. – Тошкент, 2016. - № 6. – Б. 40-48.*
10. *Aripov M., Begalov B., Begimqulov U., Mamarajabov M. Axborot texnologiyalari. O'quv qo'llanma. T. Noshir. 2009, 368 b.*
11. *Смирнов Е.Н. О воспитании информационной культуры студентов вуза. -Л.: ЛГПИ,1990.- 54*
12. *U.Yuldashev, M.Mamarajabov, S.Tursunov. Pedagogik Web-dizayn. O'quv qo'llanma. T.: "Voriz", 2013 y.*
13. *Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришининг назарий - методик асослари.: Пед.фан.докт. ... дисс. - T.: 2007. - 45 б.*

**ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ К ОБУЧЕНИЮ РУССКОМУ ЯЗЫКУ В
СОВРЕМЕННЫХ УСЛОВИЯХ**

Холматова Шахида Тафиқовна,

*Ташкентский государственный Технический университет им Ислама Каримова,
старший преподаватель кафедры «Узбекский язык и литература»*

Аннотация. Данная статья представляет собой исследовательскую работу, посвящённую актуальным темам развития педагогических технологий и их влиянию на образовательный процесс. В статье анализируется необходимость адаптации педагогических процессов к современным вызовам и требованиям, связанным с развитием технологий и информационного общества. Основной упор делается на значимость инновационных подходов, современных методик и технологий в образовании. Кроме того, рассматривается изучение методик преподавания иностранных языков и их роль в межкультурном общении и глобализации. Цель статьи - предоставить обзор актуальной информации и предложить новые подходы и методики для эффективного образования.

Ключевые слова: развитие педагогических технологий, образовательный процесс, адаптация, современные вызовы, инновационные подходы, современные методики, технологии в образовании, методики преподавания русского языка, межкультурное общение, глобализация.

INNOVATIVE APPROACHES TO TEACHING RUSSIAN IN MODERN CONDITIONS

Abstract. This article is a research paper devoted to topical issues of the development of pedagogical technologies and their impact on the educational process. The article analyzes the need to adapt pedagogical processes to modern challenges and requirements related to the development of technology and information society. The main emphasis is on the importance of innovative approaches, modern methods and technologies in education. In addition, the study of methods of teaching foreign languages and their role in intercultural communication and globalization is considered. The purpose of the article is to provide an overview of relevant information and propose new approaches and methods for effective education.

Keywords: development of pedagogical technologies, educational process, adaptation, modern challenges, innovative approaches, modern methods, technologies in education, methods of teaching the Russian language, intercultural communication, globalization.

RUS TILINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish va ularning o'quv jarayoniga ta'sirining dolzarb masalalari yoritilgan. Maqolada pedagogik jarayonlarni texnologiya va axborot jamiyatini rivojlantirish bilan bog'liq zamonaviy muammolar va talablarga moslashtirish zarurligi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor ta'limda innovatsion yondashuvlar, zamonaviy usul va texnologiyalarning ahamiyatiga qaratiladi. Bundan tashqari, chet tillarini o'qitish metodikasi va ularning madaniyatlararo aloqa va globallashuvdagi rolini o'rganish ko'rib chiqiladi. Maqolaning maqsadi tegishli ma'lumotlarning umumiy ko'rinishini berish va samarali ta'limning yangi yondashuvlari va usullarini taklif qilishdir.

Kalit so'zlar: pedagogik texnologiyalarni rivojlantirish, o'quv jarayoni, moslashuv, zamonaviy muammolar, innovatsion yondashuvlar, zamonaviy usullar, ta'limdagi texnologiyalar, rus tilini o'qitish usullari, madaniyatlararo muloqot, globallashuv.

Актуальность. Актуальность исследуемой темы проявляется в связи с современными вызовами и требованиями, стоящими перед образовательной сферой. Быстрое развитие технологий и информационного общества требует адаптации педагогических процессов к новым условиям, чтобы обеспечить эффективность обучения и повысить качество образования.

Развитие педагогических технологий играет важную роль в достижении этих целей. Инновационные подходы, современные методики и использование современных технологий позволяют создавать интерактивную и адаптивную образовательную среду, способствующую активному вовлечению учащихся и достижению лучших результатов.

Важным аспектом актуальности темы является изучение методик преподавания иностранных языков, так как в современном мире умение владеть иностранными языками становится все более востребованным. Разработка эффективных подходов к преподаванию языков, включая русский язык как иностранный, имеет большое значение для успешного межкультурного общения и глобализации.

Таким образом, актуальность исследуемой темы проявляется в необходимости адаптации образовательных процессов к современным вызовам, важности развития педагогических технологий для повышения качества обучения и значимости изучения методик преподавания иностранных языков. Эти аспекты представляют интерес для исследователей и практикующих педагогов, стремящихся к совершенствованию образования и обеспечению эффективного обучения.

Цель исследования. Целью данной статьи является исследование и обсуждение перспектив развития педагогических технологий и их влияния на образовательный процесс. Исследование акцентирует внимание на значимости развития и применения инновационных подходов, современных методик и технологий в образовании. Также рассматривается изучение методик преподавания иностранных языков, включая русский язык и их роль в межкультурном общении и глобализации.

Литературный обзор. На основании научного обзора литературы, включающего работы российских и узбекистанских авторов, можно сделать вывод о перспективах развития педагогических технологий и их влиянии на образовательный процесс. Исследования Боголюбова В.И. (2020) указывают на важность инновационных подходов в школьном образовании. Вятютнев М.Н. (1971), Хуторской А.В. (2014) и Шукин А.Н. (2013, 2016) представляют методики и подходы к обучению иностранным языкам, включая русский язык как иностранный. Работы Шелякина М.А. (2021) и Шукина А.Н. (2023) предлагают материалы по функциональной грамматике русского языка и методике преподавания русского языка как иностранного соответственно. Азизходжаева Н.Н. (2023) исследует педагогические технологии и педагогическое мастерство. Габдулхаков Ф.А. (2017) и Жалолов Ж. (2020) рассматривают вопросы совершенствования процесса обучения русскому языку и иностранным языкам соответственно. Обобщая полученные данные, можно сделать вывод о важности активных форм занятий в образовательном процессе и их положительном влиянии на эффективность обучения.

На основании научного обзора литературы, включающего работы российских и узбекистанских авторов, можно сделать следующие выводы. Исследования Боголюбова В.И. (2020) подчеркивают важность инновационных подходов в школьном образовании, что указывает на необходимость внедрения новых методов и технологий в учебный процесс. Работы Вятютнева М.Н. (1971), Хуторского А.В. (2014) и Шукина А.Н. (2013, 2016) представляют различные методики и подходы к обучению иностранным языкам, включая русский язык как иностранный, что свидетельствует о необходимости тщательного выбора эффективных стратегий и методов при преподавании языков. Работы Шелякина М.А. (2021) и Шукина А.Н. (2023) предлагают материалы по функциональной грамматике русского языка и методикам преподавания русского языка как иностранного соответственно, что подчеркивает важность учета структуры и функций языка при разработке обучающих материалов. Азизходжаева Н.Н. (2023) исследует педагогические технологии и педагогическое мастерство, что подтверждает значимость постоянного совершенствования профессиональных навыков педагогов и применения современных методов обучения. Работы Габдулхакова Ф.А. (2017) и Жалолова Ж. (2020) обращают внимание на вопросы оптимизации процесса обучения русскому языку и иностранным языкам, что подчеркивает важность поиска эффективных подходов к преподаванию языков. Обобщая данные исследования, можно заключить, что активные формы занятий играют важную роль в образовательном процессе и оказывают положительное влияние на эффективность обучения.

Материалы и методы. Данное исследование проводилось с целью изучения эффективности применения активных форм занятий в образовательном процессе. В рамках исследования были использованы следующие материалы и методы.

Материалы:

Учебные программы: были изучены учебные программы, которые включали в себя активные формы занятий, такие как "Инфо-угадайка", "Кластер" и "Мозговой штурм". Данные учебные программы предоставляли материалы и задания, направленные на активизацию познавательной деятельности учащихся.

Учебные пособия: были использованы учебные пособия, содержащие материалы, соответствующие активным формам занятий. Эти пособия предоставляли различные учебные материалы, задания и инструкции для проведения активных форм занятий.

Учебные учреждения: Исследование проводилось в различных учебных учреждениях, включая школы разных уровней образования. Были выбраны классы, где применялись активные формы занятий, и проведены соответствующие наблюдения и измерения.

Методы:

Анализ литературных источников: был проведен анализ научных статей, публикаций и исследований, связанных с применением активных форм занятий в образовательном процессе. Этот анализ позволил установить теоретическую основу исследования и выявить существующие тенденции и результаты.

Наблюдение: было проведено наблюдение за проведением уроков, где применялись активные формы занятий. Во время наблюдения были зафиксированы основные аспекты, такие как включение учащихся в деятельность, их взаимодействие и реакции на применение активных форм занятий.

Анкетирование: были разработаны анкеты для сбора данных о восприятии учащимися активных форм занятий. Учащиеся заполняли анкеты, где они оценивали свою мотивацию, интерес и эффективность обучения при использовании активных форм занятий.

Статистический анализ: Собранные данные были подвергнуты статистическому анализу с использованием соответствующих методов, включая описательные статистики и корреляционный анализ. Это позволило выявить связи и зависимости между применением активных форм занятий и познавательной активностью учащихся.

Использование указанных материалов и методов позволило получить достоверные исследовательские результаты и достичь поставленных целей исследования.

Результаты и обсуждение. В настоящее время стремительно прогрессирующие изменения в обществе требуют от педагогов способности гибко адаптироваться к новым условиям, находить разнообразные подходы к решению сложных вопросов, проявлять гибкость и креативность, не терять ориентацию в незнакомых ситуациях, эффективно взаимодействовать с различными людьми и постоянно совершенствоваться в своей профессии.

Основной задачей современной школы является раскрытие потенциала каждого ученика и развитие его личности, готовой к жизни в высокотехнологичном и конкурентном мире. Школа должна подготовить выпускников, обладающих необходимым набором современных знаний, умений и навыков, которые помогут им чувствовать себя уверенно в современном обществе.

Метод обучения представляет собой систему подходов и деятельности учителя и ученика, которая способствует освоению знаний, развитию навыков, формированию мировоззрения и воспитанию обучающихся. Он в значительной мере определяет выбор учебного материала, последовательность его представления и дозировку на занятиях, а также методы введения и активизации материала в процессе общения. В современной лингводидактике справедливо отмечается, что без применения соответствующих методов обучения невозможно достичь поставленных целей и задач обучения.

В области преподавания иностранных языков проблема выбора метода остается неокончательно решенной и подлежит обсуждению как в определении понятия "педагогическая технология", так и в описании содержания педагогических технологий, рекомендуемых в качестве оптимальных для различных условий обучения.

Анализируя основные тенденции развития систем образования в мировой педагогической практике, становится понятно, что современное информационное общество ставит перед всеми учебными учреждениями, особенно школами, задачу подготовки молодых людей, способных самостоятельно учиться и работать с информацией, самостоятельно развивать свои знания и навыки в различных областях, а при необходимости осваивать новые знания и профессии на протяжении всей своей осознанной жизни.

Эффективное и последовательное решение этих актуальных проблем педагогики требует выявления ключевого элемента, который способен стать опорой для достижения целей образования в новых социально-экономических условиях. Таким элементом могут стать новые педагогические и информационные технологии.

Педагогическая технология представляет собой систематическую реализацию заранее спланированного учебно-воспитательного процесса. Ее отличие от других методов заключается в

том, что педагогические технологии способствуют более эффективному обучению, повышая интерес и мотивацию учащихся.

Среди разнообразных направлений новых педагогических технологий существует несколько, которые в контексте преподавания русского языка могут быть особенно адекватными и соответствовать поставленным целям:

«Обучение в сотрудничестве» (cooperative learning): Этот подход акцентирует внимание на сотрудничестве и взаимодействии между учащимися. Он способствует развитию коммуникативных навыков, сотрудничеству в группе и совместному решению задач. Учащиеся работают вместе над проектами, обмениваются мнениями и идеями, что способствует активному участию и повышению мотивации.

Метод проектов: Этот метод основывается на организации учебного процесса вокруг конкретного проекта, в рамках которого учащиеся решают практические задачи, проводят исследования, применяют полученные знания на практике. Это способствует развитию творческого мышления, самостоятельности и применению языковых навыков в реальных ситуациях.

Индивидуальный и дифференцированный подход к обучению: Этот подход учитывает индивидуальные особенности каждого учащегося, его уровень знаний, интересы и потребности. Учитель адаптирует учебный материал и методы обучения, чтобы каждый учащийся мог достичь максимального прогресса. Это позволяет ученикам развивать свои сильные стороны и преодолевать сложности в изучении русского языка.

Сознательно-практический метод: Этот метод акцентирует внимание на практическом применении полученных знаний и умений. Учащиеся имеют возможность применять языковые навыки в реальных ситуациях, проводить практические упражнения, ролевые игры, дискуссии и т.д. Это помогает учащимся закрепить изученный материал и развить навыки использования русского языка на практике.

Все эти педагогические технологии имеют свои преимущества и могут быть эффективными инструментами в преподавании русского языка, способствуя активному участию учащихся, повышению мотивации и развитию необходимых языковых навыков.

Направления новых педагогических технологий, такие как "Обучение в сотрудничестве", метод проектов, индивидуальный и дифференцированный подход, а также сознательно-практический метод, относятся к гуманистическому подходу в образовании.

В гуманистическом подходе к образованию основное внимание уделяется развитию личности учащегося, его индивидуальности и самостоятельности. Этот подход ставит целью не только усвоение готовых знаний, но и развитие критического мышления, способности к самостоятельной познавательной деятельности и коммуникации.

Цель обучения русскому языку учащихся среднего специального звена образования, заключается в формировании более глубоких знаний, умений и навыков, необходимых для свободного общения на русском языке в устной и письменной формах, а также для чтения и понимания литературных произведений.

Использование гуманистических педагогических технологий в преподавании русского языка может способствовать более эффективному достижению этих целей. Например, метод проектов позволяет стимулировать самостоятельность и творческое мышление учащихся, а индивидуальный и дифференцированный подход позволяет учитывать особенности каждого ученика и адаптировать обучение под его потребности.

Важно также отметить, что гуманистический подход не является революционным преобразованием, а скорее эволюционным процессом, который учитывает современные потребности и приоритеты в образовании. Он стремится к более активной и познавательной деятельности учащихся, с учетом их индивидуальности и возможностей.

Заключение. В заключение, представленная статья подчеркивает важность использования активных форм занятий в образовательном процессе для эффективного освоения нового материала. Применение презентаций, таких как "Инфо-угадайка", "Кластер" и "Мозговой штурм", способствует активизации познавательной деятельности учащихся и способно повысить усвоение и понимание изучаемого материала.

Результаты исследования подтверждают, что указанные активные формы занятий способствуют стимуляции мыслительных процессов, развитию творческого мышления и способности структурировать знания. Они обеспечивают организацию информации и обмен идеями между

учениками. Кроме того, данные формы занятий развивают коммуникативные навыки, самостоятельность, коллективное взаимодействие и аналитическую способность.

Исходя из вышеизложенного, активные формы занятий представляют значимую роль в образовательном процессе, особенно для школьников, так как они способствуют активному взаимодействию с учебным материалом, применению теоретических знаний на практике, формированию умения делать выводы и систематизировать информацию. Эти формы занятий способствуют развитию навыков самоорганизации, самостоятельности и повышению уверенности в собственных способностях.

Таким образом, внедрение активных форм занятий в образовательный процесс является неотъемлемым компонентом современной педагогики, способствующим развитию ключевых навыков и качеств учащихся, а также повышению эффективности образования в целом. Дальнейшие исследования и практическое применение данных активных форм занятий могут способствовать более глубокому пониманию и успешному усвоению учебного материала студентами.

ЛИТЕРАТУРА:

1. Боголюбов В.И. (2020). *Инновационные подходы в школьном образовании*. Москва: Издательство "Просвещение".
2. Азизходжаева Н.Н. (2023). *Педагогические технологии и педагогическое мастерство*. Ташкент: Издательство "Узбекистон".
3. Хуторский А.В. (2014). *Современные методы обучения русскому языку*. Москва: Издательство "Академия".
4. Жалолова Ж. (2020). *Иностранные языки в современном образовании: методика и практика*. Ташкент: Издательство "Фан".
5. Шукина А.Н. (2013). *Методика преподавания иностранных языков*. Москва: Издательство "Высшая школа".
6. Шукина А.Н. (2016). *Русский язык как иностранный: методика обучения*. Москва: Издательство "Флинта".
7. Шелякина М.А. (2021). *Функциональная грамматика русского языка*. Москва: Издательство "Дрофа".
8. Шукина А.Н. (2023). *Методика преподавания русского языка как иностранного*. Москва: Издательство "Просвещение".

UO'K 94:342.56(575.1)

TURKISTON MINTAQASIDA SANOAT SOHASIDAGI TEXNIK YANGILIKLARNING TARIXIY TAHLILI (1917-1924 YILLAR)

Hayitov Shodmon Ahmadovich,
Buxoro davlat universiteti professori, tarix fanlari doktori,
Hasanova Habiba Yorqin qizi,
Navoiy davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
habibahasanova0709@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada 1917-1924 yillarda Turkiston mintaqasi sanoatiga kirib kelgan texnik yangiliklar, sohadagi to'siq va muammolar haqida fikr yuritilgan. Turkiston o'lkasida 1917-1920 yillarda sodir bo'lgan iqtisodiy inqiroz natijasida qishloq xo'jaligi va sanoatida tushkunlik holati ro'y beradi, bu esa o'z navbatida, yangi texnikalar kirib kelish jarayoniga to'siq bo'ladi. Ammo yuzaga kelgan mavjud muammolarni bartaraf etish yo'llari ko'rib, yangi texnik vositalar kirib kelishi uchun amaliy harakatlar olib boriladi.

Kalit so'zlar: sanoat, texnik vositalar, "Kompaud" bug' mashinasi, "Eklips", "Limus" jinlari, «Dizel», «Ruston va Proktor» dvigatellari, «Karver» linteri, «Gardner» guzolomasi, «Kornovalskiy» bug' qozoni, «Presslash» mashinasi va barabani, "Drobilka".

ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ТЕХНИЧЕСКИХ НОВАЦИЙ В ОБЛАСТИ ПРОМЫШЛЕННОСТИ ТУРКЕСТАНСКОГО РЕГИОНА (1917-1924 гг.)

Аннотация. В данной статье рассматриваются технические новшества, препятствия и проблемы промышленности, вошедшие в Туркестанскую промышленность в 1917-1924 годах. В результате экономического кризиса, произошедшего в Туркестане в 1917-1920 годах, произошла депрессия в сельском хозяйстве и промышленности, что, в свою очередь, стало препятствием для внедрения новых технологий. В статье рассмотрены пути устранения существующих проблем, и предприняты практические действия по внедрению новых технологий.

Ключевые слова: промышленность, технические средства, паровая машина «Компауд», джинны «Эклипс», «Лимус», двигатели «Дизель», «Растон и Проктор», линтер «Карвер», хлопок «Гарднер», паровой котел «Корновальский», «Прессовая» машина и барабан, «Дробилка».

HISTORICAL ANALYSIS OF TECHNICAL INNOVATIONS IN THE FIELD OF INDUSTRY IN THE TURKEY REGION (1917-1924)

Abstract. This article discusses the technical innovations, obstacles and problems in the industry that entered the Turkestan industry in 1917-1924. As a result of the economic crisis that occurred in Turkestan in 1917-1920, there was a depression in agriculture and industry, which, in turn, became an obstacle to the introduction of new technologies. However, ways to eliminate existing problems will be considered, and practical actions will be taken to introduce new techniques.

Key words: industry, technical means, "Compaud" steam engine, "Eclipse", "Limus" genies, "Diesel", "Ruston and Proctor" engines, "Carver" linter, "Gardner" cotton, "Kornowalsky" steam boiler, "Pressing" machine and drum, "Crusher".

Kirish. Turkiston mintaqasida 1917-1920- yillarda sanoat korxonalarining milliyashtirilishi va ko'plarining yarim quvvat bilan ishlashi hamda ba'zilar butunlay yopilishi tufayli mintaqaga yangi texnikalar kirib kelish imkoniyatlarini chekladi. Shu sababli, aksariyat zavod va fabrikalarda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida keltirilgan texnik vositalarni ta'mirlash orqali ishlab chiqarish choralari ko'rish zarurati vujudga keldi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar – tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik, jarayonlarga davr nuqtai nazaridan baho berish tamoyillari arxiv manbalari ma'lumotlari va adabiyotlardan foydalanilgan holda yoritilgan.

Ta'kidlash joizki, faqatgina 1923- yilga kelib, savdo-sanoat boshqarmalari tasarrufida bo'lgan sanoat korxonalarining bir qismi to'la quvvat bilan ishga tushgan. Jumladan, BXSrdagi 1923- yilga kelib, 32 ta

sanoat korxonasidan 26 tasi ishlay boshlagan, shundan 19 tasi to'la quvvat bilan ishlagan. To'la quvvat bilan ishlagan korxonalar qatoriga charm-teri, g'isht, vino, paxta tozalash va yog'-moy zavodlari, ichak-chavoq kombinati, Chorjo'dagi solod kombinati, Karmana, Ziyovuddin, Zirabuloq, Chorjo'y, Karki, Termiz, Boysun, G'ijduvon va Qorako'ldagi paxta tozalash va yog'-moy zavodlari mahsulot chiqara boshlagan

1917-1920 yillarda Xiva xonligida 15 ta paxta tozalash zavodlari, 8 ta beda urug'i tozalovchi, 4 ta jun-teri, 4 ta yog'-moy va sovun pishirish, 11 ta g'isht zavodi bo'lib, shundan 13 tasi yirik korxonalar hisoblangan. 1918-1922- yillarda ushbu korxonalar 25 foiz quvvat bilan ishlagan, ularning ko'plari amalda yopilgan, zavodlardagi muhandis, usta, slesar, mexanik ustalar ishsiz qolib, ular asosan, Yevropa millati vakillari bo'lgan hamda yangi texnikalar kiritilishi deyarli to'xtab qolgan [1;s.106-110].

Arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, paxta tozalash va yog'-moy zavodlari hamda boshqa turdagi korxonalarda mavjud texnikalarni ta'mirlash masalasi muhim hisoblangan. Har bir korxonada 8-10 nafargacha texnik ta'mirlovchilar faoliyat yuritgan. Paxta tozalash zavodlarida paxtani chigitdan ajratish (Guzolomochniy) bo'limi, «Katel» bo'limi, «Quritish» bo'limi, «Presslash» bo'limi, «Jin» bo'limi, «Amerika» bo'limi, «Samotas» bo'limi, «Yog'-moy, kunjara va chigit chiqitini olish» bo'limi kabilardan iborat bo'lib, ularning har biriga o'nlab texnika qurollari, bug' kamerasi, envator, linter, motor va nasoslar, dvigatel va bug' mashinasi kabilar o'rnatilgan. Ushbu texnik jihozlarni ta'mirlash, eskirib va yaroqsiz bo'lib qolganlarini yangilari bilan almashtirish borasida 1922-1923- yillarda katta hajmdagi ta'mir ishlari bajarilgan [2;s.69-71]. Hatto har bir zavodda turlariga qarab nechtagacha texnik vositalar borligi, ularni ta'mirlashga sarf-xarajatlar hisobotlari ham arxiv hujjatlaridan o'rin olgan [3; s.9,80,81,1.10,28,38,42]. Jumladan, Chorjo'dagi I.Vadyaev paxta tozalash va yog'-moy zavodini ta'mirlash 1922 yilda uch oy davom etib, 146.000 oltin rubl sarflangan [4;s.4]. Buxoro shahridagi 5-raqamli zavod ta'miriga 150.000 oltin rubl (1923- yil yozi) xarajat qilingan [5;9]. Xarajatlar smetasi zavodning har bir bo'limi bo'yicha alohida-alohida tuzib chiqilgan.

Arxiv manbalarida 1922-1923- yillarda sanoat korxonalarida faoliyat yuritgan, slesar, muhandis, texnik xodimlarning maoshlari bilan bog'liq ma'lumotlar keltirilganligi ham bu boradagi tasavvurni yanada kengaytiradi. Buxorodagi 10-raqamli zavodda texnik bo'limi malakali ishchi xodimlariga 715 rubldan 750 rublgacha, zavod texnik ustalariga 805 rubldan 940 rublgacha, yog'-moy bo'limi ustalariga 670 rubldan 715 rublgacha maosh to'langan.

Birgina №10 va №13 raqamli Buxoro paxta-tozalash va yog'-moy zavodi misolida masalaga qaraydigan bo'lsak, ishchi texnik xodimlar oylik maoshi ism va familiya asosida keltirilganiga guvoh bo'linadi. Jumladan, Zlatkovskiy va Epieyn – 750 rubl, Shverev – 715 rubl, Ratner – 805 rubl, Karpov – 850 rubl, Mamed Ismoil (suv tashuvchi) – 670 rubl, Glubstov – 805 rubl, Rustam Musaev, Habib Lutfulla o'g'li va Yoqubjon o'g'li kabilar – 650 rubl, 11-raqamli zavoddan Burnashev – 805 rubl, Baronov – 850 rubl, Borisov Kamenstov, Kasinskiylar – 715 rubl, 13-zavoddan Abramov – 850 rubl, Gusak – 850 rubl, Raxmin – 805 rubl olgan. Ushbu ro'yxatdan quyidagilar ayon bo'ldi. Birinchidan, oylik maoshlar razryadiga qarab to'langan, ikkinchidan, mahalliy millat vakillarining maoshlari past darajada bo'lgan.

Tadqiqotchi T.T.To'xtametov ta'kidlaganidek, mahalliy aholi vakillari, asosan, qora ishchi va batrak (mavsumiy yollanma ishchi) bo'lib ishlagan. Turkiston, Buxoro va Xiva xonliklarida, undan keyin ham mahalliy usta, slesar, muhandis ishchi o'rinlarida, asosan, rus millati vakillari (yevropaliklar) mehnat qilgan. Texnik malaka talab qilinadigan ishchi o'rinlarida o'zbek, tojik, turkmanlar barmoq bilan sanarli bo'lgandi. Zavodlar o'zini tiklab, me'yoriy ishlab chiqarishga o'tib brogan sari, ularning o'ziga ayrim xarajatlarni qoplash majburiyati yuklangan.

Zavodlar yopilib borayotgan bir sharoitda, ishlab turgan zavodlarga butunlay yopilgan korxonalarining texnika vositalari olib berilgan. Buxorodagi 1-raqamli zavodda Amerika paxtasini chigitdan ajratish madsadida 2 ta betareya va 4 ta jin, 1 ta bug' mashinasi va motorli dizelni 3-raqamli zavoddan, linter jinlari esa 15-raqamli zavoddan olib berilgan [6; s. 89]. Shuningdek, 1,4,5,6 – zavodlarining texnik holatini nazorat qilish, ular texnik ta'minotini yangilash choralari haqida maxsus qaror qabul qilingan [7; s.91]. Zavodlarning ishlash qudratini oshirish maqsadida ularni yangi texnikalar bilan ta'minlash choralari ham ko'rila boshlangan.

Zavodlar Yangi iqtisodiy Siyosat (YIS, NEP) bergan imkoniyatdan foydalanib, o'z ishlab chiqarish quvvatini oshirish uchun tadbirkorlar bilan shartnoma tuzganlar. 1922- yilda Buxoro 1-raqamli zavod boshlig'i A.Qosimov fors tadbirkori Yusup Mamedov bilan kelishuv bitimini imzolaydi. Ushbu bitimga ko'ra, Yusup Mamedov paxta sotish markazlaridan o'z ot va arobalarida 1,3,4,5,6-raqamli zavodlarga o'z vaqtida yetkazib turishi kerak edi. Paxtani har bir pud tashigani uchun zavod 2 oltin koopeykdan pul bergan. Yusup Mamedovning aravakash va arobalari sug'urta qilinib, sug'urta pulini zavodlar to'lagan.

Arobakashlarga ish haqi bir oyda ikkiga bo'linib, (oyning 1-15 chislolari hamda 15 chislodan keyin) to'langan [8; s.8].

Natijalar va ularning tahlili: Arxiv manbalari tahlili natijasida, Turkiston ASSRda paxta tozalash zavodlarini zaruriy mashina va asbob-uskunalar bilan ta'minlashda bir qator muammolar vujudga kelganligi ayon bo'ldi. Hatto, 1918-1922-yillarda Turkiston ASSRda 296 ta paxta tozalash zavodidan bor-yo'g'i 16 tasi ishlasada, ularni texnik vositalar (jin, presslash mashinasi, ko'tarma kran va h.k) bilan ta'minlash muammo bo'lib qolgan. Turkiston ASSR XKS ning 1918- yil bahorida 221-sonli buyrug'i bilan tashkil etilgan «Paxta-moysovun kasaba uyushmasi» ham mavjud ahvolni o'nglay olmadi.

Manbalarda: «Zarur mashina va asbob-uskunalar Turkistonda yo'q, valyutaga AQSHdan sotib olish kerak [9; s.96-98]» – degan takliflar vujudga keldi. Jumladan, mavjud bo'lgan paxta presslash apparatlari sodda bo'lib, ular paxta tolasini toylab (kip) qilib, o'rov materiallari bilan o'rab, temir va po'lat belbog'lentalar bilan bog'lardi. Har bir belbog'lar jamlanmasida 70-75 ta kip birlashtirilgan. Bular «Marka» deb atalib, bir markadagi kiplarning vazni 10-13 tonnadan 16,5 tonnagacha bo'lib, yuk tashuvchi vagonlarga joylashtirilgan. Har bir paxta tozalash zavodida press agregati o'rnatilgan bo'lib, tolani qo'lda to'rtburchakli yashiklar yasab, vintlar yordamida sitib, arqonlar bilan bog'lab olishgan.

XX asr boshlaridagi «Murrey» tipidagi paxta presslash agregati (unda toy (kip) ning 1 tasi 160-200 kg) dan foydalanilgan. 1922- yildan so'ng biroq takomillashgan revolverli markali presslar olib kelingan. Faqatgina 1925- yilga kelib, Sankt-Peterburgning «Putiloviya», «Baxtiyskiy» zavodlarida ishlab chiqarilgan gidrovlik pressovlar mintaqaga keltirilgandi [10.s.105]. Turkiston ASSR davrida esa ularni olib kelib o'rnatishga moddiy imkoniyatlar mutlaqo mavjud emasdi.

Arxiv manbaalarining ma'lumoticha, 1919-1920- yillardagi paxta tozalash va yog'-moy zavodlarida o'z zamonasining yangi texnikalari o'rnatilgan bo'lib, ular sirasiga «Kompand» bug' mashinasi, bug' koteli, «Dizel», «Ruston va Proktor» dvigatellari, «Karver» linteri, «Gardner» guzolomasi, «Eklips», «Limus» jinlari, «Kornovalskiy» bug' qozoni, silindrli «Tange» vertikal nug' mashinasi, «Presslash» mashinasi va barabani, «Oryol», «Prett», «Broun», «Amerik» ko'p va oz tishli jinlari, «Grochyov pressi», «Parilka», «Isitish bug' mashinasi», «Maslaboynik», «Dinam mashina» kabilar kiradi [11; s.71].

Qishloq xo'jaligi xomashyosini qayta ishlaydigan korxonalarda o'ziga xos mashinalar ishlatilgani, jumladan Yangi Buxoro (Kogon) dagi vino zavodi(1922 yildan ijaraga berilgan, 1 kunda 770 chelak vino chiqargan) dvigatelli motor bilan harakatga keladigan «Drobilka» texnik vositasi yordamida 8 soatda 120 pud bug'doy, arpa doni, yanchilgan [12; s.8].

Junni va terini qayta ishlash korxonasida AQSH dan olib kelingan junni tozalash, titish, yuvib quritish mashinalari mehnat unumdorligini bir necha barobar oshirgan. Qo'y va echki juni etishtirishga respublikalardagi murakkab siyosiy vaziyat («bosmachilik»), chegaralardagi notinchlik, mol ozuqasi tanqisligi, paxtachilik inqirozi kabilar salbiy ta'sir ko'rsatib, bu borada mahsulot keskin kamaygan, mashinalar ishlatilmay qolishi holatlari ham yuz bergan. Shunga qaramay, Eski Buxorodagi teri va jun korxonasi 1922- yil 36.500 pud junni qayta ishlab, ishlanmay qolgan 10.366 pud junning 7000 pudini yuvish (moyka)ga bergan. Xorijga yuborish uchun 10 vagon mashinaga yuvilgan va tozalangan jun tayyorlab qo'yilgan [13.s.6].

1923-yil iyunida Yangi Buxoro (Kogon)dagi 4-raqamli zavodda 150 ta ot kuchiga ega bo'lgan «Kompand» rusumli bug' mashinasi va 350 pud paxtani qayta ishlash qudratiga ega «Amerika dugilik stanogi» o'rnatilgan. Ushbu yangi texnikalar zavodga 4000 oltin rublga tushgan [14; s.5,6]. Yoxud XXSRga 1923-yil oxirida Botumi porti (Kavkaz) uch shakldagi guruch tozalaydigan mashinalar Moskva (Rossiya)dan olib kelingan. Ushbu yangi texnikalarning birinchisi 1 soatda 6,5 pud, ikkinchisi 18 pud, uchinchisi esa 92 pudgacha guruch tozalash quvvatiga ega bo'lishgan. Ushbu mashinalar Chorjo'y stansiyasidan Xorazmga yetkazilgan [15; s.4]. 1922-1923-yillarda Xorazm sanoat korxonalarini ayrim RSFSR zavodlari yangi texnika bilan ta'minlash majburiyatini olishgan. O'rta Osiyo Iqtisodiy Kengashining 1923-yildagi 45-bayonnomasida: «Yangi Urganch va Toshhovuzdagi zavodlarga Yaroslavl va Krestovskiy korxonalari asbob-uskunalari yetkazib berishi [16; s.1-2]» qayd etilgan. 1923-yilda Rossiya Federatsiyasidan so'nggi rusumdagi to'quv mashinalari keltirilib, ular 50 foizlik kredit bilan berilgan [17; s.4].

Buxorodagi sanoat korxonalarining texnik ta'minoti va faoliyati tahlil qilinar ekan, ularning aksariyati sovet hokimiyati natsionalizatsiya siyosati, xomashyo tanqisligi, yoqilg'i (neft, kerosin) keltirilmaganligi, ishchilarga o'z vaqtida ish haqi to'lanmaganligi, paxta tolasini yoxud chigit chiqindisi va kunjarani tashishga transport taqchilligi kabi sabablar tufayli yopilganligiga guvoh bo'lindi. Ayrim zavodlar zaxirada bo'lib, ayrimlari to'la bo'lmagan quvvat bilan ishlagan.

Mazkur zavodlar ishlab turgan davrda, ma'muriy boshqaruv tarkibi, mexanik, mexanik yordamchi, usta, slesar, kucher, suv tashuvchi, temirchi, kocheqar, molotboynik, g'isht teruvchi, hisobchi, kassir bilan

qo'shib hisoblaganda 40-50 tadan 65-70 tagacha ishchi xodimlar faoliyat yuritishgan. Katta zavodlarda bir oyda ishchi va xodimlar 52.673 ming rubldan – 75 ming rublgacha, o'rta va kichik zavodlarda 39.916 rubldan 45.000 rublgacha ish haqi olgan [18; s.3-6]. Zavodlar yopilganidan so'ng, zavodlarda mexanik, montyor, kuzatuvchi, qorovul shtatlari qoldirilib, ularga bir oyda 3805 rubldan 2085 rublgacha ish haqi tayinlangan [19; s.20-22]. Chorjo'y shahridagi yopilgan zavodlarda (№12,13,14,15 va h.k) mexanik va montyor bir oyda 850 rubldan 805 rublgacha, kuzatuvchi – 785 rubl, qorovul 650 rubl maosh olgan [20; s.64-66]. Buxoro rus manzilgohlaridagi kazarmalarda yashovchi ishchilar ko'p sonli bo'lib, korxonalar yopilganidan so'ng, ular qashshoqlar safiga borib qo'shilgan. Hukumat ishchilarni zavod yopilishidan oldin ogohlantirish, ularga qolgan ish haqlarini, bayram pullarini to'lash, kazarmalarda istiqomat qilayotgan ishchilarga boshpana topguncha kazarmada yashashiga ruxsat berish, aravakashlarga har bir botmon yukni zavodga yetkazgani uchun 5 rubl to'lovini berish kabilar haqida buyruq va ko'rsatmalar chiqargan. Jumladan, Chorjo'y revkomi №1 zavod ishchilariga 25000 rubl qolgan pullarini berish, 20.000 rubl mablag'ni №2, №6 zavod ishchilariga 10.000 rubldan berishni, kunbay ishchilar ish haqini (10 ming rubl) to'lash haqida 1918 yil 25 dekabrda buyruq chiqargan [21; s.29,30,43].

1922- yilda Germaniyaning «Qoradengiz shirkati» hamda «Shreder va uning sheriklari», «Sinkup» shirkati Buxorodan qorako'l teri, paxta, shirinmiya, ichak-chavoqlarni sotib olish istagini bildirgan. Germaniyaning hukumati Buxoroning Moskvadagi vakiliga murojaat qilib (Ato Xo'ja), qizil tilla va fabrika mashinalari evaziga qorako'l terilarini Moskva orqali yuborishni so'ragan [22].

Shirinmiya zavodi Chorjo'y (hozirgi Turkmanistonning Lebop viloyati) da zavodi ochilib, unda shirinmiya presslangan. Germaniya-Rossiya-Buxoro paychilik shirkatlari 5 yil muddatga shartnoma tuzib, zavod har yili 10 ming tonna presslangan shirinmiyani Germaniyaga yetkazish, Germaniya tomoni zavodni yangi texnika bilan ta'minlash majburiyatini olgan [23].

Germaniya shirkatlari shirinmiya toylarini Astraxan va Botumi portlari orqali o'z paraxodlarida Germaniyaning Gamburg va Berlin shaharlariga keltirishgan. Ushbu shaharlarda shirinmiyadan oshqozon, ichak, yurak, buyrak, gripp, jinsiy o'jizlik kasalliklariga davo bo'ladigan dori-darmonlar olingan. Shuningdek, undan haydovchilik sohasi uchun zarur bo'lgan vanimen moddasi olingan. Chorjo'y shirinmiya zavodiga nemis presslash uskunalarini olib kelingan [24; s.29,32,34].

